



SAN'AT VA MADANIYATNING  
MUHIM MASALALARI

**YOSHLAR NIGOHIRA**

TOSHKENT - 2021

UO'K 7:008(063)

S – 30

**To'plovchi va muharrir:**  
Shavkat DO'STMUHAMMAD

**S – 30            San'at va madaniyatning muhim masalalari yoshlar nigohida** [Matn] : konferensiya materiallari / jamoa. – T.: «Firdavs-Shoh», 2021. – 312 b.

ISBN 978-9943-66-97-5-8

*Ushbu to'plamdan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti magistrantlarining o'z mutaxassisliklari doirasida yozgan ilmiy maqolalari o'rinn olgan.*

UO'K 7:008(063)

ISBN 978-9943-66-97-5-8

© San'at va madaniyatning muhim masalalari  
yoshlar nigohida, 2021  
© «Firdavs-Shoh» nashriyoti, 2021

# SAN'AT VA MADANIYAT SOHASIDAGI YOSHLARGA BO'LGAN G'AMXO'RLIK NING YUksAK NAMUNASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, barcha sohadagi hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirmoqda.

Buyangilanishlarni madaniyatvasan'atrivojiga, ijodahligaqaratilayotgan yuksak e'tibor misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, 2020-yil 26-may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish bo'yicha farmonni imzoladi. Unga ko'ra, 15-aprel – O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni deb e'lon qilindi.

Joriy yilning 1-yanvaridan boshlab madaniyat va san'at sohasida bir qancha istiqbolli rejalar ning hayotga tatbiq qilinishi belgilangan, shu jumladan, konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash, yagona onlayn portalning joriy etilishi, bir martalik ruxsatnoma berish uchun undiriladigan yig'imning bekor qilinishi, ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlari har yili tasdiqlanadigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining kalendar rejalarini asosida o'tkazilishi singari ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan.

Ta'kidlab o'tish joizki, Yurtboshimiz tomonidan yosh olimlar, mustaqil tadqiqotchilar hamda magistratura bosqichi talabalarini yanada qo'llab-quvvatlash borasida ularning ilmiy tadqiqot olib borishlari uchun ko'plab imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda. O'tgan yil oxirlarida ilk bor tashkil etilgan O'zbekiston Yoshlar forumida davlatimiz rahbari o'z nutqida Uchinchi Renessans, yosh volontyorlar faoliyati, yoshlar bilan ishlash bo'yicha Toshkent tajribasi, "Yoshlar: 1+1" dasturi, Yoshlar kichik sanoat zonalari, "Yoshlar murojaati" elektron platformasi, tadbirkorlikka o'qigan yoshlarga 4 foizlik kreditlar, yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash va shu kabi yoshlarga oid dolzarb muammolarga to'xtalib o'tdi.

"Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yanamiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz.

Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar", – degan nutqlari yoshlarning ilm yo'lidan borishiga har tomonlama qo'llab-quvvatlamoqda. Buni nafaqat ma'naviy jihatdan dalda ekanini, balki moddiy jihatdan ko'rsatilayotgan rag'batlar misolida ham ko'rib turibmiz. Xususan, izlanuvchan yosh yigit-qizlarni yanada rag'batlantirish maqsadida eng yaxshi ilmiy ishlanmalar uchun "Yosh olimlar" innovatsion loyihibalar tanlovi e'lon qilingan bo'lib, uningumumiyligi qiymati 30 milliard so'mdan ortiqdir. Yana bir misol sifatida shuni aytish mumkinki, 2021-yildan boshlab maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalari o'tasida "Bo'lajak olim" tanlovini tashkil etilishi belgilab berildi, mazkur tanlovda esa yoshlarning eng yaxshi innovatsion hamda startap loyihibalariga 50 milliard so'm mablag' ajratilishi ham aytib o'tildi.

Bu kabi islohotlar yurtimiz hududidagi barcha ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalarini qamrab olib, kelajakda yoshlar orasida ilmiy salohiyati yuksak olimlar, tajribali kadrlaryetishibchiqishiga asos bo'laoladi. Ayniqsa, madaniyat va san'at yo'nalishi talabalarini va magistrantlarining zo'r ishtiyoq bilan ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borishlari uchun juda katta imkoniyat hisoblanadi. Ilm-fan sohasining gullab-yashnashi uchun amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar negizida Vatanimiz taraqqiyoti asosiy ko'zlangan nuqta hisoblanadi. Bu esa bugungi yoshlarni teran mushohada qilishga hamda madaniyat va san'at yo'nalishi bo'yicha yetuk kadr bo'lib, yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq etib, xalq manfaati uchun faoliyat ko'rsatib, ajdodlarga munosib avlod bo'lib yetishishiga zamin yaratmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan yoshlar siyosatiga taalluqli Qaror va Farmonlar zamirida kelajak avlod salohiyati, bilimi, qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan sport, ilm-fan, adabiyot, san'at, madaniyat va boshqa sohalarda dadil qadam tashlab, imkoniyatlardan unumli foydalangan holda jamiyat uchun nafi tegadigan mutaxassis bo'lib voyaga yetayotgan kelajak egalari hisoblangan yoshlarga bo'lgan g'amxo'rlikning yuksak namunasi o'z in'ikosini topgani shubhasizdir.

**Ibrohim Jo'rayevich Yuldashev,**  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori,  
filologiya fanlari doktori, professor*

**Shavkat Do'stmuhammad o'g'li Bobomurodov,**  
*1-kurs "Teatr san'ati" mutaxassisligi magistranti*

**Ilmiy rahbar:** san'atshunoslik nomzodi, professor Rizayev A.Z.

## **O'ZBEK TEATR SAN'ATIDA ZAMONAVIY USLUBIY TAJRIBALARING AHAMIYATI**

### **Annotatsiya**

Maqolada o'zbek teatr san'atida zamonaviy uslubiy tajribalarning shakl, mazmun va g'oyaviy jihatlari, teatr san'atida zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati haqida so'z boradi.

### **Аннотация**

В статье рассматриваются форма, содержание и мировоззренческие аспекты современной методической практики в узбекском театре, значение современных технологий в театре.

### **Annotation**

The article discusses the form, content and ideological aspects of modern methodological practices in Uzbek theater, the importance of modern technologies in theater.

### **Kalit so'zlar**

Gogramma, gografika, zamonaviy uslub, ijodiy eksperiment, yangi estetik tamoyillar.

### **Ключевые слова**

Гограмма, гография, современный стиль, творческий эксперимент, новые эстетические принципы.

### **Key worlds**

Holoaram, holography, modern style, creative experiment, new aesthetic principles.

**O**'zbek teatr san'atida ham g'oyaviy, ham shakl jihatidan yangicha uslublar tajribadan o'tkazilayotganini kuzatishimiz mumkin. Dastlab teatr san'atida zamonaviy uslub deganda ko'z oldimizga keladigan gografik texnomahsulotlar haqida so'z yuritamiz.

Gogramma teatri maxsus multimedya namoyishlari va an'anaviy spektakllar bilan hamohanglikdan tashqari qorishiq shaklda ham jahon teatr san'atida tajribadan o'tmoqda. Dastavval bu texnologiya turli konsertlar, tadbirlar, konferensiya va shu kabi maxsus yig'inlarda

namoyish etilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu texnomahsulotdan teatr san'atida ham unumli foydalanilmoqda. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi davlatlarda golografik teatr sohasida birmuncha muvaffaqiyatlarga erishildi. 2018-yilda Rossiyada ham ilk golografik teatr o'z spektaklini namoyish etdi. Uning boshqalardan farqi, spektaklda jonli aktyorlar rolini ham virtual aktyorlar ijro etadi.

Markaziy Osiyoda gologramma teatri spektakli namoyishi ilk bor O'zbekistonda bo'lib o'tdi. Yoshar ittifoqi hamda "Hologram World" teatri hamkorligida Yoshlar ijod saroyida namoyish etilgan "Amir Temur" gologramma spektaklini rejissyor Sanjar Matkarimov vizual sahnaga olib chiqdi. Amir Temur rolini iqtidorli aktyor Rahimjon Do'sanov, Bibixonimni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ra'no Shodiyevalar mahorat bilan ijro etishdi. G'oya muallifi Murodilla Alimboyev ushbu fikr Xitoy Xalq Respublikasida bo'lib qaytgan O'zbekiston delegatsiyasiga namoyish etilgan gologramma spektakli ta'sirida paydo bo'lganini ta'kidlagan.

Bu tajribaning O'rta Osiyo bo'yicha dastlab yurtimizda o'tkazilgani, albatta, quvonarli hol. Ammo bu – multimedia imkoniyatlari va an'anaviyteatrning hamohang namoyishlario'laroq, haqiqiy-xorijdagi kabi qorishiq shakldagi virtual gologramma teatrini mukammalroq o'rganishni talab etadi. Bu talabning omillarini bir qator effektiv gologramma imkoniyatlarida ko'rishimiz mumkin [1.35-bet].

Biz buni teatr san'atidagi shakliy taraflama yangilikka intilish deb qabul qilganimiz o'laroq keyingi yillarda mavzu va g'oya jihatidan yuzaga kelgan evrilish haqida ham to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Mustaqillikning ikkinchi o'n yilligi orasida dramaturgiyamiz tez rivojlanan boshladi. Ham dramaturglarimiz, ham rejissyorlarimiz ijodida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Asarlarimiz ham tarixiy, ham zamonaviy mavzuda yozilarkan, ko'pchiligidan insonni ulug'lash g'oyasi, vatanga mehr va sadoqat, qadriyatlarimizga hurmat, ertangi kunimizga ishonch tarannum etilgani, maishiy mavzudagi asarlar son jihatidan ham, sifat jihatidan ham ko'p bo'ladimi yo'qmi baribir ular ham tomoshabinlar tomonidan iliq kutibolinayotgani quvonarli bo'ldi. To'g'ri, ijtimoiy mavzudagi asarlar ham kam emas, ularda ham g'oya ustuvorligi seziladi. Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan, insonlar

ongiga salbiy ta'sir etadigan voqealarga, hodisalarga qarshi kurash voqeasi ko'rsatilayotgan asarlar ko'pligi ham seziladi. Yozilayotgan asarlarning ko'pchiligi sahnayuzini ko'rayotgani, tomoshabinga havola etilayotgani yaxshi, ammo muhokamalar, ya'ni asarlarga taqrizlar juda kam e'lon qilinayotgani esa, afsuski, bugungi kun muammolaridan biriga aylanib qoldi [2. 51-bet].

Bundan ko'rinaridiki, turli mavzuda, jumladan, tarixiy va zamonaviy, maishiy-ijtimoiy mavzularda asarlar sahnalashtirilmoqda va bu asarlar orasida o'zini oqlagan har jihatdan yetuk badiiy ijodiy mahsulotlar ham ko'plab uchraydi. Qolaversa, jahon adabiyoti namunalari ham yangicha ijodiy uslublarni yuzaga chiqarishga sabab bo'ladi. Jumladan, Bertolt Brextning "Tanlangan dramatik asarlar" kitobiga E.Muxtorov yozgan so'zboshisi orqali fikrimizning yaqqolroq isbotini topishimiz mumkin.

Brex dramatrgiyasi nafaqat g'oyaviy teranligi, balki badiiy mohiyati bilan dolzarbdir. Uning butun teatr estetikasi singari pesalarining badiiyligi teatr ifodaviyligining yangi shakllarini, aktyorlik ijro usullarini, teatr va tomoshabinning o'zaro aloqasining yangi tamoyillarini kashf etishga yo'l ochadi.

O'zbek teatrining estetik makoni kengayishi endilikda muhim badiiy va madaniy vazifadir. Uning hal qilinishida Bertolt Brex dramaturgiyasining alohida betakror o'rni bor. Bu borada teatrlar o'z ijodiy hissasini qo'shishiga umid qilish kerak. Hozirda o'zbek teatr san'ati istiqbolli ufqlar sari intilayotgan bir paytda nafaqat to'plangan tajribani saqlab qolish, balki uni jahon teatr san'atida qo'lga kiritilgan yangi estetik tamoyillar hamda e'tiborli yutuqlarini o'rganish hisobiga boyitish hamda kengaytirish nihoyatda zarurdir [3. 12-bet].

Yuqorida shakliy jihatlar haqida gap ketdi. Shaklan yangi uslub izlanishi haqida so'z borarkan, bu xususiyatning bugungi kun tomoshabini uchun ham g'oyat ahamiyatli ekanini alohida ta'kidlash lozim.

Nigora Umarovaning "Arshin mol olan" – 3D f ormatda yoxud keljak teatriga sayohat" nomli maqolasida: "Yaxshi, saviyali tomoshabin yo'q. Shuning uchun ham teatrlar o'z repertuarlarini tomoshabinbop asarlar qo'yishga mo'ljallamoqda, degan gaplarni eshitish odatiy holga aylanmoqda. Qaysidir jihatdan teatr

marketingida bu gap ham to‘g‘ridir. Bugungi globallashuv asrida teatr san‘ati ham dunyo bo‘yicha “o‘z tovar”ini iste’molchi – tomoshabinga o‘tkazish uchun talab va taklif qonuniga bo‘ysinishi kerakdir...” deyiladi. Muallif teatr va tomoshabin munosabatlari, spektakl sahnalashtirish jarayonlarida interaktiv xususiyatlar haqida yaxshi fikrlar bildirib o‘tgan. [4. 19-b.]

Darhaqiqat, global intellektual evrilishlar davrida, albatta, teatr san‘ati ham davr tarozisiga munosib palla bo‘lmog‘i, tafakkur darajotlariga yetib bora olmog‘i va yetib borish uslublarini topa bilmog‘i lozim bo‘ladi. So‘nggi yillardagi izlanishlar ham ayni shu muddaolarni ko‘zlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek teatr san‘atida zamonaviy uslubiytajribalar natijasi o‘lar oq ham shaklan, ham g‘oyaviy, ham mavzu jihatlari, eng muhimmi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash bilan bir qatorda bugungi kun tomoshabininini qiziqtiradigan mavzularni tanlay olish g‘oyat muhimdir. O‘tkazilayotgan eksperimentlar natijalarini inkor etmagan holda aytishimiz mumkinki, teatrni bugungi kun tomoshabininining qiziqishlari darajasiga chiqarish uchun tinimsiz izlanish va mehnat talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Teatr” jurnali, 2020 yil 4-son, 35-bet.
2. M. To‘laxo‘jayeva, T. Qozoqboyev. Drama nazariyasi. T.: Fan va texnologiyalari markazi. 2014. 51-bet.
3. Bertolt Brecht. Tanlangan dramatik asarlar. T.: San‘at jurnali nashriyoti. 2012. 12-bet.
4. “Teatr” jurnali, 2020 yil 3-son, 19-bet.

**Shirin Inomxodjayevna Asqarova,**  
*1-kurs “Folklor va etnografiya” mutaxassisligi magistranti*  
**Ilmiy rahbar:** San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa (PhD)  
doktori, dotsent v.b. Turg‘unova.N.M.

## FOLKLOR MUSIQA IJROCHILIGIDA MUSIQIY SAVODXONLIK MASALALARI

### **Annotatsiya**

Maqolada folklor musiqa ijrochiligining ta’lim tizimidagi talabalar nota savodxonligi va ularga tegishli mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda takliflar haqida so‘z boradi.

### **Аннотация**

В статье речь идёт о предложениях по нотной грамотности студентов в системе обучения в исполнении фольклорной музыки и предотвращению существующих недостатков.

### **Annotation**

In this article they say about the suggestion of note literacy of students in the system of education in the singing offolklore music and prevention existing disadvantages.

### **Kalit so‘zlar**

Folklor,musiqa, nota,fortepiano, solfedjio, qo’shiq, ijro,ekskursiya.

### **Ключевые слова**

Фольклор,музыка, нота, фортепиано, сольфеджио, песни, исполнение, экскурсия.

### **Key words**

Folklore,music,note, piano, solfedjio,songs, execution, excursion,.

*Ayni vaqtida hozirgi globallashuv davrida tijorat vositasiga aylangan “Ommaviy madaniyat” shou-biznesning salbiy ta’siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog‘i bo‘lgan folklor san’atiga e’tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san’ati, ta’bir joiz bo‘lsa, bu – insoniyatning bolalik qo’shig‘idir.*

**Shavkat Mirziyoyev**

**F**olklor san’ati va uning an’analari, qo’shiq va raqlaribir necha ming yillik boy tarixga egadir. O‘zbeklar jahondagi eng qadimiy madaniy an’analarga ega bo‘lgan xalqlardan biri hisoblanadi.

Xalqimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilib, sayqal berilgan moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalarining ildizlari juda olis zamonalarga borib taqaladi. Ajdodlarimiz o'z ota-bobolari tomonidan yaratilgan bebaho milliy folklor an'analarini o'z badiiy tafakkuri mahsuli bilan boyitib, yanada rivojlantirganligi uchun ham o'zbek xalqining milliy an'analari avloddan-avlodga o'tib, takomillashib, hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda.

Folklor san'atini o'rganish uning tarixiga kirib borishdan boshlanadi. Milliy xalq og'zaki ijodimizning eng qadimgi va yorqin namunasi tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari hisoblanadi. Mazkur asarga olimning xalq og'zaki ijodi namunalaridan saralab olingan maqol, matal, qo'shiq va boshqa janr elementlari kiritilgan bo'lib, bundan tashqari, muallif shoir deya e'tirof etgan Koshg'ariyning o'z she'rlari ham o'rinni olgan. Jumladan, olim asarining bir o'rinda shunday maqolni keltiradi: Otasi meva yeydi, bolasining tishi qamashadi. Ya'ni otalar qilayotgan ayb farzandlarga daxl qiladi, ularning ham hayotiga ta'sir o'tkazadi. Yoki yana bir o'rinda shunday maqol keladi: Ovchi qancha ov bilsa, ayiq shuncha usul biladi. Ya'ni ovchi ayiqni ovlashning qancha ko'p yo'llarini bilsa, ayiq ham qochishning shunga yarasha usullarini egallagan bo'ladi. Ushbu noyob folklor namunalari bugungi kun folklorshunosligida g'oyat qadrlı hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda folklor san'atiga berilayotgan e'tibor hech kimga sir emas. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan chiqarilayotgan bir qator farmon va qarorlarsan'at va madaniyat sohasining yanada rivojlanishiga, shu jumladan, yoshlarga asl holida yetkazishga xizmat qiladi. Bilamizki, jamiyatning taraqqiy topib borish jarayoni o'sha millatning san'ati, uning turmush tarzi, urf-odatlarini qay darajada qadrlashi va uni asrab-avaylashi, undan samarali foydalana bilmog'i bilan belgilanadi. Bunda biz tor ma'nodagi texnika taraqqiyotini emas, keng qamrovli uyg'onishni, tom ma'nodagi renessansni nazarda tutyapmiz.

Demak, folklor nafaqat san'at, balki insoniyatning madaniy tarixidir. Shu o'rinda alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

to‘g‘risida” PQ № 4038-sonli qarori qabul qilindi. O‘zbek mumtoz va folklor san’atining noyob namunalarini, o‘ziga xos ijro maktablari va an’analalarini asrab-avaylash va rivojlantirish tizimi yaratildi. O‘zbek milliy maqom san’ati markazi va muzeyi tashkil etildi. Har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san’ati anjumani hamda Xalqaro baxshichilik san’ati festivalining o‘tkazilishi noyob merosimizning nufuzini jahon miqyosida oshirish yo‘lida muhim amaliy qadam bo‘ldi.

Erishilayotgan bu kabi qator yutuqlar soyasida qolib, ko‘pchilikning e’tiboriga hadeganda tushmayotgan bir qator kamchiliklar ham borki, mazkur tadqiqotimizda yutuqlar bilan bir qatorda ushbu hal etilishi lozim bo‘lgan muammolarni keltirib o‘tishni, ma’naviy mudroqlik tendensiyasida qolmaslik va’jidan o‘z mulohaza va takliflarimizni bildirishni lozim topdik. Jumladan:

*birinchidan, yosh ijodkorlarga ta’lim berishda, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilishi lozim;*

*ikkinchidan, san’at va madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablari va xalqaro standartlarga mos kelmaydi, bu esa ularning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi uchun imkon bermayapti;*

*uchinchidan, madaniyat va san’at sohasi ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarda nota savodxonligining past darajada ekanligi;*

*to‘rtinchidan, folklor va etnografiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan jonli ekskursiyalarining tashkil etilmaganligi.*

Folklor va etnografiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda nota savodxonligining past darajada ekanligiga alohida to‘xtalib o‘tishimiz joiz. Albatta, bu kamchilikni bartaraf etish uchun mutaxassislik fanlarida talabalarga pedagoglar tomonidan yanada chuqurroq bilim berib borilishi kerak bo‘ladi. Mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha yakkaxon qo‘sinqchilik, jamoa ijrochiligi va cholg‘u ijrochilik fanlari mavjud. Ushbu fanlarda nota ilmi asosiy o‘rinda turadi. Taklif berar edimki, yakkaxon qo‘sinqchilik fanida o‘rganilgan hududlarga xos qo‘sinqlarni nafaqat aytim yo‘li, balki nota orqali ham ijro etish yo‘llari bilan o‘rganish lozim deb bilaman. O‘rganuvchi nota bilan kuylaganda, uni cholg‘uda ham ijro eta oladi, jamoa bo‘lib kuylanganda esa ta’lim sifatiga erishish mumkin bo‘ladi. Ovoz sozlash mashqlarini har bir talaba o‘zi qo‘s Shimcha mashq eta olishi lozim. Buning uchun

talabalarga qo'shimcha cholg'u fortepiano va solfedjio kabi fanlardan o'quv soatlari ko'proq kerak bo'ladi. O'zi ijro etib, ovozini nota asosida sozlay olgan talaba kelajakda yetarli ijro bilimiga ega bo'lar edi.

Ushbu keltirilgan muammolarning barchasi bugungi kundadolzarb masala deb o'ylayman. Chunki folklor va etnografiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning aksariyatida nota savodxonligining juda past darajada ekanligiga guvoh bo'lamiz. Nazarimizda, buning uchun, albatta, musiqaga oid ixtisoslik fanlarida talabalarga yanada chuqurroq bilim berib borish kerak bo'ladi. Ular 4 yil davomida - yakkaxon qo'shiqchilik, jamoa ijrochiligi va cholg'u ijrochiligi kabi fanlarni o'rganadilar. Ushbu fanlarda esa musiqa savodxonligi asosiy o'rinda turadi. Biroq kuzatuvlar shuni ko'rsatyaptiki, talabalar nota o'quvida oqsaydilar. Bu kamchilikni o'z o'rniда to'g'ri yo'lga qo'yish lozim ko'rinadi. Buning uchuntalaba fortepiano fanini o'quv yilining dastlabki semestridan boshlashi juda o'rinli bo'ladi. Qolaversa, maxsus cholg'u ijrochiligi hamdayakkaxon qo'shiqchilik fanlarida o'rgangan hududlarga xos namunalarni kuylash bilan birga nota asosida solfedjio qilib ijro etish yo'li bilan o'rganish lozimdir. Ana shunda jamoa bo'lib kuylanganda ham yaxshi natijaga erishiladi. Har bir talaba esa ovoz sozlash mashqlarini o'zi mustaqil tarzda bajara olish darajasiga erishadi. Buning uchun esa fanlarni to'g'ri taqsimlash muhim o'rin tutadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, folklor san'ati talabalari uchun nota savodxonligi g'oyat muhim ekanligini inobatga olish, shundan kelib chiqib, nota ilmi mukammal o'rgatiladigan dars soatlarini ko'paytirish masalasi bugungi kun folklorshunosligiga taalluqli o'rganuvchilar uchun dolzarb masala hisoblanadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Xalqaro baxshichilik san'ati festivali" ochilishiga bag'ishlangan nutqi. T.: Xalq so'zi, 2019-yil 7-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-4038 sonli qarori.
3. Nomoddiy madaniy meros tashkiloti rasmiy sayti.

Jumagul Ibrohimjon qizi Nishonova  
1-kurs “Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: f.f.d., professor Ibrohim Jo’rayevich Yuldashev

## YOSHLAR UCHINCHI RENESSANS DRAYVERLARI

### Annotations

Ushbu maqola orqali birinchi va ikkinchi renessans tanazzuliga sabab bo’lgan jihatlarni obektiv va subektiv ochib berishga harakat qilingan. Uchinchi Renessans g’oyasini hayotiy va ta’sirchan milliy g’oyaga aylantirishni nimadan boshlamoq kerakligi haqida takliflar berilgan.

### Annotation

В этой статье делается попытка дать объективное и субъективное объяснение аспектов, которые привели к первому и второму упадку эпохи Возрождения. Были сделаны предложения относительно того, с чего начать преобразование Третьего Возрождения в жизненно важную и влиятельную национальную идею.

### Annotation

This article seeks to provide an objective and subjective explanation of the aspects that led to the first and second renaissance declines. Suggestions were made as to where to begin the transformation of the Third Renaissance into a vital and influential national idea.

### Kalit so‘zlar

Renessans, drayver, Musulmon renessansi, Sharq Renessansi, uyg‘un rivojlangan shaxs, uyg‘onish davri, to‘rtinchi sanoat inqilobi.

### Ключевые слова

Ренессанс, водитель, мусульманский ренессанс, восточное ренессанс, гармонично развитая личность, ренессанс, четвертая промышленная революция.

### Keywords

Renaissance, driver, Muslim renaissance, Eastern Renaissance, harmoniously developed personality, Renaissance, Fourth Industrial Revolution.

Bugungi kunda uchinchi Renessans atamasi juda ommalashdi. Xo‘s, Renessans o‘zi nima? “Renessans” fransuzcha so‘z bo‘lib, “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Atama sifatida

uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'limganlikda, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor ushbu atama Yevropada o'rta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan.

Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mesning 1909-yilda "Musulmon Renessansi" nomli fundamental asari chop etilgan. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to'g'risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N.N.Konrad Renessans VII-VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, Hindistonda davom etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo'g'ul istilosini tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkirab o'sganini ta'kidlaydi. U O'rta Sharq Uyg'onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho'zadi. Javoharlal Neru Boburni ham Renessansning tipik vakili, deb baholagan edi.

XV asrdan Renessans Yevropa tomonga siljidi. Bu paytga kelib Yevropa 300-350 yil davomida islom olimlari, jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz asarlarini, ayniqsa, Xorazmiy, Farg'oniy va Ibn Sino asarlarini lotinchaga o'girib, chuqur o'zlashtirib olgan edi. Yevropa Uyg'onishiga juda kuchli ta'sir ko'rsatganlardan biri Ibn Rushddir. Yevropa falsafasi va ilmiy tafakkurida XVI asr o'rtalarigacha averroizm (Ibn Rushd ta'limotiga asoslangan oqim) mavqeini saqlab turdi.

Afsuski, XVI asrning 30-40 yillarida bizda an'anaviy jamiyat uzil-kesil qaror topdi. Ilmiy-badiiy izlanishlarga ijtimoiy ehtiyoj pasayib ketdi. O'tmish yutuqlari oldida qulluq qilish, ularni ideallashtirish va faqat takrorlashga urinish, yangiliklarga salbiy munosabat shakllandi. Astasekin chuqur turg'unlik va inqiroz boshlandi. Ular noxush ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy-mafkuraviy, regional nizolar va ayirmachilik kabi sabablar bilan qo'shilib qoloq bo'lib qolishimizga, XIX asr ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizni yo'qotishga olib keldi. O'tmishdan birinchi bo'lib teran tarixiy xulosa chiqargan - jadid bobolarimiz edi. Ular taklif qilgan islohotlar millatni qayta uyg'otish, taraqqiyot tomon

burishni ko'zлади. Ammo mustabid hokimiyat jadidlar harakatini avj olmasdan bo'g'ib qo'ydi.

Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug'ullanishga to'g'ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tganimizdan keyin, uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo'ydi. Haqiqatan, tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX-XII asrlar, ikkinchisi XIV asr oxirgi choragi-XVI asr birinchi choragi.

Birinchi Renessansda yurtimizdan Farg'oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamashariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar – Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar – Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

Ikkinci Renessansda Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me'morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg'or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo'lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog'imiz zarur. Buning uchun nima qilish kerak? Uchinchi Renessans milliy g'oyaga aylanishini ta'minlashimiz zarur. Buni qanday amalga oshiramiz?

Milliy g'oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir necha so'zlarda yoki iborada mujassam ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboradir. Uxalqni o'sha maqsad yo'lida birlashtiradi, safarbaretadi. Xalq barcha sa'y-harakatlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatini unga muvofiqlashtiradi. Zarur bo'lsa, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarini, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini, ta'lim-tarbiya tizimini chuqur isloh qiladi. Milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biri, avvalo, xalqning jiqligini, birligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan, millatning oliy maqsadini, rivojlanish marralarini, mo'ljallarini umumiy tarzda aniqlaydi. Milliy g'oya turli iboralarda ifodalanishi mumkin. Lekin ifoda shaklidan qat'i nazar, xalqqa istiqbolni, ijtimoiy mo'ljalni ko'rsatishi shart. Uchinchi Renessans g'oyasi milliy ruhiyatimizga,

xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil istaydi. Uchinchi Renessans g'oyasini hayotiy va ta'sirchan milliy g'oyaga aylantirishni nimadan boshlamoq kerak? Holva degan bilan og'iz chuchimaganidek, Renessans degan bilan u sodir bo'lib qolmaydi. Buning uchun har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilishi, xalqda ruhiy ko'tarilish, qat'iy irodali intilish yuz bermog'i zarur. Avvalo, tushuncha mazmunini aniq ochib berish, aholining barcha qatlamlari, avvalo, yoshlar ongiga yetkazish kerak. O'tmish renessanslari davrida ajdodlarimiz nimalarga erishganini, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini, boshqa xalqlar, mintaqalar yutuqlari bilan taqqoslab, jahonning yetakchi madaniyatlaridan, ilmfani, san'ati va adabiyotlaridan birini, ilg'or ijtimoiy fikru qarashlarini yaratganini qisqa, lo'nda, dabdabali jumlalarsiz yoritish zarur.

Shuningdek, ularning inqiroz sabablari xolis tahlil etilmog'i lozim. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli Buyuk Ipak yo'lining to'xtab qolgani obyektiv sabablardan biri bo'lsa-da, ichki va tashqi nizolar, taxt talashishlar, ayirmachilik va uch davlatga bo'linib ketish, inson komilligi faqat insonning ichki dunyosiga qaratilib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga yetarlicha e'tibor bemaslik kabi subyektiv omillar inqirozni keltirib chiqargan asosiy sabablar edi. Tarixdan saboq olish, tegishli xulosa chiqarish uchun bu kabi g'oyalar aholi ongiga yetkazilishi kerak. Biz ko'proq avvalgi uyg'onish davrlarimizning yutuqlarini faxr bilan e'tirof etib, negadir ularning inqirozi sabablari haqida gapirishni unchalik xushlamaymiz.

Birinchi va ikkinchi renessanslarning tarixiy sharoiti va davri talablari, imkoniyatlarini haqqoniy baholab, Yangi Renessansning tarixiy sharoitlari va talablari mutlaqo o'zgacha ekanini asoslash, dalillash maqsadga muvofiq. Uchinchi Renessans to'rtinchi sanoat inqilobi bilan bir vaqtda kechadi. Shu sababdan u, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqli) iqtisodiyotni taqozo qiladi. O'z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o'tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon O'zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta'minoti bo'yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Renessans g'oyasi bilan

mafkuraviy jihatdan bog'lanishi shart. Ilmiy-texnologik ta'minot taqozosidan kelib chiqib, ta'lif-tarbiya sohasining barcha bo'g'inxilar uzluksiz isloh etib borilishi kerak.

Har bir jamiyat o'ziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Unga o'z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, e'tiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va boshqa talablar qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Jamiyat talabiga to'liq javob beradigan kishi turli davrlarda har xil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni "Tugal er", Forobiy "Fozil kishi", tasavvuf namoyandalari "Komil inson" deb ataganlar. "Har tomonlama rivojlangan shaxs", "uyg'un rivojlangan shaxs" atamalari ham qo'llanilgan.

Mustaqillikdan keyin biz shaxsga nisbatan "komil inson", yosh avlodga nisbatan "barkamol avlod" atamalarini qo'llay boshladik. Gap atamada emas. Qanday sifatni qo'llamaylik, kelajak insonini tarbiyalashda biz, avvalo, jamiyat taraqqiyoti tendensiyalarini va ayni paytda milliy ma'naviyatimiz xususiyatlarini hisobga olmog'imiz lozim. Binobarin, sun'iy intellekt va yuksak texnologiyalarga tayanadigan "to'rtinchchi sanoat inqilobi" insonga qo'yadigan talablarini oldindan modellashtirishimiz va ta'lif-tarbiya tizimini ularga moslashtirishiz kerak.

Xuddi shunday milliy identligimizni saqlab qolish uchun ona tilimizni, tariximizni, adabiyotimiz va san'atimizni yetarlichcha o'rgatishning optimal yo'llarini topmog'imiz lozim. Urf-odatlarimiz ham takomillashtirilishi va zamonaviylashtirilishi juda zarur. Ijtimoiy ongda, odamlarning xatti-harakatlarida burilish yuz berishi, yangi ideallar va qadriyatlar qaror topmog'i darkor.

Uchinchi Renessans g'oyasini o'qitish va keng jamoatchilik ongiga yetkazishda nihoyatda ehtiyyotkor bo'lish, me'yordan oshirib yubormaslik talab etiladi. Mafkuraviy ishlarda sovet davridan qolgan bir illat bor: har qanday g'oya targ'ibotini kompaniyabozlikka aylantiramiz. Bilganni ham, bilmaganni ham ertayu kech tinimsiz gapirtiramiz, odamlarning medasiga tegib qolganini sezmaymiz. G'oyaning mazmuni ba'zi jihatlarini esa beixtiyor soxtalashtirib qo'yamiz.

Dialektika qonuniga binoan me'yor buzilsa, har qanday jarayon

o'zining inkoriga aylanadi. Oddiy tilda bu "qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarish" deyiladi. 2000-yilda e'lon qilingan milliy g'oya ana shunday munosabatga uchradi. Shoshib uni ta'limning barcha bo'g'inlariga joriy qildik, lekin g'oyaning ilmiy tadqiqotiga va asoslanishiga deyarli e'tibor bermadik. Islohotlarning aniq vazifalari va sohalarning xususiyatlari bilan bog'lab, jonli mazmun bag'ishlash xayolimizga kelmadi. Natijada u mafkurabozlik domiga tushib qoldi. Uchinchi Renessans g'oyasining oraliq bosqich vazifalari aniqlanishi kerak, 2030-yilda, 2040-2050-yillarda aholi jon boshiga taxminan qancha yalpi ichki mahsulot ishlab chiqaramiz, jahon reytingida taxminan qanday o'rirlarga ko'tarilamiz. Ta'lim, madaniyat, ilm-fan sohalarida qanday ko'rsatkichlarni, marralarni zabit etamiz. Ular bo'yicha mo'ljallar belgilanishi lozim. Shunda mazkur g'oyaning safarbarlik ta'siri konkret va kuchli bo'ladi. Ammo mo'ljallar havoyi bo'lmasligi, taxminiy raqamlardan tashkil topmasligi kerak. Yangi AKT, nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, sun'iy intellekt yaratish va shu kabi yo'naliishlardagi vazifalar ham e'tibordan chetda qolmasligi zarur.

Har qanday buyuk rejalar, buyuk g'oyalilar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'lansagina hayotiylik va reallik kasb etadi. Aks holda u havoyi orzu-havasligicha qolib ketadi.

Bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston emasligi, bugungi yoshlar kechagi yoshlar emasligini barchamiz yaxshi his qilib turibmiz. Prezident biz yoshlar haqida alohida e'tibor va qat'iy ishonch bilan gapirdi. Matematika, kimyo, biologiya – fundamental fanlarni zo'r o'qitaylik, innovatsiyalarga yo'l ochaylik; yoshlarning ma'rifati, ma'naviyati bosh masalamiz, strategik vazifamiz, ustuvor yo'naliishimiz, deb ta'kidlab o'tdi. Bu islohotlarning amaldagi isbotini barchamiz ko'rib turibmiz. So'nggi to'rt yilda O'zbekistonda 43 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi. Bu yil esa oliy o'quv yurtlariga kirish uchun bir yarim millionga yaqin yigit-qizlar hujjat topshirdi. Bu degani yoshlarimizning ta'lim olishga motivatsiyasi naq 40 foizga oshdi deganidir! Ushbu o'quv yilidan yana bir yangi tizim joriy etildi: kam ta'minlangan oilalarda ulg'ayayotgan qizlarimizning bilim olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida OTMlarda ular uchun davlat grantiasosida 94 otaqo'shimchao'rinajratildi. Manasizgaiste'dodlarning

intilishlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun yaratilgan imkoniyatlarning yorqin misoli. Biz bugun "Aynan men uchinchi Rennessans bunyodkoriman" degan mas'uliyatni chuqur his etib, islohotlarga daxldorlik hissini dastlabo'zimizda shakllantirishdan boshlasak, tengdoshlarimizga shaxsiy namuna ko'rsata olsak va eng asosiysi, shu yurtning kelajagi biz ekanligimizni, uning ertangi taqdiri aynan bizga bog'liq ekanligini qalban hisqilaolsak, bu vazifalar ma'suliyatini anglasak, harakatlarimiz ham shunga yarasha bo'ladi. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda uchinchi Rennessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim".

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asari.
3. Abu Nasr Farobi "Fozil odamlar shahri" asari.
4. Alisher Navoiy "Nasoyim-ul muhabbat" asari.
5. F.B.Suyunov "Diolektika qonunlari" kitobi.
6. Wikepediya.uz sayti.



**Aziza O'tkir qizi Axmedova,**  
*1-kurs "Teatr san'ati"*  
*mutaxassisligi magistranti*

## **ZAMONAVIY YOSHLAR DUNYOQARASHI VA MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TEATRNING O'RNI**

### **Annotatsiya**

Zamonaviy yoshlar dunyoqarashini va ma'naviyatini shakllantirishda teatr san'atining o'rni beqiyos. Teatrda spektakllar namoyishi orqali tomoshabinlarga nimanidir aytadi. Teatr tomoshalari orqali inson o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, yoshlar imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Umuman olganda, teatr san'ati bugungi kun kishisini o'z hayotida sog'lom muhit tashkil etishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

### **Аннотация**

Неоценима роль театрального искусства в формировании мировоззрения и духовности современной молодежи. В театре он что-то говорит публики через постановку пьес. Через театрализованные представления человек готовится почву для небольшой коррекции, перевоспитания, реализации потенциала молодежи, ведет к совершенствованию. В целом театральное искусство – один из важнейших факторов создания здоровой среды в современной жизни.

### **Annotation**

The role of theatrical art in shaping the worldview and spirituality of modern youth is invaluable. The theatre says something to the audience through his performances in the theater. Through theatrical performances, a person prepares the ground for self-correction, re-education, realization of the potential of young people, leads to perfection. In general, theatrical art is one of the most important factors in creating a healthy environment in one's life today.

### **Kalit so'zlar**

Teatr, spektakl, yoshlar ma'naviyati, tarbiya, tomosha, jamiyat, ijodkor, pyesa, syujet, kompozitsiya.

**Y**oshlar ma’naviyati deganda, tasavvurimizda ularning xulqi, ma’naviyati va odob-axloqi gavdalanadi. Bular o’z-o’zidan ota-on a tarbiyasi, mahalla-ko’y nazorati, ilm dargohlaridan olgan ta’limu hayotiy kuzatishlar orqali shakllanadi va butun umri davomida mayoq sifatida gavdalanadi. Yana bir maskan borki, hayotning qiziqarli, ajoyibug’ aroyibotlarga boy sehrli hayoti namoyon bo’ladi. Zamonaviy yoshlarning ma’naviyatini shakllantirishda tarbiyaviy spektakllarning o’rni nihoyatda beqiyos.

Zamonaviy yoshlар deganda, ikki-uch tilni mukammal biladigan, o’z oldiga aniq va puxta rejalar qo‘ygan va bu maqsadi sari og‘ishmay harakat qiladigan tengdoshlarim, zamondoshlarim gavdalanadi.

“Teatr – tarbiya maskani. Yoshlarimizni turli mafkuraviy tahdidlar va g‘araz niyatli kuchlardan, ta’sirlardan asrab-avaylashga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashda pand-nasihat bilan kifoyalanib bo‘lmaydi.

Ezgulikni, vatanparvarlikni, insoniy fazilatlarni kamol toptirishga xizmat qiladigan amaliy ishlar qilish kerak. Ana shunday amaliy tarbiya omillaridan biri teatrdir.” Bejizga “Teatr – jamiyat hayotining ko‘zgusi”, deyishmaydi. Biror narsa o‘qishga qiziqmaydigan, qo‘liga umuman kitob olmaydigan o‘quvchilarni ham teatr orqali o‘qishga qiziqtira olish mumkin.

Yoshlarga hayot haqiqati borasidagi tushunchalarini to‘g‘ri anglatish teatr san’atining eng oliy maqsadi bo‘lib kelgan. Albatta, hayotning o‘zi yaratgan eng oliy maqsadi bor. Biroq uni yosh tomoshabinga yetkazish uchun butun boshli fidoyi ijodkorlar jamoasi bo‘lish kerak. Shu jumladan, teatr ko‘p qirrali sintetik san’at turi hisoblanadi. Teatrni dramaturgiya, rejissura, aktyorlik san’ati, musiqa, raqs, badiiy jihoz kabi komponentlarsiz tasavvuretib bo‘lmaydi. Umuman olganda, teatr san’ati ham bugungi kun kishisini o‘z hayotida sog‘lom muhit tashkil etishida muhim omillardan biri bo‘lib kelmoqda. Teatrda asosiy vazifa – tomoshabin bilan teatr o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash.

Teatrda spektakllar namoyishi orqali tomoshabinlarga nimanidir aytiladi. Bu orqali teatr ezgulik hissini yoshlarda shakllantirib boradi. Spektakl shunday ko‘rinishdirki, uning yordamida insonlar bir-birlari bilan o‘zaro ruhiy jihatdan munosabatga kirishib, o‘zaro bir-birlariga ta’sir o‘tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar.

Tan olish kerakki, agar yosh tomoshabinlar teatrlari sahnasidagi aksariyat spektakllar jiddiy, ma'naviy boy tus olsa, yoshlar ularga darhol ergashavermaydi, yosh tomoshabin ushbu tomoshani hazm qilishi qiyinroq kechadi. Shu sababdan ham, yosh tomoshabinlar teatri targ'ibot ishini eng avvalo bolalar bog'chasidan boshlash kerak, bolalarni haqiqiy qadriyatlarga va sahnaviy madaniyat bilimlariga o'rgatishlozim. Bugungikundamaktabgachata'limmuassasalaridateatr jamoalarining sahnalashtirilgan spektakllar namoyishini kuzatamiz. Asosan yangi yil, Navro'z sayllarida ularning ijodiy ishlariga guvoh bo'lamiz. Aytib o'tish joizki, kichkintoylar faqat qorboboyu qorqizlar, yalmog'izu ayiqpolvonlarning chiqishlari bilan cheklanib qolmasligi, ularga tarbiyaviy jihatdan muhimroq va saviyali kichik spektakllar namoyishi zarur. Bu borada dramaturgiyani ham mas'uliyatga chorlaymiz. Yoshlikdagi his-tuyg'ular keyinchalik shakllanib borishi sir emas. Ezgulikning, adolatning va halollikning hamisha g'olib bo'lishi, ularda tarbiyaning ijobiy tomonlari ochilishiga sabab bo'ladi. Ertak qahramonlari deymizmi yoki zamonaviy qahramonlarmi, ularni olib chiqish, o'rnak sifatida ko'rsatishimiz muhim masaladir. Shu o'rinda yosh tomoshabinlar teatri va qo'g'irchoq teatrlariga bir muncha mas'uliyatni yuklaymiz.

Xalq og'zaki ijodining eng yuksak namunalaridan bo'lmish doston va afsonalarning ma'naviyatdagi orni beqiyos. Ulardagi millatimizga xos bo'lgan ulug'vorlik, bag'rikenglik, oqillik, bunyodkorlik, yuksak g'urur va bahodirlik ifodasi kishida faxr tuyg'usini uyg'otadi. Jumladan, Sak qabilasining cho'poni Shiroq qahramonliklari ham dostonga aylanib, yosh avlod ma'naviy dunyosining boyishida nihoyatda muhim o'rin tutadi.

Teatr tomoshalari orqali inson o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, yoshlar imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Xullas, teatr asarlarni sahnalashtirishda, spektakllarni ko'rsatishda tomoshabinlarni guruhlarga ajratgan holda ba'zi bir qoidalarga rioya qilinsa, ma'lum yutuqlarga erishilardi. Jumladan:

– Yosh tomoshabinlar spektakllarda nafaqat ijtimoiy hodisalar – tashqi voqelik jihatdan, balki asarning ichki ruhiy holati va mazmunan ham o'zligini his etsin. Mazkur jarayon o'quv tarbiya dasturlarining

teatr ijodi bilan uzviyligi, ikki tomonlama aloqasi tufayli yuzaga keladi.

– Teatr ijodkorlari qahramonlarning dunyosini ochishda harakatlari, imo-ishoralar, mimika, pantomimika ustida ishtiyoy bilan shug‘ullansalar, yengil tabassum, iliq, miyig‘ida kulish, chiroyli yurish kabi mashqlarni amalga oshirsalar, tomoshabinlar bilan munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkoniyatiga erishadilar.

Bularga amal qilish orqali tomoshabinlarda yoqimli taassurot qoldirish, ularda mehr – muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish va tomosha tanlash borasida imkon tug‘diradi. Shu qatorda teatr san’ati yoshlarni ruhiy va ma’naviy jihatdan yuksaklikka erishishida, o‘ziga bo‘lgan ishonch tuyg‘usini mustahkamlanishida yordam beradi. Respublika yosh tomoshabinlar teatri tarixi, spetsifik xususiyatlari ba’zi mutaxassislarning ishlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lsa-da, biroq mazkur teatrlarning zamonaviy muammolari, talab va ehtiyojlari, yoshlar auditoriyasining o‘ziga xos jihatlari, yoshlar va teatrning bir-biriga ta’siri deyarli o‘rganilmagan. Ayniqla, ijodiy ishlarda yoshlar ehtiyojlari, intilishlari hisobga olinmayotganligi ko‘plab jiddiy oqibatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday holat teatrlarning istiqboliga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Binobarin, ilmiy tadqiqotlarda teatrlarning ijodiy faoliyati zamon talablari, tomoshabinlarning ehtiyojlari bilan bog‘liq holda keng qamrovda qaralishi zarur. Xulosa o‘rinda shuni aytish kerakki, yosh tomoshabinlar teatri yosh tomoshabinlarning auditoriyasini hisobga olgan holda bog‘cha, maktab, kollej, akademik litseylarning o‘quv dasturidagi asarlarni sahnalashtirishi maqsadga muvofiqidir. Bir tomondan o‘quv darsligidagi asarlarning sahnnaviy variantini ko‘rish o‘quvchining o‘qish jarayoni, ya’ni fan materiallarini o‘zlashtirishga olib kelsa, ikkinchi tomondan o‘quvchi bilimining yanada mustahkamlanishiga olib keladi. Boshqa tarafdan esa o‘quvchilarning teatr bilan yanada yaqinlanishiga sabab bo‘ladi. Shu qatorda o‘quv dasturidagi asarlar asosida yozilgan pyesalardagi syujet, kompozitsiyasi ko‘proq yosh avlodlar tarbiyasi va ularning hayotiga o‘xshashligi, yaqinligi, uning ta’sirida yozilganligidan darak beradi.

## KINODA MUSIQA VA BASTAKORLIK ISHI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada film ishlabchiqarishda bastakor hamda musiqaning o‘rni, musiqaning kino sohasiga kirib kelishi, rivojlanishi hamdabugungi o‘zbek filmlar uchun yaratilgan musiqalardagi kamchiliklar tahlil qilingan va kerakli tavsiyalar berilgan.

### **Аннотация**

В данной статье анализируется роль композитора и музыки в кинопроизводстве, проникновение и развитие музыки в киноиндустрии, а также недостатки в музыке, созданной для сегодняшних узбекских фильмов, и даются необходимые рекомендации.

### **Annotation**

This article analyzes the role of the composer and music in filmmaking, the penetration and development of music in the film industry, as well as the shortcomings in the music created for today’s Uzbek films, and provides the necessary recommendations.

### **Kalit so‘zlar**

Musiqa, kompozitsiya, soundtrek, bastakorlik ishi, fon musiqa

### **Ключевые слова**

Музыка, композиция, саундтрек, композиция, фоновая музыка.

### **Keywords**

Music, composition, soundtrack, composition, background music.

**B**iz film tahlil qilish jarayonida, film ssenariysi, rejissyorlik ishi, tasviriy yechim, operatorlik ishi bilan teng ravishda kompozitorlikishini hambirlamchijihatlarsifatida o‘rganamiz. Sababi filmlar ana shu komponentlardan tashkil topadi. Filmning ta’sir kuchini oshiruvchi vositalardan biri – bu musiqadir. Buning isboti sifatida ilk filmlarning ommaviy namoyishida hali filmlar ovozsiz bo‘lgan davrdayoq tayyorlik, ya’ni pianino ijrochisining ekran yonida kinoga jo‘r bo‘lganligini ko‘ramiz.

Kinoda musiqa tomoshabinlarga emotSIONAL ta’sir qiladi, film davomida tempni ushlab turadi, asar mazmunini ochishda

ko'maklashadi, qahramonlar xarakteri, ichki his-tuyg'ularini yetkazib berishda va tomoshabinlar filmni miriqib tomosha qilishida asosiy vosita hisoblanadi.

Kino yaratilganidan taxminan 30 yil o'tar-o'tmas unga musiqa kirib keldi. Kinomatografiya tarixida o'ziga xos o'ringa ega musiqa arboblari 1930-yillardan ovozli film, radio va televideniya sohalarida turli izlanishlar olib borishni boshlashdiki, ushbu jarayon bugungi kunda ham musiqa ilmiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Jahonga mashhur kompozitorlar filmlarga musiqa yozish bilan bir qatorda, ushbu jarayonni tahlil ham qildilar. Ular orasidan: D. Miyo, A. Onegger, P. Sheffer, G. Aysler, J. Anteyl, G. Manchini, D. Raksin, A. Koplend, D. Shostakovich, A. Xachaturyan, S. Prokofyev, V. Shebalin, I. Dunayevskiy, T. Xrennikov, A. Shnitke, E. Artemyev kabi bastakorlar yaqqol misol bo'la oladi. [ ]

"Film musiqasini yozish kompozitorlarga yorqin darslar beradi", deydi Shostakovich. Shu bilan birga, u bastakorning musiqiy laboratoriyasiga kinoning samarali ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

1915-yildayoq Jak Baronchelli «Pantomima, musiqa, kinematografiya» kitobida musiqaning katta ahamiyatini tan oladi. Eslatib o'tamiz, Bela Balashning dastlabki asarlari, Karol Izikovskiy, Sergey Eizenshteyn va Vsevolod Pudovkinning ilk ishlarida kinodagi ayrim muammolar bilan bir qatorda musiqa bilan bog'liq badiiy kinematografiya metodlari ham muhokama qilinadi.

Filmda musiqaning roli sezilarli o'zgarishlarga duch keldi: u faqat «musiqiy akkampanent» bo'lishdan voz kechdi; tovush sohasida yangi hodisalar paydo bo'ldi; u filmning ichki rivojlanishi bilan funksional aloqani qo'lga kiritdi; uning estetik vazifalari bilan kino sohaning vazifasi sifatida muhim rol o'ynamoqda..."[ ]

Kinouchun musiqa (ing. Film score), shuningdek, ba'zan fon musiqasi (background music, incidental music) – kino uchun maxsus yozilgan musiqiy kompozitsiyalardir. Ushbu kompozitsiyalar saundtrekning bir qismidir. Odatda, ular rejissyor va prodyuserning rahbarligi ostida bitta kompozitor tomonidan yoziladi. Boshqa kompozitsiyalar orkestr, guruh, instrumental solistlar, xoryoki qo'shiqchilar tomonidan amalga oshiriladi. Musiqalarni yozib olish va keyinchalik aralashtirish ovozli muhandis tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbek kinosiga ovozli filmlar kirib kelishi bilanoqkatta tajribaga egabastakorlar hamda kino rejissyorlar yaqin hamkorlikda ish olib bordilar. O'zbek kino san'atini yuqori cho'qqilarga olib chiqqan, "mumtoz" filmlar qatoridan joy olgan ko'plab filmlarimiz, xususan, Shuhrat Abbsovning "Mahalladaduv-duvgap" filmida bastakor Manas Leviyev, Komil Yormatovning "Alisher Navoiy", Yuliy Rayzmannning "Yer yonganda", Komil Yormatovning "Do'stlar qayta uchrashadi" filmlarida bastakor Reyngold Morisevich Gliyer, Ali Hamroyevning "Yor-yor", Shuhrat Abbsovning "Toshkent - non shahri" filmida bastakor Albert (Aleksandr) Malaxov, Yakob Protazanovning "Xo'ja Nasriddin Buxoroda" filmida musiqachilar Muxtor Ashrafiy, B. Aratovalar, Nabi G'aniyevning "Nasriddinning Sarguzashtlari", "Tohir va Zuhra" filmlarida Aleksey Kozlovskiy, Eduard Xachaturovning "To'ylar muborak", Melis Abzalovning "Chinor ostidagi duel" filmlarida Yevgeniy Shirayev, Damir Salimovning "Shum bola" filmida Rumil Vildanov kabi ko'plab mahoratli bastakorlar bilan bo'lgan ijodiy hamkorlik o'z samarasini ko'rsatmay qolmadi. [ ]

O'zbek kino san'atida musiqa juda keng va teran ma'noda aks etadi. Masalan, "Nasriddin Buxoroda", "Tohir va Zuhra" "Maftuningman", "Yor-yor", "Dilxiroj" va boshqa ko'plab filmlarimizdagi kuy va qo'shiqlar azaliy qadriyat va an'analarimizni namoyon qilganki, o'zbek xalqining turmush tarzi, kechinmalari, dardu hasrati, xursandchiligi, yoinki barcha orzu-maqsadlarini ifoda etgan.

"Tohir va Zuhra" filmida "Otmagay tong...", "Ey quyosh ko'rsat yuzingni...", "Ishq", "Zuhraxonningro'moli" kabi betakrorqo'shiqlarning ijro etilishi, "Chinor ostidagi duel" filmida Hamid Olimjon qalamiga mansub "Yor kelur", "Eng gullagan yoshlik chog'imda" she'rlari kuya solinganligi, Yolqin To'ychiyevning "Afg'on" filmida "Ilg'or", "Qo'shtor", "Dutolazgi", kabi xalq kuylaridan mohirona foydalanilganligi filmlarimizda o'zbek bastakorlarininghamda ovoz rejissyorlarining samarali mehnatlari isbotidir.

O'zbekona urf-odatlar, ko'plab xalq og'zaki namunalari, xususan, xalq qo'shiqlari to'la-to'kis aks etgan falsafiy hamda noodatiy yo'nalishda suratga olingan Qamara Kamalovaning "Yo'l bo'lsin" filmi bu borada katta tahliliy izlanishlar imkonini beradi. Film mazmunini, rejissyor ilgari surayotgan g'oyani bir ko'rishda anglash mushkul. Sababi film voqealari

to‘g‘ridan-to‘gri ko‘rsatilmay, ma’lum bir falsafiy yechimlar, xalq urf-odatlari, musiqalari orqali ochib beriladi. Filmda yangrayotgan xalq qo‘shiqlari, laparlar esa ma’lum darajada o‘z “tili”ga ega.

Yusuf Roziqovning “Olov qaridagi farishta” filmida samimiy, diltortar va film mazmuniga to‘la mos keluvchi qo‘shiqlar ijro etilgan. Ushbu filmga ishlangan saundtreklar O‘zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova tomonidan mohirona kuylangan.

Mustaqillikdan keyingi yillarda yaratilgan o‘zbek filmlaridan Ayub Shahobiddinovning “Sevinch”, “Telba” filmlari, Bahrom Yoqubovning “Fotima va Zuhra”, “Sug‘diyona” filmlari, Mirmaqsud Oxunovning “Shabnam” filmi, Murod Inog‘omovning “Farzandim”, “Panoh”, “Maktub” filmlariga ishlangan saundtreklar tomoshabinlarimizga birmuncha manzur bo‘ldi hamda ushbu taronalar o‘z muxlislarini topdi.

Afsuski, oxirgi yillarda suratga olingan ko‘plab filmlar, masalan, “O‘g‘irlanmagan kelin”, “Sevadi, sevmaydi”, “Voydod-2”, “Ahmadboy Rahmatboy”, “Ketaman dedimmi, ketaman” va boshqa ko‘plab filmlar nafaqat kompozitorlik jihatidan, balki, go‘yaviy-mazmuniy jihatdan ham ko‘pgina talablarga javob bermaydi. Ushbu filmlar yaratilganiga ko‘p bo‘lganicha yo‘q. Ammo yildan-yilga filmlar soni ko‘payib borar ekan, ularning saviyasi ham tushib ketayotganligi achinarli hol. O‘zbek kinosida ko‘zga tashlanayotgan muammolardan biri – asar mazmuniga, film voqealiklariga hamda qahramonlar xarakteri va ruhiy holatiga mos bo‘lmagan musiqalar tanlanishini ko‘rishimiz mumkin. Filmda jo‘sinqin, shiddatli musiqa yangraydi. Tomoshabin hayajonga tushishni boshlaydi, u intrigani, saspensi kutadi. Voqea emas, musiqa shiddatli tus oladiyu, musiqa ohanglariga mos voqea filmda kuzatilmaydi.

Buguno‘zbek filmlarda umumiylisobda tahlil qiladigan bo‘lsak, deyarli barcha filmlarda bastakorlar ishlaydi, ammo taxminan 60% filmlarda bastakorlar musiqa muallifi sifatida film mohiyatiga mos ravishda musiqa bastalasa, 30% filmlarda shu kungacha yaratilgan tayyor musiqalardan foydalaniladi, qolgan 10% filmlardayuqoridagi musiqalarning aralash qo’llanilishini ko‘rish mumkin. Engkatta muammo – mana shu foizlarni ko‘tarishda. Bugungi kunda bastakorlarni faqat O‘zbekiston Davlat Konservatoriysi tayyorlaydi.

Bugun yetishib chiqayotgan bastakorlar qay darajada kino san'atini tushunadi? Ushbu soha kadrlari “O'zbekkino” milliy agentligi bilan qaysi filmlardahamkorlikishlaridaqatnashmoqda? “O'zbekkino” milliy agentligida bo'libo'tadigan badiiy kengashdabugun qaysi bastakorlarni ko'rishimiz mumkin? Bu kabi savollar faqat bizning tahlillarimiz bilan cheklanib qolmasligi zarur. Bugungi kunda yosh ijodorlar, xususan, yosh dramaturg, rejissyor hamda aktyorlarni taqdirlovchi, ularni qo'llab-quvvatlovchiko'plab festivallarni ko'rishimiz mumkin. Agar yosh bastakorlar ishtirokida ko'plab tanlovlар, kinokasting hamda festivallar o'tkazilsa, kinoda o'zini sinab ko'rmagan yosh bastakorlar uchun ko'plab imkoniyatlar eshigi ochiladi. Bundan tashqari, yosh kinoijodkorlarning “Prologue” festivalida ham “eng yaxshi ssenariy muallifi”, “eng yaxshi rejissyor”, “eng yaxshi aktyor” kabi bir necha nominatsiyalar qatoriga “eng yaxshi bastakor” nominatsiyasi ham qo'shilsa, yosh bastakorlarga yanada katta ishonch berilgan bo'lardi.

Kinoijodkorlar bilan ijodiy hamkorlik, film musiqlarining birgalikda yaratilishi ham bastakor amaliy mahoratining oshishida katta turtki bo'ladi. Bunda film rejissori dunyoqarashi keng, teran fikrli bo'lishi, musiqa san'atini yaxshi tushunishi hamda musiqa filmda asosiy ta'sir etuvchi vosita ekanligini fahmlashi lozim. Agar filmda bastakorlik ishi jihatidan kamchiliklar topilsa ham bunda aybdor o'z-o'zidan rejissyor bo'ladi.

Filmda bastakor ishlashi yoki ishlamasligining asosiy sabablardan yana biri – film byudjetiga bog'liq. Agar filmda kompozitorga yaxshi haq to'lansa, u film mazmuniga mos musiqa bastalashi, o'z imkoniyatlarini to'la-to'kis ishga solishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun barcha san'at vakillari birgalikda, muntazam ravishda mehnat qilishimiz zarur. Maqsadimiz – o'zbek kino san'atini har tomonlama rivojlantirish, tomoshabin qalbida muhrlanib qoluvchi, o'zining g'oyasi, mazmuni jiatidan barcha talablarga javob beruvchi filmlarni ishlab chiqarishda ko'maklashish, tahlil va takliflarimiz bilan kino san'atiga salmoqli hissa qo'shishdir.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Kinoteatr.ru, O'zbekSovet ensiklopediyasisaytlari.
2. Киномузыка: теория технологий. [ 134 ]
3. Эстетика киномузыки Зофья Лисса издательство музыка Москва 1970.

**Azamat Aminjanovich Kurbonov,**  
*1-kurs «Ovoz rejissyorligi» mutaxassisligi magistranti,*  
**Ilmiy rahbar:** s.f.d., professor O.Q.Tojiboyeva

## OVOZ REJISSYORLIGIDA TA'LIM

### Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatimizda hamda xalqaro jamiyatda ovoz rejissyorligiga berilayotgan e'tibor, ta'lism yo'nalishlari va uning istiqbollari aytib o'tilgan. Bugungi kunda yurtimiz ta'lism strukturasida olib borilayotgan islohotlar natijasini ovoz rejissyorligi kasbida ham ko'rish mumkin. Ta'lism tizimida talabalarning chet davlatlarning oliy ta'lism muassasalarida ta'lism olib qaytayotganlari birgina «erasmus+» xalqaro loyihasida ko'rsatilgan.

### Аннотация

В данной статье рассказывается о том, какое внимание уделяется звуковой режиссуре в нашей стране, а также в международном сообществе, сферам образования и его перспективам. Сегодня результаты реформ в структуре образования в нашей стране можно увидеть в профессии звукорежиссера. В системе образования единственный международный проект «Эразмус +» показывает, что студенты возвращаются учиться в высшие учебные заведения за рубежом.

### Announcement

This article describes the attention paid to sound directing in our country, as well as in the international community, the areas of education and its prospects. Today, the results of the ongoing reforms in the structure of education in our country can be seen in the profession of voice directing. In the education system, the only international project «erasmus +» shows that students return to study in higher education institutions abroad.

### Kalit so'zlar:

Erasmus+ bu ta'lism, professional ta'lismni rivojlantirish , yoshlarni kamolotga yetkazish va sportni rivojlantirish sohalari bo'yicha Yevropa ittifoqining dasturidir. SAE –audio engineering va texnologiyalari oliy maktabi. GITR – Kino, televideniya instituti. TOEFL , IELTS - bu ingliz tilini bilish darajasini aniqlovchi imtihon. Ovoz muhandisligi.

### Ключевые слова

Erasmus+некоммерческая программа Европейского союза по

обмену студентами и преподавателями между университетами стран членов Евросоюза. SAE – школа аудиотехники и технологий. GITR – Институт кино и телевидения. TOEFL , IELTS – международная система оценки знания английского языка. Звуковая инженерия.

### Key words

Erasmus+ a non-profit program of the European Union for the exchange of students and teachers between universities of the EU member states. SAE – School of Audio Engineering. GITR – Film & television school. TOEFL , IELTS – International English Language Testing System. Sound engineering.

**B**ugungi kunda mamlakatimizda ovoz rejissyorligi kasbini professional kasb darajasida o'rgatish va yoshlarning bu kasbga bo'lgan qiziqishlarini hisobga olgan holda, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, O'zbekiston davlat konservatoriysi va Toshkent axborot texnologiyalari universitetlarida ovoz rejissyorligi va ovoz operatorligi bo'limlari tashkil etilgan. U yerda malakali professor-o'qituvchilar o'z vazifalarini yuqori darajada olib bormoqdalar. Bunga misol qilib, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini aytib o'tishni lozim deb bilaman. Ushbu institutda yuqori saviyadagi professor-o'qituvchilar talaba yoshlarga ovoz rejissyorligining sir-sinoatlarini o'rgatmoqdalar. Bu kasb san'at institutida turli yo'naliishlar bilan bog'lanadi. Bunga misol qilib, kino, teatr, televideniya va radio yo'naliishlarini aytib o'tmoqchiman. Yuqorida aytib o'tilgan yo'naliishlar uchun ovoz rejissyorli suv va havodek zarur. Professional ovoz rejissyorli bo'lish va bu kasbni hayotga tadbiq eta oladigan mutaxassis bo'lish uchun ta'lif olish shart. Shuning natijasi o'laroq, xalqaro hamjamiyatda ovoz rejissyorligining alohida oliy o'quv yurtlari tashkil etilgan. Masalan, Avstraliyaning Sidney shahrida «Ovoz rejissyorligi institutini (SAE) aytib o'tishim kerak. Bu yerda talabalar ovoz rejissyorligi bo'yicha o'qitiladi. Bu institut 1976-yilda Avstraliyaning Sidney shahrida tashkil etilgan. Bugungi kunda ushbu ta'lif maskani media sohasida dunyoning yetakchi oliy ta'lif muassasalaridan biri hisoblanadi. Institutning dunyo bo'yicha 26 mamlakatda o'z filiallari tashkil etilgan. Bulardan London, Berlin, Myunxen, Nyu-York, Parij, Barcelona, Los-Anfeles shaharlarida

joylashgan 56 ta kampuslarini aytib o'tish lozim. Kinoda ovoz rejissyori (film sound engineering), animatsiya va videoo'yinlarda ovoz rejissyori, mobil ilovalar uchun ishlab chiqiladigan dasturlar bo'yicha ovoz rejissyorining faoliyatları o'qitiladi. Bu yerda talabalar 17 yoshdan o'qishga qabul qilinadilar. O'qishga qabul qilinishlari uchun xalqaro talabalardan IELTS dasturidan minimum 6.0 ball, TOEFL dasturidan esa 60 ballik imtihon natijasi qayd etilgan bo'lishi shart. Sharhnomaga asosida o'qitiladigan talabalar uchun yiliga 7000 yevro miqdorida to'lov kontrakti amalga oshiriladi. Institut miqyosida SAE Alumni asotsatsiyasi tashkil etilgan. Bu tashkilot SAEni bitirgan talabalarni bog'lab turadi. Bu yerda bitiruvchi ovoz rejissyorlari malakaviy tajriba almashib turadilar. Bundan tashqari, institut jurnali nashr etiladi. Bu yerda ovoz rejissyorligining turli yo'nalish sohalari bo'yicha yangiliklar va iqtidorli talabalarning o'qishni tamomlagandan keyingi faoliyatları haqida ma'lumotlar berib boriladi. Yevropa va xorijiy bir qancha mamlakatlarda ovoz rejissyorligi bizga nisbatan biroz boshqacharoq yo'nalishda o'rgatiladi. Bizning mamlakatimizdagi san'at oliy ta'llimuassasasida fan sifatida o'qitilayotgan audiovizual tahlil fani xorijiy mamlakatlarda mutaxassislik fani sifatida o'qitiladi. «Ovoz rejissyorligi va audiovizual ta'lim san'ati» soha sifatida ko'rildi, ya'ni mutaxassis sifatidakadrlar yetishtirib chiqazadi. Bundan tashqari, Rossiyada tashkil etilgan «GITR» ta'lim muassasasida, ya'ni Kino, televide niya institutidaham ushbu fan mutaxasislik darajasida tashkil etilgan. Bizning mamlakatimizda ham ta'limga berilayotgan e'tibor natijasida, dunyoning turli oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim tizimiga oid bir qancha hujjatlar imzolanmoqda. Buning natijasini «+Erasmus» loyihasi asosida yevropa mamlakatlariga ta'lim olgani yuborilayotgan talabalar negizida ham ko'rish mumkin. Bugungi kunda bu loyiha asosida ko'plab iqtidorli yoshlar yevropa mamlakatlarida o'z mutaxassisliklari bo'yichata'lim olib qaytmoqdalar. Yurtimizda oxirgi yillarda madaniyat va san'at yo'nalishida qilinayotgan islohotlar barcha yosh talabalarni quvontirmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. <https://allterra.ru/catalog/sae-institute/>
2. [https://ru.qaz.wiki/wiki/SAE\\_Institute](https://ru.qaz.wiki/wiki/SAE_Institute)



**Saodat Anvarovna Ro'ziyeva,**  
“Madaniyat va san'at sohasi menejmenti”  
mutaxassisligi i kurs magistranti  
**Ilmiy rahbar:** f.f.d., professor V.A.Alimasov

## SAN'AT VA MADANIYAT MUASSASALARIDA MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUV VA REJALASHTIRISHNING O'RNI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola madaniyat va san'at muassasalari faoliyatida menejmentning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, san'atning iqtisod va biznes bilan o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Biznes va madaniy soha o'rtasida kommunikativ o'zaro aloqalarni o'rnatish jarayoni, shuningdek, nega san'at menejmenti madaniyat sohasining bugungi kundagi muhim aspekti ekanligi ochib beriladi. San'at menejmenti madaniyat va san'at muassasalari uchun samarali boshqaruv tizimi sifatida ko'rildi.

### **Annotatsiya**

В данной статье рассматривается особенность функционирования арт-менеджмента в деятельности объектов культуры и искусства, а также проводится специфика взаимодействия искусства с бизнесом. Рассматривается процесс становления коммуникативных взаимодействий бизнеса с культурной сферой, а также почему арт-менеджмент является необходимость для эффективного существования на рынке культурного сектора. Арт-менеджмент как эффективная управляемая система художественного объекта.

### **Annotation**

This article examines the features of the functioning of art management in the activities of objects of culture and art, as well as the specifics of the interaction of art with business. The process of establishing communicative interactions between business and the cultural sphere is considered, as well as why art management is a necessity for the effective existence of the cultural sector on the market. Art management as an effective existence in the market of cultural sector

### **Kalit so'zlar**

San'at menejmenti, strategik rejorashtirish, boshqaruv tizimi.

# Klyuchevie slova

Арт-менеджмент; стратегическое планирование; система управления.

## Key words

Art management; strategic planning; control system.

**H**ar qanday san'at muassasasi menejmentini rivojlantirish davrida menejer oyoqda qat'iy turishi uchun yordam beruvchi aniq tanlangan strategiyaga ega bo'lishi, vaziyatni o'z qo'lida tutish uchun xuddi futbol o'yinida jamoa sardori singari xodimlarni ortidan ergashtirishi kerak. Agar menejer (rahbar) judayam oldinga chiqib ketib, koptokni uzatadigan odami bo'lmasa, u albatta koptokni yo'qotadi.

### Perspektiv rejalashtirish

Yuqorida keltirilgan iboradan kelibchiqib, perspektivrejalashtirishda hech qanday yangilik yo'q. Bizning san'at va madaniyat muassasasiga keraklisi aniq strategiya bilan qurollanish, xolos. Strategiya – bu sen ayni payt qayerdaliging, buni qay tarzda amalga oshirishing va yo'lingda sodir bo'ladigan barcha o'zgarishlarga o'z munosabatingni bildira olishing haqidagi bilimdir.

Strategiya – bu shunchaki chiroyli so'z emas, hisobot ham, budget tuzish ham, birovning majburiyati ham emas. Shu bilan birga bu ishning samaradorligini oshirish yoki tavakkaldan qochish ham emas. Strategyaning vazifasi bu:

- San'at va madaniyat muassasasi va unga tegishli barcha shaxslar (san'at va madaniyat muassasasiga tashrif buyuruvchilar (ixlosmandlar), homiyalar, mahalliy biznesmenlar (tadbirkorlar va hokazolar) qiziqishlari va ehtiyojlariga diqqatni qaratmoq;
- ish bilan san'at va madaniyat muassasasi xodimlari va jamoatchilikni tanishtirmoq;
- san'at va madaniyat muassasasini tanlangan strategiya yo'lida o'zgartirmoq.

Bu vazifalarni amalga oshirishda nima qilish kerak, bularni kim bajarishi kerak, kim bu ishda yordam beradi, qo'llab-quvvatlaydi va bu ishlar qancha mablag'ni talab etadi kabi qator bajariluvchi ishlar ro'yxatini o'zida mujassam etgan harakat dasturini tuzib olish zarur. Strategiya rejasi direktor tomonidan tuzilib, so'ng qo'l ostidagilarga

bu haqida ma'lumot berilishi noto'g'ri. Aslida barchasi aksincha bo'lishi lozim. Bu reja bir qator jarayonlar, marketing rejalshtirishni tashkil etish va moliyaviy jarayonlarning rivojlanishini oldindan aytib berish (prognoz) oqibatida paydo bo'lishi zarur. Unda san'at va madaniyat muassasasining barcha darajali ishchi xodimlari, bu ishni moliyalashtiruvchilar hamda san'at va madaniyat muassasasi xizmatidan foydalanuvchilarning ovozlari inobatga olinishi lozim. Faqat shunday yo'l bilan haqiqiy yangi g'oyalalar uchqunini paydo qilsa bo'ladi. Bunday g'oyalarning manbai san'at va madaniyat muassasasi faoliyatiga dahlsiz, san'at va madaniyat muassasasini yurgizish ishidan yiroq insonlar ham bo'lishi mumkin.

Shuni esda tutish lozimki, g'oya ildiziga bolta urishning kamida quyidagi 8 ta ishonchli uslubi mavjud. Bular:

- *bizning ishda bu qo'l kelmaydi;*
- *biz oldin ham xuddi shunday qilganmiz;*
- *hozir vaqt emas;*
- *buning iloji si yo'q;*
- *bizda bunday qilinmaydi;*
- *biz bularsiz ham yomon ishlamayotgan edik;*
- *bu judayam qimmatga tushadi;*
- *kelinglar, bu masalani keyingi safar hal etamiz kabi iboralarni qo'llash bilan ifodalanadi.*

Rejani tuzishda bir qancha asosiy yo'llarni mo'ljallab qo'yish lozim. Bunda o'z-o'zini tahlil qilish jarayoni ko'mak beradi. Bu esa qator jiddiy savollar bilan o'z-o'ziga murojaat etish orqali amalga oshiriladi.

Rejalshtirish bo'yicha quyida keltirilgan tavsiyalar standart rejalshtirishning ishbilarmon doiralarda qabul qilingan, lekin to'liq san'at va madaniyat muassasalariga ham qo'llasa bo'ladigan ikki modelini namoyon etadi. Bular:

- PEST (PEST) analizi;
- SVOD (SWOT) analizi.

San'at va madaniyat muassasasining kelajagi loyihasini tuzishdan avval, uning ahvolini quyidagi omillar asosida tahlil qilish va bu sohalarda bo'layotgan o'zgarishlar bizning rejalgarga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash lozim.

R (Political) – siyosat;

Ye (Economic) – iqtisod;  
S (Social) – ijtimoiy muhit;  
T (technological) – texnologiya.

Bu turdag'i akronimlar siyqasi chiqqan bo'lib tuyulsa-da, foydalidir. San'at va madaniyat muassasasi kelajagi nuqtai nazaridan menejer siyosatni hisobga olishi shart. Hukumatning kutilajak o'zgarishi san'at va madaniyat muassasasiga foyda keltiradimi? Yangi hukumat moliya prinsiplarini milliy lotereya dasturi bo'yicha o'zgartiradimi? Yaqin orada shaharda yirik kompaniyalar paydo bo'lmaydimi? Oxirgi ijtimoiy tendensiyalar qanday? Kim yashash uchun shaharga kelmoqda va kimlar undan ketmoqda? Kim bilan muloqot qilish zarur? Qiziqishlari hisobga olinmagan ijtimoiy guruh yoki tumanlar yo'qmi?

Ikkinci foydali model bu SWOT – analiz (qarang: 3-chizma)  
S (STRENGTHS) – yutuqlar;  
W (WEKNESSES) – kamchiliklar;  
O (OPPORTUNITIES) – imkoniyatlar;  
T (THREATS) – xavf-xatar.

SWOT – analizning maqsadi, samaradorlikni baholash jarayonini rasmiylashtirishdir. San'at va madaniyat muassasasi faoliyatida ayrim holatlar yutuq, kamchilik va imkoniyat sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shuni esda tutish muhimki, san'at va madaniyat muassasasi ish faoliyati aspektlari haqida tuzilgan ro'yxat bizga reja ishlab chiqishga yordam beradi. Aspektlarning har biri aniqlangandan so'ng, ularning natijalari izohini albatta berish lozim.

Masalan, agar kamchiliklardan biri sifatida biz san'at va madaniyat muassasasi misolida muzeyni olsak, uning ixtiyorida magazin (art-salon) ning yo'qligini nazarda tutsak, buni nima uchun kamchilik ekanligini izohlab berish kerak: bu degani, biz san'at va madaniyat muassasasi kolleksiyalarini yaxshiroq targ'ib qilish va qo'shimcha foyda olish imkoniyatiga ega emasmiz. Lekin xuddi shu punktni ochilayotgan imkoniyat sifatida yozib qo'ysa ham bo'ladi. Ushbu faoliyat aspekti PEST analiz bilan ham bog'liqdir: qanday siyosiy va iqtisodiy sharoitlar bizga magazin tashkil etib, undan maksimal darajada foyda olish imkoniyatini yaratadi? SWOT – analiz qanchalik chuqur olib borilsa, uning natijalarini foydali qo'llash va omadning nozik omillarini namoyon qilish shuncha oson kechadi, zero ular umumiy strategiya va

perspektiv rejalashtirishda hisobga olinadi. Bunda yuqoridagi omillar butun strategiya yo'nalgan maqsad qiyofasini olishi zarur. Shu asnoda, biz intilishimiz zarur bo'lgan maqsadlarni qo'lga kiritamiz. Endi bizga tushunarli, aniq, hayotiy, chuqur o'ylangan maqsadlar zarur.

Yuqorida kamchilik deya ta'riflangan punkt bir vaqtning o'zida imkoniyatnii ham namoyon etadi. Muzeyda magazinning yo'qligi foyda olishning bir qator yangi imkoniyatlarini yaratadi. Buni strategik maqsad sifatida ko'rish mumkin.

So'ngra muzeydan olinayotgan foydani ko'paytirish uchun quyidagi tadbirlarni ko'rishi mumkin:

- a) *Olingen foyda mablag'laridan foydalanish huquqining yuridik ravishda muzeyning o'z ixtiyoriga topshirishni ta'minlash;*
- b) *muzey o'z kolleksiyalarini targ'ib qiluvchi yuqori sifatli suvenirlar ishlab chiqarish;*
- v) *muzey ixtiyorida magazin (art -salon) tashkil etish;*
- g) *muzey va uning kolleksiyalari emblemalarining frenchayzingini tashkil etish maqsadida ishlab chiqaruvchilar bilan shartnomaga tuzish imkoniyatini tadqiq etish;*
- d) *muzey yoki undagi maxsus ko'rgazmalarga kirish chiptalari narxini oshirish masalasini tadbiq etish;*
- e) *muzey ishbilarmonlar uchrashuvlari va tantanali tadbirlaro o'tkazish mumkin bo'lgan joy sifatida reklama qilish.*

Bularning barchasi natijasida muzeyning asosiy missiyasini va uning harakatlanish rejasini namoyon etuvchi rejani ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Muzey missiyasini namoyon etish – bu muzey faoliyati maqsadini qisqacha bayon etishdir. Demak, u bizda quyidagicha namoyon bo'ladi: O'zbekiston Tasviri san'at galareyasining asosiy maqsadi – O'zbekiston zamonaviy madaniyatining badiiy xazinasini saqlash, respublika tasviri san'atini rivojlantirish va targ'ibot qilishdir.

San'at va madaniyat muassasasi o'z kelajagi rejasini tuzishida uning qo'lida mavjud bo'lishi zarur bo'lgan oxirgi hujjat – bu kutilayotgan chiqimlarning aniq smetasi tuzilgan konkret faoliyat rejasidir. Bu rejada qanday resurslar mavjudligi, kim nimalarni bajarayotganligi va vazifalar qanday muddatda bajarilishi zarurligi ko'rsatiladi.

Perspektiv rejalashtirish bo'yicha mutaxassislar oxirgi maslahat

sifatida e'tiborni hajmga emas, balki mazmunga qaratish kerakligini ta'kidlaydilar. Ya'ni reja og'ir talmud (talmud – yahudiylarning diniy, maishiy, huquqiy qonun-qoidalari kitobi) kabi bo'lib qolmasligi lozim. Zero, keyingi ishlar ko'pincha ushbu hujjat bilan solishtirish doirasida amalga oshadi. Rejaning yana bir ijobiy jihatni bu – uning tuzish jarayoni va unda bo'lib o'tgan muhokamalar bo'lib, alohida olingan holatlarda bular, natijada hosil bo'lgan hujjatdan ham muhimroq sanaladi. Chunki xodimlar, ixlosmandlar va ziyyoratchilar o'rtasida san'at va madaniyat muassasasi kelajagiga tegishli keng muhokama o'tib, buning natijasida, o'sha keljakni umumiyoq ko'rish va muassasaning asosiy missiyasi ta'rifi barcha muhokama ishtirokchilari tomonidan ma'qullangan holda namoyon bo'ladi. Missiyaning ta'rifi, barcha san'at va madaniyat muassasasi xodimlari yodida uning mazmuni tez esda qolishi uchun yetarli darajada qisqa bo'lgani ma'qul.

Xullas, yana sport analogiyasiga qaytib, shunday deyish mumkinki, perspektiv rejalarshirishni yakunlagach, direktor (menejer) gol urish imkoniyatiga ega bo'lishi yoki hech bo'lmaqanda, koptokni yutuqli pozitsiyada turgan o'yinchiga uzatishi uchun o'zining ketidan yetarlicha insonlarni jalb qilishga ulgurgagan bo'lishi zarur.

### **Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston" 2017.
2. Shepel V.M. Nastolnaya kniga biznesmena i menedjera. – M.: Finansi i statistika, 1992.
3. Konxo P., Mirkyurov V., Komarov M. Menedjment. – M.: Finansi i statistika, 1993.
4. Lend P.E. Menejment – iskusstvo upravleniya: Per. s ang. – M.: M.INFRA-M, 1995.
5. Vixanskiy O, Naumov A. Menedjment. – M.,1995.
6. Gulyamov S., Semenov B. Osnovi sovremennoego menedjmenta.-T.: TashGAU, 1997.



**Davlat Habibovich Saidov,**  
*1-kurs “Ashula va raqs” mutaxassisligi magistranti*  
**Ilmiy rahbar:** professor T.K.Yo’ldashev

## USTOZ SAN’ATKOR KOMILJON OTANIYIZOV HAYOTIGA CHIZGILAR

### Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek musiqasi va bastakorlik ijodiga ulkan hissa qo‘shtgan shoir, usta xofiz, go‘yanda, doston, maqom asarlarining mohir ijrochisi Komiljon Otaniyozov hayoti ijodi va yaratgan asarlari haqida bilishimiz mumkin.



Ashula, maqom, suvora, muxammas, g‘azal, doston, cho‘pon, poda, tor, qo‘shtanay


### Аннотация

В этой статье мы можем узнать о жизни и творчестве Комилжона Отаниязова, поэта, мастера хазфа, внесшего большой вклад в развитие узбекской музыки и композиции.

### Ключевые слова

Ашула, маком, сувора, мухаммас, газель, достон, пастырь, стадо, узкий, сосед

### Annotation



In this article we can learn about the life and work of Komiljon Otaniyazov, a poet, master hafiz, who made a great contribution to the development of Uzbek music and composition.

### Keywords

Ashula, maqam, suvora, muxammas, ghazal, doston, shepherd, herd, narrow, neighbor

**M**a'lum birxalq yoki millatning mavjudligini bildirib turuvchi omil – bu uning tili hisoblansa, uning buyukligidan darak beruvchi omil esa uning boy madaniyati, san’ati va chuqur tarixi hisoblanadi. Bizga tarixdan ma'lumki, buyuk bobokalonlarimiz ilm-fan, san’at va boshqa sohalarda butun Sharq va G‘arb mamlakatlariiga o‘rnak bo‘lib kelgan. Xususan, ular ilm-fan sohasida yaratgan kashfiyotlardan dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlarida hozirgacha foydalanib kelinmoqda. Bu esa o‘tmishda

yashagan ajdodlarimizning naqadar buyukligidan hali-hamon hayratda qolib kelmoqdamiz. Ular qoldirgan buyuk merosga murojaat etar ekanmiz, biz aslida kim ekanimiz, kimlarning avlodi ekanligimiz yodimizga tushaveradi. Bobolarimiz nafaqat ilm-fan, musiqa borasida ham ancha ilg'or bo'lishgan, balki musiqa haqida risolalar yaratib, juda qimmatli ma'lumotlarni bizgacha yetib kelishida o'z hissalarini qo'shganlar. Shunday olimlardan Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy va boshqalarni ko'plab misol keltirishimiz mumkin. Dastlab san'at, musiqa va qo'shiq haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. San'at bu borliqning badiiy ifodasi hisoblansa, musiqa esa inson yaratilishida muhimo'rin tutgan, ya'ni inson tanasiga jon musiqa orqali kirgan. San'at bizgacha turli bosqichlardan o'tgan. Birinchi soz san'ati yaralgan, keyin esa raqs san'ati nutq shakllangach, so'z san'ati vujudga kelganidan so'ng qo'shiq yaralgan. Qo'shiqning manosi "qo'shliq", ya'ni musiqa bilan so'zning uyg'unligidir. O'rta Osiyo, xususan, Ona Vatanimiz musiqa ilmining buyuk olimlari-yu o'z davrining yetuk ulamolarini bag'rida dunyoga keltirib voyaga yetkazgan. Shu sababli ham o'zbek musiqa san'ati juda chuqur tarixga ega hisoblanadi. Ilohiy deb tan olingan o'zbek musiqasi va maqomlari haqida XIII asrda Urmaviy musiqa risolasida uchraydi. Dastlab kuy va ashulalar saroy musiqasi bo'lganligi sabab saroyda podshohlar va ziyolilar davrasida kuylangan, Xon va Sultonlar katta e'tibor va homiylik qilganlar. Xato kuylagan hofizlarni qattiq jazolaganlar, shu sababli, bu asarlar juda puxta o'rganilgan. Bu maqom asarlarining bizgacha yetib kelishida kuchli hofiz va bastakorlarning hissasi katta.

XVII asrdan boshlab kuchli bastakorlar tomonidan yaratilgan asarlar o'zbek bastakorligiga asos bo'lib xizmat qildi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

XIX-XX asrlarda yurtimizda kuchli bastakorlar yetishib chiqdi, bular Respublikamizning turli viloyatlar va turli yo'nalishlarda ijod qilgan bo'lsalar-da, yagona maqsadda, ya'ni o'zbek musiqa san'atini rivojlantirish bo'lgan.

Samarqandda Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Toshkentda Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Xorazmda Madrahim She'roziy, Bola baxshi, Komil Xorazmiy, Xojixon Boltayev, Matkarim hofiz va boshqalar ijod qilganlar.

San'at o'zida uch omilni jamlay olsagina haqiqiy san'at bo'ladi. Bular yaratuvchi, ijro etuvchi va tinglovchi ana shu uch omil san'atning mezoni hisoblanadi. Ana shu uch omilni mukammal birlashtira olgan ustozlar ishini munosib davom ettirgan. O'zbek san'atini dunyoga ko'rsatgan buyuk bastakor, shoir, aktyor, kuchli va sehrli ovoz sohibi Komiljon Otaniyozov san'at osmoniga misoli chaqmoqdek kirib keldi.

Komiljon Otaniyozov 1917-yil Xorazm viloyatining Bo'yrachi qishlog'ida ziyoliy oilasida tug'ilgan. Otasi Otaniyoz Oxun Feruzxon saroyida turli lavozimlarda ishlagan kuchli shoir va xattot bo'lgan, she'riyatda "Niyoziy" taxalusida ijod qilgan. Niyoziyning birinchi ayoli vafot etganligi bois, Anbarjon ismli ayolga uylangan va ikki o'g'il farzand ko'rgan. Kattasining ismi Foziljon, kichigining ismi Komiljon bo'lgan. Bular otasining 70 yoshidan keyin dunyoga farzandlar bo'lgani uchun otadan erta yetim qolganlar. Yetimlikda og'ir kun ko'rib odamlarning podalarini boqib kun ko'rishgan. Bu xususida ustozning umri yo'ldoshlari Imsimoy ona shunday fikr bildirganlar: "Biz ular bilan bir mahallada yashardik. Elatimiz podasini boqib yurgan Komiljon kengliklarda qo'shiq aytishni sevardi. Biz opam To'lg'anoy bilan mollarimizni uning podasiga qo'shar edik. Onam hazillashib: "Hofiz bola, sigirlarimizni yaxshilab o'tlatsang, kelin qilibshu ikki qizimdan birini beraman", deganlarida u qizarib, uyalib ketar edi". Albatta yosh Komiljon yoshligidan poda boqib san'atga qiziqib mashq qila boshlagan. Ustozning "Cho'pon" ashulasi ham poda boqish vaqtida yaralgan bo'lsa ajab emas:

*Otoliqning molin boqdim bahorda,  
O'zi turmay uyg'otadi saharda.  
Pishirgan oshlari ko'zning yoshinday  
Chaqmoqtosh nonini berar nahorda.*

Yurtimizda bu ashulani bilmaydigan odam bo'lmasa kerak. Komiljon Otaniyozov birinchi xat-savodini otalari Otaniyoz Oxundan, musiqa ilmini akasi Foziljondan olgan, chunki akalari dutor va garmonni yaxshichalib, yoqimli ovozda ashula aytganlar. Keyinchalik Abdulkarim Abdurahmonov tashkil etgan havaskorlar to'garagiga boradi, 18 yoshida konsert jamoasini tuzib uni boshqaradi. 1936-yilda Xorazm teatrida aktyor bo'lib ishga kiradi va ko'plab spektakllarda rollar ijro

etadi. Xususan,Farhod(Farhod va Shirinda),Tohir(Tohir va Zuhrada), Qodir(Gulsarada),Davron ota (Davron otada)va boshqa rollarni mahorat bilan ijro etgan. 1941-1945-yillarda Komiljon Otaniyozov o‘zi tuzgan konsert jamoasi bilan frontda konsertlar beradi va shu vaqtłari front uchun 50 ming so‘m xayriya qiladi.O‘sha vaqtda bu juda katta pul hisoblangan. Komiljon Otaniyozov 1949-yilda O‘zbekiston, 1964-yilda Turkmaniston, 1968-yilda Qoraqalpog‘iston xalq artisti degan unvonga sazovor bo‘lgan. 1957-yilda O‘zbekiston filarmoniyasi qoshida Xorazm ashula va raqs ansamblini (hozirgi Lazgi) tashkil etib, 1968-yilgacha unga rahbarlik qiladi. 1973-1974-yillarda Shovot tumanida “Feruz” ansamblini tashkil etgan. Komiljon Otaniyozov dostonchilikka ham katta hissa qo‘sghan hofiz sanaladi. Xususan,O‘zbekistonda turli dostonchilik maktablari mavjud bo‘lib, Qashqadaryo, Surxondaryo dostonchiligida yopiq bo‘g‘iq ovozda do‘mbira jo‘rligida kuylansa,Xorazm dostonchiligida ochiq va baland ovozda tor, g‘ijjak, qo‘shnay, doirajo‘rligida ijro etiladi. Komiljon Otaniyozov dostonchillikka ulkan hissa qo‘sghan hofiz hisoblanib, bu yo‘ldako‘plab ustozlardan ta’lim olgan. Yoshligida Jumaloq hofizdan quloqqondiyo’llarini o‘rgangan bo‘lsa, keyinchalik Madrahim Yoqubov (Sheroziy) va Bola baxshi (Qurbanmazar Abdullaev)dan o‘rganadi. Bola baxshi Komiljon Otaniyozovning yoshlik chog‘lari haqida shundayfikr bildirgan: “Men Komiljon bilan 1939-40-yillarda tanishganman. Birinchi bor uchrashganimda,uning qo‘lidagi dutor pardalarini qayta bog‘lab bergen edim. Uning dostonlarga qiziqishini ko‘rib, unga “Yetti yilga ketgan yorim”, “Dushumda bir bulbul go‘rdim”, “Ra’noni go‘rdim”, “Namasan”, “Ustozingdan ayrılma” va boshqa dostonlarni o‘zlashtirishida yordam berdim”. Dostonchilikda eng asosiysi – ustozshogird an’analari hisoblanadi. Chunki dostonchilik san’ati og‘izdan-og‘izga,Xorazm tili bilan aytganda, quolloqqondi yo‘li bilano‘tadi va shogird ustoz duosini olib, baxshi nomini oladi.Bu xususida bir voqeani keltirib o‘taman.Matkarm Hofiz Ozarbayjondan ikkita tor olib kelib, birini Komiljonga beradi. Yillar o‘tib, bir to‘yda Matkarim Hofizzalqningguvhligida Komiljoni chaqirib, “Men endi qaridim, mening ishimni shu davom ettiradi, mana bu xurjun, bu qumg‘on, bu turkman gilami, qo‘limdagi torim – husani,hasani Komiljonda”

– debodamlar oldida oq fotiha bergen. Dostonchilikda to ustozdan oq fotiha va qo'lini olmasdan turib baxshi sanalmagan. Komiljon Otaniyozov ustozlarni rozi qilgan shogird hisoblanadi. Ustozlardan chuqur ilm olgan. Komiljon Otaniyozov o'zi mustaqil dostonlarni ijro etishga kirishadi. Sayyodxon Hamro dostoni, Oshiq G'arib, Go'ro'g'li, Oqchaqush, Vomiq Uzro ayollar bilan aytishuvvaqtida, Oshiq G'arib va Shohsanam dostonlarini mahorat bilan kuylagan. Komiljon Otaniyozov xalq ashulalariga ham katta hissa qo'shgan, u ko'plab yo'qolib borayotgan xalq ashulalarini qayta tiklab, ansamblga moslashtirgan. Xususan, Orazibon, Ushlini ufforisi, Feruz I-II, Savti Feruz va boshqa ashulalarini mohirlik bilan ijro etgan. Dostonchillik va xalq ashulalaridan tashqari, Komiljon Otaniyozov Xorazm maqomlari va suvoralariga katta hissa qo'shgan hofiz sanaladi. Maqomlarni Matpano Ota Xudoyberganovdan o'rganadi. Ustozi yordamida "Navo", "Segoh", "Rost", "Dugoh" maqomlarning aytim yo'llarini o'zlashtirib oladi. Komiljon Otaniyozov nafaqat Xorazm, balki Toshkent, Farg'ona yo'lidagi "Ushshoq", "Bayotlar", "Dugoh"larni o'zlashtirishda To'ychi Hofiz, Jo'raxon Sultonov, Mamurjon Uzoqov va boshqa ustozlardan o'rgangan.

Xorazmni suvoralsiz tasavvur etib bo'lmasa kerak. Bu borada ham ustoz samarali ijod qilganlar. Suvora so'zi "suvoriy, ya'ni otliq" degan ma'noni beradi. Komiljon Otaniyozov suvoralarga katta hissa qo'shgan hofiz hisoblanadi. Xorazmda 5 ta suvora bo'lib, bular: Katta suvora (ona suvora), yakparda suvora, chapandozi suvora, xushparda suvora, va savti suvora. Har bir suvoraning o'z pardasi bo'lib, uni ijro etish uchun hofizdan yuqori diapazon va eng muhimi, kuchli usulni his etish lozim. Bu talablarning barchasi Komiljon Otaniyozovda jam bo'lgan. Ustozo'zlaridan bir esdalik qoldirish maqsadida bir suvora bastalab, unga "suvora VI" deb nom berganlar. Bu suvora so'zi Navoiy g'azaliga Ogahiy muxammasi hisoblanadi. Bugungi kunda kuchli hofizlar "suvora VI" ni sevib ijro qilishadi. Bu esa ustozning bastakorlik bobida naqadar mahoratli ekanligidan dalolat beradi. Komiljon Otaniyozovning bastakorlik ijodini ummon tubidagi marjonga o'xshatish mumkin, unga yaqinborgan sari o'zining go'zalligini namoyon qila boshlaydi. Komiljon Otaniyozovning bastakorlik ijodi

juda serqirra hisoblanadi,ya’ni bir yo’nalishda emas demoqchiman. Ular doston, maqom,xalq yo’lida qo’shiqlar bastalashdan tashqari, teatrda turli dramalarga musiqa yozgan. Ustoz o’zlari yaratgan musiqaga o’zlari so‘zyozganlar, ular so‘zga nihoyatda noziktablik bilan yondashganlar, tanlangan so‘zlari yuqori darajadagi so‘zlar hisoblangan. Ustozning bastalagan ashulalari juda mashhur bo‘lib, bulardan “Na tilar mandan”, “Maxsus”, “Jafo qilursan,”“Uyoladi”, “Naylaram”, “Xo’sh endi”, “Dog‘man”, Komuna Ismoilova uchun yaratilgan “Bolamao‘xshaydi”, “Yoring unutma” va boshqa asarlari hozir ham sevib ijro qilinadi. Ustozning Yusuf Amiri y g‘azali bilan aytilgan maxsus ashulasi poyezd ichida yaralgan ekan. Gap shundaki,o’sha vaqtleri Xorazm va Farg‘ona vodiysi o‘rtasida do’stonaaytishuvlar bo‘lib turgan. Komiljon Otaniyozov Farg‘onaga borish chog‘ida shu ashulani yaratgan ekanlar. Komiljon Otaniyozov teatrda “Aziz va Sanam” pyesasiga musiqa bastalagan. “Jafo qilursan” ashulasining musiqasi uchta xramatik yarim tonliklardan iborat, musiqa tili bilan aytganda, frigiy ladi bilan garmonik minordan ustalik bilan foydalangan. Kuy asosida Xorazm mumtoz yo’llari yotsa-da, keyinchalik daromad va miyonxatda tabiiy lad bilan garmonik minorning uyg‘unlashishi natijasida mukammallikga erishilgan.Bu esa ustozning buyuk bastakorligining yana bir isboti desak,mubolag‘a bo‘lmaydi. Ustozning buyuk xizmatlaridan biri – “Lazgi” kuyiga so‘zqo‘yganliklaridadir. Lazgi yaralganiga ming yildan ziyod vaqt bo‘lgan.Ustozbu kuya Komil Xorazmiyning so‘zini qo‘yib ijro etganlar. Hozirgi kunda bayramlar va to‘ylarda shu so‘zasosida Lazgi aytiladi. Bu esa ustozning fenomenligidan dalolatdir (“Fenomen” – takrorlanmas,benazir). Ustoz she’riyatiga keladigan bo‘lsak, xuddi yangi dunyonи kashf etgandek bo‘lamiz. Afsuski, ustozning she’r yozganliklarini birov bilsa, birov bilmaydi.Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ustoz dastlabki ta’limni otalari Otaniyozov Oxundan olganlar.Otalari “Niyoziy” taxallusi bilan ijod qilgan. Tog‘alari Kamtar Xorazmiy ham shoirlilik bilan shug‘ullangan. Oiladagi muhit ustozni kuchli shoir bo‘lib yetishishida zamin bo‘lib xizmat qilgan. Buyuk shoirlardan qolgan birgap bor: “Shoir bo‘lish uchun yuz ming bayt she’r yod bilish lozim, shunda shoir bo‘lish mumkin”. Ustozning necha ming bayt she’rni yod bilishlari bizga qorong‘u.

Komiljon Otaniyozov nafaqat she'ryozgan, balki ko'plab buyuk shoirlarga muxammaslar ham qoralagan. Birgina Boborahim Mashrabgaellikdan ortiq muxammas yozganlar. Shu muxammaslardan birini keltirib o'tmoqchiman:

*Bo'libsan sohibi sardori san oliv makonlig'ni,  
So'rarsan g'ayri birlan ishratu zavqi safolig'ni,  
Ajab hayron erurman ko'nglima solding xafolig'ni,  
Kel, ey dilbar bayon aylay senga bir-bir judolig'ni,  
Ki Shoyad rahm etib solgay o'ziga oshinolig'ni.*

Bu muxammas xuddi Mashrabning dilidan chiqqan so'zga o'xshaydi. Bir shoirga muxammas bog'lash uchun o'sha shoirning lug'at boyligini bilish talab e'tiladi. Yuqorida muxammasdan ko'rinish turibdiki, ustoz Mashrabning ichki dunyosi va ruhiyatini juda chuqur o'rganganlar. Komiljon Otaniyozov Mashrabdan tashqari Ogahiy, Charxiy, Huvaydo, Fuzuliy, Niyoziy va boshqa shoirlarga muxammaslar bastalagan. Komiljon Otaniyozov qaysi shahar yoki chet el safariga borsalar, shu yerga atab she'r yozganlar. Misol qilib, Hindiston safarida yozib, ijro egan she'rini keltirib o'tmoqchiman:

*Salom, Hind xalqiga nurli bo'stondan,  
Sovetlarxalqidan, ul gulistonidan.  
Yaxshi tilak etgan har bir insondan,  
Tinchliksevar xalqimiz jonajonlardan.  
Salom, Hind xalqiga sovet xalqidan,  
Gullagan, yashnagan O'zbekistondan.*

Bu ashuladan hayratlangan Hindiston xalqi ustozni yuksak olqishlar bilan kuzatib, yuksak hurmat belgisi sifatida fil sovg'a qiladilar. Ustozo'zlarining boshlaridan o'tgan voqealarni ustoz nomidan bir shoir qog'ozga tushirgan. Afsuski, bu shoirning shaxsi noma'lum. Ushbshu she'rni ham keltirib o'tmoqchiman:

*Ko'zim ochiq ketar bo'ldim man sandan,  
Azaldan bevafo dunyoxo'sh endi.  
Dardim oshib ketar bo'ldi kun-kundan,  
Jabrlil jafoli dunyo xo'sh endi.  
Xudoyim eshitgay oh-u nolamni,  
Bo'yin ko'rib sevmadim man bolamni.*



*Hayronlar aylagan jumla olamni,  
Qo'limda sayragan torim xo'sh endi.*

Bu she'rni o'qib, dunyoning foni va o'tkinchi ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Ustozning yana bir muxammaslario'zlarining tarjimayi holiga o'xshaydi:

*Sarosar xasta dilni maxjabin xo'stori bo'lg'aymu,  
Tutarg'a majru ilgin nozanin dasyori bo'lg'aymu,  
Namuna ishq elida men kabi abgori bo'lg'aymu,  
Nihoni rozi dilni sendan ham asrori bo'lg'aymu,  
Parizod yori bo'lg'aymu shakar guftori bo'lg'aymu.*

Shu muxammasning oxirgi bandida ustoz butun ichki kechinmalarini bayon qilgan:

*Mani qildi jahonda toleyimni mardumi g'ofil,  
Nega men qoyil o'lmay bul sharafdur man uchun nozil,  
Musharrafdur hama maqsudig'a fazli bila fozil,  
Xarobot ahlini sodiq sariri sarvari Komil,  
Dilida sendin o'zga ham aziz xush yori bo'lg'aymu.*

Bu satrlardan shuni bilish mumkinki, ustoz boshlariga tushganlarini Ollohdan bilib, uni mardonavor qabul etganlar. Sobiq tuzum davrida Ateizm (xudosizlik) mafkurasi hukm surgan bir paytda bunday satrlarni yozish uchun katta jasorat talab qilingan. Komiljon Otaniyozov shunday so'zlarni qo'rqmasdan kuyga solib ijro etganlar.

Mustaqillikdanso'ng Komiljon Otaniyozovni nomini abadiylashtirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirildi, xususan, ko'plab ko'chalarga uning nomi berildi. 1997-yilda ilk marotaba Komiljon Otaniyozov nomidagi "Yosh ijrochilar" ko'rik-tanlovio'tkazilib, undai-o'rinni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Zarifboy Azizov, 2-o'rinni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Og'abek Sobirov va boshqaxushovozxonandalar egallaganlar. Bu ko'rik-tanlov har ikki yilda bir marta bo'lib o'tishi belgilab qo'yildi. 2017-yilda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev farmonlari qabul qilindi. Unga ko'ra, Komiljon Otaniyozovning 100yilligini respublika miqyosida keng va tantanali nishonlash, uning nomidagi bog'barpo etish, Komiljon Otaniyozov muzeyi tashkil etish vazifalari belgilandi. Tanlovning birinchi bosqichi ustoz tavallud topgan kun Toshkent

shahrida o'tkazilib, asosiy bayram tadbiri ustozning tug'ilib o'sgan Xorazm viloyatining Shovot tumanida o'tkazildi. Ustoz qabri va tug'ilib o'sgan uylari kenja shogirdlari Rahmatjon Qurbonov boshchiligidagi ta'mirlanib, obod holga keltirildi. Ustozga atab O'zbekiston, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist "Dovudiy ovoz sohibi" Rahmatjon Qurbonov pyesa yozganlar va bu pyesa "Ogahiy" teatrda namoyish etilgan. Xulosa qilib aytganda, san'atni misoli ummonga o'xshatsak, Komiljon Otaniyozovni anashu ummonda suzayotgan muz qoyasiga o'xshatish mumkin, chunki muz qoyasining o'ndan bir qismi suv ustida qolgani bilan asl qismi suv ostida yashirin bo'ladi. Vafotidan so'ng Tojikiston xalq artisti Jo'rabek Murodov ustozning qabrlari tepasiga bir tup chinor daraxtini ekkanlar, bu esa tojik xalqining ustozga bo'lgan chuqur hurmati, tojik va o'zbek xalqining azaliy do'stligi belgisidir. Komiljon Otaniyozov nafaqat O'rta Osiyo xalqlari, balki chet el xalqlarining ham mehrini qozonganlar. Bunga misol qilib, Turkiyada gastrolda yigirma mingdan ziyod odam sig'adigan stadionda jonli, mikrofonsiz ashula aytganlar. Shahar hokimi ajablanib, "Bunday bo'lishi mumkin emas" deb, xodimlariga Komiljon Otaniyozovni yaxshilab tekshirishni buyuradi. Tekshiruvdan hech narsa topolmagach, ustozning ovoziga qoyil qolib, ijodigatan beradi. Shu shaharning musiqa sozlari sotiladigan do'kon peshtaxtasida bir tor turar ekan. Bir kishi shu torni ko'rib, unga xaridor bo'libdi. Sotuvchi uni sotilmasligini aytsa-da, xaridor rosa yalinibdi. Shunda sotuvchi: "Xorazmda Komiljon degan hofiz bor, bu tor o'sha hofizniki" deb javob beradi. Bu shundan dalolat beradiki, turk xalqi ham ustozni nihoyatda yaxshi ko'rgan. Keyinchalik ustoz shu torni olib kelganligi haqida ma'lumotlar bor.

Komijon Otaniyozov nafaqat buyuk hofiz, insoniylik fazilatlari bobida ham benazir bo'lgan. Ular to'yga hech qachon pulini kelishib bormaganlar, o'rtadan tushgan pulni to'yni egasiga to'yna qilganlar. Shogirdlariga xuddi otalardek g'amxo'rlik qilganlar. O'sha paytlarda yonida Matniyoz Yusupov va Abdusharif Otajonov doim birga bo'lishgan. Odamlar: "Uch kallaga to'rt oyoq kelyapti", - deb hazillashganlar. Shogirdining oyoqlari protez bo'lgani uchun o'zi g'amxo'rlik qilib, uylantirib, uy qurib, o'qitganlar. 1951-yilda "Xalq

artisti” unvoni sohibibo’lishiga qaramay, Hamzabilim yurtiga o‘qishga kirganlar. Bu esa ustozning naqadar kamtar va ilmga chanqoqligidan dalolatberadi. Ustozbastalagan “Dog‘man” ashulasioldin Feruzadegan kuybo‘lgan. Ustoz Quvondiq Iskandarov Noqis g‘azalini qo‘yib, Komiljon ustozga ko‘rsatadilar, shunda Komiljon ustozga bu ashula yoqib qolib, “Quvondiq, bu ashulani men ham aytsam maylimi?” deb so‘raydilar, shunda Quvondiq aka “Ustoz, axir bu ashula sizniki-ku,” - deb javob beradilar. Komiljon ustozning bunday fazilatlarini sanaymiz desak adog‘iga yetolmaymiz. Ustozvafotlaridan butun olam junbishga keldi, qabrlari tepasida turib O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon quyidagi marsiya she’rini yozadi:

*Yog‘magan qor yog‘di, quyosh aylandi,  
Yosh oqmagan ko‘zlarda yosh aylandi.  
Nukus, Urganch, Ashxabod, Shosh aylandi,  
Komiljonim qayga ketib borasan.*

Komiljon Otaniyozov garchi 58 yil umr ko‘rgan bo‘lsa-da, ba’zi bir insonlarning yuz yillik umri davomida qilolmagan ishini qilib ketgan, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Ustozning buyuk merosini asrab-avaylab, chuqur o‘rganib, kelajak avlodlarga yetkazish biz yoshlarning vazifamiz sanaladi.

### Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Komiljon Otaniyozov. Rahmatjon Qurbonov. Toshkent 2017.
2. Bizbilgan va bilmagan haqiqatlar. Shermat Xo‘ja. Toshkent 2017.
3. O‘zbek elim Komiljondan ayrilmas. B.Ro‘zmuxammad, R.Nur, B.Qobulov, B.Jo‘rayev. Toshkent 2014.



**Saidahmad Qo'zijon o'g'li Hakimov,**  
1-kurs "Kino va televideniya rejissyorligi"  
mutaxassisligi magistranti.  
**Ilmiy rahbar:** S.Rasulov

## MULTIPLIKATSIYA SAN'ATI, TARIXI, RIVOJLANISHI VA O'ZBEK MULTIPLIKATSIYASI

### **Annotatsiya**

Ushbumaqoladamultiplikatsiyasan'ati,tarixi,rivojlanishbosqichlari,jahon multiplikatsiyasi va o'zbek multiplikatsiyasi namunalari va ijodkorlari haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

### **Аннотация**

В данной статье представлена информация об искусстве анимации, его истории, этапах развития, примерах и создателях мировой анимации и узбекской анимации.

### **Annotation**

This article provides information about the art of animation, its history, stages of development, examples and creators of world animation and Uzbek animation.

### **Kalit so'zlar**

Axborot, texnologiya, multiplikatsiya, multfilm, rassom, grafika, rasm, tasma, proyeksiya, chizma, siluet, qo'g'irchoq, barelyef.

### **Ключевые слова**

Информация, технологии, анимация, мультфильм, художник, графика, живопись, лента, проекция, рисунок, силуэт, марионетка, барельеф.

### **Key words**

Information, technology, animation, cartoon, artist, graphics, Painting, tape, projection, draWing, silhouette, puppet, bas-relief

XI asr – axborot-texnologiyalar asri. Fan-texnika shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda multiplikatsiya va kino olami ham yangidan kashf etildi. Multiplikatsion film (lat. multiplicatio – ko'paytirish) – kino san'atining bir turi hisoblanadi. Kino asarlari chizilgan (rasmli multiplikatsiya) yoki hajmiy (hajmiy multiplikatsiya) obyektlar harakatining ketma-ket fazalarini suratga

olish yo‘li bilan tayyorlanadi. Tasmaga tushirilgan rasm va hajmiy obrazlarning sekundiga 24 kadr tezligidagi proyeksiya tasviri ekranda harakatni, ya’ni “jonlanish”ni yuzaga keltiradi.

Multiplikatsiya rasmlari va hajmiy bo‘lib, ularning har biri yana chizma, siluetli, qo‘g‘irchoq, barelyefli turlarga bo‘linadi. Keyingi paytda kompyuterli multiplikatsiya ham keng taraqqiy etib boryapti.

Multiplikatsiya kinematografiya ixtiro etilguniga qadar bunyod etilgan. Bu san‘at turi XIX asr o‘rtalarida yaratilgan. Texnik harakati bu MORF illuziyasining shaklli obyektlarning harakati yoki o‘zgarishlari hisoblanadi. Multiplikatsiyadagi birinchi qadamlar aka-uka Lumyerlar tomonidan uzoq muddat ichida tayyorlangan. Uzoq urinishlardan so‘ng, ajoyib rasmlar harakati paydo bo‘ldi. 1914-yilda Uinzor Makkey tomonidan birinchi marta qahramonlar aks etgan multfilm yaratiladi va bu yorqin voqealarga boy bo‘lgan multfilm dinazavr Gerti haqida bo‘lgan.

Dastlabki qadamlar:

1. 1877-yilda 30-avgust mulfilmning tug‘ilgan kuni hisoblanadi, chunki shu kuni Emil Reno birinchi marta multfilm uchun patent olishga muvaffaq bo‘lgan.
2. 1892-yil 28-oktyabrda Emil Reno Parijdagi GREVEN muzeyida birinchi marta proyektor, grafik lentalar yordamida “optik teatr” ininamoyish etdi.
3. 1898-yil Jeyms Stuart Blekton va Albert Smit tomonidan birinchi “Sirkdagi liliputlar” nomli qo‘g‘irchoq multiplikatsioni vujudga keldi.
4. 1899-yilda birinchi multfilm reklama roligi yaratildi.
5. 1900-yida “Sehrlangan chizma” nomli film yaratilgan va bu filmda animatsiyalarning sirlari ochib berilgan edi.
6. 1906-yilda Amerika kompaniyasi Jeyms Stuart Blektonning kinoplyonkada olingan “Kulguli yuzlar” nomli soddalashtirilgan multfilmini yaratdi.
7. 1908-yilda Fransiyalik rassom va karikaturachi Emil Koll multiplikatsiya bilan jiddiy shug‘ullanib, “Fantasmagoriya” deb nomlangan multfilm yaratadi. Bu multfilm yevropa tarixida eng mashhur multfilm hisoblangan, chunki juda sodda va syujetga boyligi bilan ham ajralib turardi.
8. 1910-yilda Starevich Vladislav Aleksandrovich “Yoqimtoy Lukanida yoki Rochagev bilan urush” nomli birinchi ovozli multfilmini yaratdi.
9. 1911-1922-yillarda Amerikalik rassom va karikaturachi Uinzor Makkey rasmlari animatsiyalarni mukammallashtirib, 1914-yilda yangi obrazli multserial yaratdi.

10. 1911-yilda *Uinzor Makkey* gazeta komiksidan “Kichkina Nemo” nomli multfilm kino yaratdi.

11. 1913-yilda *Strayevich* tomonidan yaratilgan “Ninachi va chumolilar” nomli multfilm butun dunyoga tanildi va unga mashhurlik olib keldi.

Jahon multiplikatsiyasida ilk paydo bo‘lgan multiplikatsion film chizma texnologiyada yaratilgan bo‘lsa-da, ammo O‘zbekistonga 1965-yil qo‘g‘irchoq texnologiyasida kirib keldi. Kino sohasida faoliyat yuritib kelayotgan iste’dodli ijodkorlar Yu.Petrov va D.Salimov o‘zbek multiplikatsiyasining otasi hisoblanadi. Chunki ilk o‘zbek multiplikatsionfilm ushbu ijodkorlarning izlanishi va mashaqqatlari natijasida yuzaga keldi.

Kinofilmda bezakchi rassom sifatida faoliyat yuritgan iqtidorli ijodkor Yu.Petrov mazkur san’atsir-sinoatlari va mashaqqatlarini 1936-yili Moskvada tashkil etilgan “Soyuzmultfilm” studiyasida o‘rganadi va film yaratishga doir yo‘riqnomha keltiradi. Ularni o‘zlashtirish natijasida rejissyor D.Salimov bilan xamkorlikda “6×6 kvadratida” (1965) qo‘g‘irchoqfilmi yaratishga erishadi. Bu animatsion filmda eng dolzarb mavzu – o‘zbek xalqining boyligi, oq oltin – paxta zararkundalariga qarshi kurashda kimoviy yutuqlardan foydalanish asos qilib olingan. Film personajlari turli xilhasharotlar (qo‘ng‘iz, qurt, chumoli) bo‘lib, bosh personaj sifatida kolorado qo‘ng‘izi namoyon bo‘ladi. Film qahramonlarihasharotlardan iborat bo‘lsa-da, ularning har birida insoniy xislatlar aks etadi.

Tajribasifatida olinganushba filmdan ruhlangan holdaijodkorlarning o‘zbek xalq ertagi motivi asosida milliylikni aks ettiruvchi ilk qo‘g‘irchoq qahramonlar – Zumrad va Qimmat obrazi orqalida tanish bo‘lgan “Sehrli sandiq” (1966) filmi yaratildi. Film ssenariysiiga D.Salimov va Yu.Petrov mualliflik qilib, qo‘g‘irchoq qiyofasidagi personajlarni yaratishda qo‘g‘irchoqboz-multiplikatorlar V.Stupakov, F.Tomashevsky, qo‘g‘irchoq va dekoratsiyalarni tayyorlashga S.Strashnov, E.Poleektov, N.Ayupovlar (shuningdek, rollarga ovoz berishda F.Hamrayev, Z.Sadriyeva, S.Sotiboldiyeva, Ya.Abdullayeva, D. Hasanova) jalb etilgan.

Mazkur film o‘zbek multiplikatsiyasida bir qadam olg‘a siljib, qator kartinalaryaratilishiga turtki bo‘ldi. Jumladan, rejissyor Q.Kamolovava rassom Yu.Petrovning “Bulutni Kim yaratdi?” (1967), “Rahim qo‘ng‘iz ho‘l bo‘lib ketdi” (1967), “Shumtaka” (1968), Z.Royzmannning “Kichik

“yolg‘onchi” (1968), “Kutilmagan ayiqcha Əaqida” (1970), “Quyosh yog‘dusi” (1971) kartinalari misol bo‘ladi.

Keyinchalik mazkur san’atni shakllantirishga rassomlar V.Gridnev, V.Akudin, R.Tumankov, V.Stupakov, A.Jiboyedov, A.Hamdamov hamda rejissyorlar Q.Kamolova, Z.Royzman, Sh.Shokirova, A.Akbarho‘jayevlar munosib hissa qo’shdilar. Keyinchalik, 1970-yilning ikkinchi yarmida rassomlardan M.Maʼmudov, S.Alibekov, R.Kamoliddinov, A.Sobirov, A.Dorojinskaya, O.Haritonova, T.Horosheva, K.Tsoy, O.Tyajelova, V.Jironov, O.Galitskaya; rejissyorlardan N.To’laxo‘jayev, S.Murodxo‘jayeva, D.Botirova, I.Krivoshlyeva; mustaqillik davrida esa rassomlardan S.Silka, D.Vlasov, S.Ryabyh, M.Qoraboyev, tarbiyalanuvchilari B.Ismoilov, A.Safin, S.Chufarnov, G.Matevosyan, A.Muhamedov, A.Gvardin, J.Turdixo‘jaev, B.Salahutdinov, rejissyorlar Vladimir Nikitin, N.Smirnov, M.Kudrina kabi yosh iste’dodli ijodkorlar samarali xizmat qilib kelishmoqda. Shuningdek, “Sinema Servis” (2008), “VRC” (2006), “Futurist studio” (2011) va “Astir animatsiya studio” (2016) xususiy studiyalari ham shular jumlasidandir.

Mustaqillik davriga kelib, ulug’ ajdodlarimizdan meros bo‘lgan ulkan tariximiz, xalq ijodining afsonaviy epik qahramonlari va buyuk ajdodlarimiz siymolari multpilkatsiya ekranida gavdalana boshladi. Milliy qahramon, milliyxarakter va obrazlar buyuk mutafakkirimiz Navoiy “Xamsa”sining “Bahrom va Dilorom” (1996), “Farhod va Shirin” (2010) dostonlari asosida yaratilgan. “Jaloliddin haqida doston” (1999), “Alpomish” (1999), “To’maris” (2002), “Spitamen” (2010), “Shiroq haqida afsona” (2011) kabi filmlarda o’z aksini topdi. Sobiq ittifoq davrida, asosan, ertak janrida filmlar yaratilgan bo’lsa, 1991-yildan folklor asarlari asosida tarixiy, sarguzasht, melodrama, komediya singari janrlardo irasi kengaydi. Shuningdek, yangi texnologiyalarning yuzaga kelishi bilan mazkur san’atga yana qiziqish paydo bo’la boshladi. Bu davrgacha qo’g’irchoq, chizma va prekladka texnologiyalari asosida yaratilib kelingan bo’lsa, bular qatoriga chizma kompyuter (2D) texnologiyasi kirib keldi. Mazkur texnologiya bevosita kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bu borada kompyuter grafikasiga oid Adobe Flash, Adobe After Effects, Adobe Photoshop, Toonz, Toon Bum Studio, Anime Studio, 2D, 3D kabi ko’plab dasturlar qo’l keladi.

Butexnologiyadunyodavlatlari:Amerika, Fransiya, Yaponiya, Rossiya

multiplikatsiyasida kuchli rivoj topgan. Ushba texnologiya asosida film yaratish o'zbek multsan'atida 1998-yil o'rtalarida paydo bo'ldi. 1994-yil Multbirlashmaga rejissyor assistenti bo'lib, mahoratli ijodkor M.Mahmudovga shogird sifatida ish boshlagan D.Vlasov avvaliga arab xalq ertagi asosida yaratilgan "Simbodning sarguzashtlari" (1994), A.Navoiy "Xamsa" sining "Bahrom va Dilorom" dostoni asosidagi filmda (1996 ), "Yanchar quyon" (1997), "Qoziq" (1998) kabi filmlarning yaratilishida ishtirok etib, o'zlashtirgan tajriba natijasida "Irifantastikilm" studiyasi bilan hamkorlikda chizma kompyuter (2D) texnologiyasida ilk "Motsart" (1998) filmini yaratadi. Bu film ikki novelladan iborat bo'lib, ularda insonning olamga va atrofdagi odamlarga murakkab munosabati haqida falsafiy fikr yuritiladi. Film avstriyalik bastakor Motsart nomi bilan atalib, asarda kuyning ijo etilishi ham shu bilan bog'liq. Kompyuter texnologiyasida tajriba sifatida yaratilgan bu film natijasida o'zbek multiplikatsiyasi astasekin zamon bilan hamnafas rivoj topibordi.

O'zbekistonda bu sohani rivojlantirish uchun yo'lga qo'yilgan ba'zi bir ishlar samarasi sifatida maxsus effektlardan foydalanib, 3D texnologiyasida animatsion film yaratilgan. Ushbu animatsion film o'zbek xalq shoiri A.Oripovning "Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir" she'ri motivi asosida "Samoviy mehmon" (ssenariy muallifi - U.Qo'chqorov, rejissyor - M.Mahmudov, rassomlar - D.Jalilova, S.Jumaev, Sh.Rahmatullaev, S.Karimov, bosh animator - J.Bo'taev, animatorlar - V.Speransky, D.Kubasov, S.Abdunazarov, D.Do'stmuhammedov, modelchi va teksturachilar - V.Uchaev, J.Bo'taev, R.Po'latov, S. Jumaev, visualizator - R.Po'latov, D.Kubanov, V.Uchaev) multfilmi yaratilgan.

Mamlakatimizda mazkur texnologiya asosida "Sohibjamol qo'g'irchoq" (2011), "Aqltoyning sarguzashtlari" (2014), "Rustam va Said" (2015), "Toshbaqa" (2016), "Bo'ynoq" (2016), "Kenja Botir" (2017) kabi multfilmlar yaratilgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. "The History of animation".
2. O'zbekistonda multiplikatsiya san'atining paydo bo'lishi nomli maqola. Xaydarova Nigora.

Nigina Olimjon qizi Xakimova,  
1-kurs “Teatr sa’nati” mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: s.f.d., professor M.T.To’laxo’jayeva

## ALISHER NAVOIY VA UNING ASARLARI SAHNA VA EKRANDA JONLANISHI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning tilimiz rivojiga qo’shgan hissasi, uning asarlarini mohiyati, ma’no-mazmuni va asarlarning sahnadagi talqini haqida fikr yuritiladi.

### Аннотация

В статье рассматривается вклад великого мыслителя Алишера Навои в развитие нашего языка, сущность, смысл и интерпретация его сценических произведений.

### Annotation

The article examines the contribution of the great thinker Alisher Navoi to the development of our language, the essence, meaning and interpretation of his stage works

### Kalit so‘zlar

Adabiyot, san’at, falsafa, asarlar, dostonchilik, teatr, sahna, drama, opera, musiqa.

### Ключевые слова

Литература, искусство, философия, произведения, эпосы, театр, сцена, драма, опера, музыка.

### Key words

Literature, art, philosophy, works, epics, theater, stage, drama, opera, music

“Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”.

**M**utafakkir bobomiz Alisher Navoiyning “Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” degan satrlarida qanchalik chuqur ma’no bor. Ya’ni bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir. Xalqning g‘amidan uzoq

bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi.

Alisher Navoiy – davlat arbobi, faylasuf va shoir, uning nafaqat adabiyot sohasiga qo'shgan hissasi, balki har bir sohada o'zining izlanishlari bilan ijod qilib, turli xil yo'nalishlarga oid asarlar yozib, o'zidan ulkan ma'naviy meros qoldirganligi bilan ham ifodalananadi. Navoiy ijodining salmoqli qismi nasriy asarlardan iborat. Ular ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiylar va ilmiy-falsafiy yo'nalishdadir. Adabiyot, san'at, musiqa, falsafa, tarix, davlat boshqaruv, hattoki iqtisodiyot sohalarida ham izlanishlar olib borib, ilmiy risolalar yozadi. "Tarixi anbiyo va hukamo", "Vaqfiya", "Tarixi mulki Ajam", "Tarixi Tabariy", "Shohnoma" asarlari shular jumlasidandir.

Uning g'azallari va ruboilyari esa to'g'ridan-to'g'ri inson qalbiga yetib borib, qalbni va ongni poklaydi, inson ruhini esa tiniqlashtiradi.

Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.

Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ong-u shuurimiz yuragimizga Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalikko'pbahramandetsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli, ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandas, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir."

Buyuk shoir va mutafakkir, so'z mulkining sultonı Mir Alisher Navoiy barcha turkiy xalqlarning buyuk shoiridir. Buyuk shoir Xurosonda, uning poytaxti Hirotdayashabo'tdi. Qadim zamonlarda, shu jumladan, Navoiy yashagan davrda ham Xuroson va Movarounnahr bir mamlakat bo'lib, bir taxt egasi ixtiyorida kelgan, aholisining asosiy qismini turkiy xalqlar tashkil etgan. Zahiriddin Muhammad Bobur "Navoiy tili Andijon shevasi bilan rost" ekanligini aytadi. Binobarin, bizo'zbeklar

turkiylarning eng qadim bo‘g‘inini tashkil etgan va bugun o‘zbek millati bo‘lib shakllangan xalq buyuk Navoiyning bevosita vorislaridirmiz. Navoiydek jahoniy zotga avlodlik va vorisik hissi har bir o‘zbekning qalbini g‘urur va iftixor tuyg‘ulari bilan to‘ldiradi.

Manabiz buyil Navoiy tavalludining 578yilligini nishonlamoqdamiz. Yarim asrdan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa ham, Navoiy ijodi hali-hamon o‘rganilmoqda. Asarlari tahlil qilinib, g‘azallari kuyga solinmoqda. Dostonlari esa sahna va ekranda jonlantirilmoqda.

Alisher Navoiyning ko‘pgina asarlarining ilmiy-tanqidiy matni ishlab chiqildi. “Devoni Foni” va boshqa asarlarining nodir nusxalari topilib, nashr etildi. XXasrda Alisher Navoiyning chinakam sahnnaviy hayoti boshlandi. Izzat Sulton va Uyg‘un “Alisher Navoiy” dramasini (1945, 1948), I. Mahsumov bastakorlar Y. Rajabiy va S.Jalil bilan hamkorlikda “Navoiy Astrobodda” musiqali dramasini (1967) yozdilar. Alisher Navoiy obrazi kinoekranlarda ham mujassamlashdi. Alisher Navoiy dostonlari asosida yaratilgan “Farhod va Shirin” musiqali dramasi (1937), “Layli va Majnun” operasi (1942), “Suhayl va Mehr” baleti (1967), “Dilorom” operasi (1958), “Iskandar” dramasi (1991) teatr san’atining eng yaxshi asarlaridan bo‘lib qoldi.

“Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Sabba’i sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlari asosidasahnalashtirilgan spektakllary uqoridagi fikrimizning isbotidir. Bu asarlar, ayniqsa, Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatri sahnasida yillar davomida qayta-qayta sahnalashtirilib kelinadi.

Musiqali teatr dastlab 1930-1935-yillar mobaynida “Layli va Majnun” hamda “Farhod va Shirin” spektakllarini xalq cholg‘ulari jo‘rligida sahnalashtirdi.

1936-yil teatrning xalq ardog‘ida bo‘lgan spektakllaridan biri – “Farhod va Shirin”ning adabiy va musiqiy asosi tahrirdan o‘tkazilib, opera rejissyori Yungvald-Xilkyevich tomonidan simfonik orkestr bilan qayta sahnalashtirildi. Keyin esa “Layli va Majnun” spektakli qayta ishlandi. Asar musiqasini o‘zbek milliy musiqa merosining bilimdoni, etnografik kompozitori V.A.Uspenskiy qayta ishlab berdi.

Teatr jamoasi izlanishda faqat sahna san'atiga xos bir haqiqat, musiqali drama janrida ish ko'rvuchi teatr amaliyoti ertaknamo, ko'tarinki romantik mavzuni xush ko'radi. Ana shu shart va xususiyatga amal qilib yaratilgan asarlar odatda, ham umrboqiy, ham tomoshabin e'tiborini tortadigan bo'ladi. Shuning uchun ham teatr mazkur mavzuni izchilik bilan davom ettirdi. 1954-yil "Farhod va Shirin" asari sahnalashtirilib, o'zining dostonchilik yo'nalishini davom ettirdi.

Oradan yillar o'tib, 80-yillarda teatr jamoasi musiqali drama teatrining tarixiy an'analariga amal qilgan holda yana 1986-yili "Layli va Majnun" spektaklini sahnalashtiradi. Teatr sahnasidasahnalashtirilgan asarlar ichida dostonchilik katta o'rin tutib kelgan va unga xalqning e'tibori bo'lakcha. Ana shuning uchun ham teatr qachon dostonchilikka murojaat etmasin, uni savodli talqin etganda, spektaklni xalq doim yopirilib tomosha qilib, ijrochilarни ko'kka ko'targan. Bunga Mannon Uyg'urning XX asr 20-yillaridagi "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" spektakllarining ovozasi, so'ngra mazkur dostonlar asosida 30-yillarda yaratilgan spektakllarni davlat musiqali teatri va viloyat teatrlari sahnalariga ko'chib, mutassil o'ynalishi va ularga jamoatchilikning e'tibori tobora oshib borganligi yaqqol misol bo'la oladi.

Darvoqe, Bahrom Kamolov sahnalashtirgan va bosh rollarda Muhtaram Nosirova va Majid Mamatov rol ijro etgan "Layli va Majnun" spektakli tomoshabinlarning ruhiy-hissiy hayotiga bir umr chuqur iz qoldirdi. Sabab nima? Nainki rejissura yoki ijro nuqtai nazaridan spektakl shu qadar zo'r bo'lsa? Bunga sabab shu ediki, spektakl boshdan oyoqruiy-hissiy kechinmalar, iztiroblarni ifoda qilishga qo'l keladigan ellikka yaqin maqom va yirik formadagi xalq kuylari asosiga qurilgan edi. Buning ustiga Muhtaram Nosirova va Majid Mamatov muhabbat kuchini, qalb tug'yonini, oshiq-ma'shuqlarning hasrat-nadomatlari va dard-alamlarini, ularning pokligi, bir-biriga nisbatan cheksiz sadoqatini so'zdan va sahnaviy xatti-harakatdan ko'ra ariya va duetlarda yaxshi ifoda qilgan edilar. Spektakl ba'zan to'rt soatga cho'zilsa-da, hech kim o'rnidan jilmay, ashulalarni sel bo'lib

tinglar, nafasini ichiga yutgancha, sahnadagi voqealarni kuzatar edi. Bu – Alisher Navoiy dahosining sharofatidan, maqomning mo‘jizakor va jozibadorligidan, vokal ijrochiligining ta’sirchanligidan va dramatizmidan edi, albatta.

Bu kabi sevimli dostonlarimiz hozirgi kunda ham yangicha talqin bilan sahnalashtirilmoqda. Ayniqsa, “Xamsa”ning go‘zal poetik dostoni bo‘lmish “Layli va Majnun” yana bir bor yangicha talqinda Navoiy tavalludining 575 yilligi munosabati bilan Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatr sahnasida tomoshabinlarga havola etildi.

Mazkur asarni, umuman, “Xamsa”ning boshqa dostonlarini sahnaga olib chiqish ijodkor zimmasiga ulkan ma’suliyat yuklaydi. Xususan, “Layli va Majnun”ning badiiy barkamolligi, qahramonlaning tabiiy, yorqin xarakteri, go‘zal muhabbat syujeti, tasavvuf adabiyotiga xos ishqiy-ilohiy motivlarni to‘la anglagan holda sahnalashtirish juda murakkab vazifa. Shu bois, spektaklga tajribali ijodkorlar jalb qilindi. Xurshid qalamiga mansub musiqali drama matnini adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayev qayta ishladi. Shuningdek, sahna dekoratsiyasi bo‘yicha rassom Baxtiyor To‘rayev, liboslar bo‘yicha Lobar Mamatqulovalar ishlagan bo‘lsa, raqs va plastik harakatlarni Malika Iskandarova sahnalashtirdi. Barchaning maqsadi, fikr-u xayoli Navoiy dunyosiga kirib borish, shoir ijodiy merosining sahnaviy shaklini topishga qaratildi.

Yana spektaklga Alisher Navoiy obrazi ham kiritilgan. Voqealar avvalida sahnaga chiqib, tafsilotlarning bevosita sharhlovchisi sifatidaishtirot etuvchi, go‘yo olis moziydan turib bugungi kunimizga nazar tashlovchi buyuk shoir obrazini iste’dodli aktyor Aziz Latipov gavdalantirgan. Navoiy voqealar davomida sahnaga chiqib, qahramonlar taqdiriga munosabat bildiradi, ishq haqida ibratli hikmatlar, g‘azallar o‘qiydi. Spektaklda qatnashgan har bir qahramon shoir g‘oyasini va rejissyor maqsadini yuzaga chiqarish uchun intildi.

Mustaqillikka erishgach, xalqimiz Navoiy hayoti va ijodini chuqr o‘rgandi. 1991-yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanali nishonlandi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi

Davlat mukofoti ta'sis etildi. Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i barpo etildi va bu bog'o'rtasida shoirning salobatli haykali qad ko'tardi. Shoirning zo jildli mukammal asarlar to'plami nashr etildi. Mamlakatimizda Alisher Navoiy xotirasi yuksak darajada e'zozlanadi. Bir viloyat, shahar, oliy o'quv yurti (Samarqand davlat universiteti), Toshkentdagi Davlat kutubxonasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti, Adabiyot muzeyi, Toshkentdagi Katta akademik opera va balet teatri, San'at saroyi, Toshkentdagi metro bekati, o'nlab ko'chalar va jamoa xo'jaliklari uning nomi bilan atalgan. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlab haykaltaroshlar, rassomlar va bastakorlar asarlar yaratishgan. Har yili Alisher Navoiy tug'ilgan kun – 9-fevralda ilmiy-an'naviy konferensiya o'tkazilib, Alisher Navoiy merosini o'rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasaladi.

Yangi san'atimiz va adabiyotimizning yo'li porloq va uzoq. Bu yo'lida Navoiy siyoshi bizga doimo rahnamo va uning boy ijodiy merosi aso bo'ladi.

### Foydalaniqan adabiyotlar:

1. Islom Karimov. „Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. Toshkent „Ma'naviyat” 2015y. 47b.
2. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Sh.M.Mirziyoyev. 2017-yil.
3. <http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>
4. T.Tursunov “XX asr o'zbek teatr tarixi”. “Toshkent” 2010-yil.
5. M.Qodirov “Sehr va mehr”. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 1980.
6. “Teatr” jurnali 2016-yil. 1-son.
7. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasining 2009 yil 11-soni.
8. A. Qayumov. Alisher Navoiy (Mashhursiyimolar hayoti). Toshkent. Kamalak. 1991y.

Oybek Sirojiddin o'g'li Qulmurodov,  
1-kurs "Qo'g'irchoq teatri aktyorligi"  
mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbari: Yusupova Vinera v.b. dotsent

## YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA TEATR SAN'ATINING AHAMIYATI VA BU BORADAGI AMALIY NATIJALAR

### Annotation

Hozirgi kunda yosh avlodni ma'naviy va ruhiy barkamol qilib tarbiyalashvazifasidavlattomonidan ustuvormaqsadqilib belgilangan. Bu borada teatr san'atining ahamiyati va roli haqida maqolada fikr yuritilgan.

### Аннотация

Сегодня задача воспитания подрастающего поколения в духовной и духовной гармонии является приоритетной задачей государства. В статье рассматривается значение и роль театрального искусства в этом отношении.

### Kalit so'zlar

Teatr, san'at, madaniyat, yoshlari, ijodiy salohiyat, spektakl, qo'g'irchoq teatri, mafkuraviy immunitet.

### Ключевые слова

Театр, искусство, культура, молодежь, творческий потенциал, спектакл, кукольный театр, идеологический иммунитет.

### Annotation

Today, the task of educating the younger generation in spiritual and spiritual harmony is a priority task of the state. The article examines the significance and role of theatrical art in this regard.

### Key words

Theater, art, culture, youth, creative potential, performance, puppet theater, ideological immunity,

*Adabiyot, san'at va madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir.*

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat Mirziyoyev**

**M**adaniyatimiz ko‘zgusi bo‘lgan teatr san’atini sof san’at taraqqiyoti nuqtai nazaridan o‘rganish, tahlil etish uning serqirra ijod namunalaridan yoshlarni bahramand qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Zero, bugungi yosh avlod, ya’ni mustahkam e’tiqodga ega bo‘lgan shaxs o‘zligini tanigan, millat va xalqini sevuvchi, ona yerini ardoqlovchi, jahon yangiliklaridan xabardor, ozod tafakkurli, milliyg‘ururi butun, hayot mashaqqatlaridan cho‘chimaydigan, yo‘lidan og‘ishmay, maqsad sari intiluvchan bo‘lishini davrning o‘zi talab qilmoqda. Shu bois, teatr san’ati orqali tomoshabin ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi asarlarni yaratib yoshlarga ibrat bo‘ladigan, ularni jasorat va matonat ruhida tarbiyalash, san’atga jalb etishida yangi kreativ yondoshuvlar orqali ularning qalbida vatanparvarlik, sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish teatr san’atining oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Mustaqillik davrida O‘zbek teatr san’ati milliy qadriyatlarni tiklash jarayoniga qo‘l urdi. Sho‘rolar davrida taqiqlangan asarlar teatrarda sahnalashtirildi, yangi zamonaviy asarlar yaratish harakati boshlandi. Turli teatrarda Fitratning “Abulfayzzon” tragediyasi, To‘ra Mirzoning “Amir Temur dramasi”, Cho‘lpionning “Kecha va kunduz” romani, “Yorqinoy” dramasi, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari asosida sahna asarlari yaratildi. Umuman olganda, o‘zbek teatr san’ati madaniyati yanada rivojlandi. [1, 266.] Aynan hozirgi kunda esa teatr san’atiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Zero, bugungi kunda teatr san’atini rivojlantirish orqali xalqimizni buyuk tarixdan bahramand etish, ajdodlar merosini yosh avlodga yetkazish, ularning ma’naviy dunyosini rivojlantirish, mafkuraviy immunitetlarini mustahkamlash kabi muhim masalalarni hal etish ko‘zlangan. Ushbu sohaga qaratilgan e’tiborni muhtaram Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Ushbu tashabbuslarning aynan birinchisi yoshlarni adabiyotga, teatr vasan’atning boshqa turlariga, musiqaga qiziqishlarini oshirish, iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish hisoblanadi. Butun viloyatlar bo‘ylab ushbu ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish chora-

tadbirlari amalga oshirildi. Teatr maskanlari, musiqa dargohlari, sport majmualari, kutubxonalar, umuman, barcha madaniyat va san'at maskanlari qaytadan zamonaviy rekonstruksiya qilindi yoki yangidan binolar qurildi. Yurtboshimiz tomonidan e'lon qilingan tashabbusda yana quyidagi masalalar ta'kidlandi:

- *Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha bir yarim mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi;*
- *Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi. [2]*

Yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashda, ularning ma'naviy olamini yuksaltirishda pand-nasihat bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Aynan tarbiya maskani bo'lgan teatr orqali ko'plab ijobiy natijalarga erishish mumkin. Yoshlarning tasavvuriga milliy g'oya va vatan tuyg'usini singdirishda sahna san'ati samarali ta'sirga ega bo'lib, teatr voqelarini tomoshabin ko'z o'ngiga ro'yrost namoyon qiladi va ayni xususiyati bilan yoshlarni nigohini bir zumda sehrlab oladi. Shu bilan bir qatorda, yoshlar o'z vaqtinibehuda o'tkazmaydi, shu jarayonning o'zida ham sahna bezaklari, spektakl aktyorlari, ertak qahramonlari, o'z tengdoshlari hayotini ko'rsatuvchi lavhalar bilan tanishadi. Zero, teatr ma'rifat ulashuvchi, sahna va tomoshabin o'rtasida jonli muloqot o'rnatuvchi maskan bo'lib, bu dargohda yuksak fazilatlar hamda umuminsoniy g'oyalari tarannum etiladi. Ta'sirli spektakl tomoshabinlarga turlichayta'sir qiladi. Kimdadir kulgi uyg'otadi, hayotga tanqidiy munosabatda bo'lishga o'rgatadi, nozik his-tuyg'ularni paydo qiladi.

Teatr san'ati ma'naviyatning eng yorqin, ta'sirchan ko'rinishlaridan biridir. Hozirgi kunda Respublikadagi har bir teatrni takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xalqimiz ma'naviyati va kamolotini oshiruvchi yangi spektakllar yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Zamon shiddat bilan o'zgarmoqda. Buyuk ma'naviy merosimiz, betakror qadriyatlarimiz, o'zbek milliy teatri an'analarini izchil davom ettirish, ularni yangi davr talablari asosida boyitib borish va rivojlantirish, bu sohadagi ilg'or uslublarni milliy ruh bilan uyg'unlashtirgan holda teatr san'atiga tatbiq etish kabi masalalar

juda ham muhimdir. Qolaversa, milliy istiqlol g'oyalariga hamohang, badiiy jihatdan yuksak, xalqchil, ibratli, zamonga mos sahna asarlari yaratish aynan hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Teatr shunday bir ilohiy dargohki, u odamlarning qalbiga beqiyos ta'sir o'tkazib, ularni muqim ezgulik va oliyjanoblikka chorlaydi. Chunki sahna san'ati odamlarga nafaqat zavq-shafq baxsh etishi, ayni vaqtida milliy g'urur, milliy iftixor manbayi, qudratli tarbiya vositasi ham bo'la olishi – bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Teatrning madaniy hayotimizdagi ulkan vazifasi to'g'risidagi uning o'rnini hech narsa bosa olmasligi haqida, umuman, teatrni ulug'lash, uning ta'sir kuchi haqida ko'p gapirish mumkin.

Mahmudxo'ja Behbudiylar ning ulkan ilmiy va adabiy merosi, hikmatli o'gitlari bir asrdan oshdiki, xalqimizning ma'naviy hayot yo'lini yoritib kelayotgan mayoqlardandir. Ayniqsa, budurdonalaryoshlartarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega. Masalan, ulug' ma'rifatparvar Behbudiyning: "Teatr – bu ibratxonadir" degan fikrini olaylik. Chindan ham teatr inson tafakkurini yuksaltirishda, xususan, yoshlarni ezgulikka chorlash, ularda Vatanni sevish, ota-onasini, oila va do'stlikni qadrlash, o'z kasbiga fidoiylik tuyg'ula-rini shakl-lantirishda muhim o'rinni tutadi. Ya'ni u insonga hayotiy saboq beradi. Binobarin, joylarda yoshlarni teatrlarga ko'proq jalb qilish, zamon qahramoni obrazini aks etgan spektakllarni ko'proq yaratish, qolaversa, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning ayanchli oqibatlarini kelajagimiz sohiblariga sahna asarlari orqali yetkazishga jiddiy e'tibor qaratilmoq-da. Ne-gaki, hamma yoshlar ham qonunchilik normalarini o'qish yoki eshitish bilan qaysidir noqo-nuniy xatti-harakatning mohiyatini te-ran anglamasligi mumkin. Ammo real voqealarga asoslangan spektakllarda ilgari surilgan g'oyalar nafaqat yoshlar, balki kattalarning ham qalb tubiga yetib boradi. Behbudiyning fikricha, ma'rifat uchun faqat maktab kifoya qilmaydi. Millat uchun oyna ke-rak, toki unda o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu haqiqat u kishini teatr tashkil etish, ular uchun asarlar yaratishga undagan. O'zbek dramaturgiyasining ilk namunalaridan biri sanalgan "Padarkush" asari shu sabablar tufayli ham yuzaga kelgan.

Teatr san'ati bevosita tarix bilan bog'liqdir. Uni ilmiy jihatdan o'rganish esa o'ta muhim vazifalardan biridir. Teatr san'atining uzoq va

yaqin tarixini qayta ko'rib chiqish, kemtiklarini to'ldirish, ba'zi davrlar, voqealar va sahma asarlarini qayta baholash teatrshunoslarimiz oldida turgan o'ta muhim va dolzarb vazifadir. Tarixni qayta xolis baholash va bundan keyin yanglishmaslik uchun esa to'g'ri dastur va tamoyillar, ya'ni haqiqatni ro'yobga chiqara oladigan ilmiy metodologiyalarga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiqli. [3, 62.]

Avvaloshuni qaydetish kerakki, teatrshunoslikda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarida istiqlol mafkurasi eng muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi zarur. Xalqimiz tarixini, madaniyatini, tilini, dinini, ruhiyatini, azaliy an'analarini, udumlarini, milliy madaniy merosni, odamlardaadolat, mehr-oqibat, hurmat, vatanparvarlik, insof, saxovat, kelajakka ishonch, buyuk ajdodlar bilan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ma'rifatli, bilimdon, komil inson qilib tarbiyalash milliy istiqlol mafkurasi negiznitashkil etadi. Fikrimcha, har bir yosh yuqoridagi fazilatlarni egallashi, ularga amal qilishi, vatanimiz kelajagi uchun o'z hissasini munosib qo'shishi lozim.

Yurtimizda xalq madaniyatini yuksaltirish, teatr san'atini yanada ravnaq toptirish borasida yaratilayotgan beqiyos imkoniyatlarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Bularni dildan his qilib, teran idrok etishimiz joiz. Zotan, asrlarga tatigulik bunday ibratli ishlar bilan har qancha g'ururlansak arziydi. Bizdan talab etiladigani esa milliy madaniyatimizning yanada ravnaq topishi uchun fidokorona xizmat qilishdir. Chunki milliy madaniyati yuksak xalq jahon hamjamiatida mustahkam mavqega ega bo'lib, kelajagi yorqin bo'ladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.U.Qoraboyev.Milliy madaniyat masalalari. -Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti. 2009, 288 b.
2. "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi". «Правда востока»nashri. 2019-yil 29-mart.
3. Istiqlol va milliy teatr. "Yangi asr avlodi". Toshkent 2020-yil. 235 b.



Хусан Шухратович Абдуллаев,  
магистрант 1-курса по специальности  
“Культурология”  
Научный руководитель: к.п.н., доцент Абдурахманов И.Р

# РЕФОРМЫ И ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ В МЕЖДУНАРОДНЫХ КУЛЬТУРНЫХ ОТНОШЕНИЯХ (XALQARO MADANIY ALOQALARDAGI ISLOHOTLAR VA IJOBIY NATIJALAR)

## Аннотация

В статье рассматриваются межнациональные культурные связи и межнациональные отношения в нашей стране, так как развитие международного сотрудничества и дружественных связей с зарубежными странами в целях укрепления межнациональных отношений, защиту прав, свобод и законных интересов граждан на территории страны и за ее пределами, поддержку соотечественников и осуществление тесного сотрудничества с узбекскими диаспорами за рубежом, повышение авторитета и имиджа Узбекистана на мировой арене являются очень важными факторами в нашей Республике.

## Annotatsiya

Yurtimizda millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakat hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash va xorijdagi o'zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O'zbekistonning jahon maydonidagi obro'-e'tibori va imijini oshirish kabi masalalar dolzarb sanaladi. Maqoladayurtimizdagi xalqaro madaniy aloqalar, millatlararo munosabatlar haqida fikr yuritilgan.

## Annotation

The article examines interethnic cultural ties and interethnic relations in our country, as the development of international cooperation and friendly ties with foreign countries in order to strengthen interethnic relations, protection of the rights, freedoms and legitimate interests of citizens on the territory of the country and abroad, support of compatriots and the implementation of close cooperation with

the Uzbek diasporas abroad, increasing the authority and image of Uzbekistan in the world arena are very important factors in our Republic.

### Kalit so‘zlar

Xalqaro madaniy aloqa, madaniyat, integratsiya, hamkorlik, festival, konferensiya.

### Ключевые слова

Международные культурные связи, культура, межнациональные отношения, интеграция, сотрудничество, фестивали, конференции.

### Key words

International cultural ties, culture, interethnic relations, integration, cooperation, festivals, conferences.

**O’ZDSMI**

Один из важных задач в нашей стране является сфера культуры и искусства. В эти дни реализуется много планов. К примеру, осуществляется сохранение и развитие высоких духовных ценностей и духовного наследия нашего народа, сформировавшихся веками и в гармонии с мировой культурой, широкое продвижение национальной культуры, дальнейшее укрепление ее места и положения в международном культурном пространстве.

С первых дней своей деятельности Президент Шавкат Мирзиёев проводит политику региональной открытости и сотрудничества. Растущая открытость нашей страны мировому сообществу повышает ее престиж на международной арене и создает большие возможности для сотрудничества.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев 20-22 января 2019 года находился с официальным визитом в Федеративной Республике Германия. На встрече было отмечено, что в текущем процессе модернизации экономики, науки, культуры и искусства Узбекистана важно широко использовать передовой опыт Германии. На встрече также обсуждались отношения в культурно-гуманитарной сфере.

В центре внимания стояло использование эффективных немецких педагогических технологий в школьном образовании, открытие филиалов ведущих немецких вузов в Узбекистане, перспективы расширения культурных связей между нашими народами.

«Германия полностью поддерживает проводимые в Узбекистане широкомасштабные реформы, особенно его политику, направленную на развитие добрососедства со странами региона», - сказал Президент Федеративной Республики Германия Франк-Вальтер Штайнмайер. [1]

Развитые страны достигли высоких результатов, приняв научный подход во всех областях. В нашей стране также проводятся большие исследования и реформы. В нашей стране особое внимание уделяется организации взаимовыгодных международных отношений в сфере культуры. Об этом свидетельствует рост числа международных мероприятий в последние годы. Фестивали, конференции и конференции высокого уровня укрепляют позиций Узбекистана в мировом сообществе и повышают интерес к нашей культуре.

Уважение к классической литературе Востока, изобразительному искусству, науке и просвещению, искусству макома, сочетающему в себе исламские ценности, было выражено на первой международной конференции по искусству макома в нашей стране. В нем приняли участие около 300 участников и гостей из 73 стран мира.

В этом году в Послании Олий Мажлису Президент сказал: «Наши реформы хвалят мировое сообщество. В частности, одно из ведущих мировых изданий - журнал «Экономист» признал Узбекистан страной с самыми быстрыми реформами в 2019 году - «Страной года». Я думаю, вы поддержите эту идею, так как она вселяет в нас чувство гордости и энергии, вдохновляет на новые высоты», - сказал он. [2] Ведь интересы народа и развитие страны лежат в основе проводимых в нашей стране реформ. Считаю,

что каждый из нас должен верно служить инициативам нашего Президента, выражая свое отношение.

За последние годы проделана масштабная работа, направленная на реализацию одного из приоритетов государственной политики – обеспечение межнационального согласия и толерантности в обществе, укрепление атмосферы дружбы и чувства единой большой многонациональной семьи, воспитание молодежи в духе любви и преданности Родине, уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, расширение культурно-просветительских связей с зарубежными странами. Активно претворяются в жизнь положения Конституции Республики Узбекистан, провозглашающие и гарантирующие, что народ Узбекистана составляют граждане Республики Узбекистан, независимо от их национальности, а также Республика Узбекистан обеспечивает уважительное отношение к языкам, обычаям и традициям наций и народностей, проживающих на ее территории, создание условий для их развития. [3]

Президент Шавкат Мирзиёев укрепляет сотрудничество с зарубежными странами и мировым сообществом. Все это послужит основой светлого будущего нашей страны. Благодаря культурным обменам, культуре и искусству узы гармонии, дружбы и сотрудничества будут и дальше развиваться.

В последние годы в нашей стране прошло множество международных фестивалей, мероприятий, конференций и форумов. В них приняли участие представители более 100 стран мира. Необходимо и дальше активизировать культурные связи и разрабатывать системные планы. Реформы нужно проводить так, чтобы они работали годами.

Времена стремительно меняются. Достичь результатов старыми или традиционными методами в настоящее время немного сложно. Необходимо искать творческие пути для развития культурных

связей между странами и проводить исследования в этой области. В стране проводится множество конкурсов инновационных, исследовательских, опытно-конструкторских и стартап-проектов, но эти проекты не охватывают большое количество молодежи.

Не думаю, что молодым людям дано достаточно знаний и навыков в этой области. У молодых людей есть идеи и проекты, но нет необходимого понимания механизмов их реализации. Вероятно, отчасти это связано с отсутствием материально-технических средств. Я считаю, что к этой работе необходимо привлекать иностранных специалистов, более глубоко задуматься о передаче знаний и навыков молодежи онлайн, даже удаленно, и систематически работать над ее реализацией.

### **Литература:**

1. «Узбекистан-Германия: новая страница взаимовыгодного сотрудничества»
  - Т: “Узбекистан” НМИУ, 2019. 212 стр.
2. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. Газета “Правда востока” 2020 г. 26 январь.
3. Ш.Мирзиёев. “Об утверждении Концепции государственной политики Республики Узбекистан в сфере межнациональных отношений”. Указ Президента Республики Узбекистан УП-5876 15.11.2019.

## SAN’AT VA MADANIYAT MUASSASALARINING BUGUNGI FAOLIYATIGA NAZAR

**O**‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar uchun muhim hisoblangan tashabbuslar qatorida, tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan, fuqarolarning aynan yoshlar qatlami umume’tirof etilgan o’zgarishlar ko’zga tashlanmoqda. Jumladan, Prezidentimizning “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko’taramiz”, – degan fikri bunga isbot desak mubolag‘a bo’lmaydi.

O‘zbekistondagi bo’layotgan tub o’zgarishlar va yoshlarni faollashtirish bo‘yicha takliflar, nafaqat respublikamiz fuqarolariga, balki Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko’rsatayotganligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Mamlakatimizda zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimini modernizatsiya qilish sharoitida yosh avlodni estetik tarbiyalashga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etilganligi barchaning e’tiborini o‘ziga jalb qildi. Shu jumladan, bugungi kunda aholining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo’lgan yoshlar tashkil etganligi, bilim va kasb-hunar egallash uchun zamonaviy sharoitlar va keng imkoniyatlar yaratilganligi, shu bilan birga, yoshlarning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, uyushmagan yoshlarga jiddiy e’tibor qaratish, ularni savodxonlikkachorlash bo‘yicha berilayotgan takliflar, yoshlarni ustoz-shogird an’anasi mustahkamlash va boyitishga qaratilganloyihalar – bularning barchasidan’at va madaniyat sohasining bugungi kundagi ahamiyatini o‘zida mujassam etadi, desak o’rinlidir. Yoshlarning ma’naviyatini qanchalik baland darajaga ko’tara olsak, ularning yot hodisalarga nisbatan immuniteti shunchalik kuchliroq bo’lishini Prezidentimiz har bir nutqida ta’kidlab o’tadi.

Bularning har biriga alohida to’xtalib o’tadigan bo’lsak, davlatimiz

rahbari tomonidan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-madaniy ishlarni yangi tizim asosida tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surganligi yoshlarni yanada shiddat bilan ishlashga undayotganligini his qilamiz. Shulardan:

- 1) yoshlarning musiqa, rasm, adabiyot, teatr va boshqa san'at turlariga qiziqishini oshirish – ularning iste'dodini ro'yobga chiqarishga yordam berayotganligi;
- 2) yoshlarning jismoniy holati, ularni sportga jalb etish – bu demak, o'z qobiliyatini namoyish qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilayotganligi;
- 3) aholi va yoshlar tomonidan kompyuter texnologiyalaridan va Internetdan samarali foydalanishi tashkil etish – eng zarur va eng muhim soha hisoblanib – har bir yangi texnologiyaga ilm-fan asosida yondashib egallashga, oqilona foydalanishga va sifatli tajribalar toplashga undayotganligi;
- 4) yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish borasida, kitob mutolaasini keng targ'ib qilish bilan bir qatorda kitobni sevish va qadrlashga, yangi loyiha va kashfiyotlar yaratishga zamin bo'lib xizmat qilinayotganligi;
- 5) ayollar bandligini ta'minlash – yosh qizlarimizning kasb egasi bo'lishiga, eng muhimi, bola tarbiyasida zamonga mos bilim asosida yondashishga, bilimni bosqichma-bosqich egallab borishga da'vat etilayotganligi borasida amalga oshirilayotgan bir qator islohotlar hozirdanoq o'z natijasini bera boshlaganini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu ezgu tashabbuslar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 19-fevralda Sirdaryo viloyatiga safari paytida e'lon qilingan edi. Ularni xalqimiz, ayniqsa, yoshlar katta qiziqish bilan kutib olishdi. Ushbu tashabbuslarni amalga oshirish uchun har xil to'garaklar, maktablar, studiyalarni san'at turlari bo'yicha tashkil etish bo'yicha amaliy ishlarni, shuningdek, ijtimoiy va madaniy ishlarni tashkil etishning ilmiy, nazariy, uslubiy masalalarini ishlab chiqishni talab qiladigan tashabbuslar tavsiya etilmoqda.

2019-yil 30-mart kuni 264-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida Madaniyat markazlari to'g'risida Namunaviy nizomi tasdiqlandi.

Ushbu Markaz O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi davlat muassasasi bo‘lib, aholining madaniy ehtiyojlarini o‘rganish hamda ma’naviy-ma’rifiy va ko‘ngilochar xususiyatga ega bo‘lgan turli madaniy xizmatlar ko‘rsatish, havaskorlik, badiiy ijod va amaliy san’at bilan shug‘ullanuvchilar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish uning asosiy faoliyati hisoblanadi.

Markazning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo‘sh vaqtlarining mazmunli o‘tishini ta’minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an‘analarni o‘zida mujassam etgan namunali dasturlarni shakllantirish, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san’atini saqlab qolish va rivojlantirish, turli xil to‘garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- 1) *aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo‘sh vaqtlarining mazmunli o‘tishini ta’minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an‘analarni o‘zida mujassam etgan namunali dasturlarini shakllantirish;*
- 2) *xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san’atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, havaskorlik guruuhlari tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli ravishda boyitib borish;*
- 3) *bolalarni to‘garaklarga jalb etish, xorijiy tillarni o‘rganish va «nutq madaniyati» bo‘yicha kurslar tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo‘nalishlari, havaskorlik san’ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ‘ib qilish hamda ularni asl holicha kelajak avlodga yetkazish;*
- 4) *adabiyot hamda san’at arboblari va professional ijodiy guruuhlar bilan ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar tashkil etib, ular ishtirokida aholi, xususan, yoshlar bilan bevosita badiiy uchrashuvlar va davra suhbatlari o‘tkazish;*
- 5) *tanlovlari, xalq ijodiyoti va tomosha san’atining tuman (shahar) festivallarini o‘tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash;*

6) ommaviy bayram, tomosha va xalq sayillarini tashkillashtirish, ijtimoiy-madaniy sohada yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha ularga pulli xizmatlar ko'rsatish;

7) turli xil to'garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalarini yo'nalishlarda tashkil etish.

Ma'lumot ornida yoshlarga oid siyosat tushunchasiga to'xtalib o'tish ahamiyatli hisoblanadi. Yoshlarga oid siyosat – bu O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkonimiz boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir. Eslatib o'tish joiz, 1991-yil 20-noyabrdan "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz tadqiqot sifatida o'rganayotgan mavzumiz san'at va madaniyatning bugungi faoliyati haqida bo'lar ekan, bunda albatta o'z mutaxassisligimiz borasida to'xtalib o'tishimizga to'g'ri keladi. San'at menejeri – bu kim? Qanday bilim va fazilatlarga ega bo'lishi kerak? Badiiy menejer-chi? Ularning farqi qanday? Mana shunga o'xshash savollar bugungi kunda san'at va madaniyat muassasalariga eng dolzarb masala sifatida o'rta ga tashlanmoqda. Demak, sohaning tizimli islohotlarni amalga oshirishida albatta san'at menejerining ham, badiiy menejering ham faoliyatini isloh qilish va mukammal shakllantirish muhim masala hisoblanadi.

Olim va ijodkorlar fikriga ko'ra, jumladan san'atshunos, zamonaviy san'at institutining direktori Jozef Betshteyn bu kasb egasi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "San'at menejeri – bu san'at bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalarni keng tushunadigan va keyinchalik uni targ'ib etadigan shaxs hisoblanadi. Ya'ni, san'atning tarixi, san'at muassasalarining ishlash mexanizmi, san'at olamida sodir bo'layotgan voqealar olamini chuqur anglaydigan va eng muhim jihatlaridan biri – barcha ishtirokchilarning tilini topish qobiliyati va bilimiga ega bo'lishlar shart".

San'at menejmenti va Galereya biznesi fakulteti kuratori Nikolay Palajchenko san'at menejeriga zarur bo'lgan asosiy fazilarini sanab o'tdi:

- *san'atni tushunish: agar inson san'atda biror narsa qilishni xohlasa, unga bu sohada chuqur bilim kerak. Biznesni rejalashtirayotganda, hech bo'limganda ertaga san'at bilan nima sodir bo'lishi, qaysi yo'naliishlarda rivojlanishi va hokazolar to'g'risida taxminiy tasavvurga ega bo'lish kerak.*
- *tashkilotchilik va ko'p qirralilik: hamma narsani to'g'ri va o'z vaqtida bajarish qobiliyati, shuningdek, badiiy ijoddagi turli jarayonlar qanday ishlashini tezda anglash;*
- *axborot bilan ishlash qobiliyati: atrofingizdagi ma'lumotlarni tarqatish va badiiy jamoatchilikda aylanayotganidan foydalanish, shuningdek doimiy ravishda yangi aloqa kanallarini izlash.*
- *odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati.*
- *yaxshi munosabat va o'zgarishga tayyorlik: badiiy menejment - bu tez o'zgaruvchan va o'sib boradigan muhit bo'lib, unda haqiqat o'zgarishi uchun o'rtacha vaqt olti oyni tashkil etadi. Shuning uchun, tezda moslashishga qodir bo'lish muhimdir.*

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, san'at va madaniyat sohalari faoliyati har doim tajribali mutaxassislarga g'amxo'rlik bilan bir qatorda albatta yoshlarga e'tibor bilan yuqori natijalarga erishishi mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar esa bu borada ayni muddao bo'lib xizmat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston" 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir". O'zbekiston ijodkor ziylilari vakillaori bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi.2017 yil 4-avgust
3. Mirziyoyev Sh.M. "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni vata'siriniyanada oshirishchora-tadbirlarito'g'risida"gi PF-6000-sonli Farmoni. /Xalq so'zi. 2020-yil 27-may.



**Hilola Akmal qizi Karimova,**  
**1-bosqich “Kino va televideniya rejissyorligi” mutaxassisligi**  
**magistranti.**  
**Ilmiy rahbar: S. f. n. Feruza Fayziyeva**

## KINOMI BU YO KLIPMI?

### Annotationsya

Mazkur maqola hozirgi kundagi ayrim o‘zbek badiiy filmlarida ovoz va musiqa, shu bilan birga qo‘sinqdan noo‘rin foydalanilishi, musiqaning kinodramaturgiyaga xizmat qilishi haqida.

### Аннотация

Данная статья о неправильном использовании звука, музыки и песен в некоторых современных узбекских художественных фильмах, а также о роли музыки в кинодраматургии.

### Annotation

This article is about the misuse of sound, music and songs in some contemporary Uzbek feature films, as well as the role of music in screenwriting.

### Kalit so‘zlar

Kino, musiqa, ovoz, qo‘sik, dramaturgiya, film, rejissyor, klip.

### Ключевые слова

Кино, музыка, звук, песня, драматургия, фильм, режиссёр, клип.

### Key words

Cinema, music, sound, song, dramaturgy, film, director, clip.

**Q**udalari olib kelgan sarpolar qaynonaga yoqmaydi va kelini bilan janjallashadi. Kelin ham bo‘sish kelmay gap qaytaradi. Keyin qaynonaning fig‘oni falakka chiqib, baqir-chaqir, keyin ur-tep boshlanib ketadi va oxir-oqibat kelinni haydab yuborishadi. Kelin ro‘molini quchib uyiga yetguncha rapid kadrlarda yig‘lab ketadi. Tasvir fonida muhabbat haqidagi qo‘sish yangraydi. Ekranda birmabir kelin va kuyovning baxtli yurgan damlari oq-qora rangda namoyish etiladi. Qo‘sish tugaguncha shu kadrlar davom etaveradi. Kelin ota uyiga kirib kelishi bilan qo‘sish ham tugaydi. So‘ng ota-onas qizining ahvolini ko‘rib, “voy qizim”, “dod-voy” kabi diydiyolar boshlanadi.

Yana bir lavhada onasi og‘ir xastalikka chalinib yotgan yigitning ko‘z

oldidan rapid kadr va har xil effektlar bilan o‘zining bolalik xotiralari o‘tadi. Onasi uni ovqatlantirgani, yuvintirgani, maktabga olib borgani, uylantirgani va yana shunga o‘xshash nimalardir. Fonda ona haqidagi qo‘sish yangraydi.

Bu aksariyat o‘zbek badiiy filmlarida uchraydigan manzaralar. Buni qilishdan asosiy maqsad – film davomiyligini sun’iy tarzda cho‘zish deyish mumkin. Ya’ni oltmisht daqiqalik filmning orasiga uch marta to‘rt daqiqalik qo‘sishqni qo‘yib, unga tomoshabin allaqachon ko‘rib, siyqasi chiqib bo‘lgan kadrlar ketma-ketligi terib chiqilsa, qarabsizki, yana qo‘sishimcha o‘n ikki daqiqa tayyor va film zo‘rma-zo‘raki yetmish, sakson daqiqalik holatga keltiriladi. Bordi-yu, rejissyor filmga qo‘l urishdan avval klipmeykerlik qilgan bo‘lsa, undan boshqa natijani kutishning o‘zi amri mahol. Bu xuddi umri mobaynida tandir yasagan kulol ko‘za yasay olmagani singari, shou-biznesni “gullatib” yurgan klipmeyker ham kino olaman deb sayozgina, lekin hajman katta klip qilib qo‘yayotganday gap.

Avvalambor, kinoda musiqa va ovoz, shu bilan birga qo‘sish nima uchun, qachon va qay tarzda ishlatilishini tushunib olish maqsadga muvofiq. Agar rejissyor oldiga qo‘yan maqsadini, qanday film suratga olayotganini o‘zi angloyotgan bo‘lsa, u kino tilining bor komponentlaridan to‘g‘ri foydalana oladi. Musiqa yoki qo‘sishsiz ham filmni tomoshabopligrini ta’minlash va voqealar ketma-ketligini tushunish mumkin. Lekin musiqa bilan tomosha zavqi yanada ortadi. Kinoda musiqaning asosiy maqsadi ham tomoshabin hissiyotini yanada oshirishdan iborat.

Qahramonlar bir-biridan ayrilganda qayg‘uli, jinoyatchi kimnidir ta’qib etganda vahimali, qahramon g‘alabaga erishsa tantanavor ruhdagi musiqalarning ishlatilishi tomoshabinda xuddi shu ruhdagi emotsiyalarni yuzaga keltiradi. Aslida, nafaqat musiqa, balki tasvirda foydalanilayotgan qo‘sishqning ham ta’siri bundan kam bo‘lmasligi kerak. Uning musiqasi bilan birga so‘zlari ham kinodagi epizodga mos kelishi zarur.

Professional ishda dramaturgiyani chuqur anglagan holda film uchun alohida musiqa bastalanadi, unga monand qo‘sish ijro etiladi. Aksariyat o‘zbek badiiy filmlarida esa ba’zan film dramaturgiyasini anglay-anglamay (agar dramaturgiya bo‘lsa) internet tarmoqlari orqali tarona.net yoki uzmusic.uz saytiga kiriladi va birorta mp3 yuklab olinadi. Shu bilan film musiqasi tayyor deyavering.

To‘g‘ri, har bir filmga alohida yangi musiqa bastalanishi shart emas. Mualliflik huquqini olgan holda avvaldan bor, mavjud qo‘shiqlardan ham foydalansa bo‘ladi. Lekin bu degani tayyor qo‘shiqni olib uning ustiga qahramonning xotira kadrlarini terib klip qilish degani emas.

Ko‘pchilikka yaxshi tanish “1+1” («Neprikasayemie») filmidagi ikki qahramonning batlini eslaysizmi? Nogironlik aravachasiga mixlangan Filipp sevib tinglaydigan Vivaldi, Shopen, Motsartning klassikikasini uning enagasi Driss eshitib uxbab qolay deydi. Drissning zamonaviy musiqalarga mazza qilib raqs tushishini ko‘rgan Filippning esa kayfiyati ko‘tariladi. Bu manzarada tomoshabin ikki qahramonning dunyoqarashi, fikrashi, saviyasi ikki xilligi, shunga qaramay, har ikkisi ham toza qalb sohibi ekanligini bilib olishi tayin. Aynan shu epizodda musiqa tomoshabin qalbida har ikki qahramonga nisbatan iliqlik paydo qiladi. Ya’ni filmdan Filipp va Drissning batl epizodini kesib tashlasak, tomoshabin ikkalovining bir-biriga kontrast insonlar ekanligini bilolmay qolishi mumkin. Lekin aksariyat o‘zbek badiiy filmlari ichidagi kliplar olib tashlansa, filmning mazmun-mohiyati o‘zgarmaydi. Bu katta yo‘qotish yoki topilma ham emas. Chunki boshi gangib, ekranda nimalar sodir bo‘layotganini tushunmay, voqealar ketma-ketligini bir-biriga ulolmay o‘tirgan tomoshabin shunday alfozda o‘tiraveradi. Faqat filmning orasidagi uch daqiqalik klipni ko‘rmaydi, xolos.

Shunday ekan, musiqa va ovozdan film vaqtini sun’iy ko‘paytirish uchun emas, balki uning dramaturgiyasiga xizmat qilishda foydalanish o‘rinli.

Filmardagi musiqa va qo‘shiq tomoshabinga shunday ta’sir qilishi kerakki, uni eshitganda darhol shu filmni eslashi, kinoteatr dan esa shu qo‘shiqni xirgoyi qilib chiqib ketishi filmning yarim yutug‘i hisoblanadi.

Ayrim o‘zbek badiiy filmlarida uchrab turadigan bu kabi muammo – kino ichidagi kliplarni bartaraf etish uchun, avvalo, rejissyorlar kinodramaturgiyasining qonun-qoidalarini mukammal o‘rgansa, kinoda musiqaning o‘rni va ahamiyatini chuqur anglay olsa, bastakor va ovoz rejissyori bilan maslakdosh bo‘lsagina amalga oshishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mett Shrader “Film uchun musiqa yaratish. Gollivudning yetakchi bastakorlari sirlari”. 2019 y.
2. Konstantin Richkov “AQSH zamonaviy tijorat kinomotografiyasidagi musiqa”. 2013 y.

## **OMMAVIY BAYRAM VA TOMOSHALARING IJTIMOIY-MA’NAVIY XUSUSIYATLARI**

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada ochiq maydonlarda tashkil etiladigan ommaviy bayram va tomoshalarni tashkil etishdagi eng muhim jihatlar, uning zamonaviy talqinlarini tadbiq etish hamda bu borada olib borilayotgan islohotlarning negizini anglash va ochiq maydon tomoshalarining badiiy uslubiyatini tahlil etishdir.

**B**ayramlar kishilar hayotidagi eng quvonchli, hissiyotli damlar, xushkayfiyat chog’lar, birdamlik, mehr-oqibat, kelajakka ishonch tuyg‘ularini o‘zida qamrab olgan buyuk bir ijodiy va tashkiliy jarayondir.

Bayram deganda, hayotdagi muhim voqealari, sanani ko’tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash tushuniladi. Bayramso‘zi turkcha so‘zdan olingan bo‘lib, to‘y, marosim, xursandchilik degan ma’nolarni anglatadi.

Tomosha – tomoshabin ko‘z oldida namoyish etilgan, yuqori saviyada badiiy jihatdan bezatilgan, effektli ijro uslublaridan mohirona foydalanilgan, tomoshabin ko‘rib estetik zavq oladigan va bevosita shu tadbirda ishtirokchiga aylanadigan madaniy tadbirdir. Demak, biz bayram yoki tomoshani to‘g‘ri tashkil qilish uchun qaysi sohalarga e’tibor berishimiz kerak?

Birinchidan, bayram va tomoshaning dramatik asosi bo‘lgan ssenariy, uning yozilishi jarayonlari, ssenaristlar haqida.

Ikkinchidan, tomoshabinning nazari darrov bayram yoki tomosha o’tkaziladigan joyning bezagiga tushadi. Demak, bunda biz ommaviy bayramlarning badiiy bezagi, tasviriy san’at, rassomlar ijodi, dekoratsiyalar yaratilishi haqida.

Uchinchidan, kuy, qo'shiqlar va musiqa barchamizning hayotimizga shunday singib ketganki, bayramlarni san'atning bu turlarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Demak, musiqa, uning ommaviy bayram va tomoshalarda tutgan o'rni va roli, bastakorlik ijodi haqida.

To'rtinchidan, hech bir bayram va tomoshani raqlarsiz amalga oshirish mumkin emas, demak, xoreografiya san'ati, baletmeysterlar, ularning ijodiy faoliyatları, raqlarning bayram va tomoshalarda tutgan o'rni haqida.

Beshinchidan, ommaviy bayram va tomoshalarda badiiy fon va fon guruhlarining ahamiyati, ularni tashkil qilish va boshqarish to'g'risida.

Oltinchidan, hozirgi kunda har qanday bayram va tomoshalarda, konsertlarda teatrlashtirish usullaridan foydalanish va qo'llash an'anaga aylangan. Demak, teatrlashtirish usullari va shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar to'g'risida.

Yettinchidan, bayram qatnashchilarini kiyintirish, mavzuga mos ravishda libos tanlash jarayoni ham bayram yoki tomoshada tomoshaviylikka erishishining muhim shartidir.

Ommaviy tomoshalar xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida, mehnatkashlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular shaxsning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy faolligini oshirish jarayonini o'ziga xos vazifalarini bajarishga, ya'ni havaskorlik ijodiga jalg qilish va mazmunli dam olish, hordiq chiqarishni uyushtirishga yordam beradi. Ommaviy tomoshalar faqatgina kishilarning hordiq chiqarishigina emas, balki bilimini, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, o'z navbatida, jamiyatdagi asosiy ish faoliyati bilan yaxshiroq shug'ullanishgasamaraliyordamberadi. Avvalambor, tomoshalarning asl mohiyatini tushunib olishimiz lozim.

Birinchidan, ommaviy tomoshalar real hayotda bo'layotgan muhim voqealarni va mahalliy turmush muammolarini badiiy obrazda aks ettiradi.

Ikkinchidan, ommaviy tomosha qanday mavzudagi ijtimoiy-madaniy hodisaga bag‘ishlanmasin, u faqat aniq sharoit uchun belgilangan auditoriyaga mo‘ljallanib, ayni vaqtida esa bir marta tashkil qilinadi.

Uchinchidan, ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar real hayotning eng muhim voqealarini hujjatli-badiiy vositalarga tayani buyushtiriladi.

To‘rtinchidan, tomoshalar ijrochilaming keng omma (qatnashchilar) bilan birga harakat qilishini taqozo qiladi. Ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar – yirik voqealarni keng nishonlash, bayram kayfiyatini yaratish, ommaviy g‘oyaviy birlashtirish uchun tashkil qilinadi.

Ayniqsa, oxirgi yillarda tashkil qilinayotgan ommaviy tomoshalarda boy xalq og‘zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish tufayli ular xalq o‘rtasida katta obro‘ topmoqda.

Bular:

- *Xalq musiqa folklori*
- *Xalq raqs san’ati*
- *Xalq teatri san’ati*

Xalq teatrining quyidagi asosiy turlari shakllangan:

1. *Masxarabozlik va qiziqchilik*
2. *Dorbozlik va nayrangbozlik (sirk san’ati)*
3. *Qo‘g‘irchoqbozlik*
4. *Askiya san’ati*

Ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar yirik voqealarni keng nishonlash, bayram kayfiyatini yaratish, ommaviy-g‘oyaviy birlashtirish uchun tashkil qilinadi.

Tomosha san’atining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘zi uchun san’atning boshqa turlaridan ko‘plab turli shakllar va ta’sirchan vositalarni tanlashi mumkin. Masalan: adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, arxitektura va h.k. Tomosha doimo ma’lum bir sahna maydonida o‘tkazilib, uzviy, sahnaviy chegaraga ega bo‘lib, tomoshabin va ishtiroychiga bo‘linadi.

3-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

ijodkor ziylilar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda ijodkor ziylilarni bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi o'rni va vazifasi haqida muhim va dolzarb fikrlar bayon qilindi.

"Inson qalbini, uning dard-u tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlari, Vatanga muhabbatva sadoqat tuyg'usi -betakror so'zohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb biladigan siz muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va sharaflı ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz", -deya ta'kidlab o'tdi muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev.

So'nggi oylarda mamlakatimizda joriy etilgan karantin tartib qoidalari yurdoshlarimizni madaniy va ko'ngilochar tadbirlardan biroz uzoqlashtirdi. Xalqimiz kuy-qo'shiqlarni, bayram va tantanalarni sog'indi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-6000 Farmoniga muvofiq, Madaniyat vazirligi faoliyati o'rni, nufuzini va salohiyatini yanada oshirish hamda madaniyat va san'at sohasini yanada takomillashtirish borasida PQ-4730 sonli qaror qabul qilindi. Bu muhim qaror tasdig'i sifatida hamda xalqimizning madaniy dam olishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-sentyabr kuni o'tkazilgan yig'ilishi hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan haftaning shanba va yakshanba kunlari "Maydon tomoshalari" festivalining muntazam ravishda o'tkazib borish rejalashtirildi.

Tomoshalarni tayyorlashda, avvalo, ochiq maydon dasturi konsepsiyasiga oid turli epizodlar va nomerlarni, asosan, jo'shqinlik, ko'tarinkilik va bayramona ruhiyatdagi dasturlar bilan kompozitsion bog'lanishiga e'tibor berish lozim.

Jumladan:

- *qo'shiq va raqlar;*
- *sahna ko'rinishi va estrada tomoshalari;*

- qo‘g‘irchoq teatri tomoshalar;
- badiiy kompozitsiyalar va boshqa dasturlarida xalq bilan birgalikdagi badiiy ishtiroklarini ta’minlovchi dasturlardan iborat bo‘lishi tomoshaning yanada jonli, ta’sirchan va emotsiyal bo‘lishini belgilaydi.

Bu kabi ommaviy tomoshalar va maydon festivalidan yagona maqsad, asosan, xalqning madaniy hordiq chiqarishi bilan bir qatorda madaniy-ma’rifiy va ma’naviy-ijtimoiy ongini yanada rivojlantirish hamda bugungi davr bilan hamnafas bo‘lish, mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan islohotlardan xabardor qilish va uning mohiyatini anglash kabi ustuvor maqsadlar ham belgilangan.

Shunday qilib, bu kabi mustaqil jamiyatimizda o‘tkazilayotgan tomoshalar o‘ziga xos pedagogik sistema bo‘lib, ushbu ijtimoiy jamiyatdagi barcha tarbiyaviy ishlar organik birlashgan bo‘lib, insonlarga doimiy ta’sir qilib, ularning jamiyatdagi dunyoqarashlarini, g‘oyaviy-ma’naviy va estetik holatlarining rivojiga yordam bermoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydag‘i “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-6000 Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M.“Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”. O‘zbekiston ijodkor ziylilari vakillaori bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi.2017 yil 4-avgust
- 4.V.K.Rustamov. “Ommaviy bayramlar rejissurasi va sahnalashtirish asoslari”. Toshkent-2007. 3-10 bet.
- 5.F.Ahmedov. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. T.“Aloqachi” 2008, 166 -175 bet.



**Xolmirzayev Muxriddin Muhammadali o'g'li**  
1-kurs "Ashula va raqs" mutaxassisligi magistranti  
**Ilmiy rahbar:** Professor Beknazar Do'stmurodov

## FATTOHxon MAMADALIYEV IJODINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA BUGUNGI KUN YOSHLARI UCHUN TARBIYAVIY AHAMIYATI

### Annotation

Ushbu maqola yoshlarni milliy va mumtoz qo'shiqchiligmizga qiziqtirish hamda ulug' ustozlarni hayoti va ijodi bilan ularni yaqindan tanishtirish.

### Аннотация

Это статья написана для того, чтобы заинтересовать молодых людей нашим национальным и классическим пением, а также познакомить их с жизнью и творчеством великих учителей.

### Annotation

This article is written to interest young people in our national and classical singing, as well as to acquaint them with the life and work of great teachers.

### Kalit so'zlar.

Bastakor.Ustoz, Meros, Ijro, San'atkor, Qo'shiqchilik, Kuy, Maqom, Sozanda.

### Ключевые слова.

Учител, Наследие, Перформанс, Артист, Певец, Мелодия, Ма-ком, Музыкант, Композитор.

### Keywords.

Teacher, Heritage, Performanse, Artist, Singer, Tune, Maqom, Musician, Composer.

**I**nson yaralibdiki, san'atga oshufta bo'lib keladi, har bir tarixiy davrning ham o'z madaniyati va san'ati sayqal topib avloddan-avlodga meros sifatida o'tib keladi. Uzoq asrlarga borib taqaladigan bizning san'at merosimiz ham o'zining boy tarixiga ega. Yuraklarni jumbishga keltiradigan maqomlarimiz, zakiylik, hofizlik san'atlarimiz bizga ulug' ustozlar yoqib ketgan so'nmas chiroqlardir.

Bizga shunday tugab bitmas meros qoldirgan san'atkor hofizlardan biri Fattohxon Mamadaliyevdir.

Atoqli xonanda, hassos bastakor, jonkuyar ustoz-murabbiy, O'zbekiston xalq hofizi, Muxtor Ashrafiy nomidagi davlat Konservatoriysi (hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriysi) professori Fattohxon Mamadaliyevning ijodiy merosi nihoyatda salmoqlidir. Benazir ovoz sohibi va ulkan salohiyatga ega san'atkor o'z ijodiy faoliyatida hozirgi zamon an'anaviy ijrochilik va milliy bastakorlik jahbalarini yorqin namoyish qildi.

Fattohxon Mamadaliyev deganda, an'anaviy ijrochilik bo'stonining nodir ovoz sohibi, el suygan san'atkor, qo'shiqchilik olamida o'ziga xos uslub va ijrochilik yo'lini yaratgan manzurnafas hofiz ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Ustoz ijro etgan qo'shiqlar o'zining yorqin, sejilo qirralari bilan eshituvchiga huzur bag'ishlaydi. Ovozdagi mahzunlik, ijrodagi o'ziga xoslik tinglovchini befarq qoldirmaydi. Dunyoishlaridan bir zum bo'lsa-da, holi bo'lib, beixtiyor ko'zni yumib orom olishga chorlaydi. Bunday noyob ijrochilik san'ati shinavandaning yuragida bir umr o'chmas iz qoldiradi. Fattohxon Mamadaliyev o'zining betakror ijrosi bilan shinavandalar qalbidan mustahkam joy olgan hofiz edi. Uning ijrolari yuraklarga malham bo'lib kirib boradi, tinglovchiga orom baxsh etadi, shuning uchun uning qo'shiqlari umrboqiy bo'lib qoldi.

O'zbekiston xalq hofizi, mashhur xonanda, mumtoz musiqa yo'lida bir qator asarlar yaratgan bastakor Fattohxon Mamadaliyev 1923-yili Andijon viloyati Baliqchi tumani Haqqulobod qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topgan.

Fattohxon Mamadaliyev qiziqishlari keng, irodasi kuchli, xotirasi mustahkam, bilimlari teran, ilg'or tafakkurga ega inson edi. U milliy musiqamizning bilimdon ijrochilaridan bo'lib, O'zbek xalq hamda klassik she'riyatning ham zukko mushtariylari qatorida murakkab aruz vazni qonuniyatlaridan yaxshi xabardor edi.

Boz ustiga, hofiz tomonidan yaratilgan adabiy-she'riy namunalar bor. Bular esa o'z navbatida, san'atkoring musiqiy ijodi va ijrochiligining tobora kamol topishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatmay qolmagan.

Bolalik chog‘laridan xalq musiqa ijrochiligiga katta mehr qo‘ygan. Qishloqning madaniyat uyi qoshidagi badiiy havaskorlik to‘garagida tanbur, dutor kabi cholg‘ular ijrochilagini o‘rgana boshlaydi. Andijonlik mashhur g‘ijjakchi sozanda Mo‘minjon Karimov unga nafaqat cholg‘u ijrochiligi, balki xonandalik sirlarini ham o‘rgatadi. Ayniqsa, u o‘z zamonasining keksa avlod hofizlarining ijrolariga katta e’tibor bilan yondashadi va ularning ijro uslublarini hamda ijro repertuarlarini o‘zlashtirishga harakat qiladi. Bu borada F. Mamadaliyev o‘z vaqtida Umrzoq Polvon Saydali, Usta Ro‘zimatjon Isaboyev, Abdulla Taroq, Berkinboy Fayziyev, Jo‘raxon Sultonov, Yunus Rajabiy kabi mashhur san’atkorlardan saboq olishga muyassar bo‘lgan.

Fattohxon Mamadaliyev Andijon madaniyat uyi qoshidagi maqom ansamblida uzoq yillar badiiy rahbar bo‘lib ham faoliyat yuritdi, shu faoliyati davomida u hamnafaslik yo‘llarini ham o‘rganib, do‘sni Yo‘ldoshali Kiyikov bilan qator qo‘shiqlar majmuasini yaratdi. Bu hamnafaslikdagi nodir qo‘shiqlar respublika radiosiga yozib olindi. Ular ijro etgan qo‘shiqlar, asosan, Farg‘ona-Toshkent va xalq an‘anaviy ijrochiligi yo‘llarida bo‘lib, o‘zlarining ijrochilik uslublari bilan ajralib turar edi. Afsus, hamnafasi Yo‘ldoshali Kiyikov bu olamdan juda erta ko‘z yumdi va Fattohxon Mamadaliyev o‘zi yolg‘iz kuylay boshladi, bastakor sifatida ko‘plab qo‘shiqlar yaratdi. O‘zbekiston xalq hofizi Berkinboy Fayziyev an‘analarini davom ettirib, Andijon ijrochilik maktabiga o‘ziga xos yo‘llarni olib kirdi va shogirdlariga o‘rgatdi. Taniqli sozanda va bastakorlar Mirzajon Tillayev, G‘ulomjon Xojiqulov, Foziljon Begmatovlar bilan bo‘lgan ijodiy hamkorlik o‘zining ijobiy samarasini berdi. 1

U 1968-yili Andijon davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetini muvaffaqiyatli tamomlaydi. Ijodiy faoliyatini musiqa san’atining rivojiga bag‘ishlashga ahd qiladi. Andijon viloyatining Xo‘jaobod, Izboskan kabi tuman madaniyat uylarida, Andijon davlat pedagogika institutida havaskorlardan iborat Maqomchilar ansambli jamoalarini tashkil qiladi. Faoliyati davomida ularga ustoz va ko‘makdoshlik qilib turdi. Andijon shahar madaniyat uyi qoshida

tuzgan “Maqomchilar ansamblı” bilan birgalikda ijod qiladi. Fattohxon Mamadliyev poytaxtga kelib yashash davri ijodining eng gullagan davri va haqiqiy gultojisi bo’ldi. Chunki shu davr mobaynida tinmay ijod qildi, qator qo’shiqlar dasturini yaratdi, Farg’ona-Toshkent maqom ilmiy ijrochilik yo’llarini tahlilini tuzib chiqdi.

Uning respublika maqomchilar ansamblı va 1985-yildan boshlab umrining oxirgi damlarigacha M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriysi (hozirda O’zbekiston davlat konservatoriysi) Sharq musiqasi (keyinchalik An’anaviy ijrochilik) kafedrasida faoliyat olib boradi. Mashhur hofiz an’anaviy xonandalik ixtisosligi bo'yicha talabalarga qariyb 15 yil davomida saboq berdi. Ushbu jamoada dotsent, 1993-yildan professor lavozimlarida pedagogik faoliyat olib boradi. Shu davr ichida bir qator iqtidorli xonandalarni kamolot sari tarbiyalaydi. Ustoz o’nlab shogirdlariga katta san’atga yo’llanma berdi va qo’shiq, kuylarni qalb qo’ri bilan o’rgatdi. Bulardan, O’zbekiston xalq artisti Munojat Yo’lchiyeva, O’zbekiston xalq hofizlari aka-uka Ismoiljon va Isroiljon Vahobovlar, O’zbekiston xalq artisti Gulbahor Erqulova, O’zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Yo’ldoshev, O’zbekiston xalq hofizi Mashrabjon Ermatov, O’zbekiston xalq hofizi Soyib Niyozov, O’zbekiston xalq artisti Maryam Sattorova, O’lmas Olloberganov, Yusufjon Yusupov, Nihol mukofoti sovrindori Abror Parpiyev, Nuriddin Hamroqulov, Xurriyat Isroilovakabi taniqli san’atkorlar shular jumlasidandir. Fattohxon Mamadaliyev an’anaviy xonandalikning ijrochilik mezonlari, bastakorlik an’analari muammolari bilan qiziqib o’rganib kelgan va ularni ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qilishga harakat qilgan. Shulardan biri, xalq mumtoz ijrochiligidagi hofizlar ovozi xususiyatlarini o’rganish va ilmiy mushohadalardir. Muallifning ilmiy maqola tarzida bayon etilgan ishlari uning vafotidan so’ng “Musiqa ijrochiligi masalalari” nomi bilan dunyo yuzini ko’rdi. Fattohxon Mamadaliyev ijro etgan qo’shiqlarga sayqal berib, yangidan magnit lentalarga yozdirishda O’zbekiston xalq artisti, mashhur sozanda Abduhoshim Ismoilovning xizmatlari katta bo’ldi. U o’z sozi bilan ustozga ilhom bag’ishladi. Natijada umrboqiy

qo'shiqlar yaratildi. Fattohxon Mamadaliyev o'zining ohangrabo ovozi bilan o'nlab xorijiy davlatlar qo'shiqsevarlarini ham o'ziga rom etdi. Muborak Haj safarida bo'ldi. Ijodining yana bir yorqin qirrasi, she'riyat bilan oshno bo'ldi. Yaxshigina g'azallar yozib, o'zi kuylar bastaladi. Musiqa ijrochiligi amaliyotida Fattohxon Mamadaliyev hofizlik, ya'ni xonandalik bilan birga an'anaviy musiqa bastakorligiga ham katta e'tibor bergen. Uning bastakorlik ijodida 4 uslub ustuvordir. Jumladan: 1) qadimiy kuylarni qaytadan tiklash; 2) musiqiy meros namunalarini yangicha uslubda talqin etish; 3) musiqiy meros namunalaridan o'rinni olgan asarlarni turkumlashtirish; 4) bastakorlik ijodi. Ijodidagi ahamiyatli omil, ishlangan va yaratilgan asarlar, bastakor uslubiga mos ekanligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, "Intizor" (Ulfatiy so'zi), "Oqibat", "Sog'indim", "Falak", "Mehmon", "Judo keldi" va "Yuzni hajrida" (Nodira so'zlari), "Ahd qildim" (Muqimiy so'zi), "Jononim mening" (Hayratiy so'zi), "Orzu" va "Dehqonlarim" (V. Sa'dullo g'azali), "So'rmasa", "Kalomingdan" va "Dilkusho" (H. Azimov so'zi), "O'limg'ay" (Navoiy g'azali), "Ko'ngil" va "Sirri ishqim" (X. Yahyoyev so'zi), "Ra'nogullari" va "Sog'inurman" (O. Xoldorso'zi) kabi ashulalarni misol qilish o'rinnlidir. Bastakorning ijodidan o'rinni olgan asarlarning aksariyati maqom yo'llariga xosligi bilan xarakterlanadi. Barchasida shakl, usul, matn, dramatik rivojlar aynan maqomlarga xosligini e'tirof etish lozim. Shu bilan birga avj tizimiga katta e'tibor qaratilganligini ham qayd etish mumkin. Bunga yorqin misol, Ogahiyning "Dedi" radifli g'azaliga bastalagan "Dard-u dilim" ashulasidir. G'azalda o'ziga xos muloqot mavjud:

*Dard-u dilim ango dedim, dema ani mango dedi,  
Kim manga oshiq o'lsa, ul lozim erur ango dedi.*

Bastakor ana shu muloqotga xos kuy yaratishga musharrraf bo'lgan va bu ohangso'z birgaligida go'zal uyg'unlikka erishgan. Ashulaning originalligi va mavzusi jihatdan o'ziga xosligi boshlanish ohanglaridan sezilib turadi.

Asar ikkita yirik avj bilan ijsro etilgan, birinchi avjlar tizimi ashulaning to'liq shaklini ifodalab beradi. Bastakor unga yana

bir katta avjni qo'shgan. Bu avj asarning yuqori cho'qqisi va dramatikkulminatsiyasi sifatida xizmat qiladi. Asarni ijro etish uchun katta ovoz ko'lami kerak bo'ladi.

Fattohxon Mamadaliyevning bastakorlik ijodiyotidagi qadimiy kuylarni qaytadan tiklash amalida "Umrzoq Polvon Ushshog'i" va "Zikri Ushshoq" (Qadimiy Ushshoq) kabi musiqiy namunalarni ustozlar talqiniga xos holda qayta ishlab tiklashga muvaffaq bo'ladi. Ushbu asarlar, ayniqsa, "Qadimgi Ushshoq" ijrochilik amaliyotida keng ommalashdi. Bastakorning musiqiy meros tarkibidagi asarlarni turkumlashtirish hamalohidae'tiborlidir. Bastakor tomonidan bir qator musiqiy namunalaran'anaga mos holda turkumlashtirildi. Bular sakkiz qismli "Miskin" musiqinya'munasi (Muqimi, Sakkoki, Furqat, Miskin, Ulfat va Turob To'la she'rlariga), sakkiz qismli "Ushshoq" namunalar (Uvaysiy, Furqat, Navoiy, Ogahiy, Gavhariy g'azallariga), to'rt qismli "Nasrulloy" turkumi (Navoiy, F. Mamadaliyev va Ulfat she'rlariga). Ular "Shashmaqom"ning ikkinchi guruh sho'balariga xos va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga mos turkumlashuv tamoyillariga tayangan holda ijod etilgan. Mazkur asarlarda birlamchi asosiy ko'rinishlar ketidan zaruriy ravishda orin olishi lozim bo'lgan – Talqincha, Qashg'archa, Soqiynoma va Ufor tizimidagi kichik turkumga xos asarlar kiritilgan. Bastakor tomonidan turkumlashtirilgan "Munojot" va "Savti Fattohxon" turkumlari esa nisbatan ixcham shakllarga ega bo'lib, faqat Alisher Navoiy g'azallaridan foydalanilgan. 2

Mashhur hofiz nafaqat Farg'ona-Toshkent balki, Samarqand-Buxoro, O'rta Osiyoning turli vohalarida yashab o'tgan yirik musiqachi ustozlarning o'gitlaridan unumli foydalandi. O'zbek milliy musiqa ijrochiligining deyarli barcha jabhalari yuzasidan yuksak amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan katta ijodkor yosh san'atchi hamda shogirdlari bilan hamisha yaqin muloqotda bo'lib, o'z qarashlarini, fikr-mulohaza va taxliliy kuzatuvlarini ularga yetkazib kelgan.

Fattohxon Mamadaliyev bir qancha muhim muammolar ustida qunt bilan muttasil ilmiy mushohadalar yuritishga odatlangan edi. Binobarin, vaziyat taqozo qilganda ilmiy uslubiy yo'sinda bevosita

ish olib borishga astoydil kirishadi. Aynan shuning natijasida 1993-94-yillarda birin-ketin bir necha qiziqarli, mazmundor maqolalarning qoralamasi paydo bo'lgan edi.

Fattohxon Mamadaliyev XIX asr oxiri va XX asrda yashab ijod etgan juda ko'p bastakor, sozanda va hofizlarning hayoti, faoliyati haqida g'aroyib tafsilotlarni bilardilar. Ularning san'atdagi salohiyatlari, ijro uslubllari, insoniy fazilatlari to'g'risida soatlab hikoya qilardilar.

Kutilmaganda, Fattohxon Mamadaliyev 1999-yilning boshlarida og'ir xastalikka duchor bo'lib qoldi. 1999-yil 3-aprel kuni 76 yoshida Toshkentda vafot etdi. Vafotidan so'ng o'zining vasiyatiga ko'ra, o'zi tug'ilgan Andijonning Baliqchi tumaniga dafn etishdi. Bugungi kunda Fattohxon Mamadaliyev boshlab bergen buyuk yo'lni uning shogirdlari va hofizning o'gil-qiz, nabiralari davom ettirmoqda.

Buyuk hofiz garchi 76 yil umr ko'rgan bo'lsa-da, ba'zi bir insonlarning yuz yillik umri davomida qilolmagan ishini qilib ketgan, desak to'g'ri bo'ladi. Ustozning buyuk merosini asrab-avaylab, chuqur o'rganib, kelajak avlodlarga yetkazish biz yoshlarning vazifamiz sanaladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bastakorlik ijodi o'quv qo'llanmasi. S. Begmatov. Toshkent b 45
2. F.Mamadaliyev. Milliy musiqa ijrochiligi-T.,2001
3. Zyonet.uz.
4. Bastakorlik ijodi o'quv qo'llanmasi. Professor R. Yunusov
5. F. Mamadaliyev M.S.M uchun o'quv qo'llanma. Urfon Otajon. Andijon-2003

Ilhom Yuldashev

1-kurs “Estrada aktyorligi mutaxassisligi” yo’nalish  
magistranti

Ilmiy rahbar: s.f.n., prof.Temur Rashidov

## O‘ZBEK AN’ANAVIY TEATRI SHARQDAGI ENG QADIMIY TEATRLARIDAN BIRI SIFATIDA (*Yusufjon Qiziq Shakarjonov ijodi misolida*)

### Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek teatri tarixida qiziqchilik, askiya, qo‘g‘irchoq teatri san’ati aktyori, hajviy rollar ijrosichi, doira cholg‘usi ustasi, raqs ustasi hamda o‘zbek yalla va laparlar bilimdoni bo‘lgan Marg‘ilonlik benazir san’atkor Yusufjon qiziq Shakarjonovning ijodiy merosiga qaratilgan.

### Аннотация

Это статья посвящена истории узбекского театра. В центре внимания художника творческое наследие Юсуфжона Гызыка Шакарданова. Осветить его научную и творческую деятельность в театре и других искусствах.

### Annotation

This article is dedicated to the history of Uzbek theater. The artist is focused on the creative heritage of Yusufjon Qiziq Shakarjonov . To illuminate his scientific and creative activities in theater and other arts.

### Tayanch so‘z va iboralar:

teatr, san’at, qiziqchilik, hajviya, qo‘g‘irchoq, sahna, usta, milliy.

### Ключевые слова и выражения:

театр, искусство, хобби, комедия, кукла, сцена, мастер, народный.

### Keywords and expressions:

theater, art, hobby, comedy, puppet, stage, master, national.

**T**eatr san’ati — bu insonlarni ruhiy tarbiyalovchi, ichki hissiyotlarini yuzaga chiqaruvchi, ma’naviy-ma’rifiy, estetik tarbiyalovchi, barkamollik baxsh etuvchi san’at turidir. Chunki u tomoshabinlarga ruhiy ta’sir etuvchi kuchdir. Teatr turli xil voqealarni tomoshabinga taqdim etib, ular qalbida o‘chmas iz qoldiradi. Shu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiyning teatr haqidagi so‘zlarini eslashni joiz deb

bildik: “Teatr bu – ibratxonadur” degan so‘zlari zamirida chuqur ma’no yotadi.

O‘zbek an’anaviy teatri sharqdagi eng qadimiy teatrlaridan biridir. Sharq va g‘arbning teatrlari qatorida o‘z tarixiy rivojlanish taraqqiyotiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1996-yil 21-martdagи “O‘zbek teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida” hamda 2001-yil 21-sentyabr kuni “Hamza nomidagi O‘zbek davlat akademik drama teatriga “Milliy teatr” maqomini berish to‘g‘risida”gi farmoni o‘zbek teatri san’atini jamiyat hayotida muhim ekanligini ko‘rsatib berdi.

Keyingi yillarda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038 son qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiysi” va uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. 2020-yil 26-maydagi PF-600 sonli “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va boshqa qaror va farmonlar, madaniyat va san’at sohasini tubdan isloh qilish, milliy teatr an’analarni yangi bosqichga olib chiqish va uni yanada gullab-yashnashiga zamin yaratdi.

O‘zbek an’anaviy milliy teatrlari tarixi, ajdodlarimizning madaniy hayotidan xabar beruvchi asosiy manba hisoblanadi.

XVIII-XX asrlar o‘zbek an’anaviy teatr tarixini yorituvchi muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Ungacha bo‘lgan davr milliy teatr haqidagi ma’lumotlar yetarli darajada emas. Sababi, Xonliklarning bo‘linishi, mustamlakachilik o‘zbek madaniyati merosi tarixiga ham salbiy ta’sirini o’tkazgan.

An’anaviy teatrlar tarixidan ma’lumki, an’anaviy teatrlar bir butun tizim sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Bu teatrlar tarixi uch bosqichga bo‘linadi: XVIII-XIX asrning birinchi yarmi, XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlari, XX asrdan hozirgi kungacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi.

“XVIII-XIX asrlardagi o‘zbek an’anaviy tearti ham bir necha turlardan iborat bo‘lgan. Shulardan eng muhimlari – masxarabozlik va qiziqchilar san’ati, qo‘g‘irchoq o‘yin hamda voizlik, qissaxonlik,

maddohlikni o‘z ichiga oluvchi bir aktyor teatridir. Qo‘g‘irchoq teatri maxsus o‘rganishni talab qilgani, voizlik, qissaxonlik, maddohlik bo‘yicha esa ma’lumotlar yetarli emasligi sababli, biz bu yerda asosan, masxarabozlik va qiziqchilik haqida so‘z yuritamiz”[1,19].

“XIXasrning birinchi yarmi va XX asrning boshida o‘z san’ati va mahorati bilan birgina Farg‘ona vodiysida emas, O‘zbekistonning boshqa joylarida ham yaxshi tanilgan mashhur qiziqchilar o‘tgan. Keksa san’atkorlar ularni “katta qiziqlar” deb atashadi. Bu o‘rinda “katta” so‘zi mazkur xalq artistlarining professional mahorati va katta yig‘inlar bilan bog‘liq ekanligiga, shuningdek, ularning repertuarlari, asosan, yirik tomoshalardan tashkil topganligiga ishora bo‘lsa kerak. Katta qiziqlarning aksariyati xonlik poytaxti Qo‘qonda markazlashgan. Shu sababli Qo‘qon qiziqchilar to‘dasi eng kuchli va mashhur hisoblangan. Mazkur truppaga XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan. Bidiyorshum degan qiziqchi asos solganligi birinchi bobda aytib o‘tilgan”[1,138].

Teatr san’atida qiziqchilik hamma uchun qiziqarli, ko‘ngilochar dastur, insonlar ruhiyatiga ta’sir etuvchi kuch, kayfiyatni ko‘taruvchi, mashhur va ommabop san’at turi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiziqchilik san’ati tarixida O‘zbekiston qiziqchilik maktablarining mashhur vakillari qatori marg‘ilonlik Yusufjon qiziq Shakarjonovning xizmatlari beqiyosdir.

Yusufjon qiziq Shakarjonov nafaqat qiziqchilik, balki san’atning boshqa turlarining buyuk namoyondasi, ustozи va mohir ijrochisi ham edi. Xalq orasida “Kor farmon”, “Serhunar” “Qiziq”, “Usta” kabi nomlar bilan mashhur bo‘lgan. U qizichilikdan tashqari aktyor, o‘zbek xalq raqsi ustasi, o‘zbek musiqasi, kuy-qo‘shiqlar, lapar va yallalar bilimdoni, cholg‘u sozlari ijrochisi, ayniqsa, doira cholg‘usining mohir ustasi sifatida benazir san’atkor bo‘lgan. Uning san’at namunalari xalq orasida ommaviy teatr sahnalarida, sirk ko‘rinishlarida, bayram namoyishlari va to‘yhashamlarda juda ham mashhur va ma’lum bo‘lgan.

“Yusufjon qiziq Shakarjonov 1869-yilda san’atkorlar makoni bo‘lmish go‘zal Marg‘ilonda Shokirjon kulol oilasida dunyoga keldi. Bolalikdan san’atga qiziqishi tufayli shahardagi to‘y va sayillarda san’atkorlarning

chiqishini tomosha qilar va ular bilan birga qo'shni shahar va tumanlarga borar edi. Qo'qon shahridagi sayilda uning qiziqchilik mahoratini ko'rgan mashhur qiziqchi Zokir Eshon o'zi boshchilik qilayotgan guruhga qabul qiladi. So'ngra Sa'di Maxsum, Matholiq qiziq singari o'z zamonasining mashhur qiziqchilaridan ta'lif oladi. "[2,122].

Yusuf qiziq yosh paytlaridanoq Xudoyorxon saroyida dastavval raqqos sifatida, asta-sekin Zokir Eshon bilan qiziqchilik qilgan.

Keyinchalik Marg'ilonga qaytib, o'z ijodiy faoliyatini davom ettirgan. U yerda o'zi teatr tashkil etgan teatrinda qo'g'irchoq o'ynatib, raqs tushib, doira chalib, sahna ko'rinishlarini namoyish etgan.

Muhsin Qodirovning "Jannatmakon" jurnali 2007-yil iyul sonidagi "Qirq bir hunaregasi" nomli maqolasida shunday yozadi: "Mustamlaka davrida u Marg'ilonga qaytib, bozorning bir chekkasida qurilgan "Chodirxayol" qo'g'irchoq teatrinda korfarmonlik qilib, tomoshani boshqarib borgan, qo'g'irchoqlar bilan savol-javob qilgan, doira chalib, ularni o'ynatgan. Unda "Sarkardalar" nomli og'zaka komediya yangi tahrirda namoyish etilgan. Voqealar Xudoyorxon saroyiga ko'chirilib, arkoni davlatning yig'ilishi, bazm, tomosha ko'rinishlari bilan yakun topgan. Yusufjon qiziqning aytishicha, "Chodirxayol" teatrinda ular to'rt kishi bo'lib, "Sarkardalar" dan tashqari yana bir g'aroyib tomosha ko'rsatishgan ekan. Biri dum bog'lab, ikkinchisi shoh chiqarib, uchinchisi boshiga katta salsa o'rabi, yasama burun yopishtirib olgan uch qo'g'irchoqboz antiqa liboslarda chiroq nurlari tushirib turgan oq parda ortiga o'tib, har xil hayotiy manzaralarni o'ynab ko'rsatishgan; pardaga ularning soyalari tushib, ajabtovor tomosha hosil bo'lgan. Uch ijrochi aka-uka: Yo'ldoshboy, Kenjaboy hamda Yusufjon qiziq. Tursunboy qo'g'irchoqboz tomoshani boshqarib turgan bo'lsa ajab emas. Aftidan, tomosha so'zsiz, nuqlu pantomimalardan iborat bo'lib, unda bir mullanamo kishining maymun va echki bilan muloqoti kulgili tarzda ko'rsatilgan. Bu o'tmishda taraqqiy etgan "Fonus xayol" teatrining g'alati bir ko'rinishi XIX asrning oxirida ham yashab kelganidan dalolat beradi. Ilgari bunday soya teatrinda qo'g'irchoqlar o'ynagan bo'lsa, so'z borayotgan tomoshada turli qiyofalarda qo'g'irchoqbozlarning o'zlari namoyon bo'lishgan" [3,24].

Yusufjon qiziq juda tez mashhurlik darajasiga erishadi va ko‘plab san’at ustalari bilan tanishadi. Xalq orasida qiziqchi, askiyachi, raqqos, usulchi, hofiz sifatida shuhrat qozonadi. San’at darg‘alari bilan ko‘plab shaharlarga, boshqa davlatlarga ijodiy safarlarga boradi.

1888-yilda rus sirk ustalari bilan dunyoning ko‘plab mamlakatlariga ijodiy safarlarda bo‘ladi, mashhur italyan sehrgari Koliostro Bertaldini, chavandoz Bezano bilan ham yaqindan tanishadi va ular bilan hamkorlikda ish olib boradi.

1904-yildan Mullaboy Mansurovning sirk truppasida ijodiy faoliyat ko‘rsatib, Buxoro, Xiva, Qashqar va boshqa ko‘plab shaharlarda milliy sirk san’atining noyob turlarini namoyish etishda ishtirok etadi. Yusufjon Shakarjonovni birinchi o‘zbek sirkining tashkilotchilaridan biri desak, to‘g‘ri bo‘ladi. U qiziqchilik san’ati zamirida ko‘plab qiziqarli hikoyalari tuzib, kulgili sahna ko‘rinishlarini tashkil etardi. Jumladan, “Bola o‘qitish”, “Dor o‘yin”, “Pul qistash”, “Xitoylik tabib”, “Kelin tushirdi”, “Surat ko‘rsatish”, “Yomon uka”, “Sartaroshlik”, “Shayton” singari hajviy sahna ko‘rinishlari tahsinga sazovar bo‘lgan. Ustaning har joyda doim yaxshi qarshi olishar edi.

1909-yilda Sankt-Peterburg shahrida bo‘lib, rus madaniyati bilan yaqindan tanishib, rus sirk artisti Fillip Yupatov bilan birga sahnada rol ijro etadi. 1926-yilda o‘zbek etnografik ansambl tuziladi. U yerda Yusufjon Shakarjonov yosh shogirdlariga xalq lapar va yallalarini o‘rgatadi. Shogirdlari Muhiddinqori Yoqubov, Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Boborahim Mirzayev, Berkinboy Fayziyevlar ustoz saboqlaridan bahramand bo‘lganlar. Lapar va yallalar va raqs ustasi bo‘lgan Tamaraxonim Yusufjon qiziq Shakarjonovdan juda ham ko‘p san’at sirlarini o‘rganganligi, jumladan, “Oyijon”, “Bilak uzuk”, “Qorasoch ukam”, “Voh-voh to‘ram”larni aynan undan o‘rganganligini o‘z xotiralarida aytib o‘tgan.

Yusufjon qiziq Shakarjonov o‘sha davlat amaldorlarining xalqqa ozor berayotgan qaror va farmonlari, amaldorlarning mansabparastlik va boshqa insoniy fazilatlariga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarini tanqid ostiga olib, o‘zi hajviy hikoyalari yozib, teatr sahnalarida namoyish etib, ularni kulgi ostiga olgan.

O‘zbek milliy teatri tarixida o‘chmas iz qoldirgan Farg‘ona vodiysi san’at ustalari ijodi va Yusufjon qiziq Shakarjonov uning hamkasblari ijod etgan san’at namunalarini yozib olish bo‘yicha etnograf A. L. Troitskaya rahbarligi ostida ekspeditsiya uyushtirilib, yigirmaga yaqin muqallid, tanqid, antre, kulgili hikoyalar yozib olindi.

1940-yilda Toshkentda 93 ta tomoshani matni muhrlandi va o‘scha yili qiziqchilarning birinchi ko‘rik-tanlovi o’tkazilib, unga Yusuf qiziq boshchilik qilib, “Zarkokil”, “Kelin tushirdi”, “Attorlik”, “To‘lg‘ay”, “Qalandarlik”, “Mozor”, “Yelpib o‘tirish” kabi qadimiy hajviy sahna asarlari namoyish etildi.

O‘zbek milliy teatr tarixi va uni shakllanishida Yusufjon qiziq Shakarjonovning xizmatlari beqiyosdir. U yaratgan va ijro etgan ijod namunalari hozirgi kungacha saqlanib, san’at ustalari tomonidan yoshlarga o‘rgatilib, ijro etib kelinmoqda. Yusufjon qiziq Shakarjonov “Mehnat Qahramoni” hamda “O‘zbekiston xalq artisti” kabi davlat unvonlari bilan taqdirlangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhsin Qodirov. O‘zbek teatri tarixi. “Ijod dunyosi” nashriyoti. Toshkent. 2003 yil 19, 138-betlar.
2. Sultonali Mannopov Navobahsh ohanglar. “Ijod – Press” nashriyoti. Toshkent. 2018 yil. 122-bet.
3. Jannatmakon adabiy-ilmiy ommabop jurnali. Toshkent 2007 yil. Iyul soni 23-24 betlar.

Mamadaliyeva Aziza Mansurjon qizi  
Xalq ijodiyoti: "Ashula va raqs" mutaxassisligi  
1-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent S. S. Malikova.

## NOYOB ISTE`DOD EGALARINI SUG`URTA QILISH MASALASIGA DOIR

**Y**evropada sug`urta bozori va uning barcha turlari anchagina rivojlangan. Shu jumladan, tana qismlarini sug`urta qilish haqida ko`plab jahon yulduzlarining intervyularida yoki jahon jurnal va vaqtli matbuotlarida va bugungi kunda judayam ommalashgan ommaviy axborot vositalari orqali ko`ramiz yoki eshitamiz.

Mashhurlar tanasining qismlarini deyarli 100 yil oldin sug`urtalashni boshladilar va bunda Gollivud yulduzları birinchilardan bo`lishdi. Bugungi kunda deyarli har bir kishi, musiqachi, model, aktrisa, sportchi va ko`plab soha vakillari tanasining bir qismini, ya`ni, tanasining shon-sharaf olib kelgan qismini sug`urta qiladi. Tananing bir qismini sug`urtalashni birinchi bo`lib amalga oshirganlardan biri 1920-yillarning ovossiz aktyori Ben Terpin edi. Ko`zoynakli komediyachi o`z ko`zlarini 25 000 dollarga sug`urta qilgan. Futbol yulduzi Devid Bekxem oyoqlarini 35 000 000 dollarga sug`urta qildi. Xuddi shunday mashhur futbolchi Krishtiano Ronaldoning oyoqlari 144 000 000 dollarga sug`urta qilingan. "Raqs Lord" va taniqli "Riverdance" raqs shousi ijrochisi o`zining noyob oyoqlarini 39 000 000 dollarga sug`urta qildi. "Rolling Stones" gitaristi o`zining asosiy ish qurolini, ya`ni, qo'llarini 1 600 000 dollarga sug`urtalagan. Bu kabi misollardan yana ko`plab keltirish mumkin. Bundan tashqari, ba`zi bir mamlakatlardaham taniqli qo`sishchilar o`z ovozlarini sug`urta qilishga harakat qilyaptilar. Xo`sh, bundan nima kelib chiqadi? Sababi nima? Nega sug`urta qilish kerak deb hisoblanadi? Hayotimizda favqulodda turli voqealar bo`lishi mumkin. Noyob iste`dod egalari o`zlarining iste`dodlarini, hayotlarini bunday voqealardan asrash uchun, lozim bo`lganda zarar yetgan a`zolarini davolash uchun bu mablag`larga ehtiyoj sezadilar.

Hozirgi kunda tana qismlarini sug`urta qilish faqatgina Yevropa davlatlarida urf bo`lgan. Bu odat bizga hali yetib kelmagan. Vaholanki, bizni mamlakatimizdagi noyob iste`dod egalari ham o`z hayotlarini yoki tana a`zolarini sug`urta qilishsa arzigudek iste`dodga egalar. O`zbek milliy-mumtoz san`ati vakillari iste`dodlarini sug`urtalash uchun milliard summalar ham kam deb o`ylaymiz.

Jumladan, O`zbekiston bastakorlar uyushmasi a`zosi O`zbekistonxalqartisti, benazrsozandavamohirbastakor, g`ijjakda milliy musiqamizning faol targ`ibotchisi, qator lirik qo`sinq va kuylar muallifi, Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli rahbari – Abduhoshim Ismoilov. Bu san`atkorning g`ijjak sozidagi mohirona ijro texnikasi, barmoqlarning harakati tinglovchini lol qoldiradi. Bu barmoqlarning yana bir noyobligi shundaki, go`zal ijro bilan birga ular qo`sinq va kuylar ham yaratadi.

Bastakor sifatida u yaratgan ko`plab qo`sinqlar va kuylar, jumladan: “Oybuloq”, “Ushalsado”, “Onajon”, “Sizni sevgach”, “Bilmam adashdim”, “Mushkuldur”, “Uchramasang yaxshi bo`lardi”, “Umr o`tar vaqt o`tar”, “Sezmaysiz”, “Yorima ayting”, “Dilimga g`amzadin”, “Muhabbat Laylosi”, “Qaydasan”, “O`zingdan bo`lak”, “Ming zardan a`lo”, “Osmonda ham yo`q”, “Eski qo`sinq”, “Omon ko`ngil”, “Qo`lda sozim”, “O`shalar deysan”, “Etay deb”, “Gulshanda yor ko`rindi”, “Bebaho durdonasan”, “Sendan ketaman”, “Shodlik ato etsin”, Sochingni mayda o`rding”, “Siz buncha shirinsiz”, “Oson bo`lmadi”, “Bir yelka soch”, “Raqqosa”; “Ikkimiz dunyodan o`tganda”, “Tarahhum qilmadi” va yana shu kabi ko`plab ashula va qo`sinqlar bilan birga bastakorning “Hayronaman”, “Favvora”, “To`yona”, “Holim so`rma”, “Gullola”, “Tong”, “Nafosat”, “Zilola” kabi bir qator cholq`u va raqs kuylari musiqa ixlosmandlarining dilidan joy olgan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O`zbek milliy maqom san`atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi qarorida [1.1] aytilganidek, asrlar davomida ulug` shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan maqom san`ati nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki

dunyo miqyosida katta shuxrat va e`tibor qozonayapti. Hozirgi kunda Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambl o`zining ijro mahorati bilan maqom san`atini targ`ib qilishga o`z hissasini qo`shib kelmoqda va bunda ushbu ansambl rahbari Abduhoshim Ismoilovning o`rni beqiyos.

Mohir ijrochi va bastakor Abduhoshim Ismoilov o`zining faoliyatida maqom ustalari va ustozi san`atkorlarimizdan farqli o`laroq birinchilardan bo`lib, Shashmaqom ijrochiligiga zamon bilan hamohang holda, yangicha ijodiy qarashlar bilan yondashdi.

Shashmaqomning cholg`u va aytim yo`llaridan o`rin olgan ko`plab namunalarni yangicha ijro talqinlarini kashf etdi. Bastakor kuyni boyitish maqsadida cholg`u ansamblining tarkibiga qo`biz, bass, klarnet, nog`ora, baraban, sintezator kabi cholg`ularni kiritdi, buning natijasida kuy yanada go`zallahdi hamda ansamblida ko`p ovozlik yaqqol o`z ifodasini topa boshladi. Ya`ni, cholg`ular tembr xususiyatidan kelib chiqib guruhlarga ajratildi va cholg`ular avvalgiday asar ohangini boshdan ohirigacha jo`rlik qilmay o`ziga ajratilgan qismlarnigina ijro eta boshladilar. Yangicha ijro talqinlarida doira usullariga alohida ahamiyat berildi. Jumladan, asar ijro etilayotganda usullarning o`zgarishi, ya`ni, bir turdag'i usulning xilma-xil variantlarda ijro etilishi, asarning avj nuqtasiga doira usuli va cholg`ular jo`rligisiz faqat ovozlarning o`zi qolishi asarlarga yanada joziba baxsh etdi. Abduhoshim Ismoilov tomonidan kiritilgan barcha yangiliklar ijro sifatini oshirish bilan birga, zamon ruhi bilan boyitildi. Milliy musiqamizda cholg`u ansambl tarkibiga, an`anaviy bo`Imagan boshqa millat cholg`u sozlarini kiritilishiga turli xil tanqidiy fikrlar bildirildi. Lekin bu sozlarda xalqimizning milliy ohanglarini jarangi yanada to`liqroq, boyitilgan holdagi ijrosi tinglovchilarni qulog`iga xush kelayotganligi haqida ham ijobiy fikrlar ko`p.

Yevropa sozlaridan skripka, gitara, zarbli va damli cholg`ulardagi o`zbekohanglari ijrosi o`zbek tinglovchisiga ham ma`qul keldi, chunki bu ohanglar, nolalar, qochirimlar hattoki maqom ohanglari ham asl holida, o`zgartirilmay yanada boyib, go`zallahib, boshqa millat

vakillarini e'tiborini qozonyapti va ularda o'zbek milliy musiqasini qabul qilish yanada osonlashyapti.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytamizki, Abduhoshim Ismoilovning iste'dodini, mohir ijrochi va ijodkor barmoqlarini sug'urtaqilsa arziydi deb hisoblaymiz, ammo bizning mamlakatimizga noyob iste'dod egalarining tana a'zolarini sug'urta qilish hali kirib kelmagan va bu holat biz uchun kamchilik deb hisoblasak bo'ladi, ammo keyinchalik bunday sug'urtani o'z vaqt bilan joriy qilish ehtimoli ham bor desak yanglishmaymiz.

O'zbekmusiqasida Abduhoshim Ismoilovgao 'xshaganiste'dodlii jrochivaijodkorlarko' p. Xorijiy davlatlarda bunday noyobiste'dode galarinixalqmulki (Достояние народа) debe'zozlashadi. O'zbek xalqi, haqiqiy ma'naviy mulki deb atalishga loyiq bo'lgan noyob iste'dod egalariga azaldan boy xalq bo'lgan. Hozirgi kunda ham turli sohada faoliyat yuritayotgan xalqimizning iste'dodli farzandlari, ya'ni, (Достояние народа) lari juda ham ko'p. Ular o'z erishgan yutuqlari, iste'dodlari bilan xalqimizning ko'nglidan joy olib, o'zbek millatini va mamlakatimizni dunyoga tanitishda katta hissa qo'shib kelmoqdalar. Sohasidan qat'iy nazar yurtimizgadagi chin iste'dod egalarini asrashimiz, ularni ma'naviy va moddiy jihatdan har doim rag'batlantirib turishimiz va yanada ularga keng imkoniyatlar yaratishimiz kerak, chunki ular haqiqattan ham xalqimizning ma'naviy mulkidir va mamlakat tayanchidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17- noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ -3191-sonli qarori.

Nilufar Xusan qizi Sunnatillayeva  
1-kurs “Folklor va etnografiya”  
mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: dotsent Saidqul Alimov

# **TOSHKENT SHAHRI FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOALARI REPERTUARIDA MAVSUM-MAROSIM QO'SHIQLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI** (“Buvijonlar” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi misolida)

## **Annotatsiya**

So'nggi yillarda o'zbek milliy folklor ijrochilik san'ati, folklor-etnografik jamoalarining rivojlanishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari, jamoalarning repertuari, ijrochilik mahorati bo'yicha soha mutaxassislari, folklorshunos olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Ammo Toshkent-Farg'ona viloyatlari folklor-etnografik jamoalari, ayniqsa, Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik jamoalari tarixi, ularning repertuari bilan bog'liq tomonlari to'laligicha o'rganilmagan. Ushbu maqolada Toshkent shahri folklor-etnografik jamoalaridan “Buvijonlar” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi tarixiy-taraqqiyot bosqichlari va repertuari ilmiy tahlil etilgan.

## **Kalit so'zlar**

Folklor,folklor-etnografik jamoalari,repertuar,etnografiya,ijrochilik san'ati.

## **Аннотация**

В последние годы специалисты в области исполнительского искусства узбекского национального фольклора, развития фольклорно-этнографических коллективов и этапов исторического развития, репертуара коллективов, исполнительского мастерства, научные исследования проводились учеными-фольклористами. Однако история фольклорно-этнографических коллективов Ташкентско-Ферганской области, особенно фольклорно-этнографических коллективов, действующих в городе Ташкенте, аспекты, связанные с их репертуаром, до конца не изучены. В этой статье Ташкент научно проанализированы этапы историко-развития и репертуар фольклорно-этнографических

коллективов города, фольклорно-этнографического самодеятельного коллектива “Бувижонлар”.

### Ключевые слова

Фольклор, фольклорно-этнографические ансамбли, репертуар, этнография, исполнительское искусство.

### Annotation

In recent years, Uzbek national folklore performing arts, stages of development and historical development of folklore and ethnographic communities, repertoire of groups, performance skills have been conducted by experts in the field, folklorists. However, the history of folklore and ethnographic communities of Tashkent-Fergana regions, especially the folklore and ethnographic communities operating in Tashkent, and aspects related to their repertoire have not been fully studied. This article provides a scientific analysis of the historical and development stages and repertoire of folklore and ethnographic group “Buvijonlar” in Tashkent.

### Keywords

Folklore, folklore-ethnographic communities, repertoire, ethnography, performing arts.

Xalq madaniyati va ma'naviyatining eng qadimiy ko'rinishi bo'lgan folklor namunalarida o'sha xalqning turmush tarzi, hayotiy tajribasi, yutuq va muvaffaqiyatlari aks etadi. Shu bois u asrlar osha avloddan-avlodga o'tib, yoshlar tarbiyasida "hayot maktabi" vazifasini o'tab kelmoqda. Xalqona ruh, betakror samimiyati va qadimiy madaniyatimizning go'zalligini namoyon etuvchi folklor chinakam ma'naviy xazina, tuganmas buloq singari asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitib, ongu tafakkuri va his-tuyg'ularini teranlashtirib kelgan. Ajdodlarimizdan qolgan bu ulkan meros millat qalbida ezgu niyat va ulug' maqsadlarga intilish, ona vatanga muhabbat va e'tiqod tuyg'ularini uyg'otadi.

Milliy rujni o'zida asrlar bo'yli ortmoqlab kelayotgan, qadimiy an'analarnibugungi kunda ko'z-ko'z etayotgan, o'z ortidan millionlab kishilarni ergashtirayotgan har tomonlama ibrat maktabi bo'lib, omma mehrini qozonayotgan, yoshlar qalbiga ma'naviyat urug'ini singdirayotgan ijodkorlardan biri – folklor-etnografik jamoalaridir.

So'nggi yillarda Toshkent shahrida folklor-etnografik jamoalar faoliyati sezilarli darajada o'zgardi. Bir qator folklor-etnografik

jamoalari tashkil etildi, ular orasida faol ijodiy faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik jamoalari esa O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan "Xalq havaskorlik jamoasi" unvoniga sazovor bo'lishdi. "Gavhar", "Nodirabegim", "O'zbekoyim", "Hilola", "Buvijonlar", "Durdona" kabi folklor-etnografik jamoalari shular jumlasidandir.

Toshkent shahri folklor-etnografik jamoalar repertuarida milliy qadriyatlar va an'anaviy marosimlarining vositasi bo'lmish mehrmuruvvat, saxovat va insoniy fazilatlarni aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari shakllandı. Yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yangilanish folklor asarlarini hayotga yanada keng targ'ib qilish jarayonini boshladi. Masalan, xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalarini o'zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi

- Navro'zi olam bilan bog'liq qo'shiqlar, udumlar va marosimlar qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarini badiiy xususiyatlari, bayramni o'tkazilishi bilan bog'liq lokal belgilar ro'yobga chiqdi. "Yil boshi", "Sumalak pishirish", "Hashar uyushtirish", "Lola sayli", "Gul sayli", "Muchal to'yi", "Sunnat to'yi", "Mehrjon" kabi o'zligimizni tarannum etuvchi qadimiylar qaytdi.

Toshkent shahrida ana shunday ma'suliyatli vazifalarni sidqidildan bajarayotgan, fidoiy ishtirokchilardan iborat folklor jamoalaridan biri "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasini alohida ta'kidlash lozim.

"Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi 2014-yili Toshkent shahar Mirobod tumani 1-son madaniyat markazi qoshida folklor san'atining tolmas targ'ibotchilari – Asatilla Sunnatillayev va Dilshod Umarovlar boshchiligidagi tashkil etilgan. "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamosiga o'n besh nafardan ortiq turli yoshdagionaxonlarfaol ishtiroketib kelmoqda. Jamoarepertuarlaridan o'zligimizni, milliy ligimizni, urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar, udum va marosimlar joy olgan.

Onaxonlar ijrosidagi qo'shiqlar, qo'llaridagi chinni likopchalarni angishvona taqilgan barmoqlari bilan urib, usulga mos raqs harakatlari va qo'shiq ijrolarida hududga xos, o'zgacha bir o'ktamlik ufurib turadi. Hududga xos dastur va ijodiy chiqishlari ko'p o'tmay, bu jamoa soha mutaxassislari tomonidan e'tirof etilib, turli ko'rik-tanlovlardagi

ishtiroki san'atning bu janri ixlosmandlari e'tiborini qozondi.

Jamoa repertuaridan "Shaydini-shaydo", "Hunarmandlar", "Toshkentlik hunarmandlar", "O, layli", "Nurli hayot", "Shundanmikin", "Bahor fasli", "Oynaga qarang", "Sumalak", "Bugun navro'z ekan" kabi o'nlab mehnat va marosim qo'shiqlari joy olib, "Buvijonlar" folklor-etnografik jamoasi bo'lib shakllandi. Folklor jamoalarini viloyat, Respublika ko'rik-tanlov va festivallarida faol ishtirok etib, faxrlı o'rirlarga bir necha bor sazovor bo'ldi.

Erishilgan muvaffaqiyatlar, ko'rsatilgan xizmatlari evaziga "Buvijonlar" folklor-etnografik jamosiga 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi buyrug'i bilan "Xalq havaskorlik jamoasi" unvoni berildi. Jamoa bir necha bor O'zbekiston televideniyalari orqali chiqishlar qilib, o'z dasturini xalqqa namoyish etdi.

Folklor-etnografik jamoalarining ijro yo'li, repertuar tizimi va folklor xazinasigayondashish uslubidaan'anaga munosabatlari turlicha. Lekin ularning ijro usullari, badiiy mahorat darajalari, folklor an'analariga munosabatlari o'zlari istiqomat qilib turgan hududga bevosita bog'liq ekanligini ham e'tirof etish lozim bo'ladi.

Folklor-etnografik jamoalarini qayerda tashkil qilingan bo'lsa, o'sha yerlik xalqning milliyan'analarini, og'zaki ijodning noyob namunalarini saqlashda, unga sayqal berib, xalqning o'ziga qaytarishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar. "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi ham o'z repertuarida Toshkent shahriga xos udum va marosimlar, lapar, yalla, qo'shiqlar o'rinni olgan.

Istiqlol tufayli xalq badiiy ijodiyotining barcha tur va janrlari qatori mavsum-marosim folklori qo'shiqlarining tiklanishi uchun katta imkoniyat yaratdi. Bu imkoniyatlar tufayli asriy qadriyatlar tizimi, bosqichma-bosqich tiklanib, hayotga qaytmoqda. Bu esa mustaqil diyorimizda kechayotgan hozirgi tarixiy-folklor jarayonining muhim qirralaridan biridir. "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamaosining repertuarida, ayniqsa, mavsum-marosim qo'shiqlari alohida ahamiyatga ega. Jamoaning ijodiy izlanishlari natijasida bir qator mavsum-marosim qo'shiqlari tiklandi.

Mavsum marosimlarning boshlanishi ham o'rganilishini ham negadir Navro'z bayrami boshlab beradi go'yo. Sharq mamlakatlari hayotida muhim o'rinni tutgan hamda tadqiqotchilar tomonidan turli

tarixiy davrlarda keng ko'lamda o'rganilgan va turlichal talqin qilingan "Navro'z" bayramida o'zbeklarning asrlar davomida shakllanib kelgan falsafiy, tarixiy va milliy qarashlari namoyon bo'ladi. (2, 37)

Ma'lumki, Navro'z keng omma tomonidan nishonlanadigan umumxalq bayramidir. Shu bois bu bayramning ko'p qo'shiqlari ommaviy ijrochilikka mo'ljallangan. "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasining Navro'z bilan bog'liq qo'shiqlarda yurt ozodligi, ma'naviy qadriyatlarimizning elga qaytish g'oyasi tarannum etiladi:

*Boychechak chiqibdi, bugun navro'z ekan,  
Hamma bir-biriga jigar so'z ekan.*

*Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,*

*Boychechak chiqibdi, bugun navro'z ekan.*

*Yangi yil muborak bo'lsin, hoy bobo,*

*Yangi yil muborak bo'lsin, hoy momo.*

*Yangi yil muborak bo'lsin onajon,*

*Boychechak chiqibdi, bugun navro'z ekan. (4)*

Qadimda ushbu misralarni bahor kelishi bilan, kuzda hosil mo'l bo'lishini umid qilib, ezgu niyatda dalaga don sepgan bobodehqonlarimiz el-u yurtga omonlik, tinchlik, farovonlik tilab kuylaganlar. Bu qo'shiqlar Navro'z – yilboshi tantanalarining eng nafis qo'shiqlaridan biri bo'lgan. Qo'shiq misralarida el dasturxoniga baraka yog'ilishi, halol mehnatni ulug'lash, ezgu umidlarning maysalanishi, to'kin-sochinlik, oilalar xotirjamligi, yurt boyligi ekanligi g'oyasi yetakchilik qiladi.

Mavsumiy marosimlarda ham oilaviy marosimlar kabi xalq uni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rgan, marosim uchun turli taomlar pishirilgan. Tabiiyki, har bir mavsumning o'ziga yarasha shoh taomlari bo'lgan va bu taomlarga bag'ishlangan xalq qo'shiqlari ham dunyoga kelgan. Sumalakni tagi olmasligi uchun qozonni muttasil kovlab turish lozim. Bu ish sharbat qozonga solingan oqshomdan tun bo'yi davom etadi. Shu boisdan uni tayyorlovchi ayollar tun bo'yi sumalak qozoni atrofida bazm uyushtirib, zavq-shavq bilan yelib-yugurganlar, sumalakni alqagancha qo'shiqlarni kuylab raqsga tushganlar. (2, 38) "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi repertuaridagi Navro'z bayramining shoh taomi – sumalak haqidagi qo'shiq ham

bamisoli daryoday jo'shib kuylanadi:

*Sumalak oh, sumalak,  
Dardimga darmon sumalak.  
Momomdan qolgan sumalak,  
Bobomdan qolgan sumalak.  
Bolasini risqini so'rab,  
Onadan qolgan sumalak.  
Qozonga qarang akasi,  
Qozonni kovlang xolasi.  
Sumalak tag olmasin,  
Toshlarni tashlang tog'asi.* (4)

Gul - yaxshilik, ximmat, go'zallik ramzidir. Gulni hurmat va ehtirom ramzi sifatida yoru-do'stlarga taqdim etish, o'zaro bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatini gul bilan izhor qilish an'anasi kishilarni ezgu niyat, mehr-oqibat, shafqat va diyonat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Bayram, sayllarva marosimlarni yaratuvchi xalq, har faslning o'ziga mos liboslar kiyib, tabiatga uyg'un holda bayramlarni nishonlashgan. (3, 92) Bahorda lola sayli, qizil gul sayli, boychechak sayli kabi gullar marosimida gullarga monand liboslar kiyishgan va shu kayfiyatga mos qo'shiqlar ijro etishgan. "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamaosi repertuaridagi ana shunday qo'shiqlardan biri "Lola sayli" qo'shig'idir:

*O, layli, layli, layli,  
Bizda bugun gul sayli.  
O'zbek elida bayram  
Bahor ayyom tufayli.  
Yurtim chaman bog'lari,  
Lolazoru tog'lari.  
Istiqloli qo'lida  
Yurakda yo'q dog'lari* (4).

O'zbek folklorida "Lola sayli" bilan bog'liq xalq qo'shiqlari ko'p uchraydi. Bunga sabab, qish qirovli kunlardan zerikkan kishilar, bolalar, yigit-qizlarning yayrab o'yin-kulgu, shodiyona qiladigan tantana bo'lganligi deyishimiz mumkin. Ayniqsa, bu qo'shiqlar bir-biriga ko'ngil qo'ygan yigit-qizlarning uchrashuv maydoni bo'lganligi ham qo'shiqlarning yanada ommalashishi, ko'ngillarda chuqurroq

qolishiga sabab bo'lgan. (2, 41) Qo'shiqlarda lola elning chiroyi ekanligi, bu gulning ochilishi odamlar diliga faraxbaxsh nur ato etishi, chaqmoqdan, sellardan qo'rqlay insonlarga ham jasorat, ham g'ayrat bag'ishlashi tarannum etiladi.

Jamoa repertuarini shakllantirish va rivojlantirish ishlari folklor-etnografik jamoa ijodiy faoliyatida muhim va asosiy rol o'ynaydi. Jamoa tinglovchi hamda tomoshabinlarning mehr-muhabbatini qozonishi yoki o'z-o'zidan tarqalib ketishi ko'p jihatdan repertuarga, yanada aniqroq qilib aytsak, uning mazmuniga bog'liq bo'ladi. Folklor-etnografik jamoa ishining g'oyaviy-estetik yo'nalishi, ijodiy guruhning haqiqiy va to'laqonli kamolotga yetishi asosan repertuarni tanlay bilish mahorati va asarlarning o'ziga xos ba'zi jihatlariga bog'liq. Shuning uchun folklor jamoalarini va madaniyat markazlarning badiiy rahbarlari repertuarni shakllantirishiga jiddiy masala deb qarashlari va qat'iy tanqidiy munosabatda bo'lishlari zarur. Binobarin, folklor jamoalarini o'z oldilarida xalqimizning ko'hna san'atini asrab-avaylash, targ'ib qilish va ijodiy yuksaltirishdek g'oyat ezgu, mas'uliyatli vazifa turganligini yoddan chiqarmasliklari kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldosheva S.N. Folklor-etnografik jamoalarini uslubiyoti. T.: Navro'z nashriyoti – 2014. – 162 b.
2. Sunnatillayev A.S. O'zbek marosim qo'shiqlarining tasnifi va badiiyati. Magistrlik diss. Toshkent: 2018.
3. Mas'ul muh: Yo'ldosheva S.N. O'zbek milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlari. T.: Navro'z nashriyoti – 2014. – 175 b.
- 4.. "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi repertuaridan.
5. Yo'ldosheva. S. Folklor-etnografik ansamblari. T.: O'qituvchi NMIU. 2007.266-b.



Iftixorjon Iqboljon o‘g‘li No‘monov  
1-kurs “Ashula va raqs” mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: dotsent Dilbar Malikova

## O‘ZBEKISTONDA XIZMAT KO‘RSATGAN MADANIYAT XODIMI YUNUSQORI YUSUPOVNING MILLIY QO‘SHIQCHILIK SAN’ATIDA TUTGAN O‘RNI

### Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, bastakor, xonanda va sozanda Y.Yusupovning milliy qo‘shiqchilik merosimizga qo‘shgan hissasi va ijodiy faoliyati xususidafikrlarbayonetilgan.

### Kalit so‘zlar

An’aviy qo‘shiqchilik, maqom, san’at, xonanda va sozanda, bastakor, ansambl, meros.

### Аннотация

В данной статье рассматривается вклад и творчество заслуженного деятеля культуры Узбекистана, композитора, певца и музыканта Ю. Юсупова в наше национальное певческое наследие.

### Ключевые слова

Традиционное пение, мақом, искусство, певец и музыкант, композитор, ансамбль, наследие.

### Annotation

The article seeks to reflect on the contributions and creative work of the Honored Worker of Culture of Uzbekistan, composer, singer and musician Y.Yusupov to our national singing heritage.

### Key words

Traditional singing, maqom, art, singer and musician, composer, ensemble, heritage.

“An’ana – o‘tmishning yakuni emas,  
balki yangi zamонни ilhomlantiruvchi jonli kuchdir”

I. Stravinskiy

**A**n’aviy qo‘shiqchilikning ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Milliy qo‘shiqchilik san’ati va musiqiy cholg‘ular insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlaridan

o‘tib, takomillashib bordi va bugungi kunda ham insonlarni qalblarini rom etib kelmoqda.

Yurtimizda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda ko‘p islohotlar olib borilmoqda. Shu qatorda, milliy madaniyat va san’at, ma’naviyat va ma’rifat hamda taraqqiyotparvar omillariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan beba ho milliy qadriyatlarni va an’analarmizni imkonli boricha to‘lar oq tiklash, tarixiy-madaniy yodgorliklarimizni, shu jumladan, maqom va milliy qo’shiqchilik san’atimizni mufassal o‘rganib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning kadrlar masalasiga doir ma’ruzalarida “Yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol bo‘lib yetishishlarida astoydil xizmat qilish har birustozning (qaysi kasbegasi bo‘lmasis) eng dolzarb vazifasi bo‘lishi hozirgi kunning ham talabi ekanligi, vatanparvar, fidoyi, harishda tashabbuskor, barkamol avlodni shakllantirish, olingan bilimlarni to‘la-to‘kis keyingi yosh avlodlarga o‘rgata boruvchi komil shaxsni tarbiyalash asosiy maqsadlarimizdan biri”, deya ta’kidlagandi. Milliy qo’shiqchilik san’ati, xalqimizning o‘tmishi so‘z va ohanglardagi o‘ziga xos ifodasidir. Shunday ekan, asl san’at o‘z ifodasini hech qachon yo‘qotmaydi.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi hamda 2018-yil 6- apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o’tkazish to‘g‘risida”gi qarorlari ham o‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlanishida juda ham muhim hujjatlar bo‘ldi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Besh tashabbus”ning birinchi yo‘nalishi doirasida, ya’ni yoshlarning madaniyat va san’atga qiziqishini kuchaytirish masalalarini ham ilgar surganliklari va ijodkor yoshlarni qo’llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida “Eng yaxshi maqom targ‘ibotchisi” kabi mukofotlar ta’sis etilgani ham juda ham quvonarlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiylari an’analari bilan ma’naviy hayotimizda alohida muhim o‘rin egallaydi”.

An'naviy ijrochilik merosimiz nihoyatda boydir. U qanchalik chuqur va atroflicha o'rganilar ekan, yangidan-yangi qirralari ochilaveradi va uning rivojiga o'zlarining hissalarini qo'shgan ijodkorlarning nomlari kashf etilaveradi. Shunday iste'dodli san'atkorlar orasida Andijon an'anaviy ijrochilik maktabining yorqin namoyondasi, o'zining qisqagina hayoti davomida o'zbek milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati rivojiga barakali hissa qo'shib, tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirgan betakror g'ijjakchi, yoqimli ovoz sohibi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Yunusqori Yusupov ham bor edi. O'z davrining mashhur sozandasи va xonandasи bo'lgan ushbu ijodkor kamон tortganda va kuylaganda davralar sel bo'lgan.

Milliy qo'shiqchilik san'ati xalq og'zaki ijodi va klassik adabiyot bilan uzviy holda rivojlanib kelgan. Uslub so'zi rus va boshqa tillarda "stil" deb yuritiladi. Bu so'z lotin tilidagi stilus so'zidan olingan bo'lib, mumlangan taxtaga yozish uchun ishlatiladigan tayoqchani bildiradi". O'zbek milliy qo'shiqchilik san'atida ham ijrochilik uslublari rang-barangdir. Uslubning umummintaqaviy ijrochilik uslubi, ma'lum bir voha uslubi, mahalliy uslub va shaxsiy uslub kabi turlarga bo'lish mumkin. "Yurtimizda milliy musiqa va an'anaviy ijrochilikning o'ziga xos uslublari, asosan, Andijon, Buxoro, Xorazm va boshqa an'anaviy maktablari orqali namoyon bo'lgan. Bu maktablarning har biri yana ma'lum bir maktablarga bo'linib keladi. An'anaviy ijrochilikda Andijon maktabinig yorqin namoyondasi, o'zbek maqom san'ati milliy qo'shiqchiligi rivojiga barakali hissa qo'shgan betakror g'ijjakchi sozanda, bastakor, mohir xonanda ustoz san'atkor Yunusqori Yusupovdir."

Ustoz Yunusqori Yusupov 1934-yilda Andijon viloyati, Paxtaobod tumani, Ovushqa qishlog'ida, oddiy dehqon oilasida tavallud topgan. Ustozning ko'zi bolaligida qizamiq kasalidan so'ng ojiz bo'lib qolgan. Ismiga qori so'zinig qo'shib aytilishi ham shundan. Ustoz musiqa ilminig boshlang'ich ko'nikmalarini otasi olib bergen mandalina cholg'usidan boshlaydi. Ovushqa qishlog'inining raisi, san'at shinavandasи Ismoilxon ustozning ashula xirgoyi qilishi va mandalina cholg'usini chalishini ko'rib, unga nay cholg'usini tuhfa etadi. Shundan keyin Ustoz musiqa san'atini chuqurroq o'rganishga kirishadi. Bir yil ichida nay cholg'usini ancha muncha o'zlashtirib olgan Yunusqoriga

rais g‘ijjak cholg‘usini ham olib beradi. G‘ijjak sozi bo‘yicha saboqni Paxtaobodlik san’atkor Abdumalikxon Yunusovdan ola boshlaydi. Tez orada yosh Yunusqori o‘zining go‘zal ijrosi bilan paxtaobodlik ustoz san’atkorlar: Usta Hojimat tanburchi, Ergash g‘ijjakchi, Orifjon Qodirov, Abdukarim Rasulov, Toshxo‘ja Maxsum, Shavkatjon Yusupov hamda Qodir Oxunlarning nazariga tushadi va ulardan ham ashula va cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha saboqlar ola boshlaydi.

Yunusqoriga yorug‘ dunyoni ko‘rish baxti in’om etilmagan bo‘lsa-da, u hayot go‘zalliklari, insonlarning hayotga bo‘lgan munosabatlarini qalbi bilan ko‘ra olardi va jamiyat uchun kerakli inson bo‘lib yetishish uchun tinmay harakat qilar edi. U o‘zining o‘smirlilik davrini ustozlari ijo yo‘lini o‘rganish, ularning san’atlarini ziyrak nigoh ila kuzatish va tobora professional ijrochilik sirlarini egallab boorish harakati bilan o‘tkazdi. Bu izlanishlar samarasi o‘laroq, u o‘zining qobiliyatini shakllantira oldi va tinimsiz mehnatlari tufayli ustozlarining ishonchini oqlay oldi. Shu zaylda el ichida ham Yunusqori degan nom tanila bordi. Asta-sekin radiodan u ijo etgan qo‘shiqlar ham yangray boshladi va ustoz san’atkor Akademik Yunus Rajabiyni ham etiboriga tushadi.

Yunusqori Yusupov an‘anaviy qo‘sinqchilik va g‘ijjak cholg‘usining ijroviy texnik jihatlarini chuqur o‘rganib, uning ifodaviy imkoniyatlari, nozik qirralari, ta’bir joiz bo‘lsa, hali kashf etilmagan tomonlarini ham o‘zining yuksak ijo mahorati misolida ko‘rsatib berdi. Uning ijrolarini tinglar ekanmiz, bir qancha diqqatni jalg etuvchi jihatlar, shuningdek, an‘anaviy qo‘sinqchilik va g‘ijjak ijrochilik san’atiga oidyangiliklarmavjudligiga guvoh bo‘lamiz.

«Y.Yusupov milliy ijrochiligidan o‘zining betakror ijrochilik mahorati bilan yangiliklar olib kirdi. U g‘ijjak cholg‘usida surnay yo‘llarini nihoyatda yuksak mahorat bilan ijo qila olgan. Ma’lumki, mumtoz ashulalarning cholg‘u variantlarini ijo etish milliy cholg‘u ijrochiligidan xos jihat. Shu bois Y. Yusupov ham mazkur tamoyilga murojaat etib, bir qancha ashula namunalarining cholg‘u variantlarini ijo etgan. Ular shunisi bilan e’tiborliki, Y.Yusupov katta ashula janri, umuman hofizlikda qo’llaniladigan ijo bezaklari, dinamika, hatto nafasni ishlatish qonun-qoidalari kabi nozik jihatlarni ham g‘ijjak talqinida aks ettira olgan.” Yuqorida aytilgan fikrlarga musiqiy yozuvlar “Oltin fondi” xazinasidan joy olgan surnay yo‘llaridan “Surnay

dashtnavosi” hamda “Guluzorim qani” katta ashulasi yaqqol misol bo’la oladi. Y.Yusupovning eshitish qobiliyati hamda ijro texnikasi shu darajada yuqori bo’lganki, g’ijjakda karnay ovozi, odamlarning bir-biri bilan o’zaro muloqoti, er-xotinning o’zaro janjallahib qolgan holati, hayvonlar va qushlarning ovozi, mashinalarning signallari-yu dirillashlarini ham yaqqol aks ettira olgan. Albatta, bular yuksak iqtidor va tinimsiz mashqlar natijasida yuzaga kelgan.

Yunusqori Yusupovning bastakorlik faoliyatida katta yutuqlarga erishishida uning serqirra faoliyat olib borganligi asosiy omillardan biri edi. Yunusqori Yusupov ham sozandalik, ham xonandalik, ham bastakorlik jabhalarini o’zining qizg‘in ijodiy faoliyatida birlashtirgan edi. Shuning uchun ham u bastalagan kuy va qo’shiqlarning barchasi yetuk va go’zal asarlar sirasidan joy olar edi. Ustozning “Kelibdur”, “Bilmasang bilgil” va bir qancha ko’ngilga yaqin asarlari xonanda va sozandalar repertuaridan munosib joy egallab kelmoqda.

Yunusqori ustozning qisqagina sermazmun faoliyati ijrochilikning turli jabhalariga asoslangan holda o’tdi. Ustoz an’anaviy ijrochilik va milliy qo’shiqchilikda o’zining yo’lini, uslubini yarata oldi. Ustoz yaratgan asarlarini xalqimiz hozirgi kunga qadar zavq bilan tinglab kelmoqda. Davlatimiz tamonidan ustozga milliy musiqamiz rivoji yo’lidagi xizmatlari uchun O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi unvoni berildi. Ustoz 1987- yil ayni san’ati kamolotga yetgan vaqt 53 yoshida dunyodan o’tdi. Ustozning farzandlari va shogirdlari tamonidan tashkil etilgan maqom ansambli hozirgi kunda ustozning izidan borib, u yaratgan asarlarni va maqom asarlarimizni o’rganib faoliyat olib bormoqda. O’ylaymanki, ustoz yaratgan maktab hozirgi davrning bizdek yosh ijodkor san’atkorlar ijodida katta poydevor bo’lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G’ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar. N.Qodirov. «Musiqa». 2016. 96 bet.
2. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. I. Karimov T.Manaviyat 2008. 176 bet.
3. Maqomlar. I.Rajabov. «SAN’AT» nashriyoti. Toshkent 2006. 493 bet.
4. Andijon san’at fidoyilar. A. Maxmudov. «Akademnashr» 2018. 224 bet.

**Sarvarbek Shamsiddinovich Mahkamboyev,**  
*1-kurs “Kino va televide niye rejissyorligi”*  
*mutaxassisligi magistranti.*  
**Ilmiy rahbar:** s.f.n. Feruza Fayziyeva

## HUJJATLI FILM VA KINO

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola hujjatli va ilmiy-ommabop filmlarda badiiy film unsurlarining qo'llanilishi: film kompozitsiyasi, kadr, musiqa va hatto intervyu foni ham dramaturgiyaga xizmat qilishi haqida.

### **Аннотация**

Данная статья об использовании элементов художественного кино в документальных и научно-популярных фильмах.

### **Annotation**

This article is about the use of feature film elements in documentaries and popular science films.

### **Kalit so'zlar**

Kino, film, intervyu, kadr, rejissyor, musiqa, televide niye, ovoz, dramaturgiya.

### **Ключевые слово**

Кино, фильм, интервью, кадр, режиссёр, музыка, телевидение, звук, драматургия.

### **Key words**

Cinema, film, Interview, frame, director, music, television, sound, dramaturgy.

1918-yili birinchi hujjatli film suratga olingandan beri ushbu kino san'ati turi rivoj topib, yangiliklar qo'shilib kelinmoqda. Ammo hozir tan olish kerakki, "Instagram", "Tik tok" kabi ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanib ketishi oqibatida 1daqiqadan ko'p bo'lgan videoni ko'rishga erinadigan tomoshabinlarni sifatsiz va qiziqarli bo'lмагan filmlar bilan ekran qarshisida ushlab turish juda mushkul. Shu sababli, hozir siyqasi chiqmagan, qiziqarli bo'lgan mavzularda badiiy va hujjatli film ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylayman. Zero, filmlar tomoshabinlar uchun suratga olinadi, tokchada chang bosib yotishi uchun emas. Bu degani tomoshabinga yoqish uchun filmni boshidan

oxirigacha bo'lar-bo'lmas bachkanalik bilan to'ldirish kerak degani emas. Shunchaki oltin o'rtaliqni olish kerak, xolos. Hozirda Golivudda suratga olinadigan hujjatli filmlar badiiy filmlar bilan bemalol raqobatlasha oladi. Qiziqarlilik borasida ham, mavzuning nodatiyligi borasida ham, filmning kompozitsion tuzilishi mukammaligi borasida ham. Afsuski, bizning O'zbekistonda hujjatli filmlar bu borada biroz oqsamoqda, ko'p emas, biroz. Chunki sifatli va qiziqarli hujjatli filmlarimiz talaygina, lekin baribir bu yetarli emas, barcha filmlarga mas'uliyat bilan yondashish zarur.

Hujjatli filmlar ham xuddi badiiy filmlar kabi kompozitsion tuzlishga ega ekanligi bir oz yodimizdan ko'tarilmoqda. Hujjatli va ilmiy-ommabop filmlarning ham kirish qismi, tuguni, voqealar rivoji, kulminatsiyasi va albatta yechimi bo'lishi shart. Har bir hujjatli filmda xuddi badiiy filmdagi singari tomoshabin uchun jumboq bo'ladigan va javobini bilishni juda istaydigan savol o'rtaga tashlanishi lozim. Ular oddiy, faqat bo'lgan voqealarni haqida ma'lumot beruvchi televizion reportajdan farq qilishi zarur. Chunki ular o'z nomi bilan filmdir. Badiiy filmlarda doim voqealar markazida inson turganidek, hujjatli filmlarda ham qanday mavzu bo'lishidan qat'iy nazar, 90% holatlarda inson taqdiri eng muhim omil bo'lib qolaveradi. Lekin bu degani filmni qiziqarli qilaman deb bo'lmagan voqealarni ham qo'shib-chatish kerak degani emas. Hujjatli film hujjatlar, faktlar, aniq dalillar bilan ishlaydigan kino san'ati turidir. Biror bir mavzuga qo'l urildimi, uni ikir-chikirigacha o'rganib, ushbu mavzuga doir barcha manbalar chuqur o'rganib chiqilsa, albatta, filmni shuning atrofiga qurish mumkin bo'lgan eng qiziqarli ma'lumotni topish mumkin. Eng asosiy masala, bu yerda qiziqarli va dolzarb bo'lgan mavzu topishdir. Qiziqarli mavzu topildimi, demak, film kompozitsiyasi ham, tomoshaviylik ham o'z o'rnida bo'ladi. Agarda faqat yillik rejani to'ldirish uchungina filmlar ishlansa, unda bilmadim.

O'zbek hujjatli filmlarida intervyu olish jarayoni ko'pincha bir xil kechadi. Ikkita kamera bilan suratga olinadi. Biri o'rta plan, biri esa yirik planga kadr qo'yiladi. U ham bo'lsa, yirik plandagi kadremotsional

vaziyatlarda intervyu berayotgan insonning his-tuyg‘ularini aniq qilib tasvirda ko‘rsatish uchun emas, gap orasida tutilishlar va kamchiliklar bo‘lganda, bir plandan ikkinchi planga o‘tish uchun. Bu juda noto‘g‘ri narsa, deb hisoblayman. Jiddiy mavzuda intervyu olinayaptimi, demak, shunga yarasha tayyorgarlik qilish kerak. Xuddi badiiy filmda bo‘lganidek, ikki qahramon suhbatida umumiy plan odatiy suhbatni, o‘rta plan ularning orasidagi munosabat jiddiyroq tus olayotganini va yirik plan eng muhim emotsiyalardan vaziyatlarda film qahramonlarining ushbu holatga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatib berar ekan, nima uchun biz bu narsadan hujjatli filmda foydalanmasligimiz kerak?! Badiiy filmda bir qahramon ikkinchi qahramonga uning hayotida tub burilishni yuzaga keltiruvchi muhim so‘zni aytganda, aktyorning ushbu so‘zlarni ich-ichidan tushunib, ushbu so‘zni hazm qilgandan so‘ng, ushbu holat qahramonga ta’sir qilgan vaziyatni yanayam kuchaytirib ko‘rsatish uchun kadrni aktyoring ikkinechi o‘rta planidan uning yuziga tomon harakatlantirib, makro planigacha ohista yaqinlashsa, tomoshabinga ushbu epizodning emotsiyalardan ta’sir kuchi yanayam yuqorivatishunarlibo‘ladi. Nima uchun biz ushbu usulni emotsiyalarga berilib, jonini kuydirib, ko‘zidan yosh chiqqancha sukutga cho‘mib, intervyu berayotgan insonga nisbatan ishlatmasligimiz kerak?! Agar bu narsa tomoshabinlarga ta’siri kuchliroq bo‘lsa albatta ishlatish kerak (Bu usul, albatta, ish beradi. “Arxiv moziy guvohi” filmida shaxsiy tajribada sinalgan. Postanovkachi rejissyor: Sarvarbek Mahkamboyev. Postanovkachi operator: Davlatbek O‘razaliyev). Buning uchun suratga olish maydonchasiga ikkita emas, uchta, kerak bo‘lsa to‘rtta kamera bilan chiqish lozim. Agar chindan ham ishga jiddiy yondashsangiz va dramaturgiyaga xizmat qiladigan intervyu olmoqchi bo‘lsangiz, albatta. Intervyuda fon ham juda muhim ahamiyatga ega men uchun. Ya’ni intervyu berayotgan insoningiz suhbatlashilayotgan mavzusiga oid bo‘lgan atmosferali joyda o‘z so‘zini aytgani ma’qul. Ana o‘sandagina suhbat yanayam jonli, ishonchli va to‘laqonli butun bo‘ladi. Hozir tomoshabinlar judayam ziyrak hamda har bir aytilgan so‘z uchun dalil so‘raydigan holatga kelishgan. Ayniqsa, hujjatli va

ilmiy-ommabop film bo'lsa. Tasavvur qiling, futbol haqida intervyu olish uchun borgan insoningiz rahbar-u va uning o'z shaxsiy kabineti bor. Chiroyli bezatilgan xonada salobatli, aylanadigan charm kursiga o'tirib intervyu bermoqchi-yu, ammo u yerda futbolga oid hech vaqo yo'q. "Bizning yigitlarimiz mashg'ulotlarni ajoyib o'tkazmoqda" desayu,o'zi kabinetda o'tirsa. Buni ko'rgan tomoshabin "Yodlab olgan so'zlarini aytishini qara! Kabinetda o'tirvolib maydonda bo'layotgan ishdan qayerdanam xabaring bo'lardi", deyishi mumkin. Bu albatta, eng oddiy va qo'pol misol. Agar siz qanchalik qiyin bo'lmasin, rahbarlar qanchalik o'z kabinetini yaxshi ko'rmasin, o'z so'zingizda turib olib, ularni futbolga oid bo'lgan obyektga olib borib intervyu olsangiz, masalan, zo'r berib mashq qilayotgan futbolchilar va yam-yashil go'zal maydon fon vazifasini bajarsin. Birinchidan, suhbat mavzusiga sho'ng'ib ketish onson bo'ladi, ikkinchidan, dalil talab etadigan tomoshabinlarga orqa foning o'zi barcha savollarga javob bo'ladi. Aytmoqchimanki, intervyning qoq o'rtasidan ko'rib qolgan tomoshabin ham uning atmosferasidan suhbat nima haqida ketayotganini tushunsin. Hattoki perexodlar va titrlarda ham mavzuga doir effektlardan foydalanish kerak, deb o'ylayman. Aslida dramaturgiyaga xizmat qilish filmda ishlatgan barcha narsalaringiz oqlangan hamda uni yanayam to'ldiradigan va eng asosiysi,g'oyani to'laqonli yetkazib berishga xizmat qiladigan elementlardan to'gri foydalanishdir.

**"ARXIV MOZIY GUVOHI"** filmidan.

**Postanovkachi rejissyor:** Sarvarbek Mahkamboev.

**Postanovkachi operator:** Davlatbek O'razaliyev.

Shu qatorda hujjatli filmda ishlatiladigan musiqalarga to'xtalib o'tmoqchiman. Chet el hujjatli va ilmiy-ommabop filmlarida bu masalada muammo yo'q. Har bir film uchun alohida kompozitor kuy bastalaydi. Lekin bu borada bizning o'zbek hujjatli filmi "yetim qo'ziday" bechora holda. Filmda musiqaning o'rni juda yuqoriligini bilishsa ham, afsuski, bastakorlar ishlatilmaydi. Musiqa tomoshabin hissiyotini yanada qo'zg'atuvchi, ekranda bo'layotgan voqeа-hodisani

yanayam kuchliroq his ettira oladigan kuchga egadir. Professional filmlarda u badiiy bo'ladimi yoki hujjatli barchasida dramaturgiyadan kelib chiqqan holda film uchun alohida musiqa bastalanadi. To'g'ri, tayyor musiqalardan foydalanish mumkin, agar u filmga mos bo'lsa. Ammo uning mualliflik huquqini olmasangiz, bari befoyda. Ekranda yuz berayotgan voqeа-hodisaning xarakterini, atmosferasini tomoshabingayetkazibberishdamusiqavatovushchaliktasvirnito'ldira oladigan boshqa hech bir vosita ularchalik kuchli emas. Kino musiqasi kinofilm mazmuni bilan uzviy bog'liq holda, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini dramatik holatlar, ziddiyatlar va boshqalarni badiiy ifodalashga yordam beradi. Yaxshi ovoz rejissyori hattoki sukutni, ya'ni jim-jitlikni o'z o'rнida ishlatib ham tomoshabinni nafasini ichiga yuttirib qo'yishi mumkin. Kino san'ati murakkab sintez san'at hisoblanadi. Unda barcha narsa o'z ishining ustalari tomonidan qilinmas ekan, film hech qachon to'laqonli bo'lmaydi. Eng asosiysi, bizning o'zbek hujjatli filmimizdagi og'riqli nuqta – ssenariy yaxshi bo'lmas ekan va hozirgi kecha-kunduzdagiday yozilish davom etar ekan, yuqoridagi aytilgan ishlarni super darajada zo'r qilib amalga oshirsangiz ham foydasi yo'q. Filmingiz yaxshi chiqishi amri mahol.

### Foydalilanlgan adabiyotlar:

1. A. Mitta. "Kinoda rejissura va dramaturgiya".
2. Л. Кулешов. "Искусство кино".
3. X. Abulqosimova. "Kino san'ati asoslari".



**Nozima Farxod qizi Abdumajidova,**  
*1-kurs “Cholg’u ijrochiligi”*  
*mutaxassisligi magistranti*  
**Ilmiy rahbar:** Professor Jumayev Sobir Saidovich

## BASTAKORLIK VA KOMPOZITORLIK IJODI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola o‘zbek zamonaviy musiqasi, O‘zbekistonga kompozitorlik va bastakorlik ijodining kirib kelishi hamda o‘zbek kompozitor va bastakorlari ijodi haqida.

### **Аннотации**

Это статья об узбесской современной музыке и об творчестве узбеских композиторов, а также о том как творчество композиторов вошла в Узбекистан.

### **Annotation**

This article is about modern Uzbek music, the influx of composers into Uzbekistan and the work of Uzbek composers.

### **Kalit so‘zlar**

Musiqa, kompozitor, bastakor, estrada, opera, balet, simfoniya, oratoriya, kantata, musiqali drama, suita, poema

### **Ключевые слова**

Музыка, композитор, композитор, эстрада, опера, балет, симфония, оратория, канцата, музыкальная драма, сюита, стихотворение

### **Keywords**

Music, composer, variety, opera, ballet, symphony, oratorio, cantata, musical drama, suite, poem

**O**‘zbek xalqining ma’nnaviy go‘zalligi asrlar qa’ridan kelayotgan kuy-ohanglarida o‘zining ajoyib va betakror, badiiy aksini topib kelmoqda. Binobarin, milliy musiqa ko‘p asrlar davomida shakllangan ajdodlarimiz boy ma’nnaviyatining sadolardagi jonli ifodasi bo‘lib, bugungi kunda yangi, buyuk davlat bunyodkori bo‘lmish xalqimizning ruhi, quvvati va jon ozig‘i bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbek musiqasi janr jihatidan xilma-xil bo‘lib, ular oddiy hamda murakkab asarlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek xalq ijodiyoti, an’anaviy bastakorlik va zamonaviy kompozitorlik ijodiga mansub musiqiy

namunalar fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi. Zamonaviy o'zbek musiqasi va kompozitorlik ijodi xalq orasida ommalashib o'zbek musiqasining jahonarenalarigachiqishiga, undan munosib joyolishiga xizmat qildi. O'tgan yillar davomida jahon musiqa pillapoyalaridan joy olgan opera, balet, simfoniya, oratoriya, kantata, musiqali drama, suita, poema janrlarida yetuk asarlar yaratildi. Qisqa muddatda qator kompozitorlar jahonga tanildilar. Ulardan Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Sobir Boboyev, Sulaymon Yudakov, Mutal Burhonov, Rustam Abdullayev, Mustafo Bafoyev, Sayfi Jalil, Avaz Mansurov, Aleksey Kozlovskiy, Ikrom Akbarov, Ulug'bek Musayev, Mirsodiq Tojiyev, To'lqin Qurbonov, Mirxalil Mahmudov, Rashid Hamroyev, Georgiy Mushel, Nuriddin G'iyosovlar o'z ijodlari bilan jahon sahnalariga chiqdilar.

Zamonaviy musiqa tushunchasi nafaqat ko'p ovozli musiqa janrlariga tegishli bo'libgina qolmay, yangi avlodga mos yangicha yo'llar bilan rivojlanib borayotgan an'anaviy bastakorlik ijodiyotiga ham taalluqlidir.

O'zbekistonda 1970-yillarning boshida kopozitorlik ijodi bilan bir qatorda bastakorlarning yangi avlod shakllana boshladi va ularning ijod mahsullari o'zbekmusiqamerosi repertuarlarini boyitaboshladi. Bastakorlardan Orifxon Hotamov, Baxtiyor Aliyev, Qahramon Komilov, Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov, Tursunboy Jo'rayev, Ahmadjon Dadayevlar milliy musiqiy merosimiz rivojiga salmoqli hissalarini qo'shdilar. Ushbu yangi avlod musiqiy tafakkuriga asoslangan ijodning negizida keksa avlod xalq bastakorlarining an'analari, mumtoz musiqa merosining shakl-u shamoyillari va zamon ta'limining belgilari ko'rina boshladi. Natijada ijrochilik amaliyoti yangi zamonaviy asarlar bilan boyidi.

An'anaviy yo'nalishda samarali ijod qilib kelayotgan bastakorlardan Abduhoshim Ismoilov va O'lmas Rasulovlarning ijodi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Abduhoshim Ismoilov ijodining kamolotida maqomlarga xos xususiyatlar kasb etganligini kuzatish mumkin. XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida Abduhoshim Ismoilovning ijodida ashula janriga katta e'tibor qaratildi. Ashula ijodiyotida bastakorning eng katta yutug'i aynan maqom tafakkuriga tayanishida, maqom yo'llarining shakl tamoyillariga asoslanishida hamda eng muhimi, kuy va so'zning ma'nolar kesimidagi uyg'unlikka erishidadir.

Musiqa ijodiyotidagi nuqtalarning birikish markazi ham aynan mana shu jihatlar bilan xarakterlanadi. Uch jarayonning, ya'ni so'z, kuy va talqinnning mutanosibligi bastakor yozgan asarlarning umrboqiyligini ta'minlab berdi. Bastakorning "Nasib bo'lg'ay",

“Sarvinoz”, “Xasta ko‘nglim”, “Hamroz qil”, “Taraxxum qilmadi”, “Yor emas”, “Yorima ayting”, “Yorsan”, “Osmonda ham yo‘q”, “Munavvar qil” – “Ey, do‘s”, “Unutma”, “Hay-hay”, ”Janon ko‘zingga” kabi asarlari xalqimizning qalbidan joy olib ulgurdi.

Zamonaviy o‘zbek bastakorligining yorqin namoyandasini, mohir sozanda va xonanda O‘zbekiston xalq artisti O‘lmas Rasulov musiqa ijodiyotining ushbu jabhasida o‘ziga xos ijod qilganligi va uning sozandalik amallariga uyg‘un holda yaratgan asarlarini e’tirof etish lozim. Ijodiy faoliyati davomida “Tahayyul”, “Xayol”, “Karashma”, “Diydor”, “Seni eslab”, “Dil mavji”, “Visol”, “Tasavvur”, “Hijron”, “Dil tasnifi”, “Kamon ufori”, “Oypalak” kabi bir qator cholg‘u kuylarini yaratib, bastakorlik ijodi yo‘nalishiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Ahmadjon Dadayev ijodi negizida o‘zbek xalq mumtoz musiqa an’analaring zamonaviyligi va ko‘p jihatliliklari yotadi. U yaratgan asarlar zamonaviy ijrochilik amaliyotida keng ommalashgan deyish mumkin. Bastakor Ahmadjon Dadayev O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, mohir sozanda, xushovoz xonanda. Uning ijodida “Mehnat bilan”, “Rubobim torli ikkidur”, “Vafo qilar misan bahorim”, “Seni kutgayman”, ”Dutorim” va “O‘zbekistonim yaxshidir”, “Gavharim”, “Eslarman seni” kabi asarlar yaratildi va tinglovchilar e’tiboriga havola etildi.

O‘zbek milliy estrada musiqasining asoschisi, shoir, rassom, dramaturg, rejissyor va mohir xonanda Botir Zokirov muntazam ravishda o‘zbek milliy estrada san’ati rivoji yo‘lida izlanishlar olib bordi. Ijodiy izlanishlar jarayonida rus, xorijiy va Sharq estrada qo’shiqlarini o‘zbek milliy yo‘nalishiga uyg‘unlashtirib, yangi qiyofa topishga muyassar bo‘ldi. Uning amalga oshirgan ijodiy ishlari keyinchalik o‘zbek estradasining mumtoz andozasi bo‘lib qoldi.

“Arab tangosi”, “Habiba”, “Qochoq qiz” kabi qo’shiqlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Botir Zokirov bu qo’shiqlari bilan O‘zbekistonni butun dunyoga tanitdi. Ayniqsa, “Ra’no”, “Maftun bo‘ldim” kabi qo’shiqlari bilan o‘zbek estradasida o‘chmas iz qoldirdi. Botir Zokirov yosh iste’dodlarni izlashda, ularga yo‘l ko‘rsatishda mehnatini ayamadi. Uning mehnatlari samarasi o‘laroq, juda ko‘p iste’dodlar kashf etildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. PF-6000-son 26.05.2020.
2. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. I jild: Bastakor. – T., 2000.
3. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – T., 2004.

**Gulbahor Hasanovna Fozilova,  
1-kurs “Folklor va etnografiya”  
mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: fil.f.n., dotsent Saidqul Alimov**

## **BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA BAXSHICHILIK SAN'ATINING O'RNI**

### **Annototsiya**

Mazkur maqola baxshichilik san'atini barkamol avlodga singdirish borasida ilmiy-metodik tavsiya bo'lib, unda taklif etilgan omillar va fikr mulohazalar san'at va madaniyatga ixtisoslashtirilgan o'rta va oliv o'quv yurtlari uchun xalq ijodiyoti yo'nalishidagi baxshichilik san'atini o'rganishda muhim manba bo'la oladi.

### **Kalit so'zlar**

Xalq ijodiyoti, baxshichilik san'ati, dostonchilik, barkamol avlod, do'mbira, so'z san'ati, soz san'ati, she'r, ovoz, og'zaki ijod, ertak, afsona, tomosha san'ati.

### **Аннотации**

Данная статья представляет собой научно-методическую рекомендацию по воспитанию искусства ветвления у старшего поколения, а предложенные факторы и соображения являются важным источником для средних и высших учебных заведений, специализирующихся в области искусства и культуры, в изучении ветвления искусства в народном творчестве. Изобразительное искусство.

### **Ключевые слова**

Народное искусство, отраслевое искусство, повествование, зрелое поколение, барабан, словесное искусство, композиционное искусство, поэзия, голос, устное творчество, сказка, сказка, зрелище.

### **Annotation**

This article is a scientific-methodical recommendation on the inculcation of the art of branching in the older generation, and the proposed factors and considerations are an important source for secondary and higher education institutions specializing in art and culture in the study of branching art in folk art.

### **Keywords**

Folk art, branch art, storytelling, mature generation, drum, word art, composition art, poetry, voice, oral creation, fairy tale, fairy tale, spectacle art.

**B**ugungi kunda barcha sohalar qatori madaniyat va san'at rivoji uchun chiqarilayotgan farmon va qarorlar ijrosi shu soha vakillarini mammun qilish bilan birga ularga juda katta ma'suliyat yuklashi shubhasiz.

E'tirof etishimiz joiz bo'lgan jihatlardan biri 2019-yil 14-noyabrdagi "Baxshichilik san'atini rivojlantirish" to'g'risidagi Prezidentitimizning 4330-sonli qarori asos bo'la oladi. Baxshichilik san'atini rivojlantirish, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan dostonlarni barkamol avlodga yetkazish omillarini yaratishimiz maqsadga muvofiqdir. Baxshichilik san'atini o'rganish, uning tub ildizlarini bosqichma-bosqich ilmiytahlil qilib, muammolarni bartaraf etish ushbu soha rivojini belgilab beradi. Buning uchun dastlab xalq og'zaki ijodi namunalariga, dostonchilik tarixiga nazar tashlash kerak.

Sharq xalqlari og'zaki ijodiyotida adabiy-musiqiy dostonlar muhim o'rinni tutadi. Ular avloddan avlodga o'tib kelgan so'z, she'r, ovoz, soz va tomosha san'atini o'zida mujassamlashtiruvchi beba ho badiiy namunalardir. Dostonlarning har bir qirrasi bir butunicha asrlar davomida kishilar ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan ilmiy sharqona san'at.

O'zbek milliy dostonchiligi esa ushbu serko'lam jabhadagi umumturkiy madaniyatning yorqin va o'ziga xos bir bo'lagidir. Zero, qadimiylar va barqaror dostonchilik an'analariga ega bo'lgan o'zbek xalqi ma'naviy bisotida mazmunan barkamol, shaklan va usluban xilmashil asarlar, har birida olam-olam qadriyatlar, ijodiy boyliklar milliy meros tarzida e'zozlanib, salmoqli adabiy-musiqiy qatlarni tashkil etadi. Ota-bobolarimiz ularni yaratish, so'zlash, kuylash va tinglash bilan uzoq asrlar davomida ma'naviy ehtiyojlarini qondirib, kelajakka ishonch ruhi bilan yashab mehnat qilib kelganlar. Shuningdek, zamonalar silsilasini saqlab, dostonchilik an'analarini davom ettirgan holda bugungi kunning ma'naviy va ma'rifiy omili bo'lib maydonga chiqishini ta'minlaganlar. Ayniqsa, mustaqillik yillarida yangicha tafakkurimiz qatori juda qadimiy chashmalardan ozuqa oluvchi san'at turlari hech bir zamonda bugungidek e'zoz va e'tibor topgan emas.

Haqiqatdan ham dostonlar va ularning qo'shiqlarida xalq hayotining ma'lum tarixiy taraqqiyot davri uchun xos bo'lgan muhim masalalar ko'tarilib, haqqoniy yoki ertaknamo voqealar, afsona va rivoyatlar tarzida shoir va baxshilar tomonidan to'qib o'zlashtirilgan, qayta ishlangan va kuylab kelingan. Ular ilhom bilan insonlar qalb torining eng nozik

rishtalarini qo‘zg‘atgan, ta’sir qilgan va ruhiy ozuqa ulashib kelgan.

Yuqoridagi mulohazalarni inobatga olgan holda, o‘zbek dostonchiligin barkamol avlodga singdirishda baxshichilik san’atini rivojlantirib, yosh baxshilarни tayyorlashda quyidagi ilmiy metodik omillardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. *Xalqog‘zakijodinamunalarinin maktabgacha tayyorlashguruhlarida izchil o‘rgatish lozim. Bunga lof, latifa, maqol, tez aytish, matal, turli xalqo‘yinlari, sanamalarkiradi. Buni o‘rgatish jarayonida yakka tartibda va guruhlar asosida bosqichma-bosqich eng iqtidorli, o‘rtamiyona yoki o‘zlashtirishi sust bo‘lgan bolalarni tarbiyachi tomonidan anglab olinishi hamda o‘ziga xos va mos bo‘lgan xalq ijodiyoti namunalarini yoxud o‘yinlar harakatlarini bajarishga o‘rgatish maqsadga muvofiq.*

2. *Bizga ma’lumki, umumiyo‘rta ta’lim maktablarida musiqa fani uchun tayyorlangan dasturlarda dostonchilik va baxshichilik haqida 5-6-sinf musiqa darsliklarida o‘quv dasturi sifatida kiritilgan. Buni 1-sinfdan o‘qitish maqsadga muvofiqdir, ya’ni terma, dostonlardan parchalar o‘rgatilishi o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish bilan birga, milliy qadriyatlarimizni qadrlashga o‘rgatadi. Bunda yuqorida e’tirof etib o‘tganim kabi o‘quvchilarni iqtidoriga va qiziqishiga qarab mavzular tanlanadi va darslar tashkil etiladi.*

3. *Hanuzgacha musiqaga ixtisoslashtirilgan muktab, litseylarda folklorshunoslik fani kam miqdorda kiritilgan. Ba’zi san’atga ixtisoslashtirilgan maktablarda umuman o‘qitilmaydi. Bu esa baxshichilik va dostonchilik rivojida to‘sqinlik qiladi.*

4. *Hududlarda tashkil etilgan madaniyat markazlarida, san’at saroylari, sog‘lomlashtirish sihatgohlari, umumiyo‘rta ta’lim maktablarida baxshilar bilan uchrashuvlar, dostonchilik kechalari tashkil etish yo‘lga qo‘yilsa, yosh avlodning dostonchilik va baxshichilik san’atini o‘rganishda Bolalar musiqa va san’at maktablarida ochilgan baxshichilik yo‘nalishiga o‘quvchilarni jalg qilishga muhim omil sifatida xizmat qiladi.*

Baxshichilik san’atini o‘rganishning birinchi omili so‘z san’ati bo‘lsa, ikkinchi omili soz san’atidir, ya’ni badihago‘ylik va do‘mbira chertish bilan belgilanadi.

## Foydalanilgan adabiyot:

1. Botir Matyoqubov “Doston navolari” 3-bet.



**Qo‘chqorova Dilfuzaxon Egamovna**

*1-kurs “Folklor va etnografiya”*

*mutaxassisligi magistranti*

**Ilmiy rahbar:** fil.f.n., dotsent Soibnazar Davlatov

## **XALFACHILIK SAN’ATI NOMODDIY MADANIY MEROS TURI SIFATIDA**

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada xorazm xalfachilik san’atining tarixi, ijtimoiy-madaniy ahamiyati yoritilgan bo‘lib, xalfachilik san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, ijro uslublari va xalfachilik san’ati bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan, xalfachilik san’ati nomoddiy madaniy meros turi sifatida o‘rganilgan.

### **Kalit so‘zlar**

Xalfachilik san’ati, xalfa, nomoddiy madaniy meros, ilmiy-tadqiqot ishi.

### **Аннотация**

В статье описывается история, социокультурное значение искусства халфа Хорезма, анализируются особенности искусства халифа, методы исполнения и научные исследования искусства халифа, исследуется искусство халифа как вид нематериального культурного наследия.

### **Ключевые слова**

Искусство халфа, халфа, нематериальное культурное наследие, научно-исследовательская работа.

### **Annotation**

The article describes the history, socio-cultural significance of the art of the Khalf of Khorezm, analyzes the features of the art of the Caliph, methods of execution and scientific research of the art of the Caliph, examines the art of the Caliph as a type of intangible cultural heritage.

### **Key words**

Art of half, half, intangible cultural heritage, research work.

**O**‘zbek xalqining ma’naviyatida millatning kechasi va hozirgi kuni o‘z ifodasini topgan. Rivojlanayotgan O‘zbekiston madaniyatning barcha yo‘nalishlarida jahonshumul kashfiyotlarni yarata olgan minglab allomalarni yetishtirib bergen,

minglab bahodir va botirlar ulg‘ayishiga sabab xalq dostonlari, ertaklari, lapar va o‘lanlarga makon diyor hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘zbek milliy-ma’naviy, moddiy va nomoddiy merosi jahon madaniyatining ajralmas qismi, uzviy bo‘lagidir.

Xalqning nomoddiy madaniy merosining yaratilishi aniq muallif va aniq bir sanaga ega bo‘lmasa-da, asrlar osha ta’limiy, tarbiyaviy va ma’naviy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lib kelayotgan beba ho ma’naviy boylikdir.

O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi turli yo‘nalish va janrlarga ega bo‘lib, spetsifik va lokal xususiyatlarga egadir. Har bir hududning o‘z nomoddiy madaniy merosi bo‘lib, o‘sha hududga xos ijro uslublari, urf-odatlari, milliy bayram va tomoshalari va hattoki pazandachilikda ham o‘ziga xoslik mavjuddir.

“Nomoddiy madaniy meros” tushunchasi urf-odatlarni, o‘ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilim va ko‘nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog‘liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o‘z navbatida hamjamiyatlar, guruuhlar tomonidan, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruuhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o‘z tarixiga bog‘liq holda yaratiladi va bu ularda o‘ziga xoslikni, vorislik tuyg‘usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turlitumanlikning hurmat qilinishiga ko‘maklashadi [1].

Tadqiqotchilar O‘Toshmatov va N.Isakulova nomoddiy madaniy meros bo‘yicha monografik tadqiqot olib borgan bo‘lib, tadqiqotda nomoddiy madaniy merosning o‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki an’analari va shakllari yo‘nalishiga mif, afsona, rivoyat, ertak, maqol, matal, doston, masal, hikmatli so‘zlar, tez aytish, xalq merosining og‘zaki ravishda ifodalanadigan barcha tur va janrlarini kiritib o‘tgan. Ijro san’ati yo‘nalishiuch turga ajratilib, birinchi turi musiqa yo‘nalishi bo‘yicha “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari”, “Toshkent-Farg‘ona maqom yo‘llari”, Dutor va surnay maqom yo‘llari, “Tanovor”, “Ushshoq”, “Feruz”, “Suvora”, “Lazgi”, “Mavrigi”, “Miskin” singari

turkumlar, “Katta ashula”, allalar, o’lanlar, yallalar, laparlar, madhiyalar, termalar, shuningdek, “baxshichilik”, “xalfachilik” va hududga xos boshqa yo‘nalishdagi manbalarni; ikkinchi turi raqs yo‘nalishi bo‘yicha Farg‘ona, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo raqs maktablari, hududlarga xos bo‘lgan raqslar va raqs harakatlari, shu jumladan, bolalar, erkaklar, ayollarning yakka va guruhli raqslarini; uchinchi turi esa tomosha san’ati yo‘nalishi bo‘yicha dorbozlik, polvonlik, an’naviy sirk, ko‘zboylog‘ichlik, qo‘g‘irchoqbozlik, masxarabozlik, morbozlik, besuyaklik o‘yinlari, yog‘och oyoq o‘yinlari, milliy xalq o‘yinlarini o‘z ichiga oladi. Jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari yo‘nalishi tarkibiga mehmondo‘stlik an’analari, axloq-odob bilan bog‘liq urf-odatlar, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq marosimlar, beshik to‘yi, ism qo‘yish marosimi, sunnat to‘yi, sovchilikka borish, kelin salom, milliy va mahalliy miqyosda o’tkaziladigan sayillar, hasharlar, tomoshalar, bayramlarni kiritgan. Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig‘indisi yo‘nalishiga an’naviy xalq taqvimlari, kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini aytib berish, oyning turishiga qarab keyingi oyning taxminiy ob-havosini aniqlash, hayvonlar harakati orqali sodir bo‘ladigan voqealarni bashorat qilish, quduq qazish o‘rni yoki imorat qurish joyini aniqlash, milliy sartaroshlik, an’naviy tabobat, imoratsozlik, miroblik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar, pazandachilik san’atini tadqiq etgan. Beshinchi yo‘nalish, an’naviy hunarmandchilikka oid bilim va ko‘nikmalar yo‘nalishiga zardo‘zlik, quroqchilik, kandakorlik, gilamchilik, do‘ppido‘zlik, qo‘g‘irchoqsozlik, kulolchilik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, mayolika san’ati va hunarmandchilikning boshqa yo‘nalish va turlariga oid tajriba, bilim va ko‘nikmalarni kiritadi [3, 6-7].

Tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan nomoddiy madaniy merosning ikkinchi yo‘nalishi – Ijro san’ati yo‘nalishi bo‘lib, mazkur yo‘nalish juda ko‘p janrlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, “xalfachilik” janri qadim Xorazm vohasiga xos lokal janr bo‘lib, mazkur voha muayyan musiqiy an’analar majmuidir.

Qadimdan madaniyat va san’at maskani bo‘lgan ushbu hududda

o‘ziga xos doston, maqom, talqinchi va go‘yandalar san’ati, bolalar va marosim qo‘shiqlari, xalfa laparlari vaa boshqa janrlar keng o‘rin tutadi.

Xorazm xalq og‘zaki ijodining yana bir turi xalfachilikdir. Xalfalar repertuarida xalq dostonlari, rangbarang xalq qo‘shiqlari, mumtoz shoirlarning ashulabop g‘azallari asosiy o‘rin olgan. XIX-XX asrlarning ikkinchi yarmida Xorazmda Xonimjon xalfa, Onajon xalfa, Onabibi qori (Ojiza), Shukurjon xalfa, Sharifa xalfa, Joni xalfa, Bibijon xalfa, Durxonim xalfa, Guljon kori, Oysha kulol xalfa, Yoqut xalfa Vafoyeva, Sharifa no‘g‘ay Otasheva, O‘g‘il No‘g‘ay Quryozova, Yoqut xalfa Seytniyazova va boshqalarning nomlari xalq orasida tanilgan edi.

Xorazm vohasi ana shunday o‘ziga xos etnofolklor hududlardan biri bo‘lib, bu hududda asrlar bo‘yi shakllangan xalq badiiy ijodkorligi o‘z mohiyatiga ko‘ra, umumo‘zbek folklori an‘analari bilan mushtarak jihatlarga ega bo‘lib, bu hol undagi lokal-mahalliy xususiyatlarning mavjudligiga monelik qilmaydi. Shunday o‘ziga xos xususiyatlardan biri xalfachilik an‘analarining mavjudligida ko‘rinadi. Xalq ijodining yirik bilimdonlari buni to‘g‘ri qayd qilishganidek, “O‘zbek xalq eposi baxshilar bilan bir qatorda xotin-qiz ijrochilarini ham yaxshi biladi. Hozirgi vaqtida ular faqat Xorazmdagina mavjud bo‘lib, “xalfa” nomi bilan ataladi”, – deya tadqiq etishgan.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida “xalfa” atamsiga quyidagicha ta’rif berilgan: xalfa – Xorazm vohasida mahalliy og‘zaki ijod namunalarini ijro etuvchi ayol. Xalfalar faoliyat ko‘rsatish sharoitiga ko‘ra ikki yo‘nalishga bo‘linadi: to‘y va bazmlarda qo‘shiqlar ijro etuvchi “sozi xalfa” hamda “kitobiy xalfa” – ta’ziya va marosimlarda kitob o‘quvchi ayol, otin (otinoyi). Ularning ikkalasi ham “ichkari”da ayollarga xizmat kilgan. “Sozi xalfalar” san’atida jo‘rnavozli va yakka ijrochilik mavjud. Ansambl uch kishidan tarkib topadi: xalfa (garmon chaladi va qo‘shiq aytadi), doirachi (qo‘shiqlarga jo‘r bo‘ladi, ba’zan raqs tushadi) va o‘yinchi (raqs tushadi va lapar aytadi). Xalfalar repertuaridan asosan “To‘y muborak”, “Yor-yor”, “Oshiq” turkumidagi (“Tohir va Zuhra”, “Oshiq Alband”, “Asli va Karam”, “Hurliqo va Hamro”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” kabi) dostonlardan parchalar,

Mahtumqli va boshqa shoirlarning she'rlari asosidagi nasihat va raqsbop qo'shiqlar o'rin olgan. Ijodkor xalfalar zamonning muhim masalalariga bag'ishlangan asarlar yaratib, ularga o'zları kuy bastalaganlar. Masalan, Xonim Suvchi Sayidaxmad qizi (1858–1926) ning "Bevafo zolim", Bibijonim Kosim Devon qizining "Ayrildim", Aynash cho'loq (Onajon Sobirova, 1885–1952) ning "Onajondek dilbar jahona galdi", Ojiza (Onabibi Otajonova, 1889–1961)ning 30 dan ortiq qo'shiqlari Nazira Sobirova, Roziya Matniyoz qizi, Saodat Xudoyberanova va hozirgi xalfalar tomonidan kuylanmoqda. "Kitobiy xalfa"lar esa, asosan, ta'ziya, "Ulli pir", "Mushkul kushod" kabi marosimlarda "G'avsuli A'zam", "Payg'ambarlar hikoyati", "Bobo Ravshan", "Bibi Seshanba" va boshqa diniy mavzudagi kitoblarni yakka holda o'qib, ayollar dardini yengillatishadi va ma'rifat tarqatishadi [2, 364].

Xalfachilik san'ati an'analarini Xorazm yosh ijrochilari tomonidan keyingi davrlarda ham davom ettirilmoqda. Hozirgi davrda Xorazmdagi ko'pgina bolalar musiqa va san'at mакtablarida hamda professional ta'lif tizimidagi muassasalarda xalfachilik va u bilan bog'liq qadim janrlar o'rgatilib kelinmoqda. Shu bilan birgalikda, xalfachilik san'ati tarixi, uning ijro usullari, xalfachilikning ijtimoiy-ma'naviy va estetik jihatlarini ilmiy tadqiq etish, yanada ommalashtirish kunning dolzarb vazifasidir.

O'zbek folklorshunosligida xalq ijodkorlarining professional tipi bo'lgan baxshilar repertuari ancha batafsil o'rganilgan holda xalfa ijrochiligi, uning folklor asarlarini kuylash, avlodlarga yetkazish va yaratishdagi o'rni masalalari hozirgacha maxsus tadqiq etilmagan. Vaholanki, xalfalar – og'zaki badiiy ijodning o'ziga xos namunalarini aytuvchi, xalfachilik esa ijro va ijod san'ati sifatida katta badiiy-estetik va ma'rifiy ahamiyatga molikdir. Xalfachilik qadim ajdodlarimizning turmush tarzi, diniy marosim va maishiy urf-odatlari bilan bog'liq holda miloddan oldin shakllangan an'ana bo'lib, kishilarining hayotiy voqelik, jamiyat va tabiat hodisalariga bo'lgan estetik munosabatlarini badiiy aks ettiradi [4, 3].

Xalfa va xalfachilik, xalfalar ijro uslublarini o'rganish, xalfalar

repertuari to‘plash bo‘yicha tadqiqotchilar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu borada bir guruh folklorshunoslар O.Hoshimov, H.Zaripov, B.Karimov tomonidan Xorazmga uyushtirilgan kompleks ekspeditsiya jarayonida Xonim suvchi, Onajon Sobirova va boshqa xalfalardan xalq qo‘sishlari, dostonlar va termalar yozib olingan. Keyinchalik yana bir guruh folklorshunoslар F.Abdullayev, N.Saburov, J.Qobulniyozov, S.Ro‘zimboyev tomonidan olib borilgan ishlar natijasida xalfalar repertuari, ularning ijro usuli va ijodiy an’analari haqida dastlabki tadqiqotlar yuzaga kela boshladi.

O‘zbek folklorshunsligining asoschisi H.Zaripov xalfalar repertuarining spetsifikasi tadqiq qilar ekan, uni qorishiq xarakterga ega deya qayd etadi. Bu tadqiqot xalfachilik yo‘nalishdagi tadqiqotchilik faoliyati uchun asosiy nazariy va metodologik manba sifatida qaralgan. U Xonim suvchini “ajoyib dostonchi, qo‘sishqchi va o‘ziga xos ijodkor” sifatida e’tirof etib, asarlariga va ijro mahoratiga yuksak baho bergan.

Tadqiqotchi J.Qobulniyozov xalq qo‘sishlari, jumladan, xalfalar asarlarining faqat to‘plovchisigina emas, balki yirik tadqiqotchisi sifatida ham tanilgan. U xalfalar rereptuariga asarlarni janriy tarkibi va tadrijiy rivoji jihatdan tasniflagan. Onajon Sobirova, Onabibi Otajonovaning hayoti va ijodiga doir ma’lumotlarni to‘plab, ularning repertuaridagi asarlardan namunalarni chop qilgan.

Ijtimoiy-estetik ong takomili va davrlar xarakteriga ko‘ra, xalfachilik turlarining vujudga kelishi va yangi asarlar bilan boyib borish jarayonini, Xorazm vohasi hududida to‘rtta xalfachilik markazi mavjudligini, ijro va ijodda umumiy qonuniyatlardan tashqari, ularning har biriga xos lokal belgilarni, xalfalar repertuaridagi an’anaviy hamda yangi qo‘sishlarning kompozitsion

qurilishi va badiiyati batafsil tahlilini, shoira xalfalarning individual ijodiyoti namunalarida folklor an'analari bilan birga yozma adabiyotning ta'sirini tadqiqotchi S.H.Ollaberganova tadqiq etgan [4].

Xalfa va xalfachilik san'ati baxshichilik san'ati kabi ming yillik tarixga ega bo'lib, uning ilmiy spetsifikasi to'laqonli o'rganilmagan. Bu borada folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish, xalfalar ijrosidagi doston va qo'shiqlarni yozib olish, olingan asarlarni ko'paytirish va ta'lim muassasalariga yetkazib berish bo'lajak xalfalarning professional tayyorgarligi jarayonida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, mavzu O'yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish, zamonaviy multimedialar yaratish, ilmiy loyihalar tayyorlash xalfachilik san'atining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konvensiya. 2-modda. – Parij. 2003.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild. To'ychi Hofiz – Sharshara. Tahrir hay'ati: A.Azizzo'jayev, B.Alimov, M.Aminov va b. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005 – 704 b.
3. Toshmatov O.G., Isakulova N.J. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2014. – 112 b.
4. Ollaberganova S.H. Xalfalar ijodining o'zbek folkloridagi o'rni: Dis. ... fil.fan.nom. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, 2007. – 135 b.

Mavjud Xalmatovna Tosheva,  
1-kurs “Teatr san’ati” mutaxassisligi magistranti.  
Ilmiy rahbar: dotsent, F.M. Abduvohidov.

## O‘ZBEK TEATRI PROFESSIONAL REJISSURASINING VUJUDGA KELISH OMILLARI

### Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek teatri professional rejissurasining vujudga kelish omillari nimalar bilan bog‘liq ekanligi hamda Behbudiyning “Padarkush” asari ilk sahna yuzini ko‘rishi, xalqni ma’rifatli qilishga bel bog‘lagan ajdodlarimizning boshidan kechirgan qiyinchiliklari haqida yozilgan.

### Аннотация

Эта статья о факторах, которые привели к становлению профессионального режиссера узбекского театра, а также о трудностях, с которыми столкнулись наши предки, решившие просвещать народ, когда премьера балета Бехбуди «Падаркуш».

### Annotation

This article is about the factors that led to the formation of a professional director of the Uzbek theater, as well as the difficulties faced by our ancestors, who decided to enlighten the people, when Behbudi’s «Padarkush» premiered.

### Kalit so‘zlar

Rejissura, rejissyor, aktyor, teatr, spektakl, professional, tabiiylik.

### Ключевые слова

Режиссура, режиссер, актер, театр, перформанс, профессиональный, натуральный.

### Keywords

Directing, director, actor, theater, performance, professional, natural.

**V**.I.Nemirovich-Danchenko rejissyorning teatrtdagi o’rni va faoliyatini yaxshi angagan holda shunday yozgan edi: “Rejissyor uch xil mohiyatga ega: 1) rejissyor – izohlovchi; uning o’zi – qanday ijro etishni ko’rsatuvchi; shunday ekan uni rejissyor-aktyor yoki rejissyor-pedagog deyish mumkin; 2) rejissyor – aktyorning o’ziga xos xislatlarini aks ettiruvchi oyna; 3) rejissyor – spektaklning tashkilotchisi” rejissyorning izohlovchi va oyna

sifatidagi mohiyati repetitsiyalardagina namoyon bo'ladi. "Teatrda rejissyor pinhon sehrgar va bir vaqtning o'zida mutafakkir hamdir. U tomoshabinga ko'rinxmaydi, hatto spektaklda har doim ham o'tirmaydi, biroq teatrning murakkab xususiyatlarining iplari uning qo'lida bo'lib, u butun teatr jamoasining ijodiy intilishini yo'naltiradi." Bunda rejissyorning professional ijodkor sifatidagi bilimi, tajribasi, qarashlari muhim sanaladi.

Rejissura – o'zbek teatrining eng yosh san'at turlaridan. Yevropa tipidagi teatrning kirib kelishi, tomoshalarning ochiq maydondan bino ichidagi sahnaga ko'chirilishi rejissyorlik sohasiga bo'lgan professional talabni paydo qildi. Albatta, XX asrgacha o'zbek xalq teatrida korfarmonlar mavjud bo'lgan. Korfarmonlar ijodiy truppaning boshlig'i, tomoshalarning muallifi va tashkilotchisi sifatida faoliyat olib borgani bilan bugungi rejissyorlik kasbiga o'xshashlik jihatlari bor.

Zamonaviy o'zbek teatrining ibratxonalik vazifasi xalqqa ko'rsatiladigan spektaklning g'oyaviy-badiiy, mazmuniy, shakliy jihatdan to'laqonli bo'lishini talab etarkan, bunda rejissyorning spektakl muallifi sifatidagi mas'uliyati ko'zga yaqqol tashlanadi. Shuning uchun rejissurada professionallik muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek teatri rejissurasi professionallikka darrov erishgani yo'q, albatta. Uning yuzaga kelishigabi qancha omillarsabab bo'ldi. Ayniqsa, rus, tatar, ozarbayjon teatr truppalarining spektakllar, konsertlar bilan doimiy tashrifi o'zbek tomoshabinini xorijiy dramaturgiya va Yevropa teatri shakllari bilan yaqindan tanishtirdi. Bu esa zamonaviy o'zbek teatri san'ati vujudga kelishi va rivojiga zamin yaratdi. Teatr – jonli san'at, shu jihatdan uning xalq ko'zini ochish, ularni ma'rifatli qilishdagi o'rni va ahamiyatini yaxshi hisqilgan M.Behbudiy, A.Avloniy, Munavvarqori, Cho'lpon va boshqa bir qator o'zbek ziylilari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida teatrchilik harakatini amalga oshirishga kirishdi. Natijada 1914-yili Samarqand va Toshkentda birinchi yozma dramaturgiya namunasi bo'lgan Behbudiyning "Padarkush" asari asosida ilk spektakl sahna yuzini ko'rди.

Samarqanddagi havaskorlik teatr truppasida Behbudiyning o'zi asarni sahnalashtirishga tayyorgarlik ko'rgan. Bu borada amaliy

tajribalar yo'qligi bois pyesani sahnaga qanday shaklda olib chiqish bo'yicha qiyinchiliklar mavjud edi. Ozarbayjonlik rejissyor Aliasqar Asqarovning taklif etilishi bilan asarni sahnalashtirish ishlari oldinga siljidi. Spektakl ijrochilari ilk bor sahnaga chiqayotganini hisobga olgan A. Asqarov ularga oddiy sahnaviy ko'nikmalarni tushuntirib, har bir rolni ko'rsatib berish orqali aktyorlarga yetkazishga harakat qildi. "Rejissyorga ijrochilarining ijtimoiy kelib chiqishi sahnada gavdalangan qahramonlar hayotiga mosligi hamda ular ana shu turmush tarzi va muhitni yaxshi bilgani qo'l kelgan." Rejissyor ijrochilardan maksimal darajada tabiiy ijroni talab qilishi natijasida spektakl hayotiy sahnalashtirilgan. Spektakldagi dekoratsiyada ham tabiiy jihozlardan foydalanilgan. Aslida ham rejissyor va ijodiy truppaning maqsadi Behbudiy asaridagi g'oyni oddiylik va tabiiylik bilan yetkazish hamda tomoshabin ongiga ta'sir o'tkazishdan iborat edi.

Toshkentda Munavvar qori va Abdulla Avloniy boshchilik qilgan "Turon" havaskorlik teatr truppasi ham "Padarkush" asariga murojaat etarkan, rejissyorsifatida Aliasqar Asqarovni taklif etdi. USamarqandda sahnaga qo'yilgan spektaklning shaklini saqlagan holda Toshkentga ko'chirdi. Faqatgina "Turon" truppasida tashkiliy ishlar yaxshi yo'lg'a qo'yilgani hamda ijrochilar uzoq va qunt bilan tayyorgarlik ko'rgani sababli spektaklyanada jonli chiqqan edi. Buni "Turkiston viloyatining gazeti"da bosilgan mulohazalar tasdiqlaydi: "...bu o'yin birinchi marotaba bo'lib ham shu darajada yaxshi o'xshatdilarki, har qayer-u teatrni ko'rib, teatr ishiga omi kishilar bularning yangi o'rganganlariga inonmay, balki bular bir necha yil Ovrupoda mashq qilgan odamlar, deb xayol qiladi." Demak, o'zbek teatri rejissurasida aktyorlar bilan rol ustida ishslash bo'yicha ilk ko'nikmalar mazkur spektakllarda shakllana boshladi. Truppada sahnaga qo'yilgan "Padarkush" va undan keyingi spektakllarda realizmning oddiy ko'rinishi o'z ifodasini topdi. Bu borada Toshkentda Mannon Uyg'ur, Qo'qonda Hamza boshqargan truppalarning barqaror faoliyati mazkur teatr truppalarini professionallikka qadam qo'yayotganligidan dalolat berdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijodkorlarning yangi tipdagi teatr bo'yicha aniq tajribalarga ega emasligi, spektakl talqin shakllari aniq o'rganilmaganligi, professional jihatdan rejissyorlik tayyorgarligi yo'qligi sababli teatr truppalarining boshqaruvchilari sahnalashtirgan

spektakllar mazmunan va shaklan oddiyligi, sahnada hayotiy haqiqatni qaror toptirishga intilishi bilan ajralib turgan. Bunda ular xorijdan tashrif buyurgan teatr truppalarining spektakllaridan andoza olishga hamda o'zbek tomosha san'atining an'analariga tayanishga harakat qilgan. Truppalarda sahnalashtirilgan spektakllar o'zbek yozma dramaturgiyasining ilk namunalarini singari ko'proq tashviqot maqsadida sahnaga qo'yilgan bo'lib, rejissyorlarning vazifasi pyesadagi muallif g'oyasini tomoshabinga aniqroq yetkazishdan iborat edi. Rejissyorlik kasbini barcha murakkabliklari bilan egallah, rejissuruning teatr rivojidagi rolini his etgan holda professional ko'nikmalarga ega bo'lish, har bir asar talqinida mazmun va shakl uyg'unligiga erishish borasidagi izlanishlari yaqqol namoyon bo'ldi. 1914-1924-yillar rejissura uchun tom ma'noda ijodiy izlanishlar hamda professional shakllanish davriga aylandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
2. Nemirovich-Danchenko VI.I. Stati. Rechi. Besedi. Pisma. - M.: "Iskusstvo", 1952. – 443 b.
3. Stanislavskiy K. Sobraniye sochineniy, 8 tomlik. 6-tom, M.: "Iskusstvo", 1959. – 466 b.
4. Popov A. Xudojestvennaya selostnost spektakly. – M.: VTO, 1959. – 291 b.
5. Raxmanov M. Uzbekskiy teatr s drevneyshix vremen do 1917 goda. T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 311– 326 b.

Ravshan Jo‘ra o‘g‘li Xurramov,  
1-kurs “San’at nazariyasi va tarixi (kinoshunoslik)”  
mutaxassisligi magistranti.  
Ilmiy rahbar: S.f.d. S.A.Hayitmatova

## **REJISSYORLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, O‘ZBEK REJISSURASI TARIXI**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada rejissyorlik san’atining ayrim xususiyatlari, rejissyorning aslida qanday bo‘lishi kerakligi, teatr hamda kino rejissyorligi o‘rtasidagi farq, rejissyor so‘zining O‘zbekistonga ilk bor kirib kelishi, o‘zbek kino hamda teatr rejissurasining tarixi haqida so‘z boradi.

### **Аннотация**

В статье рассматриваются некоторые особенности режиссерского искусства, каким должен быть режиссер, разница между режиссурой театра и кино, история узбекского кино и режиссуры, когда режиссерское слово впервые появилось в Узбекистане.

### **Annotation**

This article describes some features of the art of directing, what a director should be like, the difference between theater and film directing, the history of Uzbek cinema and theater directing when the director’s word first appeared in Uzbekistan.

### **Kalit so‘zlar**

Intervizor, rejissyorona boshqarish, dekoratsiya, pyesa, ssenariy, libretto, san’at psixologi.

### **Ключевые слова**

Режиссура, декорации, спектакль, сценарий, либретто, психология искусства.

### **Keywords**

Directorial management, scenery, play, screenplay, libretto, art psychology.

**S**an’atning hech bir turi osonlik bilan yuzaga chiqmagani kabi rejissyorlik san’ati ham mashaqqatlardan holi emas. Aksincha, boshqa san’atlarga qaraganda ko‘proq mehnat talab etadi.

Boshqaruvchilik, tashkilotchilikni hamma ham eplashi mumkin, ammo rejissyorlikning chegaralari shu xususiyatlar bilangina cheklanmaydi.

XX asrni san'atda haqiqiy rejissyorlik paydo bo'lgan asr desa ham bo'ladi. Chunki bu davrga kelib, dramatik va opera spektakllarida rejissyorning yetakchilik o'rni uzil-kesil hal etilgandi. Endigi navbat sahnaviy asarlarning yaxlitligiga qaratilgan edi.

Germaniyaning Berlin shahridagi teatrda faoliyat yuritgan rejissyor Otto Bramning bu yo'lda erishgan yutuqlari e'tiborni tortadi. U aslida teatr tanqidchisi bo'lgan. Otto Bramning teatr san'atiga olib kirgan yangiliklaridan biri – u chiroyli dekoratsiya va stol atrofi mashqlaridan voz kechadi. Shuningdek, rejissyor sifatida sahnalaشتirish bo'yicha avvaldan tuzilgan reja asosida ishlashga qarshi chiqadi. Stol atrofida pyesa o'qishdan mutlaqo foyda yo'q deb hisoblaydi. Uning uchun eng muhimi sahnadagi xatti-harakatga qaratilgan repetitsiyalar (mashqlar) hisoblangan .

San'atning deyarli barcha sohalarida rejissyorlik mavjud. Rejissyoro'z navbatida (teatr, kino, telefilm, sirk va estradada) sahna asari yoki kinofilm yaratish jarayonida ijodiy xodimlar – aktyor, yakkaxon, rassom, kompozitorga (kino va televideniyadagi operatorlarga ham) va yordamchi xodimlarga rahbarlik qiladi. Rejissyorlik san'ati drama teatrida pyesa, kinoda ssenariy, balet san'atida esa libretto tanlash, uning g'oyasi, janr badiiy xususiyatlari, o'sha davr, muallifning ijobiy va salbiy uslubini izlash va o'rganishdan boshlanadi.

Rejissyoro'z navbatida, kuchli psixolog bo'lishi ham talab etiladi. Chunki u aktyorlar bilan har birining hayotiy hamda obrazdagi xarakteriga qarab muomalada bo'lishi lozim. Spektakl yoki kinoning yaxshi chiqishi ham, qandaydir kamchiliklar bilan yuzaga ko'rinishi ham, albatta, san'at psixologi – rejissyorga bog'liq. Aktyorlardan tashqari kinoda grimyor, operator, liboslar rassomi, dekorator, kompozitor va hokazolar bilan ham zanjirsimon tarzda ish olib boradi. Kino rejissyorning teatr rejissyoridan farqli tarafi – kino uchun alohida operator talab etiladi va kino rejissyor uni boshqaradi. Teatr uchun esa operator shart emas, ya'ni har bir tomoshabin ijrodagi spektakl uchun

operatorordir, desak, to‘g‘ri bo‘ladi nazarimizda.

Rejissyor tushunchasi K.S.Stanislavskiy va uning shogirdlari Meyerxold, Vaxtangov, Tairov hamda Mannon Uyg‘ur boshliq bir guruh Moskva teatr studiyasining bitiruvchi talabalari bilan o‘zbek milliy teatriga kirib kelgan. Bu davrga qadar jadidlar tomonidan sahnalashtirilgan “Padarkush” (Behbudiy), “Advokatlik osonmi?” (Avloniy), “Zaharli hayot” (Hamza) kabi spektakllarda rejissyor vazifasini muallifning o‘zi yoki o‘qituvchi bajargan bo‘lib (hozirgi kunda ham ayrim viloyat teatrlarida rejissyorga “muallim” deya murojaat qilishadi) rollar taqsimoti, aktyorlarga qayerdan chiqib, qanday gapirish va hokazolarni o‘rgatgan .

Barcha ijodkorlarning mehnati aktyorlarning ijrosidagina yuzaga keladi. Demak, aktyorlardan ko‘pchilikning mehnatidan yuzaga chiqadigan mas’uliyatli natija talab etiladi. Rejissyorlik san’atida rejissyor shunchaki vazifani aktyorga yuklab, undan natijasini ko‘rish emas, balki aktyorning hissiyotlarini ham larzaga keltira olishi zarur.

Kinoda rejissyorlik san’atining rivojlanishi milliy kino shakllanishi bilan bog‘liq. O‘zbek ovozsiz kinosining dastlabki yillarida mahalliy hayotning o‘ziga xos tomonlarini yaxshi bilmaydigan, o‘z oldiga badiiy jihatdan jiddiy vazifa qo‘ymagan rejissyorlar filmlar suratga oldi. 30-yillarning boshlarida milliy san’at arboblari (N.G‘aniyev, S.Xo‘jayev, Y.A’zamov)larning rejissuraga kirib kelishi munosabati bilan xalq hayotining turli jahbalarini chuqur o‘zlashtirish, ijodiy qayta ishlash, uslubiy, janr jihatidan izlanishlar boshlandi. “Yuksalish”, “Ajoyib ish”, “Amazon”, “Tong oldidan”, “Yigit”, “Qilich” singari filmlar ishchilarining mehnat kundaligi, harbiy ish, dehqon harakati, o‘lka tarixiga bag‘ishlandi. Rejissyorlar mahalliy aktyorlar (O.Jalilov, E.Hamroyev, M.Qayumov, S.Iskanderov va boshqalar)dan foydalanishni yo‘lga qo‘ydilar .

Haqiqiy milliy kinorejissuraning yuksalish davri 40-50-yillar bo‘ldi. O‘sha yillar Y.Protazanov, A.Usolsev-Garf, N.G‘aniyev, K.Yormatov, Z.Sobitov, Y.A’zamov kabi rejissyorlar “Tohirva Zuhra”, “Nasriddinning sarguzashtlari”, “Alisher Navoiy”, “Paxtaoy”, “Boy ila xizmatchi”, “Stadionda uchrashamiz”, “Amirlikning yemirilishi” kabi yetuk filmlar

bilan tanildilar. 60-yillar milliy kinorejissurada sifat jihatdan yangi davr boshlandi. “O’zbekfilm”ga yosh mutaxassislar (D.Salimov, R.Botirov, Y.Stepchuk, A.Qobulov, Q.Kamolova va boshqalar) kelib qo’shildi. “Sen yetim emassan”, “Laylak keldi, yoz bo’ldi”, “Yor-yor”, “Surayyo”, “Toshkent – non shahri” filmlari shu davrda yaratildi .

Bugungi kunga kelib, rejissyorlik sohasida ham kadrlar masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanib qolmoqda. Zulfiqor Musoqov, Rustam Sa’diyev, Yolqin To’ychiyev, Ayub Shahobiddinov, Abduvohid G’aniyev, Mirmaqsud Oxunov kabilarning filmlari yaqin 30 yillikning eng zalvorli kinomahsulotlari bo’lib turibdi. Ularning “Osmondag bolalar”, “Panoh”, “Feride”, “O’tov”, “Sevginator”, “Janob hech kim” va boshqa filmlari xalqimiz e’tibori va e’tirofiga sazovor bo’lib kelmoqda.

Xulosa o’rnida aytish joizki, ushbu ijodkorlar filmlari yangi tarixning eng muvaffaqiyatli kinoasarlari ro’yxatiga kiritilsa ham ajab emas. Darhaqiqat, biz sevib tomoshaqilib keladigan o’z davrining “Mahallada duv-duv gap”, “Yor-yor”, “Kelinlar qo’zg’oloni” singari filmlari oltin kinofondda saqlangani kabi nomlari zikr qilingan kinoijodkorlar asarlari ham o’zbek kino san’ati uchun yuksak ijodiy mezon yaratib berishiga ishonamiz.

Rejissura borasida so‘z borar ekan, ommaviy san’atning barcha turlarida yetakchi bo’lgan mazkur sohaning kelajagi uchun qayg’urish, uning yuksak istiqboli vajidan muammolarga yanada jiddiyroq yondashish har doim dolzarb bo’lgan vazifadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Jo’ra Mahmud rejissura tarixi va nazariyasi Toshkent 2017, 8-bet.
2. Jo’ra Mahmud rejissura tarixi va nazariyasi Toshkent 2017, 15-bet.
3. Jo’ra Mahmud rejissura tarixi va nazariyasi Toshkent 2017, 7-bet.
- 4.O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
- 5.O’zMe. (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.

**Abbosshoh RASULOV,**  
*2-kurs Kino, televide niye rejissyorligi*  
*mutaxassisligi magistranti*  
**Ilmiy rahbar:** Xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi H.T.Nasimov

## O'ZBEK KINOSIDA TARIXIY FILMLAR YARATISH AN'ANALARINING VUJUDGA KELISHI

### **Annotatsiya**

Mazkurmaqola "O'zbekkinosidatarixiyfilmlaryaratishan'analarining vujudga kelishi" mavzusiga asoslangan bo'lib, suratga olingan tarixiy filmlardagi rejissyor talqini, yondashuv va o'ziga xoslik jihatlarini badiiy hamda ilmiy tarzda tahlil qilinishi bilan ahamiyatlidir.

### **Аннотация**

Данная статья основана на теме "Режиссерские исследования в создании исторических художественных фильмов в узбекском кинематографе" и имеет важное значение для художественно-научного анализа режиссерской интерпретации, подхода и оригинальности в исторических фильмах. Также ориентирован на оценку исторических фильмов, глубокое понимание исторических жанров и сущности действительности, а также их отражение в фильме.

### **Annotation**

This article is based on the topic «Directing research in the creation of historical feature films in Uzbek cinema» and is important for the artistic and scientific analysis of the director's interpretation, approach and originality in historical films. The film also focuses on the evaluation of historical films, a deep understanding of historical genres and the essence of reality, and their reflection in the film.

### **Kalit so'zlar**

An'analar, kino, tarixiy voke, madaniyat, davr, film, o'zbek kinosi.

### **Ключевые слова**

Традиции, кино, исторические события, культура, период, фильм, узбекское кино.

### **Keywords**

Traditions, cinema, historical events, culture, period, film, Uzbek cinema.

**M**amlakatimizda kino sohasi o'tgan yuz yillikda uzoq yo'lni bosib o'tdi. Ammo mustaqillik yurtimiz rivojining barcha jabhalari qatori kino san'atimizga ham o'zining haqiqiy bo'y-bastini ko'rsatishga imkon berdi. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab, ma'naviy-madaniy o'zligimizni anglash, san'atimizning o'ziga xosligini saqlab qolgan holda umuminsoniy g'oyalarni ilgari surish, tarixiy haqiqatlarni yuzaga chiqarish va jahon andozalariga xos badiiy asarlar yaratish uchun barcha imkoniyatlar yaratila boshlandi. Endilikda filmlarimiz o'zligimiz, o'z madaniyatimiz, urfodat, an'analarimizni keng miqyosda, hech qanday to'siqlarsiz, erkin ravishda namoyish eta boshladi. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan dramaturg va rejissyorlar o'z ijod namunalari bilan jahon ekranlarida ham nom qozona boshladi.

Kino yillar mobaynida ko'plab bosqichlarni bosib o'tgani haqida butun dunyo, xususan, o'zbek kinoshunos olimlari tomonidan batafsil o'rganilgan va turli adabiyotlar orqali bayon qilingan. Kino yaralishidan boshlab, dastlabki davrlardagi ovozsiz, keyinchalik ovozli, rangsiz, rangli filmlarning o'rganilganlik darajasi yetarlicha. Shuningdek, bugungi kunga kelib, uning bir-biridan farqli turlari hamda janrlari ham shakllanib bormoqda. Biroq kinoning shunday turi borki, u alohida mehnat va so'ngsiz mashaqqatlarga to'la, ham katarsis, ham bilim beruvchi tarixiy kinodir.

Tarixiy filmlar – o'tmishdagi o'ziga xos tarixiy davrlar, voqealar va shaxslar hayotini aks ettiruvchi janr. Dunyo miqyosida bu turdag filmlarning o'rni va ahamiyati yuqori. Xususan, tarixiy filmlar ko'pincha sarguzasht va jangovar ko'rinishda bo'ladi, chunki ko'pincha keskin dramatik voqealar, urushlar, to'ntarishlar va shunga o'xshash voqe'liklar filmning mavzusiga aylanadi. Tarixiy filmlar voqealarning sodir bo'lish davri va xususiyatlariga ko'ra bir nechta o'ziga xos turlari mavjud:

Jangovar kino – ikkinchi jahon urushi haqidagi filmlar, ayniqsa, sovet kinematografiyasida keng tarqaldi.

Vestrn – XIX asrda yovvoyi g'arbning tarixiy sarguzashtlariga asoslangan janr. Ya'nio'sha mashhur kovboylar, sherif, hindular, shlyapalar va otishmalar.

Istrn-busharqda SSSR gamustamlakab o'lgan Osiyomamlakatlaridagi

fuqarolar urushi syujeti bilan bog'liq sarguzasht filmlar.

Peplum – qadimgi dunyo tarixi haqidagi katta byudjetli filmlar. Bu turdag'i filmlarda ajoyib qo'shimchalar bilan bezatilgan liboslar katta ahamiyat egallaydi.

Tyambora – bu samuraylar haqidagi yapon filmlarini o'z ichiga oladi, uning eng buyuk ustasi Akira Kurosava.

Usya – bu Xitoyning tarixiy sarguzasht filmlari bo'lib, fantastik ravishda bo'rttirilgan sharq jang san'atlarini qamrab oladi.

Plash va shpaga filmlar – bu o'ta abjir harakatlar va dinamikasi yuqori qilichbozlik janglariga asoslangan tarixiy filmlar. Masalan, mushketyorlar, qaroqchilar va boshqa avantyuristlar haqidagi sarguzasht filmlar syujetini tashkil qiladi.

Bu albatta, xalqaro standart sifatida tan olingen film turlari. Ularning har birini o'z o'rni bor va har biri qaysidir milliy kinosanoatda o'zining yuqori cho'qqisiga erishgan. Tarixiy filmlar voqealar mazmuni va dramatik yondashuvga ko'ra uch turga bo'linadi:

Tarixiy davr haqidagi filmlar – o'z-o'zidan bu turdag'i filmlarda ma'lum davrdagi qaysidir voqeasosiy o'ringa chiqadi. Mohiyatan birinchi turga o'xhash, biroq dramatizm tarixiy voqeaga asoslanadi.

Tarixiy shaxslar haqidagi filmlar – bu turdag'i filmlarda esa ma'lum tarixiy davrda yashagan shaxslar va ularning umr yo'li asosiy o'rinda turadi. Yuqoridagi ikki turga mohiyatan o'xhash bo'lsa-da, voqealar markazini aynan ana shu qahramon, uning taqdiri va tanlovlari egallaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan bu turlarning barchasida mualliflar yondoshuvi uch xil bo'ladi:

1. *Tarix o'z holicha filmga ko'chiriladi.*

2. *Muhim tarixiy haqiqatlar saqlab qolinib, badiiy to'qimalar va badiiy voqealar bilan boyitiladi.*

3. *Tarixiy voqealar xayoliy tarzda to'qib chiqariladi.*

Mana shu yondashuvning har biriga xos filmlarni siz tomosha qilgansiz. Quvonarlisi, tarixiy filmlar maktabi o'zbek kinosiga ham begona emas.

1925-yil “O’zbekkino” korxonalar idorasi tashkil etildi va “Sharq yulduzi” kinofabrikasi ochildi (Ushbu kinofabrika 1958 yildan boshlab “O’zbekfilm” deb yuritila boshlagan). Xuddi shu yili bir qator hujjatli, ilmiy-ommabop filmlar va “Paxta-Orol” badiiy filmi suratga olingan. 30-yillarning birinchi yarmida ilk tarixiy film – “Tong oldidan” (1933-yil, rejissyor: S.Xo’jayev) filmi suratga olinadi. Shundan so’ng, tarixiy film yaratish bo'yicha o'ziga xos tajribalar davri boshlandi.

XX asrning 40-yillaridan mustaqillik davrigacha yaratilgan tarixiy filmlarda, asosan, tarixiy shaxslarning hayot yo'liga, xalq qahramonlari va tarixiy ertaklardagi motivlarga hamda tarixiy adabiy asarlarga murojaat qilingan. Xususan, tarixiy shaxslar haqidagi filmlar sirasiga “Alisher Navoiy” (1947-yil, rejissyor: K.Yormatov), “Ibn Sino” (1956-yil, rejissyor: K.Yormatov), “Furqat” (1959-yil, Y.A'zamov), “Hamza” (1960-yil, rejissyor: Z.Sabitov), “Ulug‘bek yulduzi” (1964-yil, rejissyor: L.Fayziyev), “Abu Rayhon Beruniy” (1974-yil, rejissyor: Sh.Abbosov) kabilarni kiritish mumkin. O‘z-o‘zidan ma'lum bo'ladiki, xalqning tarixiy qahramonlarini kinotasmalarda jonlantirish istagi kino san'ati paydo bo'lgan yillardan boshlangan. Yuqorida sanab o'tilgan filmlar tarixiy voqe'lilik asosida film holiga keltirilgan. Badiiy voqealar bilan boyitilsa-da, tarixiy haqiqatlardan uzoqlashilmagan. Mana shu yillarda xayoliy qahramonlar va tarixiy ertaklar motivlariga ham murojaat qilingan. Xususan, “Nasriddin Buxoroda” (1943-yil, rejissyor: N.G'aniyev), “Tohir va Zuhra” (1945-yil, rejissyor: N.G'aniyev), “Semurg” (1971-yil, rejissyor: X.Fayziyev), “Yettinchi jin” (rejissyor: M.Agamirzayev), “Alibobo va qirq qaroqchi” (1970-yil, Hindiston bilan hamkorlikda, rejissyorlar: L.Fayziyev, U.Mehra) kabifilmlarbizgatanish va o'z syujetlarida qaysidir tarixiy davr elementlaridan foydalanilgan. Qahramonlar va voqealar o'ylab topilgan yoki ertakona motivlardan olingan. Shuningdek, yirik badiiy asarlar asosida ham filmlar suratga olingan. Romannavis Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asari asosida ikkita film ishlangan. Ularning biri 1969-yilda rejissyor Yo'ldosh A'zamov tomonidan ishlangan film. Filmda bosh rollarni O'lmas Alixo'jayev, Gulchehra Jamilova hamda Gulchehra Sa'dullayevalar ijro etishgan. Filmning ikkinchi varianti esa mustaqillik yillarida 1998-yil rejissyor Melis Abzalov tomonidan suratga olingan. Bu filmda bosh rollarni Behzod Muhammadkarimov, Shahrizoda Dilmurod qizi va

Lola Eltoyevalar ijro etishgan. Ushbu filmlarda O'zbekistonning qora kunlari bo'lgan "xon zamonlari" haqida hikoya qilinadi. Shuningdek, bosh qahramonlar hayoti orqali oila va qadriyatlar borasida bahsli masalalar o'rta ga tashlanadi. Har bir tomoshabinning mazkur filmlar yuzasidan o'z fikri va qarashi bor. Kimlardir mukammal badiiy asarni film talqinlarini qoralagan holda bu ikki variantga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Shunday bo'lsa-da, ikki film badiiy asarning yanada sevimli bo'lishiga o'z hissasini qo'sha oldi, deb ayta olamiz. Xalqimiz esa filmlarning birinchi variantini ko'proq qadrlaydi.

1973-yilda rejissyor Y.A'zamov A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani asosida "Zulmatni tark etib" badiiy filmini ham suratga oldi. Albatta, bu filmni o'sha davr tomoshabinlari qizg'in kutib olgan edi. Biroq oradan bir necha yil o'tib, asarga rejissyor M.Muhammedov qayta murojaat qildi. Rejissyor o'z qaydnomalarining birida bu xususda shunday fikrlarni bildirgan: "Yo'ldosh A'zamov tomonidan suratga olingan "Mehrobdan chayon" filmini ko'rganimdan keyin romanni qayta o'qib chiqdim. Tushundimki, film sho'rolar mafkurasi talablari bo'yicha suratga olingan. Fikrlarimni yozuvchi Xayriddin Sultonov bilan o'rtoqlashdim va undan ssenariy yozib berishni iltimos qildim. Oradan xiyla vaqt o'tib, adib har bir seriyasi qirq besh daqiqali, o'n besh seriyadan iborat ssenariy yozib berdi. Shundan so'ng "Mehrobdan chayon" videofilm tasvirga tushirildi, tomoshabinlar e'tiborini qozondi".

Mustaqillikning dastlabki yillarda tarixiy filmlarni yaratish bo'yicha harakatlar biroz sustlashdi. Buning boisi, balki tarixni qayta o'rganish va talqin qilishda mustaqillik g'oyalarini singdirish uchun vaqt ko'p ketganidir. Balki mablag' yoki kadrlar siyosati bo'yicha muammolar yuzaga kelgandir. Aniq sababni keltirish qiyin. 1998-yilda yozuvchi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asari asosida suratga olingan film katta tarixiy voqeaga aylandi. Film rejissyori Sh.Abbosov chin ma'noda o'zbek kinosida revolyutsioner maqomiga munosib. Bu film mustabid tuzum, uning eng eng og'riqli siyosati, "paxta ishi", xalqning mehnat ortidan chekkan aziyatlari, inson qadri va huquqlarining ochiqdan ochiq poymol qilinishi borasidagi haqiqatlarni o'rta ga tashlaydi. Shundan so'ng, tarixiy filmlar yaratish bo'yicha Z.Musoqov rejissurasini e'tirof etish mumkin. Uning muallifligidagi "Vatan"

(2006), “Qo‘rg‘oshin” (2011), “Berlin-Oqqo‘rg‘on” (2018) filmlari ham aynan yaqin o‘tmishdan hikoya qiluvchi tarixiy filmlar hisoblanadi.

Mustaqillik davrining dastlabki o‘n yilligi arafasida “Meshpolvon”, “Kulol va xurmacha”, “Alpomish”, “Yoriltosh” kabi xalq og‘zaki ijodi va ertaklar bilan bog‘liq motivlar asosida ham filmlar yaratildi.

O‘zbek kinosini multfilmlarsiz ham tasavvur qilish qiyin. Tan olib aytishimiz kerakki, folklor janrlarida tarixiylik nafasi sezilib turadi. Sababi, motivlar uzoq yillik o‘tmishdan bizga qadar yetib kelgan. Shunday ekan, multfilmlarning aksariyatida qahramonlar tarixiy qiyofalarda, uy joy va manzaralar esa tarixiy ko‘rinishda aks etadi. Bu “Sehrli sandiq”dan tortib, “Alpomish”gacha namoyon bo‘ladi. Personajlardan Nasriddin Afandi, Tohirva Zuhra, Kenja botir, To‘g‘rivoy, No‘xat polvon, donishmand chollar va nuroniy onaxonlargacha aynan millatga xos tarixiy “shtrix”lar saqlanib qolgan.

Demak, xalqimiz va ijodkorlar qarashlarida tarix insonni tarbiyalaydi, degan haqiqat mavjud. Biz ajdodlari va tarixi bilan faxrlanadigan millatmiz. Boisi, maqtanishga arzigulik qadriyatlarimiz va oltin merosimiz adoqsiz. Ajdodlarimizning faoliyati va katta maktabi bizni doim ilhomlantirgan. Shunday ekan, tarixsiz va tarixiy haqiqatlarsiz milliy kino san’atini tasavvur etish qiyin. Umid qilamizki, zamonaviy o‘zbek kinosida ham tarixiy filmlar yaratish an’anası yuqori saviya va katta qizg‘inlik bilan davom etaveradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Abulqosimova “O‘zbek kinosining tug‘ilishi” 1965y.
- 2.J.Teshaboyev “O‘zbek kinosi: an’ana va ijodkorlik” 1979 y.
3. X.Abulqosimova “Kino san’ati asoslari”
- 4.X.Abulkosimova, J.Teshaboyev, M.Mirzamuxammedov “O‘zbek Kinosi” 1985y.
5. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Istoricheskiy\\_film](https://ru.wikipedia.org/wiki/Istoricheskiy_film)
6. <https://uzas.uz/articles/4536/>

**Sardorbek Islom o‘g‘li Hamroyev,**  
**2-kurs “Teatr san‘ati” mutaxassisligi magistranti**  
**Ilmiy rahbar: s.f.n., prof. v.b. Omonulla Rizayev**

## ZAMONAVIY O‘ZBEK DRAMATURGIYASIDA JANR XUSUSIYATLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada, o‘zbek dramaturgiyasining janriy rivojlanish bosqichlari qisqacha tahlil va fikr-mulohazalar bilan ifodalangan.

### **Аннотация**

В статье, обобщены этапы жанрового развития узбекской драмы с кратким анализом и комментариями.

### **Annotation**

This article summarizes the stages of genre development of Uzbek drama with a brief analysis and comments.

### **Tayanch so‘z va iboralar**

Janr, tragediya, tragikomediya, egizak spektakllar, epos, povest

### **Основные слова и фразы**

Жанр, трагедия, трагикомедия, спектакли-близнецы, эпос, рассказ.

### **Basic words and phrases**

Genre, tragedy, tragicomedy, twin performances, epic, story

“Agar siz yozuvchi bo‘lishni istasangiz, demak, kerakli kitobni diqqat bilan o‘rganib chiqing. Soat ishlab chiqaruvchisi soatni yoki haydovchi mashinasini o‘rgangani kabi”.

**V. Shklovskiy.**

**B**iz bugun ozod va tinch zamonda, shiddatli taraqqiyotga erishilayotgan, inson qadri yuksaklikka ko‘tarilayotgan, uning huquq va erkinliklari har tomonlama himoya qilinayotgan, xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilayotgan dorilomon mamlakatda yashayapmiz. Buning uchun har qancha shukronalar aytsak, shu yurtga munosib farzand bo‘lishga jon-jahdimiz bilan harakat qilsak arziydi.

Bizga uzoq va yaqin o'tmishdan ma'lumki, teatr san'ati bugungacha ne-ne mashaqqatli yo'llarni bosib o'tmagan. Turkiston tarixida masxaraboz va qiziqchilar o'z tomoshalarini odatda xalq og'zaki dramalari asosida amalga oshirganlar. Asosan, bu dramalarning ko'p qismini ijrochilarning o'zları yaratishgan, kashf qilishgan, o'ylab topishgan va ijro qilishgan. Og'zaki dramalar ijrodan ijroga, u guruhdan bu guruhga o'tib, o'zgarib, sayqallanib, ba'zan qo'shilib, ba'zida kamayib ijro etilaverган.

“San'atkorlar muayayan shaxslarni tasvirlaydilar, ular esa yaxshi yoki yomon bo'lishlari mumkin. (Negaki, shaxslarning qandayligi shu bilan belgilanadi. Zero, hamma odamlar xarakterlaridagi illatlar yoki fazilatlari jihatidan farqlanadilar.) Ular bizdan yaxshiroq yoki bizdan yomonroq, hatto bizdek bo'ladilar. Tragediya va komediya o'rtasida ham ana shunday tafovut mavjud: komediya hozirgi vaqtda yashayotganlardan ko'ra yomonroq, tragediya esa yaxshiroq kishilarni tasvir etishga urinadi.” Bu kabi xususiyatlarni farqlanishi o'z-o'zidan janrlarning o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. “Adabiyotda asosan uch tur xos ekanligi soha mutaxassislari tomonidan aniqlangan. Bular: epik, lirik, drama. Shu bilan birga har bir turning bo'lakchalari mavjudligi, ya'ni janrlarga bo'linganligini hamadabiy jihatdan asoslardilar. Masalan, epos (nasr)ga roman, povest, qissa, hikoya, ocherk, esse, rivoyat, latifa, ertak va cho'pchaklar kiradi. Lirika ham qator janrlarni qamrab olgan bo'lib, bular she'riy roman, qasida, sonet, ballada, lirik she'r, parodiya va ashula kabilardir. Shuningdek, drama turi ham asosan, uch janrdan iborat, bunga tragediya, komediya, drama (tor ma'noda)lar mansubdir. Bunda har bir janrning o'ziga xos xillari bo'lib, bular vodevil, melodrama, fars, intermediya, tragikomediya va boshqalardir.

Biz quyida aynan drama turi va unga xos bo'lgan uch janr xususida, jumladan, uning o'zbek dramaturgiysi tarixi va bugunidagi rivojlanish jarayonlari, o'ziga xos jihatlari xususida so'z yuritamiz.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yangi o'zbek

teatrining rivojlanishi bilan bir qatorda, o'zbek dramaturgiyasining ham rivojlanish bosqichlari jadallasha boshladi. Tarixdan bizga ma'lumki, o'zbek dramaturgiysi XX asr boshlarigacha faqat og'zaki shaklda mavjud edi. Xalq og'zaki dramalari va ularning ijrochilari – masxaraboz va qiziqchilik san'ati O'zbekistonning barcha hududida mavjud bo'lgan. Masxaraboz va qiziqchilik teatrлarida, asosan, ikkita janr mavjud bo'lib, ular tanqid va muqallid deb atalgan. Tanqidda bosh vazifa hayotda inson tabiatidagi mavjud kamchiliklarni tanqid, hajv, kulgu hazil bilan ko'rsatish bo'lsa, muqalidda inson – erkak va ayol, katta, yoki bola, jonzot qiyofasi, xatti-harakatlarini o'rniqa qo'yish birlamchi shart sanalgan.

XX asrning birinchi yarmida dastlabki yozma milliy sahna asarlari yaratildi: "Padarkush yoki o'qimagan bolaning holi" (Behbudiy), "To'y" (Nusratulla Qudratulla va Hoji Muyin), "Ko'knor", "Mazluma xotin" (Hoji Muyin), "Juvonmarg", "Ahmoq" (Abdulla Badriy), "Baxtsiz kuyov" (Abdulla Qodiriy), "Zaharli hayot", "Boy ila xizmatchi", "Ilm hidoyati" (Hamza), "Pinak", "Advokatlik osonmi?" (Avloniy) va boshqalar. Bular drama janri imkoniyatlarini o'zida to'la ifodaladi. 20–30-yillarda o'zbek dramaturgiysi G'ulom Zafariy, Fitrat, Cho'lpon, Ziyo Said, Sobir Abdulla va boshqa dramaturglar ijodi tufayli yanada rivojlandi. 40-yillar dramaturgiysi Ikkinchchi jahon urushi va urushdan keyingi davr vazifalariga muvofiq taraqqiy etdi. Zamonaviy dramatik asarlarda o'zbek xalqi tarixi, buyuk siymolar ko'proq yoritildi. H. Olimjon, Izzat Sulton, Uyg'un, Shayxzoda kabilar insonparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan "Muqanna", "Jaloliddin", "Alisher Navoiy", "Mirzo Ulug'bek" kabi tragediya va dramalar yaratdilar. O'zbek dramaturgiyasining yetuk namunalari bu janrning eng yaxshi an'analari asosida yaratildi. Bu davrda dramaturgiyada davr muammolari va hayotiy ziddiyatlarni ichki ruhiy kechinmalar asosida ifodalash o'zbek sahna asarlarining yetakchi xususiyatiga aylandi. Jumladan, Abdulla Qahhorning "Shohi so'zana", "Tobutdan tovush", I. Sultonning "Iyomon", Uyg'unning "Parvona", O'. Umarbekovning

“Qiyomat qarz” pyesalari shular jumlasidan.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, yozilgan sahna asarlarining aksariyatida jamiyatni qayta qurish va mustaqillik bilan bog‘liq bo‘lgan muhim mavzular aks ettirildi. Shu bilan birga, xalqimizning uzoq va yaqin o‘tmishini istiqlol mafkurasi asosida talqin etuvchi bir qancha dramatik asarlar yaratildi. Ma’lumki, mustaqillik tufayli Amir Temurga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Uning buyuk tarixiy xizmatlari haqli ravishda yuksak baholandi. Natijada sovet davrida butunlay man etilgan bu milliy mavzu mustaqillik davrida har bir soha va yo‘nalishlarda o‘zining munosib o‘rnini topdi. Yozuvchilarimiz bu mavzuni katta g‘urur va iftixor bilan qalamga olib, Amir Temurni o‘zbek xalqining milliy qahramoni, jahonshumul ahamiyatga molik buyuk siymo sifatida talqin va tasvir eta boshladilar. Abdulla Oripovning “Sohibqiron”, Odil Yoqubovning “Fotihi muzaffar yohud bir parivash asiri”, Ma’ruf Jalilning “Sohibqiron”, To‘ra Mirzo va Asror Samadning “Sohibqiron Temur” kabi asarlari shu yangi davrning mahsuli bo‘lib, ularda Amir Temur obrazi hayot haqiqatiga mos holda realistik bo‘yoqlarda ko‘rsatilgan.

Bu davrda buyuk ajdodimiz Amir Temur hayoti va uning harbiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqida hikoya qiluvchi yana bir shoh asar yaratildi. A.Oripov qalamiga mansub bo‘lgan “Sohibqiron” she’riy dramasida Amir Temurning aql-zakovati, uning faoliyati davri, murakkab hayoti badiiy fon yuksak mahorat bilan ochib berilgan. Shuningdek, To‘ra Mirzo va Asror Samadning “Sohibqiron Temur” dramasida esa Amir Temurning buyukligi, donoligi, vatanparvarligi, adolatliligi, shuningdek, sohibqiron shaxsiyatidagi ayrim ziddiyatlar va salbiy xususiyatlar ko‘rsatilgan. Bu dramaning muhim xususiyati shundaki, asarda bosh qahramonni ulug‘lash uchun boshqa tarixiy shaxslarni ataylab, bo‘lar-bo‘lmasga qoralash va kamsitish usulidan voz kechilgan. Natijada asarda Amir Temur obrazi bilan birga, sulton Boyazid singari tarixiy shaxslar siyoshi ham hayot haqiqatiga mos,

ishonarli bo'lib chiqqan. Dramada maqsad aniq, konflikt hayotiy, asosiy xarakter (obraz)lar jonli va haqqoniy bo'lganidek, badiiy usullar ham puxta. Asarda Amir Temur fe'l-atvoriga, aql-zakovatiga mos va xos bo'lgan hikmatli so'zlar, chuqur mazmunli dialog va monologlar ko'zga tashlanib, istiqlolyillarida yuzaga kelgan "Jaloliddin Manguberdi", "Ajdodlar qilichi" (E.Samandar), "Qora kamar" (Sh.Xolmirzaev), "Oqpadar" (U.Asim), "Zahiriddin Muhammad Bobur" (Z.Muhiddinov, M.Hamidov), "Bashar allomasi" (N.Abdulla), "Piri koinot" (H.Rasul) kabi dramalarda ham o'tmish hayot va ulug' ajdodlarimiz haqida realistik sahna asarlar yaratish an'anasi davom ettirildi. Bu sohadagi yangilik shu boldiki, dramaturglarimiz uzoq va yaqin o'tmish mavzularini tasvirlashda realizm va kommunistik partiyaviylik iskanjalarini parchalab tashladilar. Hayotni istiqlol mafkurasi asosida yangicha talqin va yangicha tasvir etdilar. Masalan, Shukur Xolmirzayev "Qora kamar" dramasida "bosmachilik" xalqqa qarshi reaksiyon harakat emas, aksincha, o'ziga xos milliy ozodlik harakatidir, degan g'oyani sahnada obrazli tarzda ustalik bilan ko'rsatib berdi.

Mustaqillik davrida o'zbek dramaturgiyasida paydo bo'lgan sahna asarlarining aksariyatida sovet davridagi hayot aks ettirilgan. Jumladan, "Unsiz faryod" (Shukrullo), "Kurort" (O'.Umarbekov), "Temir xotin", "Taqdir eshigi" (Sh.Boshbekov), "Bir million mojarosi" (H.G'ulom), "Nomsiz yulduzlar" (Mashrab Boboev), "Oyna" (U.Nazarov), "Puch", "Kunduzsiz kechalar" (Usmon Azim), "Xotinlar hangomasi" (M.Haydar), "Bir kam dunyo" (Ilhom Hasanov) va boshqa sahna asarlarida qishloq xo'jaligi, sanoat, xususan, ma'naviy hayotda mavjud bo'lgan va sovet jamiyatini inqirozga olib kelgan jiddiy nuqsonlar ochib tashlangan.

E'tirof etish o'rinniki, adabiyotimizda uzoq yillar davomida (xususan, turg'unlik yillarida) paxtakorlar mehnati, ayniqsa, paxtakor xotin-qizlar mehnati juda oson ish tarzida, dabdabali, bayramona

kayfiyatda tasvirlanib kelindi, biroq biz yuqorida keltirib o'tganimiz Sharof Boshbekov "Temir xotin" komediyasini yaratish bilan dramaturgiyada birinchi bo'lib ana shu soxta tasavvurga qattiq zarba berdi. Paxtakor ayol mehnatining qanchalik og'ir, qanchalik mashaqqatli ekanini ochib tashladi.

Asarda qishloq hayoti, o'zbek ayollarining moddiy-ma'naviy jihatdan og'ir sharoitda kun ko'rayotganliklari, og'ir mehnat ostida ezilib xo'rلانayotganliklari, "joni qirqta" bo'lgan o'zbek ayollari bardosh bergen mashaqqatli mehnatga, hatto temir ham bardosh bera olmasligi komediyanri imkoniyatlari doirasidat'a sirli vaqiziqarli qilib ko'rsatilgan. Komediyaning "Temir xotin" deb atalishida chuqur ramziy ma'no bor, albatta. Sharof Boshbekov ushbu asari bilan nafaqat o'zbek xalqining yuragidagi dardini jasorat bilan ifoda qila oldi, balki bu davrda o'zbek dramaturgiyasida yangicha janr hisoblanadigan tragekomediya janrini yangi bosqichga olib chiqsa oldi, deb aytish mumkin. Shu yo'sinda o'zbek dramaturgiyasida janriyo'sish-o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Dramaturglar yangi zamon g'oyalarini ifodalashda komediya janri imkoniyatlaridan samarali foydalandilar. Samimiylumor bilan sug'orilgan xushchaqchaq komedyalar ("Kuyov", "Soyibxo'ja operatsiyasi" va h.k.) bilan birga, "Shayton va farishta" singari tragekomedyalar ham yuzaga keldi.

Shuningdek, mustamlakachilik davrida kansitilgan, hatto oyoqosti qilingan, mustaqillik davrida qayta tiklangan, tegishli tarzda o'z qadr-qimmatini topaboshlagan milliyurf-odatlarimiz ixlos bilan tasvirlandi. Xalq va mamlakat hayotidagi ibratli tomonlarni, ilg'or tamoyillarni yoritish bilan birga, turmushda uchraydigan manmanlik, nopoliklik, qalloblik, tekinxo'rlik, ig'vegarlik, ma'naviy qashshoqlik singari illatlar fosh etildi. Bu sohadagi yutuqlarni "To'ydan keyin tomosha" (Shukrullo), "Chimildiq" (E.Xushvaqtov), "Taqdir" (R.Ma'diev), "Farishta" (X.Rasul), "Superqaynona" (S.Imomov), "Diyonatga xiyonat" (K.Avaz), "Quduq tubidagi faryod" (F.Shermuhammad) va boshqa asarlar misolida ochiq ko'rish mumkin. Atoqli yozuvchi

O.Yoqubov istiqlol davri adabiyotini rang-barang mavzudagi nasriy va dramatik asarlari bilan boyitdi. Uning zamonaviy mavzuda yozgan bir qator asarlaridagi mustaqillik davri voqealari va odamlari yangicha badiiy tafakkur mevalaridir. Xususan, uning “Qarshi gurunglari” ocherkida Qashqadaryo viloyati ijtimoiy hayoti misolida mamlakatimizning bugungi manzarasi, odamlarimizdagi yangicha milliy tuyg‘ular bilan uyg‘un holda beriladi. Adibning “Bir koshona sirlari” dramasi esa bugungi kun odamlarini ma’naviy jihatdan boyituvchi asarlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda o‘zbek dramaturgiyasida og‘zaki va yozma adabiyotimizda mavjud bo‘lgan syujetlar asosida sahna asarlari yaratish an’anasi ham davom ettirildi. Natijada Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, A.Qodiriyning “O’tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Navoiy”, G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Tohir Malikning “Shaytanat” roman va qissalari asosida yangidan yangi sahna asarlari, kino va telefilmlar maydonga chiqdi.

Xulosa qilib aytganda, biz yuqoridagi mulohazalarimiz orqali o‘zbek dramaturgiysi va uning janriy rivojlanishini bugungi kungacha davrini qisqacha shaklda umumlashtirdik va tahlil qildik. Ammo, bugungi kunga kelib, o‘zbek dramaturgiyasida janriy rivojlanish biroz oqsayotgan, “egizak spektakllarning” tug‘ilishi esa ko‘p kuzatilayotgandek, nazarimda. Biroq bunga hozir to‘xtalmoqchi emasman. Chunkizamonaviy o‘zbek dramaturgiysi muammolari – bu butun boshli asar yozishga yetarli mavzu.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Aristotel. Poyetika. Yangi asr avloldi. Toshkent 2011.22-bet
- 2.H.Abdusamatov. Drama nazariyasi G’. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at Toshkent 2000
- 3.I.Chistyuxin, O drame i dramaturgii, avtoreferat. 1999.
- 4.Internet zaytlari: Google, Ziyonet.uz



Nafisa Xomitqulovna Raimqulova,  
2-kurs “Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: p.f.b.f.d. (PhD) Oybek Davlatov

## BUGUNGI KUN OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI (TELEVIDENIYE) NING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

### Annotation

Ushbu maqolada OAV xodimlarining demokratik jarayonlar, fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o'rni va nufuzini oshirish, mahalliy gazetalar, tele-radiokanallarning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, eng asosiysi, matbuotda fikrlar, qarashlar xilma-xilligini ta'minlash bo'yicha mulohazalar bayon qilinadi.

### Kalit so'zlar

OAV, jurnalist, teleradio, targ'ibot, tashviqot, tarix, yangilanish, demokratik, tahlil, izlanish.

### Аннотация

В этой статье описываются демократические процессы СМИ, роль и престиж в построении гражданского общества, укрепление материально-технической базы и человеческих ресурсов местных газет, теле- и радиоканалов, и, что наиболее важно, обеспечение разнообразия взглядов в прессе.

### Ключевые слова

СМИ, журналист, телевидение и радио, пропаганда, пропаганда, история, обновление, демократия, анализ, исследование.

*Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. Barcha sohalarda axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruratga aylangan.*

Shavkat Mirziyoyev

**O**'tgan asrning oxiri va hozirgi asrning boshida axborot vositalarining jadal rivojlanishi mazkur davrning “Axborot asri” deb atalishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnikalari, axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Axborot so'zi lug'aviy jihatdan xabarlar, ma'lumotlar degan ma'nolarni anglatib, muayyan voqeа-hodisalar to'g'risidagi xabar yoki ma'lumot, ularni tushuntirish va idrok etishda qo'llanilib kelinayotgan vositalar tushuniladi. Hozirgi kunda hayotning biron bir sohasini axborotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Globallashuv jarayonlari millatlar, davlatlar, ijtimoiy tabaqalar turmush tarzlarining yaqinlashishini benihoya tezlashtirmoqda. Shu bois, XXI asrni qamrab oladigan ushbu umumbashariy jarayonlar turmush tarzi bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilardan katta ma'suliyatni talabetadi. Dunyoning nihoyatda o'zgarib borayotgan hozirgi siyosiy-ma'naviy, g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Buning jiddiy sabablaridan biri, uning tez o'zgaruvchanligidir. Jarayonning tez o'zgarishi esa, o'z navbatida, uning mazmun-mohiyatini to'g'ri tahlil etish, xolis xulosalar chiqarish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu bois, yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida OAVlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda tutgan o'rni, yoshlar tarbiyasi masalalariga konkret umuminsoniy manfaatlar nuqtai nazaridan yondoshilib, ilmiy-nazariy xulosalar berishga harakat qilingan. Aholi madaniyatini rivojlantirish va prognozlash muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar bu sohada aniq bir metodologiya hali ishlab chiqilmaganini madaniy jarayonlarni o'lchash, rivojlanishning samarali yo'llarini topish murakkab vazifa ekanligini yakdillik bilan qayd etadilar.

Jamiyatimizda demokratik qadriyatlarni qaror toptirish, fuqarolarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, dunyoda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, voqeа-hodisalar haqida tezkor va haqqoniy yetkazib berishda ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Shu o'rinda Respublikamizda matbuot erkinligini ta'minlash yuzasidan huquqiy asoslar yaratilgan. Xususan, Konstitutsiyamizning 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi" deb yozib qo'yilgan. Qabul qilingan va qabul qilinayotgan barcha qonun va qonunosti hujjatlarda OAVning erkinligini ta'minlashga alohida etibor qaratilgan.

Mustaqillikyillaridamamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining soni qariyb to'rt barobar ko'payib, 1500 taga yetgani ushbu tarmoqda

o'sish, o'zgarish jarayonlari izchil davom etayotganidan dalolat beradi. Keyingi paytlarda OAV xodimlarining demokratik jarayonlar, fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o'rni va nufuzini mahalliy gazetalar, teleradiokanallarning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, eng asosiysi, matbuotda fikrlar, qarashlar xilma-xilligini ta'minlash bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirilgani barchamizga ma'lum.

Hozirda televideniya, radio, internet matbuot orqali kunlik qabul qilishi shart bo'lgan axborotlar ko'lami shu qadar kengki, ulardan zarurlarini saralab olish juda mushkul. Shiddat bilan yangilanayotgan O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar zamirida katta ishlar amalga oshirilmoqda. OAVlar so'zda emas, amalda to'rtinchi hokimiyat darajasiga ko'tarilishi zarur. Bu **zamon** talabi, islohatlarimiz talabidir. Bugun faoliyat yuritayotgan jurnalistlarga g'oyat mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. Ya'ni aholini nafaqat xolis va haqqoniyligi axborotga ega bo'lish huquqini ta'minlash, balki madaniy saviyasi, estetik didi, dunyoqarashi, turli sohalardagi bilimini oshirib borishi, qadriyatlar, urf-odatlar, mintalitetdan kelibchiqqan holdayosh avlodni milliyg'oya, tarixiy an'analarga sodiqlik ruhida tarbiyalash hisoblanadi. Jurnalistik faoliyatning mohiyati axborot tarqatish desak xato bo'lmasa kerak. Chunki axborot tarqatish so'zining asl mazmuni "biron narsa haqida tushuncha berish" degan ma'nodan kengroq. Axborot inson hayotida g'oyat muhim rol o'ynaydi. Uni falsafiy ma'noda moddaning yashash xususiyatlaridan asosiysi, moddalar orasidagi o'zaro munosabat, bir-biri bilan aloqa va bir-biriga ta'sir vositasi deb ta'riflashadi.

Eng asosiysi, ommaviy axborotlar vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarish va yangilanish jarayonlarini har tomonlama tahlil qilib, joylardagi ijtimoiy muammolar, xato va kamchiliklarga davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratayotganini alohida qayd etish lozim. Binobarin, bu yo'lida yutuqlar bilan birga, kamchilik va nuqsonlar bo'lishi ham tabiiydir.

Jamiyatni boshqarishda esa o'ziga xos turdagiligi axborotlar – ijtimoiy axborot, siyosiy axborot, xalqaro axborot, harbiy axborot, maxfiy axborot va boshqa turlari qo'llaniladi. Bular ichida ijtimoiy axborot turiga e'tiborimizni qaratsak. Bu tur inson ongini o'stirishda uning ijtimoiy faoliyatini boshqarib turishda, jamoatchilik fikrini shakllantirishda

muhim rol o‘ynaydi. “Axboriy matbuot” deganda, biz mohiyat e’tibori bilan “Yangiliklar jurnalistikasi” ma’nosini tushunamiz. Zero, bu ikki tushuncha uzviy, biri ikkinchisisiz ma’nosiz ekanligi aniq. G‘arbda axboriy matbuotga o‘xhash yana bir munozarali “Fikrlar matbuoti” tushunchasi mavjud. Bu ikki tushunchani farqlash va qo’llash shartli. Ular G‘arbda ham, bizda ham bir-biridan ayri (sof) holda amal qilolmaydi.

G‘arb ommaviy axborot vositalarida o‘zgacharoq hol mavjud, degan fikr ham yo‘q emas. U yerda yangiliklarning uzluksiz oqimini uzatishda “Si-En-En”, “Nemis to‘lqini”, “Bi-Bi-Si”, “Ozodlik”, “Amerika ovozi” kabilarda ham sof holdagi fakt, voqeа-hodisalarni uzatish bilan bir qatorda, ularni sharhlashga ham e’tibor berilishini tan olish kerak. Axborotni xabarqilish, tushuntirish, ma’lumqilish ma’nosida tushunar ekanmiz, demak, axboriy jurnalistika oldindan ma’lum bo’lmagan biror narsa, voqeа haqidagi har qanday xabar axborot degan tavsifga qo’shilgan holda axborot, faktlar haqidagi xabardangina iborat bo‘lib qolmay, inson ichki ehtiyoji bo‘lmish muloqotni ta’minlovchi aloqa qilish amali va fikr almashish jarayoni hamdir, deb to’ldirish va tahrir qilishga ham qo’shilamiz. Bizga ma’lumki, voqelik qanchalik rang-barang aks etsa, xabarning axboriy qiymati shunchalik yuqori bo’ladi. Bunga misol tariqasida O’zbekiston teleradiokompaniyasi “Axborot” informatsion ko’rsatuvi hamda “Tahlilnomा” haftalik ko’rsatuvarini olishimiz mumkin. Unda teleboshlovchining ko’rsatuv mohiyatini teran, sodda va tushunarli tilda tomoshabinga yetkazishda dunyo xabarlari va respublikamizning barcha hududlaridagi yangilik va sohaga oid yutuq va kamchiliklar bataysil yoritib beriladi. Ayniqsa, teleboshlovchi Jamshid Umrzoqovning nutqidagi benuqsonlik, voqeani kamera oldida ravon gapirishi teletomoshabinni bir soniyada o’ziga muhrlab qo’yadi. Chunki sodir bo’lgan har bir targ‘ibot-tashviqot ishlarini maromida yetkazish, teleboshlovchi tomonidan yuksak did va so’zlashuv madaniyatining yuksakligidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda aytish joizki, bugun respublikamiz bo’ylab “Yangi O’zbekistonda – yangicha dunyoqarash” va yangi g‘oyalarga zamin bo’lguvchi shior ostidagi targ‘ibot tadbirlari keng targ‘ib qilinmoqda. Unda mamlakatimizning barcha nuqtalarida mahallalar obodligi, yurt farovonligi yo‘lida qilinayotgan ezgu ishlarning zamirida xalq manfaatlari o‘z isbotini topayotgani, amalga oshirilayotgan ulkan

islohotlar, bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar aks etgan videolavhalar orqali Yangi O'zbekistonning kelajagibutunlayo'zgachabo'lishi, buning uchun eng avvalo fuqarolar yangicha dunyoqarash bilan yondashishi zarurligi to'la-to'kis ochib berilmoqda. Bunda OAV xodimlari o'zlariga qo'yilgan vazifalarni tezkorlik va xolis ommani xabardor qilayotganini guvohi bo'layapmiz. Bu borada, Sevimli telekanalining "Zamon" informatsion dasturi shiddat bilan zamon bilan hamnafas yangiliklarni e'tibor bilan o'z vaqtida xalqqa yetkazayotgani, ijodiy jamoaning erkin ijod qilayotgani fikrimizning isbotidir. Ayniqsa, yechimini kutayotgan ko'plab muammoli masalalar o'z mas'ullariga vaqtida yetkazilishida jurnalist, muxbirlarning sinchkovlik bilan ishlashlari ijobiy tus olmoqda. Bu esa mamlakatimiz aholisining qaysidir ma'noda to'rtinchi hokimiyat nafasining sezilarli darajada o'rni borligi, yoritilayotgan masalalarning o'z o'rnila, xolisona, asosli ijobiy hal bo'lishi misol bo'la oladi.

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlarini kengaytirish va erkinligini ta'minlash, ularni bozor iqtisodiyoti hamda demokratik tamoyillar asosida isloh etishni kuchaytirish, shuningdek, O'zbekistonning jahon axborot bozoridan o'ziga mos o'rinni egallashiga erishish, respublika hayoti haqida xolis axborotni dunyoga tezkor tarqatish tizimini yaratish, aholining jahon miqyosidagi axborotlarga bo'lgan ehtiyojini yanada to'laroq qondirish uning asosiy vazifasi qilib belgilandi. Masalan, ommaviy axborot vositalarida karikaturadan keng foydalaniladi va bu kabi san'at turlari ommaviy axborot vositalari janrlariga aylanib ketadi.

Jurnalistikaning ham adabiyotning ham asosiy quroli so'z bo'lgani bois, ular bir-birlariga juda yaqin egizak sohalar, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jurnalistika adabiyot va san'atga yaqin turadi, birgalikda ish olib boradi. Adabiyot hamda san'at hayotni aks ettirish usullaridan keng foydalanadi. Adabiyot ijtimoiy hayotni badiiyobrazlar orqali aks ettirsa, jurnalistika, ya'ni matbuot ijtimoiy hayot voqealarini, asosan, fikrlar, dalillar asosida yoritishi bilan belgilanadi. Lekin ularni bir-biri bilan bog'lab turuvchi omil ham bor. Bu har ikki o'ziga xos ijtimoiy hodisani sintez qiluvchi bir muhim sohasi – publitsistikadir. "Publitsistika shu zamon muammolarini shu zamon kishilariga yetkazish, shu zamon

muammolariga jamoatchilik fikrini uyg'otish maqsadiga xizmat qiluvchi ijod turi” degan fikrga qo’shilamiz. Jurnalistika singari publitsistika ham turli usullaridan keng foydalanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi zamon hayotini buyuk kashfiyotlar asri, fan va texnika g’oyat rivojlangan, insoniyat tafakkurining mislsiz yutuqlariga erishilayotgan XXI asrni matbuotsiz, gazeta va junallarsiz, radio va televideniyasiz, axborot agentliklari va internet tarmog‘isiz tasavvur etib bo’lmaydi. Inson nonsiz, nozne’matlarsiz yashay olmaganidek, ma’naviy oziq bo’lmish matbuot, ommaviy axborot vositalari ham hozirgi zamon odamlarining doimiy yo’ldoshi, yaqin hamkoriga aylangan. Butun yer kurrasini ko’z ilg‘amas qon tomirlari singari qamrab olgan ommaviy axborot vositalari kishilarga dunyoda bo’layotgan voqeа-hodisalar to‘g‘risida har kuni, har soat, har soniyada xabar berib turadi, ularning ongiga, ma’naviy dunyosiga ta’sir ko’rsatadi. Bunda ilg‘or, xalqparvar g‘oyalarga asoslanuvchi, insoniyatga ezgulik va taraqqiyot g‘oyalalarini yetkazuvchi demokratik matbuot asosiy o‘rin tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF4947-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston, 2017. -104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
6. Alimov B. O‘zbekiston jurnalistikasi: 150 yillik tarixga nazar. February 12, 20191 minute readUZ Team.
7. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2015 yil 26-son.
8. Ziyonet.
9. Lex.uz.



**Shano G‘aybullayevna Fayzullayeva,**  
2-kurs “Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi”  
mutaxassisligi magistranti.

**Ilmiy rahbar:** Dotsent Husan Toxirovich Mirpulatov

## **OMMAVIY SPORT BAYRAMLARINING KELIB CHIQISH TARIXI VA ULARNI TASHKIL ETISH HAMDA BOSHQARISH MUAMMOLARI**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola ommaviy sport bayramlarining kelib chiqish tarixi nimalar bilan bog‘liq ekanligi haqida hamda bu bayramni bugungi kunda keng miqyosda nishonlab, yoshlarda bu bayramga nisbatan katta qiziqish uyg‘otib, ommaviy sport bayramlarini o‘ziga xos qadriyat sifatida avlodlardan avlodlarga yetkazishda va yoshlar qalbida vatanga muhabbat tuyg‘usi qaror topishi haqida yozilgan.

### **Аннотация**

Эта статья посвящена истории возникновения «массовых спортивных праздников», а также повсеместному празднованию этого праздника сегодня, который вызвал большой интерес у молодежи в связи с этим праздником и передается из поколения в поколение как уникальная ценность массового спортивного праздника. и написано, что в сердца молодых людей вселяется чувство патриотизма.

### **Annotation**

This article is about the history of the origins of «mass sports holidays», as well as the fact that this holiday is widely celebrated today, arousing great interest in young people in relation to this holiday, passing down mass sports holidays as a unique value from generation to generation. and it is written that a sense of patriotism is instilled in the hearts of young people.

### **Kalit so‘zlar**

Ommaviy sport, bayram, tomosha, rejissyor, Olimpiada.

### **Ключевые слова:**

Массовый спорт, праздник, спектакль, режиссер, олимпиада

### **Keywords**

Mass sports, celebration, spectacle, director, olympics

*“Har bir davlatning kuch va qudratini belgilavchi asosiy omil bu jismonan sog’lom va har tomonlama rivojlangan avloddir”*

**Shavkat Mirziyoyev**

**S**og’lom va barkamol avlod mamlakatimiz taraqqiyotini, xalqimiz farovonligini, turmushimiz obodligini ta’minlovchi qudratli kuchdir. Shu bois, yoshlarni jismonan sog’lom, ma’nani yetuk etib tarbiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, sport har qaysi millat, har qaysi xalqni dunyoga tanitishning, uning salohiyatini namoyon etish, g‘urur va iftixorini yuksaltirishning eng samarali va ta’sirchan vositasidir.

Insonning shaxs sifatida kamol topishida, unda kuchli iroda, g‘alabaga intilish, qiyinchiliklarni yengish ruhida tarbiyalashda, qalbi va ongiga vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirishda ommaviy sport bayramlarining ahamiyati beqiyos.

Tarixdan barchamizga ma’lumki, ibridoiy davrda odamlar yaxshi ov qilish maqsadida hayvon va qushlarga taqlid qilib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, (o’tlashlarini, hurkishlarini, bir-biri bilan olishishlarini, yurish-turishlarini, hattoki tovushlarini) o‘rganishgan. Shu tariqa ov qilish mahorati oshib, ovchilik o‘yinlari paydo bo‘lgan. Bu o‘yin ovga ketish oldidan va ovdan qaytgandan so‘ng ijro etilgan. Odamlar ovning unumli bo‘lishi uchun tabiat hodisalariga va ayrim yovvoyi hayvonlarga sig‘inib, ular sharafiga turli marosimlar o’tkazishgan. Marosimdaraqs ijro etishib, hayvonlarga va ov jarayoniga taqlid qilishgan. San’atshunos tadqiqotchilarining shohidlik berishicha Ovchilik o‘yinlari va bayramlar bir davrdapaydo bo‘lgan.

Qadim zamonlardan bayramlar inson hayotida alohida o‘rin egallab kelmoqda. Bayramlarsiz inson hayotini tasavvur qilish juda ham mushkul. Bayramlar har bir shaxsning hayotida turli sohalardagi yutuqlari, muvaffaqiyatlari, g‘alabalaridan faxrlanish hissini tuyushida yaqindan yordam bergen. “Bayram – bu ma’lum vaqtdagi ideal hayotdir” deb yozgan edi A.I.Mazayev. Haqiqatan ham bayramlar xalq hayotining eng chiroyli damlarini aks ettiruvchi ko‘zguga o‘xshaydi.

Bayramlar haqida gap ketar ekan, ommaviy bayram va tomoshalar har bir tarixiy davrda tarbiya va ma'rifatning asosiy o'giti sifatida yuqori o'rnlardan birini egallab kelganligini aytib o'tishimiz joiz. Mustaqillik g'oyalarini keng xalq ommasiga singdirish, insonlardagi fuqarolik tushunchalarini tarbiyalashda ommaviy bayramlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Hech qaysi teatr tomoshasiham, hatto kattabayramlar ham ommaviy bayramlar insonga ta'sir qilgandek ko'plab xalq ommasiga ta'sir qila olmaydi.

Olimpik chaqmoqsochar – Zevs sharafiga o'tkazilgan bayramda faqat jismoniy jihatdan chiniqqan, eng kuchli bahodirlar qatnashgan. Bunday tadbir – Olimpiada musobaqalari nomi bilan tarixga kirdi. Olimpiada greklarni birlashtiradigan tadbir-bayram hisoblangan. Olimpiadato'rt yilda bir marta o'tkazilgan. Shuning uchun bu bayramda barcha greklar ishtirokini ta'minlash maqsadida urushlar to'xtatilgan. Shu boisdan sport bayrami Olimpiada tinchlik elchisi sifatidagi bayram bo'lib, ommaviy musobaqalar tadbiriga aylandi. Greklar tomoshaning yangi turini, ya'ni ommaviy bayramni yaratdi. Bu bayram o'sha davrda greklarga ko'pchilik orasidan eng kuchli va eng zo'rini aniqlashda yaqindan yordam bergen.

Olimpiadao'zining keng qamrovligi bilan umumxalq bayrami darajasiga ko'tarilgan. Unda jismonanbaquvvat yigitlar hamda faqat spartalik qizlargina qatnashgan. Shuningdek, bu tadbir dramaturglar, shoirlar, ashulachilar, xor ijrochilar, sozandalar va aktyorlar uchun ham musobaqa hisoblangan.

Zamonaviy birinchi Olimpiya o'yinlari 1896-yil 6-aprel – bundan 124 yil oldin Afinada bo'lib o'tgan edi. Ayni ushbu sana zamonaviy o'yinlar tarixinining boshlang'ich davri hisoblanadi. Keyin ularni I Xalqaro Olimpiya o'yinlari deb atashdi.

Olimpiya o'yinlarini tashkil etish g'oyasi fransuz jamoat arbobi, tarixchi, yozuvchi Per de Kubertenga tegishli. 1894-yil iyun oyida uning tashabbusi bilan Parijda Xalqaro kongress bo'lib o'tdi. Ishtirokchilar oldida qadimgi o'ynlardan namuna olib, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tashkil etish va o'yinlarni o'tkazish masalasi turardi. XOQning tashkil etilgan rasmiy sanasi 1894-yil 23-iyun hisoblanadi. Uni XOQning

birinchi prezidenti Demetrius Vikelas boshqargan va Per de Kuberten bosh kotib etib tayinlangan. Keyin Olimpiya harakatining asosiy prinsiplari belgilangan. Birinchi o‘yinlarning ajdodi bo‘lgan Gresiya musobaqalarni o‘tkazish joyi sifatida tanlandi. Gresiyada birinchi Olimpiada – 1896, keyingilari esa 1906 va 2004-yillari bo‘lib o‘tdi.

Olimpiya harakati asta-sekin o‘sib bordi va 1913-yilga kelib, XOOQ tomonidan tasdiqlangan o‘z madhiyasi, gerbi va bayrog‘iga ega bo‘ldi. Olimpiya ramzi beshta – ko‘k, sariq, qora, yashil va qizil rangdagi o‘zaro birlashgan halqadir. Ular dunyoning besh qit’asi sportchilari jam bo‘lishini anglatadi. Olimpiya harakatining shiori: tezroq, balandroq, kuchliroq. Rasmiy bayroq 1914-yilda Parijda tasdiqlangan. Tashqi ko‘rinishi oq mato bo‘lib, uning o‘rtasida beshta halqa bor. Yana bir muhim ramz – bu Olimpiya mash’alasi. U mezbon shaharda alanga va bahslar tugaguncha yonib turadi. Jami 124 yillik tarixi davomida 31 ta yozgi Olimpiyao‘yinlari o‘tkazildi, 1916, 1940 va 1944-yillardagi urushlar tufayli uch marta o‘yinlar bekor qilindi. Masalan, Tokio Olimpiadasi koronavirus pandemiyasi tufayli kechiktirilganidek, o‘yinlar bir necha bor muddatini o‘zgartirishga qaror qilingan.

Mamlakatimizda o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida sportni rivojlantirish, ularni ommaviy ravishda jiemoniy tarbiya va sport harakatiga jalb qilish maqsadida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan joriy etilgan va yangi pedagogik texnologiya sifatida ko‘plab davlatlarda katta qiziqish bilan o‘rganilayotgan ta’lim sohasidagi uch bosqichli sport o‘yinlari – umumta’lim maktablari o‘quvchilarining “Umid nihollari”, kollej va litsey yoshlari o‘rtasidagi “Barkamol avlod” va oliy o‘quv yurtlari talabalarining “Universiada” musobaqalari ana shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Sport bayramlarida bayroqni tantanali olib chiqish, qatnashchilar namoyishi, sport bayrami mash’alasini qo‘ldan-qo‘lga berib, shaharlararo olib o‘tish marosimlari, qolaversa, tantanali ravishda konsert tashkil etish yildan-yilga shakllanib kelmoqda.

Ommaviy sport bayramlarini tashkil qilish va boshqarishda ommaviy bayramlar rejissyoridan katta mas’uliyat talab qilinadi. Buning uchun rejissyorda ayrim keltirilgan sifatlar, ya’ni zehnining tezligi va

emotsionalligi, eslab qolish qobiliyatining kuchliligi va sharoitdan kelib chiqqan holda harakat qila olishi, badiiy improvizatsiya qila olish qobiliyati juda yuqori bo'lishi lozim. Buning uchun ular juda ko'p o'qitiladi. Hatto institutda alohida yo'nalishi ham borligi bizni quvontiradi. Lekin afsuski, ommaviy sport bayramlarida ham, boshqa ommaviy bayramlarda ham biz yosh kadrlarni ko'rmaymiz. Yoshlar talabalik davridanoq katta-kichik bayram, tadbirlarda qatnashib ustozlaridan kerakli o'gitlarni olishsa, ko'proq amaliyotga jalg qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mamlakatimizda o'tkazilgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" sport bayramlari barchamizga ma'lum. Tadbirlar har gal respublikadan biriktirilgan mas'ul rahbarlar va viloyat hokimlarining tabrik so'zi hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi bilan ochiladi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ko'tariladi. Badiiy qismida esa jahon va qit'a championatlari, xalqaro musobaqalarning sovrindorlari, taniqli sport ustalarining ko'rgazmali chiqishlari namoyish etiladi, taniqli san'atkorlar, "Nihol" mukofoti sovrindorlari, viloyat havaskorlik dastalari ishtirokchilari ijrosidagi Vatan, mustaqillik, yoshlik, shijoat, fidoyilik, sport va sog'lom turmush tarzini tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar va raqslardan iborat kontsert dasturi yoshlar e'tiboriga havola etiladi.

Bundan tashqari, "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati" mavzusida videorolik namoyish etilib, unda mustaqillik yillarida yaratilayotgan imkoniyatlar, bildirilayotgan ishonch va e'tibor samarasida yoshlar sport musobaqalarida muntazam g'oliblikni qo'lga kiritayotgani tasvirlanadi. Undan so'ng stadionga yosh sportchilar, raqqosalar, taniqli estrada xonandalari kirib keladi. Rango-rang bezaklar, turfa chiroqlar bayramga o'zgacha fayz va tarovat baxsh etadi. Maydon uzra taralayotgan sho'x musiqa yoshlarni raqsga chorlaydi, tantanavor ruh qalblarga ko'chadi.

Yosh rejissyorlarimiz bayram tashkil qilish va boshqarish texnologiyalarini manashunday hayotiyamaliyotda mustahkamlashlari shart. Shunday ekan, nega endi yosh kadrlar o'zlarini ko'rsatishmaydi?! Sport bayramlarini tashkil qilish va boshqarish texnologiyalari – bu

amaliyotdir. Dastavval ustozlariga yordamchi bo'lib, amaliyotda bayramlarni tashkil qilish mashaqqati bilan tanish bo'lgan yosh rejissyorlar keyinchalik har qanday tadbirda qo'rmasdan o'zi bosh-qosh bo'lishi mumkin.

Darhaqiqat, ommaviy sport bayramlarini tashkil etish va boshqarish, uning inson salomatligi va ma'naviy kamoloti uchun nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishi hech birimizga sir emas. Qayd etilganidek, keyingi yillarda bu borada ham juda ko'p ishlar amalga oshirildi. Sohani boshqarishni takomillashtirish maqsadida Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etildi.

Ommaviysport bayramlarinikeng miqyosda nishonlashdan kutilgan birdan bir maqsad aksariyat yoshlarda kattaqiziqish uyg'otib, ommaviy sport bayramlarini o'ziga xos qadriyat sifatida avlodlardan avlodlarga yetqazishdan iboratdir. Ularni ardoqlagan yoshlar qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usi qaror topadi, milliy ruh shakllanib, xalqimizning an'ana va urf-odatlarini e'zozlash hissi yanada kuchayadi. Xullas, ommaviy sport o'yinlari yoshlarni o'zbekona tarbiyalashning eng ta'sirchan vositalaridan biridir. Bu o'yinlar qanchalik keng yoyilsa, vatanparvar yoshlar safi shunchalik kengayadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Мазаев А.И. праздник как социально-художественное явление. -М.: "Наука", 1978.
3. Qodirov M.X. "O'zbrkiston xalqlari tomosha san'ati", - T.: 1981.
4. Qoraboyev U.X. "Badiiy – ommaviy tadbirlar" – T.: "O'qituvchi", 1986.
5. Qoraboyev U.X. "O'zbrkiston bayramlari" – T.: "O'qituvchi", 1991.
6. Ahmedov F.E. "Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari". T.: "Aloqachi". 2008.
8. Президент (<https://www.pv.uz/uz/news/tags/prezident>) йиғилиш (<https://www.pv.uz/uz/news/tags/jiilish>).



**Munisaxon Rashid qizi Siddiqova,**  
2-kurs “Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”  
mutaxassisligi magistranti  
**Ilmiy rahbar:** f.f.d., prof. Sayyora To‘ychiyeva

## **MA’RIFATPARVAR AJDODLARIMIZ G‘OYALARINING TA’LIM SIVILIZATSİYASIDAGI MUHIM AHAMIYATI**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ilm-ma’rifat, rivojlanish tarixi, ma’rifatparvarlarning ta’lim-tarbiya jarayonlari haqida ilgari surgan g‘oyalari va ilm-fanning zamонавиј шакли – узлуksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi qamrab olingan.

### **Аннотация**

В статье освещены история науки и образования, представления просветителей об образовательном процессе, а также современное понятие науки - концепция непрерывного духовного образования.

### **Annotation**

The article highlights the history of science and education, the ideas of educators about the educational process, as well as the modern concept of science - the concept of continuous spiritual education.

### **Kalit so‘zlar**

Ilm, ma’rifat, tarbiya, ma’naviyat, jadid, madaniyat, bilim, mehnat, oila, maktab, kasb, hunar, badiiy, estetik, millat.

### **Ключевые слова**

Наука, просвещение, воспитание, духовность, современность, культура, образование, труд, семья, школа, профессия, ремесло, искусство, эстетика, нация.

### **Keywords**

Science, enlightenment, education, spirituality, modernity, culture, education, labor, family, school, profession, craft, art, aesthetics, nation.

*Emish har elg‘a qadri ilm balo,  
O‘la ilm maqomi baski bolo.  
Kishikim ilmu fandin boxabardur,  
Haloyiqqa mo’tabardur.  
Tiriklikda kishikim qilsa har kor,  
Aning osonlig‘ina ilm darkor.*

**Abdulla Avloniy**

**X**XI asr – bu tezkor, zamonaviy, ma'lumotlarga boy, raqamli texnologiyalarga asoslangan davr sifatida tarixda qizg'in yuzyillikka aylansa, ajab emas. Chunki fan, ta'lim, iqtisodiyot, tibbiyat, sanoat hattoki, madaniyat sohasi ham endilikda raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'lanmoqda. Bu esa keyingi besh yillikda mamlakatimiz rivojlanish mobaynida erishadigan natijalarini yana ham sifatli, ilmiy o'rganilgan bosqichga aylanishidan dalolatdir. Ilmlı inson – har doim ilm istaydi. Ma'rifat ham ilm olish orqali shakllanadi. Ma'rifatga intilishni Turkistonda yuzaga kelgan milliy-ozodlik harakatlarida yaqqol ko'rish mumkin. Jadidchilik harakati o'z maqsad-mohiyatiga ko'ra, dastlabki kunlardan boshlab, madaniy-ma'rifiy va siyosiy islohotchilik harakati bo'lgan. Ammo Vatanni ozod va obod qilish, millat va xalqni hurriyatga olib chiqish, to'q va farovon madaniyatli qilish uchun jadidlar asosiy e'tiborini ma'naviy va ma'daniy ishlarga qaratdilar. I.Gaspirinskiy 1884-yilda o'n ikki bolani yangicha usul – "usuli jadid", ya'ni savdiya (tovush) usulida o'qitib, qirq kunda savodini chiqaradi. U 1892-yilda Turkiston general-gubernatori N.O.Rozinbaxga maxsus maktub yo'llab, unda maktablarni isloh qilish, jadid maktablarini tashkil etish, madrasalardan birini zamonaviy oliy ta'limga moslashtirishni taklif etadi. Ammo bu takliflar amalga oshmaydi. Shuning uchun u 1893-yil Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo'ladi. U yerdan Buxoroga borib amirni jadid maktabini ochishga ko'ndiradi va maktabga "Muzaffariya" degan nom beradi. Jadidchilik g'oyasi Turkistonda XIX asr 80-yillarining ikkinchi yarmida tarqalgan. Shu asrning 90-yillari – XX asrning boshlarida jadidchilik muntazam ma'naviy va madaniy harakat sifatida paydo bo'ldi. "Suyukli do'stlarim, bizning uchun eng go'zal ish ilm va ma'orif ishidur. Eng muqaddas intilish ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat va bilimdir. Bilim ma'naviy turmush (sivilizatsiya)ga yetishish vositasidir". Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari: Turkistonni xurofotlardan ozod qilish, "Usuli qadim"ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish,

turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy qo'shin tuzish va boshqalardan iborat edi. Turkistonda jadidchilik harakati vujudga kelishida samarqandlik Mahmudxo'ja Behbudiy muhim rol o'ynagan. Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov bu harakat tepasida turgan. Munavvarqori Toshkent jadidlarining otasi deb e'tirof etilgan.

Turkistondag'i dastlabki oliy o'quv yurti – Turkiston xalq universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning 1918-yilda Toshkentda ochilishi ham jadidlar faoliyati bilan bog'liq. Munavvarqori Abdurashidxonov tashabbusi bilan 1918-yil 12-mayda Turkiston xalq universiteti tarkibida Musulmon xalq dorilfununi tashkil qilindi. 1919-yil Toshkentning Eski shahar qismida jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyaning milliy (Eski shahar) bo'limi tashkil etildi. Yoshlarda badiiy-estetik ruh va tafakkurni shakllantirishga ehtiyoj sezilgan paytda, ma'rifatparvarlar o'z g'oyalarini ilgari surishdi.

"Millatning taraqqiysi aning avvali muntazam maktablaridan boshlanur. Agarda biz dinimizni, millatimizni yaxshi ko'rub, muhofaza qilmoqchi bo'lsak, avval saodateshigi bo'lgan maktabimizni zamong'a muvofiq isloh qilish kerak", – deb yozgan edi turkistonlik jadidlardan biri Hoji Mu'in Shukrullo. Haqiqatan ham, maktablar islohi masalasi jadid matbuotining keng va qamrovli munozaralariga sabab bo'ldi. Hattoki ayollarning savodli bo'lishini ham ta'kidlagan So'fizoda o'zining "O'qunglar, onalar" nomli she'rida Turkiston ayollarini ta'lim olishga da'vat etgan. Ertangi kunning egalarini voyaga yetkazuvchi onalarning savodlilik darajasi bolaning iqtidorini belgilab bergen. Ilmga ehtiyoj har bir davrda mavjud bo'lib, hozirgi kunimizda ham avvaloyoshlarning ilm-ma'rifatli bo'lish masalasi eng dolzarbahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qaroriga muvoqif "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi" qabul qilindi. Mazkur Konsepsiya quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:  
birinchi bosqich – oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr – homila

davr, ikkinchi davr – bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr); ikkinchi bosqich – maktabgacha ta’lim 3 – 6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr; uchinchi bosqich – umumiyl o‘rtalim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – 7 (6) – 10 yosh boshlang‘ich sinf, ikkinchi davr – 11-17 yosh o‘rtal va yuqori sinflar);

to‘rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rtal maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – o‘rtal maxsus kasb-hunarva oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar – 17-30 yosh, ikkinchi davr – o‘rtal maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh). Umumiyl o‘rtal ta’lim muassasalarining I-XI sinflari uchun “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fanini joriy qilish ushbu konsepsiya nazarda tutilgan.

Ilm haqiqiy mo‘jiza. Haqiqiy ilm egallashga muvaffaq bo‘lganlar buning qadrini biladilar, mashaqqatini his etadilar. Yoshlari ilmlni bo‘lgan millatning ertasi porloq, istiqboli baland bo‘lishi shubhasizdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Gaspirinskiy.: “Tarjimon” gazetasi. 1884 y.
2. «Toshkent» ensiklopediyasi. 2009 yil
3. Yoshlarg‘a murojaat// Samarqand. 1913 yil 9 avgust.
4. Sadoi Turkiston. 1914 yil 17 may.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 1059-son qarori.



**Kamila Singatullayevna Zaripxan,**  
**2-kurs “Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi”**  
**mutaxassisligi magistranti.**  
**Ilmiy rahbar:** Dotsent Marina Rimmovna Yusupova

## O‘ZBEKISTONDA PROFESSIONAL SIRK SAN’ATI VA ESTRADA SAN’ATINING PAYDO BO‘LISHI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola O‘zbekistonda professional sirk san’ati va estrada san’atining paydo bo‘lishi va kelib chiqish tarixi nimalar bilan bog‘liq ekanligi hamda bugungi kunda sirk san’ati va estrada san’atining jamiyatda tutgan o‘rnini qay darajada ekanligi haqida yozilgan.

### **Аннотация**

Эта статья об истории возникновения и зарождения профессионального цирка и эстрады в Узбекистане, а также о роли циркового искусства и эстрады в современном обществе.

### **Annotation**

This article is about the history of the emergence and origin of professional circus and pop art in Uzbekistan, as well as the role of circus and pop art in society today.

### **Kalit so‘zlar**

Sirk, estrada, tomosha, rejissyor, nomer, artist (so‘z ustasi, xonanda, raqqos, aktyor).

### **Ключевые слова:**

Цирк, эстрада, спектакль, режиссер, номер, артист (мастер слова, певец, танцов, актер).

### **Keywords**

Circus, variety, spectacle, director, number, artist, (word master, singer, dancer, actor).

*“San’at mo‘jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san’at vositasidagina kirish mumkin.”*

**Ibn Sino**

**“O‘zingni san’atda emas, san’atni o‘zingda ko‘r!”** degan edi Stanislavskiy. U san’at haqida quyidagicha fikr bildiradi: “U shunday kuchki, barchani o‘ziga rom etadi. U shunday o’tki,

alangasida bir umr yonib yashamoq baxtga barobar. U shunday go'zal, shunday ajib mo'jizaki, undan ko'nglingiz munavvar tortib, ishqingizni uzmoq muammodir."Haqiqatdan ham san'at o'zi uchun fidoiylikni, jonkuyarlikni talab qiladi. San'atning bir nechta turlari bor. Ammo biz hozir faqat sirk va estrada san'ati to'g'risida gaplashamiz.

Sirk lotin tilidan olingan bo'lib, "aylana", "doira", "xalqa" degan ma'nolarni bildiradi. U tomosha san'atining bir turidir. Sirk ko'p hollarda yumaloq arena va baland gumbazli binoda joylashadi. Sirk akrobatika, gimnastika, ekvilibristika, klounada, jonglyorlik, polvonlik, illyuzionizm, ot o'yinlari, dorbozlik, hayvon o'rgatish kabi janrlarni o'z ichiga oladi. Sirkda ko'zboylog'ichlik, akrobatika, masxarabozlik, qo'lga o'rgatilgan hayvonlar va boshqatomoshalar ko'rsatiladi.

Sirk artisti aqlbovar qilmaydigan o'yinlar ko'rsatib, insonlarning cheksiz imkoniyatlarini namoyish etib, insonlardagi epchillikni, jasurlikni, kuch-qudratini ulug'laydi va sirkning o'ziga xos badiiy ifoda vositalari orqali ruhan va jismonan barkamol insonning umumlashgan badiiy obrazini yaratadi. Bu obraz mohirlik va epchillik bilan bajariladigan harakatlar yordamida ochiladi, artistning boshqa ifoda vositalari – aktyorlik mahorati, plastikasi, imo-ishorasidir. Har bir sirk tomoshasi sirk san'atining mukammal badiiy asari bo'lib, turli janrdagi bir necha tomoshalardan sirk dasturlari tuziladi.

Sirk sintetik san'at bo'lib, teatr, xoreografiya, vokal, rassomlik, kino elementlaridan foydalanadi. Insonparvarlikg'oyalarini targ'ib etib, xalqchilligi, ommaviyligi, demokratik yo'nalishi bilan ajralib turadi. Sirk qadimdan ma'lum bo'lib, odamlarning mehnat jarayoni, urf-odatlari, tomoshalari, harbiy va sport mashqlaridan yuzaga kelgan. Xalq sayillarida namoyish etiladigan maydon tomoshalari va teatrlashtirilgan sport musobaqalari takomillasha borib, san'at turiga aylangan. Sirkning alohida janrlari Misr, Rim, Yunoniston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda milloddan avvalgi 1-ming yillikdan boshlab rivojlangan.

Sirk Sharq mamlakatlari, xususan, O'zbekiston hududida qadimdan ma'lum bo'lgan. Afrosiyob, Parfiya, Xolchayon, Panjikent, Xorazmda

qazish ishlari jarayonida topilgan bir qator tasviriylar san'at asarlari va polvon, muallaqchi, masxarabozlarning haykalchalari, o'rta asrlarga oid adabiy manbalar bu yerda sirk tomoshalarining keng tarqalganligini ko'rsatadi. Ba'zi manbalar Amir Temur saroyida dorbozlar, polvonlar, muallaqchilar hamda o'rgatilgan fillar va otlar tomoshasi ko'rsatilganini tasdiqdaydi.

Asrlar mobaynida o'zbek sirki maydon tomosha san'ati sifatida rivojlanib kelgan. Xalq bayram va sayillarida, bozor maydonlarida dorbozlar, simbozlar, chig'iriqchilar, "besuyak" muallaqchilar, hayvon o'rgatuvchilar, nayrangbozlar, yog'ochchoyoq va boshqa an'anaviy sirk janrlari o'yinchilari tomosha ko'rsatganlar.

XX asrning boshlarida rus sirk san'ati ta'siri va uning tajribalarini o'rganish asosida o'zbek sirk artistlari ham tug'ilashdi. Shuning orqasida 1900-1911-yillarda Toshkentda faoliyat ko'rsatgan Qo'qonlik qiziqlardan Baratboy va Toshkentlik Mullaboy Mansurov tashabbusi bilan Toshkent shahrida "O'zbek milliy sirk" tashkil topdi. Uning dasturida o'zbek teatri repertuaridan tashqari rus sirki repertuari ham o'rin olgan edi. **Shuni** ta'kidlab o'tishimiz joizki, Yusuf qiziqning rus sirki bilan hamkorligi mahalliy aholini sirk sa'antiga qiziqishini orttirgan. An'anaviy teatr atkyorlarining yangi qirralarini ochgan va ularda "o'zbek milliy sirk san'atini" yaratish niyatini paydo qildi. Ular bu masalani yuqori saviyada tashkil qila oldilar. Bunday yaratuvchilik harakatiga Yusuf qiziqning beqiyos qobiliyati asos bo'ldi.

Yevropa sirki ta'sirida tarqoq holda faoliyat yuritayotgan o'zbek sirki artistlari orasida guruhlarga uyushish kuchaydi. Natijada XX asr boshlarida Baratboy, Mullaboy Mansurov (Mullaboy Mansurov sirki), Latofat Sarimsoqova, Rahmon Abdusalilovlar rahbarligidagi dastlabki milliy professional sirk jamoalari tashkil bo'ldi. Ularning repertuari, asosan, an'anaviy o'yinlardan iborat bo'lib, ayrim hollarda Yevropa tomoshalarini ham o'z ichiga olgan.

1920-1930-yillarda O'zbekistonda davlat sirklari bilan bir qatorda xususiy sirklar ham faoliyat ko'rsatgan. 1942-yilda Toshkentda birinchi milliy jamoa tashkil etildi. Badiiy rahbari Toshkanboy Egamberdiyev, sahnalashtiruvchi rejissyorlar Xo'jayev va N.Baykalov, baletmeyster Ali

Ardobus, rassom Sh. Shorahmedov, kompozitor M.Niyozov bo'lgan. Uch qismdan iborat teatrlashtirilgan sirk tomoshasida yetakchi artistlar bilan bir qatorda, an'anaviy sirk o'yinchilari xam qatnashgan.

1950-1980-yillar o'zbek sirki jamoasi milliy ruhda ishlangan dasturi bilan ko'pgina mamlakatlarda gastrolda bo'ldi. 1950-yildan Toshkentda "Sahnadagi sirk" ko'chma korxonalar direksiyasi ish boshladi. XX asrda o'zbek sirkining rivojlanishiga Toshkanboyevlar, Zaripovlar, Xo'jayevlar, Madaliyevlar sulolasi, Akrom Yusupov, Rahmonovlar salmoqli hissa qo'shdilar.

Mustaqillik davrida o'zbek sirki xalqaro sirk maydoniga chiqib, munosib o'rin egalladi. Uning repertuari birmuncha kengayib, zamonaviy tomoshabinlar talabiga mos yangi sirk tomoshalari bilan boyidi. Milliy ruhda sahnalashtirilgan, an'anaviy va zamonaviy tomoshalar 20 ga yaqin mamlakatlarda namoyish etildi. Nufuzli xalqaro festival va ko'rik-tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashdi. 1991-yildan boshlab, "O'zbekdavlatsirk" Respublika birlashmasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Estrada so'zi ispancha so'zdan olingan bo'lib, tomosha ko'rsatish uchun maxsus ko'tarilgan joy, ya'ni "taxtasupa", "sahna" ma'nolarini bildiradi. XIX asr oxiriga kelib, bu tushuncha yakka tartibda, kichik shaklda ijod qilish ma'nosini anglata boshladi. Dramaturg pyesa, rejissyor spektakl, aktyor obraz yaratadi. Uchala jarayon bir kishida mujassam bo'lib, u kichik shakldagi tomosha yaratsa, nomer deb ataladi. Tomosha nomer yaratish san'ati XX asrdan boshlab estrada deb atala boshlandi. Nomeryaratgan va uni san'at darajasida namoyish qilgan shaxs esaestrada aktyori deb ulug'lana boshlandi.

Estrada san'atini biz ikki xil ma'noga:keng va tor ma'nolargaajratib ko'rishimiz mumkin. Keng ma'nodako'ngilochar, ommabop badiiy (adabiy, musiqiy, raqs, tomoshaviy va boshqalar) janr va shakllarning umumiyl ifodasi bo'lsa, tor ma'noda esasahnaviy professional san'at turi hisoblanadi. Estradaning kelib chiqishi xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq bo'lsada, u muayyan (tijorat ommabop) san'at turi sifatida XIX asrda Yevropa yirik shaharlaring demokratik ijtimoiy madaniy muhitida yuzaga kelgan.

Estradaning asosiy shakli maxsus joylarda, muntazam ravishda o'tkaziladigan estrada konsertidir. U bir nechta (yoki yakka) artist (so'z ustasi, xonanda, raqqos, aktyor va boshqalar)ning badiiy tugal, turfa mazmundagi kichik chiqishlaridan iborat bo'lib, ifoda vositalarining lo'nda va yorqinligi, o'ziga xosligi, ishtirokchilarining tomoshabin bilan bevosita muloqotda bo'lishi bilan ajralib turadi.

Yevropada estrada tomoshalari dastlab kafe va restoranlarda, keyinchalik moslashtirilgan teatr binolari va boshqa joylarda o'tkazilgan. Ularda so'z ustalari, qo'shiqchilar, raqqos va raqqosalalar, shuningdek, akrobat, ko'zbog'lovchilar ishtirok etgan. Hozirda estrada sahnalarida monolog, felyeton, hajviy hikoya kabi nutq janrlari, kuplet va estrada qo'shig'i, ko'pgina sirk turlari (akrobatika, jonglyorlik, fokus va boshqalar), teatr miniatyurasi, qo'g'irchoqbozlar chiqishlari, pantomima va boshqalar mavjud.

1918-yili inqilobiy to'ntarilishdan so'ng, barcha xususiy tomosha maskanlari davlat tasarrufiga o'tkazildi. Kafe va restoranlarda faoliyat ko'rsatadigan tungi klublar tomoshalarining bachkanaligi va hayosizligi haqida matbuotda tanqidiy maqolalar e'lon qilina boshladi. Ularga javoban 1919-yili inqilobiy satira teatri – "Театрреволюционный сатиры" (Terevsat) tashkil qilindi. Bu teatr kunduzlari frontga jo'nayotgan askarlarga tomosha ko'rsatsa, kechalari restoranlarda inqilobga xalaqit berayotgan unsurlar ustidan kuladigan tomoshalar ko'rsatdi. Shuning uchun uni inqilobning ilk mevasi – "estrada teatri" deb atash boshlandi. 1920-yili "Синаяблуза" – "Ko'k ko'ylak" nomli estrada teatri tashkil qilindi. Bu teatr – tirik gazeta, ya'ni har kungi o'zgarishlarni yoritib boradigan "estrada teatri" deb atala boshladi. Uning repertuaridan-parodiya, satira, kupletlar va hazil qo'shiqlar o'rin oldi. Ularning mazmuni esa inqilob dushmanlari ustidan kulish, ommaga fosh qilish edi.


O'zbekistonda boshqa Sharq mamlakatlarida bo'lgani kabi, Estradaning rivojlanishi quyidagi ko'rinishlarda bo'lgan ya'ni bir tomonidan unda an'anaviy san'at namunalari sahna talablariga moslashtirib o'zgartirilgan masalan, Tamaraxonim va M.Qoriyoqubov ijrosidagi xalq laparlarining sahna talqinlari, Yusufjon qiziq

Shakarjonov askiya an'analariga asoslangan konferansyelik chiqishlari va boshqalar yoki milliy janrlar negizida yangi sahma turlari yaratilgan (M.Turg'unboyeva Usta Olim bilan birgalikda ijod qilgan "Paxta", "Pilla" kabi ommaviy sahma raqslari). Ikkinchi tomondan O'zbekiston estradasi chet el san'ati shakl va uslublari (jaz, estrada orkestri, myuzikxoll)ni o'zlashtirishi bilan boyidi. 1956-yildan boshlab, o'zbek estrada teatri, keyinchalik 1996-yilgacha o'zbek davlat estrada birlashmasi faoliyat ko'rsatgan.

Hozirda O'zbekistonda estrada san'atini rivojlantirish, estrada jamoalari hamda yakka ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vazifalar "O'zbeknavo" birlashmasiga yuklatilgan. Estrada o'quv yo'nalishi sifatida maxsus ta'lim tizimiga kiritilgan. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda yoshlarni estetik tarbiyalashda boshqa sohalarga qaraganda san'at sohalari ko'p jihatdan samaralidir, chunki san'atning barcha turlari insonlarga yaxshilik, ezgulik, go'zallik, kabi tushunchalarni anglashga undaydi. Yoshlarimiz bizning kelajagimizdir. Shuning uchun ham ularning ongiga san'atni to'g'ri idrok eta olish hissini singdirishimz kerak. Bizning ertamiz bo'lgan har bir o'g'il-qiz o'zidagi iqtidori va qiziqishlari bois kelajakda yurtimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishiga hech shubha qilmasak ham bo'ladi. Yoshlarimiz san'atni to'g'ri idrok eta olishi, hayotga to'g'ri tadbiq qilishi hamma narsadan muhummdir. Bugungi kunda yoshlarimizning yutuqlari ularning estetik tarbiyasi yetukligidan dalolat beradi. Bizning yagona maqsadimiz ham shu kabi yoshlarni safini kengaytirishdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга Ўрамиз.- Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Stanislavskiy K. Собрание сочинений, 8 томлик. 6-том, М.: "Iskusstvo", 1959. – 466 b.
3. Qodirov M.X. " O'zbrkiston xalqlari tomosha san'ati", - Т.: 1981.
4. Qoraboyev U.X. " O'zbrkiston bayramlari" – Т.: "O'qituvchi", 1991.
5. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. Т.: "Yangi asr avlodi". 2009.



**Hamidullo Ubaydullayev Fatxulla o'g'li,**  
**2-kurs "Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi"**  
**mutaxassisligi magistranti**  
**Ilmiy rahbar: Dotsent Husan Mirpo'latov**

## **YANGI O'ZBEKISTONGA YANGICHA BOG'LAR YARASHADI**

### **Anotatsiya**

Madaniyat va istirohat bog'larini ko'ngilochar maskan va bir vaqtning o'zida jonli hamda qiziqarli ilm dargohiga aylantirish lozimdir. Maqsadimiz – ushbu dargoh nafaqat dam olish va ko'ngilochar, balki ma'naviy va madaniy ilm beruvchi maskanga aylansin.

### **Анотация**

Парки культуры и отдыха следует превратить в места развлечений и в то же время живые и интересные места обучения. Наша цель - сделать это место не только местом отдыха и развлечений, но и местом духовного и культурного просвещения.

### **Annotation**

Cultural and recreational parks should be turned into places of entertainment and at the same time lively and interesting places of learning. Our goal is to make this place not only a place of rest and entertainment, but also a place of spiritual and cultural education.

### **Kalit so'zlar**

Madaniyat, istirohat, bilim, ijtimoiy-maishiy, ko'ngilochar, yoshlar, bog', sport, favvora.

### **Ключевые слова**

Культура, остаток, знания, социальное, развлекательный, молодые люди, сад, спорт, фонтан.

### **Keywords**

Culture, rest, knowledge, social, entertainment, young people, the garden, sport, fountain.

**I**nson borliqning eng oliy mavjudoti sifatida yaratilgan ekan, u katta bir oila – bashariyat bo'lib zamon va makon oralig'ida yashab kelyapti. Inson yaralibdiki, borliqning boshqa tirik mavjudotlari, ayniqsa, hayvonot va o'simlik dunyosi bilan yonma-yon

yashab kelmoqda. Borliqning gultojisi sifatida insonga tabiatning barcha boyliklari – noz-une'matlari, suv va havo tortiq qilingan. Insonlar Alloh izni bilan dunyoga kelar ekan, o'ziga berilgan ma'lum muddatli hayoti davomida o'z turmush tarzini yaxshilash, maqbul shart-sharoitlarga ega bo'lish uchun doimo harakat va kurash olib boradilar.

Shunday ekan, biz ijtimoiy-maishiy hayotda duch kelgan qaramaqarshilik va kurashlardan toliqib, halovat izlagan vaqtimizda ko'ngil orom olishni va hordiq chiqarishni istaydi. Ko'pchilik odamlar dam olish yoki hordiq chiqarish deganda aynan turli xil ko'ngilochar maskanlarga borish, u yerda turmush tashvishlaridan oz bo'lsa-da holi bo'lib, tinch va osoyishtalik lazzatini izlaydilar. Ba'zi insonlar tabiat qo'ynida tanho, oilasi yoki o'ziga yaqin bo'lgan kishilar hamrohligida orom olishni xush ko'radilar.

Turli ko'ngilochar maskanlar kishilik jamiyat tarixida qadimdan mavjud bo'lib, ular tomoshaxonalar, janggohlar, har xil o'yinlar o'tkaziluvchi joylar va h.k.lardir. Bunday maskanlar har bir millatning tarixiy kelib chiqishi, urf-odat va an'analari, udumlariga xos ravishda turlicha bo'lib kelgan. Ulardan biri, tinch va osoyishta, so'lim go'sha hisoblanmish madaniyat va istirohat bog'lari hisoblanadi. Ushbu maskanlar o'zining yuzaga kelishi va davrlarga mos tarzda rivojlanish tarixiga ega.

Yurtimizning davlat mustaqilligi davriga kelib, madaniyat va istirohat bog'lari ham jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari kabi xalqning ong-tafakkuriga, talab-istiklariga mutanosib tarzda o'zgarib bordi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng xalqning madaniy va ma'naviy hordiq olishi uchun yetarli sharoitlar yaratish bo'yicha ko'pginaqonun hujjatlari qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 26-may kuni "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-sonli farmonni imzoladi.

Yuqorida keltirilgan farmonning asosiy yo'nalishlaridan biri: "Madaniyat va san'at muassasalari, teatrlar, muzeylar, badiiy

jamoalar, madaniyat va aholi dam olish maskanlari, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati, moddiy-texnik bazasi holatini atroflicha o'rganish, ularni ta'mirlash va zarur jihozlar, musiqa asboblari bilan ta'minlash, samarali ijodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish..." hisoblanadi.

Bundan tashqari, madaniyat va istirohat, ko'ngilochar bog'larni qayta ta'mirlash va yangilarini barpo etish to'g'risida ham boshqa ko'plab hujjatlar qabul qilingan va yangi dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi kunda poytaxtimiz Toshkent shahrining o'zida 10 dan ortiq madaniyat va istirohat bog'lari faoliyat olib bormoqda. Bu madaniy-ma'rifiy, ko'ngilochar maskanlarning vazifalari nimalardan iborat, ularning tuzilishi, aholiga ko'rsatadigan madaniy-ma'rifiy dastur yoki xizmatlar turlari nimalardan iboratligi ularning tegishli nizomida aniq belgilangan.

Madaniyat va istirohat bog'lari har bir davrda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, o'sha davr madaniyatining yuksak yutuqlarini o'zida mujassam etganligi bilan ahamiyatlidir.

Madaniyat va istirohat bog'lari hududi va ularda joylashtiriladigan obyektlar bo'yicha qator talablar ishlab chiqilgan bo'lib, aynan ushbu talablarga javob beruvchi muassasalarga madaniyat va istirohat bog'i maqomi beriladi. Quyidagilarning asosiy obyekt sifatida mavjud bo'lishi shartligi belgilab qo'yilgan: madaniyat va istirohat bog'i joylashadigan hudud ko'p yillik daraxtzor bo'lishi, zamonaviy dizayn asosida obodonlashtirilgan, yurish yo'lkalari qulay, yo'lka bo'y lab o'rindiqlar joylashtirilishi kerak. Bog' hududida turli yoshdagi dam oluvchilar uchun mo'ljallangan attraksionlar, muzqaymoq va salqin ichimliklar bilan savdo qiluvchi shaxobchalar eng yangi zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi lozim. Shuningdek, bog' hududida yozgi estrada hamda umumiy foydalanish xonalari bo'lishi maqsadga muvofiq. Madaniyat va istirohat bog'ining hududi o'ralgan, dam oluvchilar uchun kirish va chiqish joylari aholi yashash joylariga mutanosib ravishda qulay bo'lishi kerak. Yoritish, sug'orish, ichimlik suv tizimlari mavsum davomida shay holatda bo'lishi talab etiladi.

Ijtimoiy-maishiy hayotdagi muammolardan biroz toliqqa, uyd o'tirib zerikkan, ko'ngli go'zal tabiat manzaralarini ko'rishni istagan yoki oilasi, do'stlari bilan dam olish, hordiq chiqarish va ko'ngil yozish uchun madaniyat va istirohat bog'iga tashrif buyurgan xalqimiz uchun yuqorida keltirilgan obyektlar, albatta, yetarli deb hisoblash mumkin.

Madaniyat va istirohat bo'g'lariga asosiy obyektlardan tashqari tavsiya etiladigan quyidagi qo'shimcha obyektlar mavjud bo'lishi ham bugungi kun zamonaviy talablari o'sib borishi natijasida e'tirof etilmogda. Bular, suv havzasi va uning faoliyati bilan bog'liq plyaj, yechinish xonalari, qayiq, katamaran va boshqalar, favoralar, savdo va umumiyl ovqatlanish shaxobchalari, juda katta bo'limgan sport maydonchalari (mini futbol, voleybol, tennis, badminton, yengil atletika, shaxmat-shashka va boshqa), statuya, haykal, byust va boshqa mahobatli tasviriy san'at asarlari, ko'chma sirk faoliyati uchun maydon, bolalar maydonchalari, shahar va boshqa obektlarning mini maketlari, bolalar shaharchalari, jonli burchak, to'garak va jamoalarning mashg'ulot xonalari, issiqxona, ko'chatxona va gulxona, bog' faoliyati bilan bog'liq ishlab chiqarish sexlari, ustaxonalar, raqs maydonchalari, ko'rgazmali targ'ibot va tashviqot vositalari, suratxonalar, foto-video xizmati, o'yinchoq va kichik harakatlanish vositalari (bolalar velosipedi, mashinalari va h.k) ijarasi, qiroatxona, kompyuter o'yinxonalari, internetkafe va boshqalar.

Agarda madaniyat va istirohat bog'laridagi asosiy va tavsiya etilgan obektlardan yanada unumliroq foydalanilsa, bog'ga tashrif buyuruvchi dam oluvchilarining nafaqat ko'nglini ko'tarish, balki ularga tarixiy va hozirgi zamon ma'lumotlarini ham ulashish, mehmonlar zehnini yanada o'tkirlash, farzandlarimizning ilmga chanqoqlik darajasini oshirish imkoniyati tug'iladi. Bu imkoniyatni amalga oshirish uchun ba'zi taklif va mulohazalarnie'tiboringizga havola etaman.

Bog' ma'muriyatida ma'naviyat bo'limi mavjud bo'lib, aynan shu bo'limning xodimlari sonini ko'paytirish orqali yangi ish o'rirlari yaratilib, sohaga oid ta'lim muassasalarini tamomlayotgan yoshlarga imkoniyat eshiklarini ochish mumkin. Ma'naviyat bo'limining

faoliyatini tubdan o'zgartirish lozim. Ma'naviyat bo'limi tomonidan yoz mavsumining har bir haftasi uchun aniq maqsad sari yo'naltirilgan haftalik yoki bog' hududida biron mavzuga bag'ishlangan kichik bayram tomoshalari, uchrashuv, forum va estafetalar tashkil etiladi. O'tkaziladigan bayram mavzularini bog'ga doimiy tashrif buyuruvchi dam oluvchilar orasida so'rovnama olib borish orqali ham aniqlash mumkin bo'ladi.

Buning uchun yuqorida keltirilgan bog'ning asosiy obyektlari safiga kiruvchi yozgi estrada yoki amfiteatr va tavsiya qilingan obyektlar safidagi sport maydonchalari (mini futbol, voleybol, tennis, badminton, yengil atletika, shaxmat-shashka, va boshqa), raqs maydonchlari, shahar va boshqa obektlarning mini maketi, ko'rgazmali targ'ibot va tashviqot masalalari, ko'chma sirk faoliyati, to'garak va jamoalarning mashg'ulot xonlarini asosiy obyekt sifatida qabul qilib, ular faoliyatini yo'lga qo'yish lozim. Agarda to'garak va jamoalarning mashg'ulot xonasini tayyorlab, to'garakka qatnashuvchi bolalar va o'smirlar sonini yetarli darajada oshira olinsa, o'tkazilajak bayram tomoshalari estafeta va forumning tashkil etilishi uchun tashqaridan professional yoki havaskor mutaxassislar qidirish muammosidan qutulib, aynan to'garak jamoalari va ularga rahbarlik qilayotgan ustoz-murabbiylardan tashkiliy guruhni shakllantirish imkoniyati ham mavjud. Barcha tashkiliy masalalar aniq reja asosida olib borilishi kerak. Masalan, madaniyat va istirohat bo'g'larida yozgi mavsumning boshlanishi aynan mart oyiga to'g'ri keladi. Xalqimizga juda yaxshi tanish bo'lgan "Navro'z" umumxalq bayrami ham mart oyining 21-sanasida nishonlanadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan mamlakatimizda Navro'z bayrami faqatgina 21-mart kunida nishonlanmasdan, aynan shu oyning birinchi sanalaridan goh u, goh bu mahallalarimizda sumalak va halim pishirish marosimlari boshlanib ketadi. Chunki xalqimiz bahor fasliga Navro'z elchisi sifatida qarashadi. Mamlakatimizdagi har bir madaniyat va istirohat bog'lari va ko'ngilochar maskanlarda "Xush kelding yurtimga, Navro'z" mavzusi ostida har xil tomoshalar, yozuvchi-shoirva qo'shiqchilar bilan

uchrashuvlar, forum-marafonlar, estafetalar, qiziqarli savol-javoblar, sport maydonchalarida kichik musobaqalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Joylarda, mehmonlar yoshiga qarab o'tkazilayotgan savol-javob, sport maydonchalaridagi kichik musobaqalar, yozgi estrada sahnasida bo'layotgan tomosha yoki uchrashuvlarda o'zining bilimi, odobi, chaqqonlik va ziyrakligi bilan ajralib turgan bolalar va o'smirlar, kerak bo'lsa katta yoshli insonlarni g'olib deb topib, ularga sovg'alar ulashish orqali madaniyat va istirohat bo'g'lariga tashrif buyurgan mehmonlar ko'nglini yanada ko'tarish, shu bilan birga mehmonlar sonini sezilarli ravishda oshirish mumkin.

Yurtimizdagi madaniyat va istirohat bog'lari aynan shu tarzda mavsum davomida har oy yoki hafta uchun mavzu belgilab olishi va yuqorida tavsiya qilingan Navro'z mavsumi misolida turli ma'naviy-ma'rifiy, ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish lozim bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan takliflar mukammal, aniq reja asosida amalga oshirilsa, hozirgi zamonaviy texnologiyalar asrida aholini sun'iy hayotdan, telefon, televizor, umumiyligida internet olamidan yoki elektron texnologiya qaramligidan olib chiqishimkoniyati tug'iladi. Bolalar, o'smirlar, yoshlar va katta yoshdagagi aholimiz zehnini yanada kuchaytirish, tarbiyasini yaxshilash, tarixiy va hozirgi zamon iqtisodiy-siyosiy ma'lumotlarni ulashish, oilaga, vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini yuksak darajaga ko'tarish mumkin. Yosh avlodni faqatgina o'quv muassasalarida ta'lim olish sifatini oshiribgina qolmay, ko'ngilochar maskanlarda ham shu ishni amalga oshirish imkoniyati tug'ilib, shu bilan birga katta yoshli aholining olgan bilimlarini yanada mustahkamlab, ularni komil inson darajasiga olib boruvchi yo'llarni kengaytirgan bo'lamiz. Komil inson tarbiyasi hamma davrlarda muhim ijtimoiy vazifa hisoblanib, yaxshi tarbiya ko'rgan insonga jamiyat boyligi deb qaralgan. Inson ziynati u egallagan bilimlar bilan o'lchanadi. Alisher Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o'rinni egallaydi va o'z orzusidagi yetuk shaxsni asarlarining qahramonlari timsolida gavdalantirishga urinadi. U komil inson aqli, axloqli, bilimli, ijodkor, qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar,

saxovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog'lom, jismonan baquvvat, mard va jasur bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini uqtiradi.

Komillikning asosini ilmli bo'lishda deb hisoblasak, barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir.

Xulosa qilib aytganda, odamlar turmush tarzini yaxshilash, o'z insoniylik fazilatlarini yuksak darajaga olib chiqish uchun kurashar ekan, bu jarayonda ba'zi qiyinchiliklarga uchrashi aniq. Bunday hollarda inson ko'ngil yozishi yoki hordiq chiqarishi uchun madaniyat va istirohat bog'lariga tashrif buyuradi. Madaniyat va istirohat bog'larida dam oluvchilar ko'nglini ko'tarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va ijtimoiy-maishiy muammolariga yechim topish, uning zehnini yanada o'tkirlash muhim vazifamizdir. Bir so'z bilan aytganda, madaniyat va istirohat bog'larini ko'ngilochar maskan va bir vaqtning o'zida jonli hamda qiziqarli ilm dargohiga aylantirish lozimdir. Maqsadimiz, ushbu dargoh nainki damolish va ko'ngilochish, balki ma'naviy maslak va ozuqa beruvchi go'shaga aylansin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz". – Toshkent "O'zbekiston" 2016
2. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent "O'zbekiston" 2017
3. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston – yoxud ahloq".
4. A.R.Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolganyodgorliklar". Tanlangan asarlar, 1 tom Toshkent "Fan" 1960.
5. <http://www.lex.uz>

Ma'ruf Ismatullo o'g'li Qodirov,  
2-kurs "Aktyorlik san'ati: drama teatri va kino  
aktyorligi san'ati" mutaxassisligi magistranti.  
Ilmiy rahbar: Nasrullo Qobilov.

## SO'Z AKTYORNING ASOSIY QUROLI SIFATIDA: IJOD VA IJRO MASALALARI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada aktyor nutqi jamiyatda nutq madaniyatini qanday shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi, nutq texnikasi bo'yicha va tilga e'tibor berish har jihatdan dolzarb masali hisoblanishi bo'yich qisqacha fikr va mulohazalar keltirilgan.

### **Аннотация**

В этой статье дается краткий обзор того, насколько важна речь актера в формировании речевой культуры в обществе, и насколько актуальными во всех отношениях являются речевая фокусировка и языковое внимание.

### **Annotation**

This article provides a brief overview of how actor speech is important in shaping speech culture in society, and how speech focus and language attention are topical issues in all respects.

### **Kalit so'zlar**

Kommunikativ, hunarmand, plastika, majoz, mistika.

### **Ключевые слова**

Коммуникативная, художественная, пластическая, "ма-  
жоз", мистика.

### **Keywords**

Communicative, artisan, plastic, "majoz", mysticism.

Jamiyatda har bir ijtimoiy qatlam, tabaqa yoki toifaning o'ziga xos yashash tarzi, saviyasi, dunyoqarashi, fikrlashi, g'ururi, kayfiyati, jamiyatdagi vazifasi bo'ladi. Bu masala bilan tarixda ko'pgina allomalar shug'ullangani bizga ma'lum albatta. Bu kabi toifalanishda insonlarning birinchi ko'zga tashlanib turadigan jihat ularning tili va nutqida namoyon bo'ladi. Bizningcha, qator fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan, birod nutqiy kamolatga erisha olmagan

odamni shakllangan inson toifasiga kiritish biroz qiyin. Chunki til insonning madaniy va ma'naviy darajasini uning o'zi yashab turgan borliqqa: tabiatga, jamiyatga munosabatini aks ettiruvchi ko'zgudir. Masalan, hayotda o'z nutqlari ordali tilimizga sayqal beruvchi oddiy shaxslar bilan birga unga (ya'ni tilga) e'tiqodsiz va e'tiborsizlik bilan yondashuvchi til egalarini yoki o'zlarini yetuk inson; qomusiy alloma deb biluvchi ziyolilar qatlamin ham kuzatamiz.

XX asr boshlariga kelib dunyoning barcha borliq narsalariga bo'lgan munosabatlarning o'zgargani kabi so'z san'atiga nisbatan ham qarashlar o'zgardi. Endi uni tabiatga taqlid (Arastu), ob'ektiv borliqning sub'ektiv ifodasi (Hegel), kishilar o'rtasidagi tuyg'u yetkazish vositasi (L.Tolstoy) deb bilishlik bilan cheklanmay so'zning kommunikativ imkoniyatlarini birinchi navbatga olib chiqishlar bo'ldi. Garchi o'zbek shoirlari tilni "vositai robitai olam miyondir" (Avaz) deb atagan bo'lsa-da, G'arbdagi mavjud qarashlar o'zbek nazariy tafakkuri tarziga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymadidi. "Tanglayi mumtoz adabiyot an'analari asosida ko'tarilgan" professor Abdurauf Fitrat ham dastlabki asarlarida so'z san'atining qimmatini uning hissiy quvvatidan izlagan bo'lsa, zo-yillarning o'rtalariga kelib o'z qarashlarini ovro'pacha andozalarga sola boshladi. Bu esa san'at sohasida ham , xususan, teatr san'atida o'z ifodasini ko'rsata boshladi.

Biz bilamizki, teatr san'atida qahramonlarning fikran to'qnashuvlarida, muddaoga erishish uchun kurashda so'z aktyorning asosiy qurollaridan biridir. Ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda so'zning ma'nosi aniq va ta'sirchan bo'lmos'i lozim. Shu bois teatr san'atida so'zga katta mas'uliyat bilan qarash talab etiladi. «Dramatik asar uchun sahnaviylik muhim bo'lganidek, sahna nutqi uchun ham asosiy shartlardan biri bo'lib, so'z harakatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir personajning nutqi uning ruhiy va jismoniy holatining natijasidir». shu kabi asoslarda, san'at aktyordan tinimsiz mehnat, o'z ustida ishlashni talab qiladi. Bu mehnatni aktyor bilim va aql-idrok orqali amalga oshiradi. Shu bilan birga, aktyorlik tabiatini o'zining asoslangan qonun-qoidalariga ega.

Har bir rol ustida ishlaganda aktyor oddiy qiziqish yoki taxminlarga

emas, aynan ijrochilikda sinalgan usullarga tayanishi kerak. Shundagina u muvaffaqiyatlarga erishadi. Sahna nutqi qonuniyatlarini o'rganishda o'ylaymizki, talabalar azaliy bir ta'rifga e'tibor berishlari shart. Unga ko'ra, aktyor ovozi yaxshi charxlangan, tiniq talaffuzga ega va nutq madaniyati talab-qoidalariga to'la javob bera olsa, demak, u so'zlashuv munosabatida tayyor mutaxassis hisoblanadi. Bundan tashqari, nutq madaniyati texnikasini ham amaliy tarzda to'laqonli egallashi zarur. Ko'pchilik ijodkorlar orasida, "Agar aktyor organik xatti-harakatni to'g'ri bajara olish xususiyatiga ega bo'lsa, u holda qolgani sahnada o'z-o'zidan sodir bo'ladi", degan fikr mavjud. Biroq, unutmaslik lozimki, sahnada partnyorga ta'sir o'tkazish uchun, avvalo, so'zlarni to'liq va adabiy til qonuniyatlariga muvofiq talaffuz etish zarur. Xatti-harakatning aniq maqsadga yo'naltirilgani, mantiqiyligi esa ifoda qilinayotgan nutq urg'ulariga ta'sir etib, ovozga va tovushga kerakli sayqal beradi. Nutq aktyorning asosiy quroli va u sahnada aynan mana shu qurolga tayanadi. Ba'zi aktyorlar nutqidagi nuqson va kamchiliklarni yo'qotish uchun quyidagi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqli: 1) unli va undosh birikmali so'zlar; 2) tez aytish; 3) ertaklar; 4) hikoyalari; 5) kichik she'rlar.

San'atkorni san'atkor bo'lib yetishishida yana bir muhim narsalardan biri – tasavvur va fantaziyadir. Tasavvur va fantaziyani ishga solish, avvalo, aktyorni kelajakda professional teatr sahnasida turli xil xarakterlar yaratishida muhim o'rinni tutadi. Chunki bo'lajak aktyorning tasavvuri uning ilk qadamidanoq aktyorlik mahoratida nutqiy vositalarning o'rni kengayib borishi kerak. Fantaziya ham tasavvur bilan birga mashqlar yordamida, qolaversa, xalq ertaklarini ko'plab o'qish bilan o'stirib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. K.S. Stanislavskiy fikriga ko'ra, "Hunarmand aktyor umumaktyorlik nutqi va plastikasining vazifasi og'zaki ovozni, dixsiyani va harakatlarni oliyjanob qilish, ularni chiroyliroq ko'rsatish, sahnaviy effekt va obrazli ifoda ta'sirini kuchaytirishdan iborat. Aktyorning hunarmandga xos nutqi va plastikasi, ko'r-ko'rona effektga, soxta oljanoblikka olib keladi, bulardan faqat teatrga xos bachkana go'zallik kelib chiqadi. Shartli shtamp kechinmaning o'rnini bosolmaydi. Yana shunisi

yomonki, shtamp yelimday yopishqoq, ajratib bo'lmaydi."

Yangi davrda teatr san'atida ham ijodiy izlanishlar kuchayib, teatrlar o'z faoliyatini xalqimiz ijodida va jahon san'atida mavjud uslublar va oqimlar asosida qurish, realistik uslubdan tortib, majoziy va mistik tasvirgachabo'lgan rang-barang vositalarni qo'llashyo'lidan bormoqda. Mumtoz asarlarni sahnalashtirishda an'anaviy yechimlardan qochib, erkin talqin etish (tabdil uslubi, majoziy-falsafiy yechim kabi) butun biryo'nalish tusini oldi. Tarixiy mavzuni ishlashda chinakam uyg'onish yuz berdi. Zamonaviy mavzularni tadqiq etishda dramaturglar va teatr jamoalari hayotning barcha jabhalariga tobora chuqurroq kirib borgan holda maishiy yechimlardan dolzarb ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muammolarni ko'tarib chiqishga dadil kirisha boshlaganlarini va bunda badiiy so'z, xususan o'zbekt tili imkoniyatlaridan ham keng foydalanilayotganligini ko'rish mumkin.

Biroq badiiy so'zni his qilish masalasi ikki tomonlama ekanini anglash kerak. Biri aktyorlar jamoasiga daxldor bo'lsa, ikkinchisi tomoshabinlarga aloqadordir. Chunki, badiiy so'z mohiyatini tomoshabin inkor etib ta'sirlanmas ekan, aktyorning qancha bilishi va amalda qo'llay olishi ham ahamiyatsiz bo'lib qolishi tayin. So'zning o'z va ko'chma ma'nolarini tomoshabin ham ilg'ammas ekan mantiq buzilishi tabiiy. Shu boisdan ham sahna tili va sahna nutqi oddiy maishiy nutqdan sifati va ta'sir kuchi bilan ajralib turadi. To'g'ri nafas olmaslikning ovozga ham ta'sir qilishi tabiiy. Fikrning tasdig'i, muhri shubhasizki, yuz-ko'zdagi imo ishoralar va qo'l harakatlaridir. Boshqacha aytganda, bu tana tili bilan tushuntirish demakdir. Shu o'rinda "qo'llar fikrni to'ldirishini" (K.Stanislavskiy), "qo'llar inson tanasining ko'zlari" (Yevg. Vaxtangov) ekanligini unutmaslik kerak. Albatta, bir tomondan qaraganda, aktyor nutqida bu mulohazalar noo'rindek tuyuladi. Notiq nutqida buni qabul qilish mumkin. Chunki, noverbal vositalarsiz u nutq ta'sirini to'la ifoda eta olmaydi. Aktyor nutqida u o'zini emas o'zgani o'ziga aylantirib, o'zini o'zgaga aylantirib ijro etadi. So'z, harakat va ruhiy holatga kirishilganda, his etganda aktyor noverbal vositalarni ixtiyorsiz tarzda qo'llaydi. Qizig'i, bir aktyor muayyan holatda o'z dublyorini o'sha holatdagi noverbal

vositalarni qo'llamasligi ham mumkin. Bir aktyorga shu holat, xattiharakat yarashishi dublyoriga esa yarashmasligi mumkin. Ular har bir obrazga o'z nazari, o'z gavda tuzilishi, o'ziga xos noverbal vositalarni qo'llashi bilan yondoshadi. Barchasida tomoshabinning nigohi, qabul qilishi muhim mezon sanaladi

Shu o'rinda aytish kerakki, aktyor nutqi va notiq nutqi borasida ham chalkash, bir biriga zid fikrlar ham yuradi. Ularning mushtarak va farqli jihatlarini e'tirof etgan holda, ta'bir joiz bo'lsa, shunday taqqosni keltirish o'rinlidir. Notiq nutqi va sahna (aktyor) nutqi ta'sirchanlikni ta'minlashda har ikkalasi bir-birini to'ldiradi, boyitadi. Lekin birida ijod, ikkinchisida ijro muhim rolo'ynashini yoddatutish kerak. Avtobus va tramvayni ko'z oldingizga keltiring. Avtobusni boshqarishda rulni o'ng-u so'lga burib harakatlantirish, qayrilish mumkin. Tramvayni esa yotqizilgan temir yo'li(rels) va ustidagi elektr manbai(simlarisiz) uning harakatini tasavvur qilish mushkul. Faqat harakatning sekin va tezligigina, uning izmida. Notiq nutqi avtobus haydovchisiga, aktyor nutqi esa tramvay boshqaruvchisiga o'xshaydi.

Ma'lumot o'rnida aytadigan bo'lsak, qadimgi rimliklar, yunonlarning "Ommaga non va tomosha bering" degan mashhur iborasi adabiy-ilmiy manbalarda ko'p bor keltiriladi. Bu uning moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirish zarurligini bildiradi. Shu o'rinda qanday non va qanday tomoshani qanday usulda berilishi maqsadga muvofiq degan masala ko'ndalang turadi. Bugungi kunda yuksak bilimli intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti ekan, teatr san'ati ham bu borada o'zining munosib hissasini qo'shishi kerak.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.K.S. Stanislavskiy. Aktyorning o'z ustida ishlashi. Yangi asr avlodi, toshkent. 2011.
- 2.San'at ta'limi, Yilnomalar, II jild, Toshkent. 2007



**Shaxnoza Oripjonovna Ubaydullayeva,**  
2-kurs “San’at nazariyasi va tarixi: kinoshunoslik”  
*mutaxassisligi magistranti*  
**Ilmiy rahbar:** s.f.n., professor v.b. A.Z.Rizayev

## HUJJATLI KINO – HAYOT KO‘ZGUSI

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada kino san’atining o’ziga xos yo’nalishi – hujjatli kinoning paydo bo’lishi, tarixiga nazar tashlash, uning asoschilari (Robert Flaerti, Dziga Vertov, Xudoybergan Devonov, Malik Qayumov) ijodini, dunyo va o’zbek hujjatli kinosi rivojiga qo’shgan hissasi, sohaga kiritgan yangiliklarini eslash barobarida, uning xalqimizning, xususan, yoshlarning hayotida tutgan o’rni, ahamiyati haqida fikrlar bayon qilinadi.

### **Kalit so’zlar**

Hujjatli film, rejissyor, ijodkor, kinohujjatchi, arxiv, kinoasar, kinofestival, kino, lavha, kinoxronika.

### **Аннотация**

В данной статье речь идёт о возникновение одного из особых жанров киноискусства - документальное кино, взгляд на прошлое этого жанра в творчестве его основателей (таких как Роберт Флаэрти, Дзига Вертов, Худойберган Диванов, Малик Каюмов), об их вкладе в развитие мирового и узбекского документального киноискусства. Также рассматриваются новшества этой сферы, внесенные этими кинодокументалистами, их роли и значения в жизни нашего народа и особенно, молодого поколения.

### **Ключевые слова**

Документальный фильм, режиссёр, творец, кинодокументалист, архив, кинопроизведение, кинофестиваль, кино, кадр, кинохроника.

### **Annotation**

This article focuses on the origins and history of documentary filmmaking, the work of its founders (Robert Flaerti, Dziga Vertov, Khudoibergan Devonov, and Malik Qayumov), his contribution to the development of world and Uzbek documentary cinema, and his innovations in the field. Views on the role and importance of our people, especially young people.

### **Key words**

Documentary, director, creator, documentary filmmaker, archive, film, film festival, cinema, still, newsreel.

“ Hayot bizdan iste'dodliroq... ”Ha, chindan ham hayot insoniyatdan iste'dodliroq. Dunyoning mahoratli kinohujjatchilarining ushbu mashhur iborasi naqadar to'g'ri aytilgan. Hayotning turli muyulishlarida biz guvoh bo'lgan hayotiy voqealari xodisalarning muallifi barchamizdanda qudratli, benazir zotning o'zi axir, shunday emasmi? 1895-yilning 28-dekabrida Fransiyalik aka-uka Lyumerlar tomonidan tomoshabinlar e'tiboriga havola etilgan ilk film hujjatli film edi. Tasvirdagi La Siota stansiyasiga kirib kelayotgan poyezdni ko'rgan tomosha zalidagilar paravoz go'yoki ularga qarab bostirib kelayotgandek beixtiyor o'rindiqlardan turib, orqaga qarab yuguradilar. Sababi ular harakatlanayotgan suratni ilk bor ko'rayotgan edilarda. Ular uchun bu chin ma'nodagi mo"jiza edi. Qariyb bir yarim asrdan buyon ushbu mo"jizakor san'at kino ixlosmandlarini o'ziga rom qilishdan to'xtamadi. Dunyoda ko'plab go'zal va betakror san'at turlari mavjud. Ularning har biri o'zgacha olam. Biroq ularning hech biri kinochalik qudratli ta'sir kuchiga ega emas. Sababi kino barcha san'at turlarini o'zida mujassam qila oladi. Yuqori saviyada, mukammal, hayotiy ishlangan film kishiga ma'naviy ozuqa beribgina qolmay, u inson hayotini tubdan o'zgartirib yuborish kuchiga ham ega. Ayniqsa hayotiy ishlangan filmlarni ko'rganda inson qattiq ta'sirlanadi. Chunki filmdagi ba'zi kadrlar, voqealar insonga o'z hayotining u yoki bu lahzalarini eslatadi. Demak, film xoh komediya, xoh tragediya janrida bo'lsin, u hayotiyligi bilan go'zal, hayotiyligi bilan ta'sirli va qimmatlidir. Rejissyor biron bir filmga aktyor tanlashdan avval ssenariyni mukammal o'rganadi va qahramonlarning xarakteri, hayotiy tajribasi va hokazolarga qarab aktyor tanlaydi. Ammo hujjatli kino ustalari badiiy kino ijodkorlaridan farqli o'laroq syujet yoki xarakater o'ylab topishlariga, dialoglar yozishlariga deyarli hojat yo'q. Unga aktyor ham, dekoratsiyachi ham, pardozchi ham shart emas. Uning manbasi – hayotning o'zi. Aynan hayotning o'zi u uchun kerak bo'lgan gohi quvonchli, gohida ayanchli, ba'zida esa insonni uzoq o'yga toldiradigan betakror lahzalarni hadya etadi. Kinohujjatchi o'sha lahzalarni o'z vaqtida ilg'ay olishi va vaqtini boy

bermay kameraga muhrlay bilishi lozim. Ana shunda ijodkor hayotni boricha, ortiqcha ranglarsiz, ortiqcha bezaklarsiz muxlislarga yetkaza oladi. Buning uchun esa ijodkordan katta tajriba, ziyraklik, tezkorlik va eng muhimi kasbiga bo'lgan muhabbat va sadoqat talab qilinadi. Chinakam kinohujjatchilarni - hayotga nisbatan o'z qarashlariga ega bo'lgan jasur, dadil, qo'rmas qahramonlar degan bo'lardim. Xo'sh, kinoning ushbu turi qachon, qanday paydo bo'ldi? Umuman "Hujjatli kino" degan nomning kelib chiqish tarixi qanday?

"Hujjatli" degan terminni ushbu janrga moslab ishlatishni birinchi bo'lib Angliya hujjatli kinosining asoschilaridan biri bo'lmish Jon Girson (1898-1991) (Kelib chiqishi Shotlandiyalik bo'lgan montaj ustasi, operator, ssenarist, kinoprodwyser, kinorejissyor-kinohujjatchi) 1926-yilda Robert Flaertining "Janub dengizlari Moanasi" filmiga yozgan taqrizi orqali boshlab berdi deyish mumkin. Bunga qadar ushbu terminni fransuz jurnalistlari hamda tanqidchilari sayohat jarayonida olingan kadrlarga nisbatan ishlatishardi.

Robert Flaerti (1884-1951) – amerikalik kinorejissyor, hujjatli kino asoschilaridan biri. Uning shimolda yashovchi Eskimoslar hayoti haqida hikoya qiluvchi "Shimollik Nanuk" filmi uzoq muddatli kuzatuv usuli orqali yaratilgan birinchi kinokartina edi. Flaerti o'z filmlarining qahramonlarini o'zları uchun odatiy bo'lgan sharoitlarda ko'rsatib bera oldi, aynan shu sababdan ham film qahramonlari ekranda g'oyat tabiiy tarzda gavdalandilar: bu buyuk ijodkorning ishlash uslubi, asl maqsadi ham shu edi. Shundan so'ng Flaerti ko'plab hujjatli filmlarning muallifiga aylanadi. Shuningdek u "Janub dengizlari Moanasi" (1926), "Aranlik odam" (1934), "Luizin hikoyasi" (1948) va yana ko'plab ajoyib kartinalarni yaratdi.

Dunyodagi eng nufuzli hujjatli kino festivallaridan biri sanalmish "Flaertiana" festivali 1995-yildan buyon Rossiyaning Perm shahrida o'tkazilib kelinadi. Ushbu kinoanjuman 2006-yilda halqaro nufuzga ega bo'ldi va shundan beri har yili jaxon miqyosda nishonlanadi. Festivalning asosiy mukofoti "Oltin Nanuk". Festivalning aynan Robert Flaertining nomi bilan bog'liq ekani ham beziz emas.

U o‘zining “Shimollik Nanuk” filmi bilan hujjatli kino tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

Dunyo kinematografiyasida hujjatli kino asoschilaridan sanalmish yana bir buyuk ijodkor rossiyalik kinorejissyor, ssenarist, kino nazariyotchisi Dziga Vertovdir (1895-1954). Uni zamonaviy kinematografiya san‘atining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lmish hujjatli kinoning asoschilaridan biri deb dunyo tan oldi. Inson ruhiyatini o‘rganish ehtimol Vertovni ommaga ta’sir qilish vositalarini izlashga olib keldi: Vertovning ijodiy yo‘li mafkuraga asoslangan edi, deyish mumkin. (U Petrograd psixonevrologiya institutini ham tamomlagan). Masalan, u hujjatli kinoning vazifalari haqida shunday deb yozadi: “Hayotni ko‘rish va eshitish, uning tuyulish va yoriqlarini sezish, individual harakterli hayotiy xodisalarни tartibga solish, xulosa chiqarish kabilar – bu bevosita bizning vazifamizdir...”.

Uning “Kino-ko‘z” (“Kino-glaz”) (1924) hamda “Kinoapparat ushlagan odam” (“Chelovek s kinoapparatom”) (1929) nomli filmlari dunyo kinematografiysi tarixida eng mukammal ishlangan kinoasarlar sifatida e’tirof etildi. Dziga Vertovning “Kinoapparat ushlagan odam” (“Chelovek s konoapparatom”) filmi – jahon hujjatli kino tarixidagi eng mashhur filmlardan biridir. Rejissyor SSSR dagi birinchi ovozli filmni suratga oldi, slou-mi – ya’ni, sekinlashtirilgan harakat effektini qo’lladi va kinematografiyada xaligacha qo’llanilayotgan turli usullarni o‘ylab topdi.

Kinoshunos olimlar ko‘pincha Dziga Vertovni Robert Flaertining muxolifi, ya’ni ularni qarashlari, ish uslubi jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ijodkorlar deb ta’riflashadi. Bu ikki buyuk ijodkorning har ikkalasi ham, qanday uslubda ijod qilganidan qat’iy nazar dunyo kinematografiyasining, xususan hujjatli kino yo‘nalishining rivojlanishi va san‘at darajasiga ko‘tarilishiga ulkan hissa qo’shdilar.

Hujjatli kino 1895 yilda yaraldi va dunyo miqyosida odim qadamlar bilan rivojlandi. Ko‘plab to‘sqliarga qaramay hujjatli kino bizning mintaqada ham dunyo kinematografiyasidan ortda qolmagan holda rivojlanib bordi. Bunda buyuk zamondoshimiz, o‘zbek kinosining

asoschisi, birinchi o‘zbek kinooperatori – Xudoybergan Devonovning xizmati beqiyosdir. U o‘zining ilk hujjatli-xronikal filmlarida o‘zbek xalqining hayotini, urf-odatlarini, Xorazm manzaralarini aks ettirishga intilgan. 1929 yilda suratga olingan “Ishchi ayollar”, “Sho‘rko‘l”, “Ko‘za”, “Chig‘ir”, “Tuzkon”, “Paxta karvoni”, “Xorazm dalalarida”, “Degish ofati” kabi hujjatli film va syujetlari shular jumlasidandir. “Turli kasb egalari qiyofasini tasvirlashda esa suratkash ularni yaqindan suratga olib, ish jarayonida aks ettirishga alohida e’tibor qaratadi. Bunday suratlarning ”qahramon”lari aksar holda biror joyda o‘tirgan bo‘lishadi (“Ip yigiruvchilar”, “Yog‘ sotuvchilar”, “Sahroda yer o‘choq” suratlari). Hatto “Xon ovchisi” asari “qahramon”i ham ot ustida o‘tirib, ikki qushni ushlagan holda tasvirlangan. Bu hol X.Devonovning, umuman, zamondoshlarining suratlarini olishni emas, balki ularning muayyan sohaga mansub kishilar sifatida obrazini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganidan dalolat beradi”. XX asr mo‘jizasi sanalmish fotografiya va kino san’atining zaminimizga kirib kelishi aynan shu buyuk bobokalonimiz nomi bilan bog‘liqdir. Agar bu san’atga oshifta insonning intilishlari, sa’y-harakatlari bo‘lmaganida kino atalmish mo‘jiza zaminimizga erta kirib kelmagan bo‘lardi ehtimol. Shubhasiz, bu buyuk ishlarning zamirida fidoiylik va san’atga bo‘lgan cheksiz muhabbat yotadi.

“Otasi tufayli Moskva va Peterburg safarida bo‘lib, u yerda “sinematograf jinnisi”ga aylandi-qoldi. Peterburgdan qaytishida esa O‘zbekistonga birinchilardan bo‘lib gramofon, fotoapparat va “Pate” rusumli kinoapparatni – foto va fototexnikaning bu uch mo‘jizasini olib keldi. Xudoybergan har qanday qiyinchilik va do‘q-po‘pisalarga qaramay, o‘zi tanlagan yo‘ldan og‘madi. U Xivadagi me’moriy yodgorliklar, bozor manzaralari, bolalar hayoti lavhalarini lentalarga muhrlab, ularni ko‘cha va maydonlardagi o‘zi tashkil etgan «ochiq kinoteatr»larda namoyish etdi. Bu ham ma’rifatni targ‘ib qilish, xalqda ma’rifatga nisbatan samimiyligi mehr-muhabbat uyg‘otish namunasi edi. Taniqli kinoshunos Hamidulla Akbarovning taxminicha, X.Devonov bunday kinoseanslarni faqat Xorazm vohasida

emas, balki asr tongida hatto Samarqandda ham o'tkazgan. Agar olim taxmin etganidek, 1901-yil 18-mart kuni kech soat sakkizda Sherdor madrasasi hovlisida boshlangan va hatto N.P.Ostroumovni ham hayratga solgan kinoseansi X.Devonov nomi bilan bog'liq bo'lsa, demak, u mamlakatimizning boshqa shahar-qishloqlarida ham xalqni yangi va istiqbolli san'at bilan oshno etib borgan".

Adabiyotshunos olim, jamoat arbobi ustozi Naim Karimovning hamda o'tkir qalam sohibi, mashhur kinoshunos olim Hamidulla Akbarovning Xudoybergan Devonov haqidagi yuqorida keltirilgan fikrlaridan bu buyuk insonning davr ziddiyatlariga qaramay, o'zbek kinosi uchun qilgan fidokorona mehnatlari haqida bilib olish qiyin emas. O'zbek kinosining ilk qaldirg'ochi, Xorazmlik bu ma'rifatparvar insonning ulug' nomi shubhasiz o'zbek kinosi tarixida mangu qoladi.

Hujjatli kino haqida so'z borar ekan, o'zbek hujjatli kinosini dunyo miqyosiga olib chiqqan, san'at darajasiga ko'targan buyuk kinooperator, rejissyor, kinohujjatchi Malik Qayumov nomini tilga olmaslik mumkin emas. O'zbek hujjatli kinosi, o'zining betakror kinoasarlari bilan dunyoga dong taratgan bu buyuk inson nomi bilan chambarchas bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi. Kinochilar unga "O'zbek hujjatli kinosining otasi" deya nom berishgani ham bejiz emas. M. Qayumovning 1938 yilda suratga olingan "Toshkent to'qimachilik kombinati" nomli filmi Nyu-Yorkda o'tkazilgan xalqaro namoyishda Oltin nishon bilan taqdirlangan.

Kinooperator, kinorejissyor Malik Qayumov 1932-yilda Butunitifoq kinematografiya instituti (VGIK)ni tamomladi. Faoliyatini Toshkent "Sharq yulduzi" kinofabrikasida aktyor hamda kinooperator yordamchisi sifatida boshlagan. Dastlab "Bag'dodda "amerikon paxtasi" (1931), "Qumlikdagi voha" (1932), "O'lim qudug'i" (1939) kabi filmlarda rollar ijro etgan.

Malik Qayumov ijodiy faoliyati davomida 200 dan ortiq hujjatli va ilmiy-ommabop filmlaryaratdi. U o'z filmlarida O'rta Osiyo hayotigaoi id voqealar, uning tabiatini, fani va xo'jalik hayotini aks ettirgan. Toshkent Farg'ona kanali qurilishiga bag'ishlangan «Qudratli oqim», «Toshkent

to‘qimachilik kombinati», «O‘zbekiston geografiyasi», «Ona diyor», «To‘rt darvozali shahar», «Farhod chiroqlari», «Hindiston tongi», «O‘zbekistonimizga keling», «Insoniyatning besh qo‘li», «Vyetnam — mening mamlakatim», «Bahordan bahorgacha», «13 qaldirg‘och», «Toshkent, Zilzila», «Go‘zallikning uch siri», «Samarqand hamisha men bilan», «San’atga baxshida umr», «Oltin Bengaliya», «O‘zbek atlasi», «Paranji», «Sharqda shunday shahar bor» (yoki «Toshkent bilan uchrashuv»), «Bryussel» hamda boshqa ko‘plab qisqa va to‘la metrajli filmlari o‘zbek hujjatli kinosi rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Malik Qayumov nafaqat O‘zbekiston, balki jahon hujjatli kinosi rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi desak xato bo‘lmaydi. U o‘z vaqtida Nyu-York, Venetsiya va Leypsig xalqaro kinofestivallarining katta oltin medallari va «Oltin Kabutar» mukofoti bilan, jahon hujjatli kinosi rivojiga qo‘shgan hissasi uchun maxsus diplom bilan taqdirlangan.

1970-80-yillarda ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar studiyasida VGIK ni hamda Respublika oliy o‘quv yurtlarini tamomlagan bir guruh iste’dodli va istiqbolli yoshlar ish boshlaydilar. Ularning deyarli barchasi Malik Qayumovning shogirdlari edi. Ulardan ayniqsa T.Nodirov, N.Azimov, A.Bobojonov, I.Gibalevich, A.Ismoilov, Sh.Maqsdov, A.Karimov, S.Davletovlar ushbu soxada salmoqli ijod qildilar. Shuningdek, “O‘zbekfilm” kinostudiyasida faoliyat yuritgan A.Hamroyev, E.Eshmuhamedov, A.Ismoilov, U.Nazarov, J.Is’hoqov, E.Xachaturov, A.Qobulov singari tajribali kinorejissyorlar ham o‘zbek hujjatli kinosi rivojiga munosib hissa qo‘shdilar.

1941-yilda Amir Temur qabrining ochilishida ishtirok etgan so‘nggi guvoh, ikkinchi jahon urushi yillarida qo‘lida kinokamerani tutgancha askarlar bilan qadam - baqadam jang maydonlarini kechgan jasur kinooperator, rejissyor, buyuk san’atkor Malik Qayumov chin ma’noda o‘z kasbining fidoiysi edi. Uning fidokorona mehnatlari tufayli millatimiz, xalqimiz tarixi, madaniyati haqida so‘zlovchi bebaholavhalarni ko‘ra olamiz, o‘sha davr nafasini xis qila olamiz. Ekrandagi har bir tasvir o‘zining hayotiyligi bilan go‘zal. Malik Qayumov yaratgan

filmlarni shunchaki hayotiy deb bo'lmaydi, ular buyuk ijodkorning mehridan, iste'dodidan rang olgan hayotning aksidir. Bu fidoiy ijodkor halqimizning tarixi, madaniyati va san'atini jahonga tanitish barobarida, o'zbek hujjatli kinosini nodir asarlari bilan boyitdi va bu yo'nalishda o'ziga xos maktab yarata oldi.

Yuqorida dunyo kinematografiyasida hujjatli kino yo'nalishiga asos solgan, hamda o'zbek hujjatli kinosida o'chmas iz qoldirgan buyuk ijodkorlarni bejiz yodga olmadik. Ularning iste'dodi, kasbiga, xalqiga bo'lgan sadoqati, fidoiyligi yosh kinoijodkorlarimizga o'rnak bo'lishi lozim. Bu ijodkorlar turli jabhada ro'y berayotgan voqeа va xodisalarni, nafaqat mamlakatdagi, xatto dunyodagi muhim yangiliklarni katta mahorat bilan kino tasmalariga muhrlay oldilar va keyingi avlod uchun bebaho madaniy meros qoldirdilar.

Insonning hayot, dunyo, tarix haqidagi bilimlarini ortishida, dunyoqarashining kengayishida hujjatli filmlarning ahamiyati beqiyosdir. Shunday insonlar borki, ular hayotiy yangiliklardan habardor bo'lishdan zavq olish bilan birga bu bilimlarini omma bilan o'rtoqlashishni istashadi. Bu nazаримда chinakam kinohujjatchilarga xos bo'lgan ajoyib xislatlardan biridir.

Biron bir maqolani, yozma interv'yularni yoki kitobni o'qib ham ko'p narsani o'rganish va talaygina ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Lekin bir vaqtning o'zida ham eshitish, ham o'sha real voqeа va xodisalarni tasdiqlovchi lavhalarni ko'rish insonga ming karra ko'proq ta'sir qo'rsatadi, zavq beradi, hayratga soladi. Hujjatli kino aynan shu jihatlari bilan ham ahamiyatlidir. Hujjatli kino yana shunisi bilan qadrlik u ko'pgina mashhur badiiy filmlarning yaralishiga asos bo'lgan. Mashhur o'zbek kinorejissori Shuhrat Abbosovning "Sen yetim emassan", "Toshkent – non shahri" kabi shedevr filmlarining yuzaga kelishida, o'zbek hujjatli kinosining otasi Malik Qayumov yaratgan hujjatli kinokartinalar turtki bo'lgani bunga misol bo'la oladi. Aynan kino tasmalariga muhrlangan xronikal kadrlar va tarixiy fotosuratlarning sharofati bilan buyuk va shonli tariximiz, yurti, halqi uchun jon fido qilgan ota-bobolarimiz, ulug' ajdodlarimiz haqidagi

haqiqatlarga guvoh bo‘la olamiz. Yana ham oddiyroq qilib aytganda tarix ko‘z oldimizda jonlangandek bo‘ladi.

Zamonning shiddat bilan rivojlanishi, taraqqiyotning oldinga odimlashi har bir sohada bo‘lganidek, kino sohasi ijodkorlarining oldiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Sababi zamon bilan birga tomoshabinlarning talab va ehtiyojlari ham ortib boradi. Bu esa kino ijodkorlaridan saviyasi baland, mukammal kinoasarlari yaratishni talab qiladi. Jumladan hujjatli kino yo‘nalishi ijodkorlaridan ham. Buning uchun esa soha vakillari zamon bilan hamnafas bo‘lishlari, izlanishlari, o‘z tajribalarini boyitishlari lozim. Bu yo‘lda chet el kinohujjatchilari tajribasini o‘rganish foydadan xoli bo‘lmaydi nazarimda. Ulardan g‘oya yoki syujetni ko‘chirish emas, aksincha chet ellik ijodkorlardan tomoshabinni jalg qilish, hujjatli kino san’atiga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish sir-asrorlarini o‘rganish kerak. Buning uchun esa hujjatli kino ijodkorlari tinmay izlanishlari, ijod qilishlari va dunyo tajribasini o‘rganishlari lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.S.Haytmatova “O‘zbekiston hujjatli kinosi”, o‘quv qo’llanma, T. – 2008y.
- 2.H.Abulqosimova “Kino asoslari”, o‘quv qo’llanma, Toshkent sh., 2008 y.
- 3.[www.krugosvet.ru](http://www.krugosvet.ru). Universalnaya nauchno – populyarnaya ens. Krugosvet.
- 4.Naim Karimov “Xudoybergan Devonov”, “Jahon adabiyoti”, 2010, 9-son.
- 5.Naim Karimov “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” g., 2003, 32-33-sonlar.

**Shaxnoza Nasrulla qizi Qobilova**  
2-kurs “San’at nazariyasi va tarixi” (kinoshunoslik)  
*mutaxassisligi magistranti*  
**Ilmiy rahbar:** s.f.n., dotsent S.A.Xaytmatova

## FILM G‘OYASINI OCHISHDA MUSIQANING O‘RNI VA AHAMIYATI

### **Annotatsiya**

Musiqa kinoning ajralmas bir bo‘lagidir. Film uchun ishlangan har qanday musiqa tomoshabinni hayratga solishi bilan birqatorda, ekrandagi voqealar rivoji bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tomoshabinning emotisional ta’sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. U filmni to‘ldiradi va boyitadi. Yaqin o‘tmishda ro‘y bergen voqealar asosida suratga olingan “Qo‘qon shamoli” va “Ilhaq” filmlari ham o‘zining musiqalari bilan boshqa kinokartinalarimizdan ajralib turadi.

### **Kalit so‘zlar**

San’at, film, musiqa, kinomusiqa, shovqin, ekran, rejissyor, aktyor, tomoshabin, dekoratsiya, rassom, libos, grim, kompozitor.

### **Аннотация**

Музыка – неотъемлемая часть кино. Любая музыка, созданная для фильма, не только поразит публику, но и будет тесно связана с ходом событий и послужит усилению эмоционального воздействия на публику. Он дополняет и обогащает фильм. Фильмы “Кокандский ветер” и “Ильхак”, основанные на недавних событиях, также отличаются от других фильмов своей музыкой.

### **Ключевое слово**

Искусство, фильм, музыка, киномузыка, шум, экран, режиссер, актер, аудитория, декорация, художник, костюм, грим, композитор.

### **Annotation**

Musical is an integral part of cinema. Any music created for the film will amaze the audience as well as be inextricably linked to the events on the emotional impact of the audience. It complements and enriches the film. The films “Qo‘qon shamoli” and “Ilhaq” based on the recent events also differ from our other cinemas with their music.

### **Key words**

Art, film, music, film music, noise, screen, director, actor, the audience, decoration, painter, costume, grim, composer.

**B**archa san'at turlaridagi kabi kino san'atida ham musiqa san'ati mavjud bo'lib, musiqa kinoning ajralmas bir qismidir. Filmda qo'llanilgan musiqalar tomoshabinlar uchun faqatgina ta'sir qiluvchi vosita bo'lib qolmasdan, balki ular film g'oyasini ochishda, voqeani to'liq anglashda yordam beradi. Har bir filmga asarning mazmun-mohiyatidan, g'oyasidan kelib chiqib kompozitor tomonidan musiqa yoziladi va ba'zi hollarda mavjud musiqa, qo'shiq, xalq kuylaridan ham foydalanish mumkin bo'ladi.

Kinoda musiqani tomoshabin nafaqateshitishi, uni hisqilishi, sezishi, hatto "ko'rishi" ham kerak bo'ladi. Film uchun ishlangan har qanday musiqa tomoshabinni hayratga solishi bilan bir qatorda, ekrandagi voqealar rivoji bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tomoshabinning emotsiyonal ta'sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Tarixzarvaraqlariga muhrlangan voqealarni kino san'atida aksettirsak u reallikdan bir oz uzoqlashishi mumkin. Buning birinchi sababi, film badiiyligini oshirish bo'lsa, ikkinchi sababi sodir bo'layotgan voqealar tizimini yanada ta'sirli qilib tomoshabinga yetkazishdir. Shuning uchun suratga olinayotgan tarixiy kino asarlariga bir muncha o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Rejissyor D.Masaidov suratga olgan, "Qo'qon shamoli" tarixiy shaxs Qo'qon xoni Umarxon hayotini aks ettiruvchi film bo'lib, bu film orqali kino ijodkorlari nechog'lik ko'zlangan maqsadlariga yetishdi ekan? Mening nazarimda bu film rejissyor o'ylagan natijani bermagan, ya'ni kino ijodkorlari o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erisha olishmagan. Buning asosiy sabablaridan biri ssenariyning bo'shligidir. Ssenaryning kamchiliklariga keladigan bo'lsak, filmda Umarxon shaxsi to'laqonli ochib berilmagan. Mohlaroyim (Nodirabegim) ham juda zaif talqin qilingan. Tarixdan bizga ma'lumki, Mohlaroyim juda kuchli inson bo'lish bilan bir qatorda siyosat ishlarini juda yaxshi tushungan. Ammo, bu filmda Mohlaroyim obrazi keraksiz obrazdek tasavvur uyg'otadi kishida.

Bu filmning ijodiy jamoasi haqida gapiradigan bo'lsak, filmni suratga olishda kuchli aktyorlar jamoasi yig'ilgan bo'lib, liboslar, grim, dekoratsiya, filmga bastalangan musiqa har tomonlama mukammal ishlangan.

"Qo'qon shamoli" filmi dekoratsiya, rassom, libos, grim va kompozitor ishlari bo'yicha juda katta ishlar olib borilgan. Film musiqasi voqealarni rivojini, obrazlarni ichki dunyosini keng ochib berishda katta xizmat qilgan. Kinomusiqa kadr ichida va kadr ortida musiqa va shovqinlardan o'z o'rnidagi qo'llanilganligi bois film badiyiligini to'liq ochib berishda katta xizmat qilgan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, "Qo'qon shamoli" keyingi yillarda o'tmishimizni yoritgan tarixiy film bo'lib, rejissyorlar oldiga bundan keyingi tarixiy filmlarni ishlashda, ekranga olib chiqishda ajab emas, yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilsa.

"Musiqa va kino o'rtasidagi munosabatlar muammosi zamonaviy san'at tarixidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Kinomusiqa ikkita asosiy vazifani bajaradi: Illustrativ (kadr ortida) va umumlashtiruvchi yoki voqeani badiiy mohiyatini ochib berish uchun xizmat qiladi. (ko'pincha – sahna ortida). Birinchi maqsad – vizual obrazning musiqiy-sinxron ekvivalentini yaratish bo'lsa, ikkinchi maqsad – tasvirdagi voqealarni ochib berishdan iborat. Kinomusiqaning ikkala turini nisbati til vositalalarining murakkabligi darajasi va ma'lum bir kino turining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi."

Dunyoda sodir etilgan, etilayotgan urushlarning birontasi ham insoniyat uchun yaxshilik keltirmagan, keltirmaydi ham. Jumladan, ikkinchi Jahon urushi ham xalq boshiga ne-ne ko'rguliklarni soldi. U dahshatli, qonli va katta talofatlar keltirgan urushlardan biri bo'lib tarix sahifalariga kirdi. Bu urush ortidan minglaboilalar uylaridan, otalaridan, aka-ukalaridan, yor-birodarlaridan, farzandlaridan judo bo'lishdi. Ana shunday yo'qotishlardan birini yashagan Zulfiya Zokirova besh nafar farzandini urushda qurban bergen. Tarixiy faktlarga va hayotning achchiq haqiqatlariga yo'g'rilgan "Ilhaq" filmi mana shu oila haqida hikoya qiladi.

Umrining so'nggiga qadar kenja farzandini ilhaq kutgan ona timsoli uchun filmga "Ilhaq" deb nom berilishi kinokartinani yutuqlaridan biridir. G'alabaning 75 yilligiga bag'ishlanib suratga olingan "Ilhaq" filmi joriy yilning 9 may kuni tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Kinorejissyor Jahongir Ahmedov o'zining maishiy filmlari bilan yoshlari orasida tanilgan. Rejissyorning ijodidagi eng katta proyekt bo'lgan "Ilhaq" filmi ko'pgina mutaxassislarning va tomoshabinlarning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Filmda birgina oila taqdiri emas balki, butun xalqning og'ir hayoti aks etgan. Oilaboshi bo'lib qolgan, zimmasiga butun ro'zg'or tashvishlarini olgan va yolg'iz boshi bilan farzandlarini oyoqqa turg'azib, uyli-joyli qilgan ona endi farzandlar rohatini ko'rish umidida ekan, hayot Zulfiya aya boshiga kutilmagan zarbalarni hozirlab qo'yadi. Farzandlari birin-ketin frontga urushga ketishadi. Hayot sinovlarida toblangan Zulfiya aya ichidan qanchalik azoblanmasin, qanchalik farzandlarini bag'rida olib qolishni istamasin, sabri va matonati ila bu og'ir sinovga bo'yin egadi. Bu holatni aktrisa Dilorom Karimova Zulfiya ayaning ichki kechinmalariyu, dardini yuksak darajada tomoshabinga yetkazib bergen.

Filmda Zulfiya aya obrazi orqali butun o'zbek ayollarining sabri, matonati, vafodorligi, mehnatkashligi va irodasi ko'rsatilgan. U shu qadar kuchli, bardoshli ayolki, ko'zining oqu-qorasi, jigardiydasi bo'lgan farzandlaridan "qora xat" kelsa ham dod-faryod solmay, og'irlik bilan kelinlariga o'rnak bo'lib, bor kuchini to'plab, hali hayot bo'lgan farzandlarini qaytishiga umid qilishi tomoshabinni larzaga soladi. Inson taqdir oldida ojizdir, Zulfiya aya ham bu ojizlikni qabul qilgan onadir. Tong sahar hamma shirin uyquda ekanida, daryo bo'yiga borib hammadan yashirinchayig'lash sahnasi tomoshabinni juda ta'sirlantiradi. Sinovlarda sinmaydigan, g'am alamlarga bo'yin egmaydigan bo'lib ko'rinishga harakat qilayotgan onaning, mehribon

yuragi naqadar farzand dog‘ida kuyganini his qilish qiyin emas. Filmni tomosha qilayotgan tomoshabin aktrisa Dilorom Karimovani emas, balki, haqiqiy Zulfiya ayani ko‘rib turgandek bo‘ladi. Aktrisa bu rolni qoyil maqom ijro etgani sabab, “ Rejissyor aktrisalarimiz orasidan D.Karimovani tanlab adashmagan” deb, bemalol ayta olamiz.

Filmning yana bir katta yutug‘i, kinokartina uchun bir gektar yerga qurilgan maxsus dekoratsiyalar bo‘ldi, deb o‘ylayman. O’sha davr uylariga mos keladigan qilib qurilgan (turli xil zamonaviy texnikalar ko‘rinib qolmagan) uylar esa, filmda o‘sha davr muhitini yaratishda, aktyorlarni va albatta tomoshabinlarni voqeа sodir bo‘layotgan yillarni chuqurroq his etishiga yordam bergan.

Grim va liboslar ustida ham ancha ish olib borilgani ko‘rinib turibdi. Liboslar davrga mos ravishda tikilgan. Grimlar ham tomoshabinni “grim-ku”, degan fikrdan yiroq tutadi. Bu o‘zbek kino olamida faqat kassabop filmlari shlash uchun e’tiborni qaratish emas, balki chinakam film yaratishga e’tibor qaratilayotganining isbotidir. Kompozitor tomonidan maxsus yozilgan musiqa film g‘oyasini tomoshabinga yetkazib berishga katta hissa qo‘shtigan. Doniyor Agzamov har bir qahramon uchun alohida musiqa bastalagan. Kompozitor o‘z intervusida shunday degandi: “Boshqa filmlarda g‘oyani bu qadar to‘liq his qilolmasdim, kinokartina uchun mos musiqa yarata olarmikanman? degan fikr bo‘lar edi. Bu filmda esa musiqalar o‘zi quyilib kelaverdi”. Bu film uchun yaratilgan musiqalar o‘z jozibasi bilan qahramonlar ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini ochib bergan. Albatta bir film yaratish uchun yaxshi ssenariy, yaxshi rejissyor va operator, kuchli aktyorlar, chiroqchilar, rassom, kostyumyor, grimmchi kabi ko‘plab texnik xodimlar kerak bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida mablag‘, vaqt va shu kabi narsalarni talab qiladi. Ammo, istak va ma’suliyat bo‘lsa hamma narsaning ham imkonibor.

Bir so‘z bilan aytganda, kartina katta muvaffaqiyat qozondi. Filmdagi ba’zi kichik kamchiliklar film yaxlitligini yo‘qotmagan. Bir

tomoshabindan shunday fikr eshitim: “Bu darajada maqtovga sazovor bo‘lishga arzimaydi nazarimda. Kichik xatolarni to‘g‘irlamasdan turib juda zo‘r film bo‘lipti deyish, noto‘g‘ri menimcha, qahramonlarning ham hayoti to‘laqonli ochib berilmagan. O‘g‘illar urushda bekordanbekorga vafot etgandek taassurot uyg‘otdi” – dedi. Menimcha esa dramaturgiyasi kuchli, aktyorlar ijrosi mukammal, rejissyor o‘z ishini uddasidan chiqqan va e’tibordan chetta qolgan ba’zi kamchiliklar filmda ahamiyatsizdek. Qahramonlar taqdiriga keladigan bo‘lsak, fikrimcha filmni diqqat bilan kuzatgan inson urushda halok bo‘lgan chin ma’nodagi qahramonlarning birontasi ham behuda jon bermaganini ko‘radi nazarimda. Nemislar qo‘liga asir tushgan Isoqjon o‘zi va ukasi Ahmadjonni jonidan kechib xalqini sotmadi. Vahobjon esa kichik qizaloqning hayotini qutqarish uchun dushmanni va o‘zini portlatdi. Muhammadjon do‘sini o‘ldirgan fashistlardan o‘ch oldiyu, jon berdi. Kenja o‘g‘il Yusufjon esa Leningradda bombalar yomg‘iri ostida qolib, vafot etganini ko‘ramiz. Qanday qilib ularni behuda jon bergandek qilib ko‘rsatishgan, deya olamiz?

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, “Ilhaq” filmi biz yoshlар uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega filmdir. Biz yoshlар tarixga nazar tashlar ekanmiz, bobokolonlarimizdek metin irodaga, vatanni sevishga, vatanimiz uchun jon fido etishga ega yoshlар bo‘lishimiz, buvilarimiz kabi sabr-toqatli, turmush zarbalariga bardoshli yoshlар bo‘lib yetishishimiz kerak ekanligini yana bir bor his qildik. Tarixning biz yoshlarga o‘rgatadigan, tarbiyalovchi va o‘rnak bo‘luvchi sahifalari bu ikki tarixiy filmda mujassam bo‘lib, ulardan tomoshabinlar o‘zlariga kerakli xulosalarni chiqarishdi va juda ko‘p naslarni o‘rganishdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudova Z. “Tezisi dokladov v iskusstvovedcheskoy nauchno-teoreticheskoy konferensii molodix uchenix”, g. Tashkent, 1983 g.
2. old.uza.uz, O‘zA., I.Ahatova, “Xonliklar davrini fojeali, iztirobli, shonli va zafarli voqealari bilan ko‘rsatish payti keldi”.

Dostonbek In'om o'g'li Abdullayev,  
2-kurs "Cholg'u ijrochiligi" mutaxassisligi magistranti.  
Ilmiy rahbar: Sobir Jumayev

## AMIR TEMUR DAVRI MUSIQA SAN'ATI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada sohibqiron Amir Temurning o'z davrida ko'plab sohalar qatori musiqa san'atiga bo'lgan yuksak e'tibori, uning rivoji yo'lida amalga oshirgan ishlari borasida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, sohibqironning harbiy yurishlari davomida musiqa cholg'ularidan foydalanish samaralari haqida so'z boradi.

### Kalit so'zlar

Sohibqiron, musiqa san'ati, mehtar, naqqora, nafir, taktik, madaniy meros.

### Аннотация

Данная статья посвящена вопросам внимания великого полководца Амира Темура искусству музыки, а также его деятельности в развитии данного искусства. В ней также освещены вопросы использования музыкальных инструментов во время боевых действий.

### Ключевые слова

Сахибкиран (завоеватель мира), музыкальное искусство, меhtar (руководитель группы), наккора (ударный инструмент), нафир (духовой музыкальный инструмент), тактика, культурное наследие.

### Abstract

This article is devoted to the attention of the great commander Amir Temur to the art of music, as well as his activities in the development of this art. It also covers the use of musical instruments during combat operations.

### Keywords

Sahibkiran (conqueror of the world), musical art, Mehtar (band leader), nakkora (percussion instrument), nafir (wind musical instrument), tactics, cultural heritage

O'zbek hamda jahon tarixida o'z o'rni va mavqeyiga ega bo'lgan buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temur (Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barkul 1336-1405) o'z

davrining buyuk sarkardasi, adabiyot, madaniyat va san'atning rivojiga ulkan hissa qo'shgan shaxs sifatida bilamiz. Bu fikrimizning dalili sifatida Temuriylar davrida yozilib bizgacha yetib kelgan manbaalardan va san'atshunos va musiqashunos olimlarning Amir Temur va Temuriylar davri haqidagi ilmiy risolalarida keltirilgan ma'lumotlardan keltirishimiz mumkin.

Amir Temur harbiy yurishlari davomida qo'lga kiritgan davlatlaridagi o'z sohasining yetuk ilm-fan, madaniyat va san'at namoyondalarini Movaraunnahr poytaxti Samarqandga jamlagan. Xususan ilm-fan namoyondalari, hunarmand, me'morlar va mohir san'atkorlarga alohida e'tibor qaratgan.

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida keltirilgan quyidagi ma'lumotlar fikrimizga isbot bo'ladi:

"Olamning turli taraflaridan yig'ilgan tillari va kiyimlari birlaridan farqli qaysi mamlakat sozandalari, har bir iqlimning san'at ahillari-yu hunar sohiblari guruh-guruh bo'lishib har diyorning o'zida rasm va odat qilingan zeb-ziynat buyumlari, taqinchoqlari kiyim-kechak va matolari bilan yasanib, o'zlariga oro berdilar. Hushnag'ma sozandalar va hushovoz honandalar fors tariqasida, ajam tartibida, arab qoidasida, turk yo'sunida, mo'g'ul ayolg'usida, xitoy rusumida, oltoy uslubida soz chalmoq, ashula aytmoq va ohang bog'لامоq ila mashg'ул edilar". [2.B.393]

Bobomiz san'at sohasining rivojiga ulkan hissa qo'shish bilan bir qatorda bu sohadan oqilona foydalanganlar. Amir Temurning harbiy amaliyot tarixiga kiritgan qator yangiliklari nihoyatda qiziqarlidir. Masalan, sohibqiron dushmanga qarshi jang paytida o'z askarlarining hatti-harakatlarini nog'ora usullari yordamida boshqargan. Aniqroq aytadigan bo'lsak, urma zarbli cholg'ularda ijro qilinuvchi usullar o'ziga xos maxfiy so'zlashuv vositasi hisoblangan. Har bir ijro qilingan usul o'ziga yarasha ma'no anglatgan. Jangning borishiga qarab usullar ham o'zgarib turgan. Ularning o'zgarishi bilan askarlar ham jang davomidagi taktik harakatlarini o'zgartirganlar. Bular o'ziga xos maxfiy usullar bo'lib, ularning ma'nosini faqatgina Amir Temur, uning askarlari va mehtarlar ya'ni usullarni ijro qiluvchi nog'orachilar bilgan. Shuningdek, biror bir davlatga hujum boshlashdan oldin u yerga karnaychi va nog'orachilar kiritilgan.

Erta tong behosdan bu cholg‘ularning jarangi aholini dovdiratib, harbiylarga katta yordam bergen.

Bu borada san’atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Ibrohimov “Sohibqiron saltanatida harbiy musiqa san’ati” nomli maqolasida quyidagi fikrlarni keltirib o’tadi:

“Jangu jadal maydonlarining ajralmas qismiga aylangan nog’ora (naqqora) usullari va karnay (nafir) sadolari, tabiiyki, askarlarda mardlik tuyg‘ularini uyg‘otishda va shu asnoda jasorat namunalarini ko’rsatishga chorlangan va dushman ko‘ngliga g‘ulg‘ula solgan. Sadolanishi kuchli bu cholg‘ularning jang maydonlarida bajargan shu kabi vazifalari yaxshi ayon. Shu bilan birga, urma va damli cholg‘ularning usullari vositasida harbiy janglarda boshqa bir muhim (taktik) ishlar ham amalga oshirilgan ko‘rinadi”. [1.B.96]

Amir Temur o‘zining harbiy yurishlari davomida damli va zarbli cholg‘ularning xilma-xil turlaridan samarali foydalangan holda jangni o‘z foydasiga hal qilgan. Jumladan, nog‘oraning turli xillari: ko‘s, tabira, al-tabra, bir tomonli nog’ora, chindoul, doul-paz, katta nog’ora, shuningdek, musulmon Sharqida azaldan mashhur bo‘lgan tabla va misdan yasalgan jaras (lappak-tarelka) kabi cholg‘ular ijrosiga harbiy yurishlar davomida keng o‘rin berilgan.

“Temuriylar davrida doira, nog’ora va dovullardan tashqari yana chinni idishdan ishlangan va cho‘plar bilan chalinadigan kosalar, metalldan yasalgan toslar, tosh va po‘latli (alvoh) maxsus urma cholg‘ular amaliyotda qo‘llanilgan”. [3.B.62]

Shunisi e’tiborliki, Amir Temur lashkarida musiqa cholg‘ulari faqatgina ramziylik belgisi hisoblanmasdan, balki ko‘p hollarda asosan, harbiy matonat, shijoat nishoni, jangchilarining tabaqa va martabalarini ko’rsatuvchi harbiy daraja belgisini anglatgan. Bu borada “Temur tuzuklari”da shunday so‘z boradi:

“Amr qildimki, qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar. Faxrli kitob, tug‘ va nog’ora berib, uni bahodir deb atasinlar. O‘n ikki katta katta amirlarning har biriga bitta bayroq va bir

nog'ora berilsin. Amir ul umaroga bayroq va nog'ora, tuman tug'i va chortug' taqdim etsinlar. Mingboshiga esa bir tug' va karnay bersinlar. Yuzboshi va o'nboshiga bittadan katta nog'ora bersinlar. Aymoqlarning amirlariga bo'lsa bittadan burg'u taqdim etsinlar. To'rt beglarbegining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u bersinlar".[4.B.97]

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida barcha sohalar yuksak taraqqiy etdi. Ular orasida musiqa san'ati rivoji o'ziga xos o'rinn tutib, uning yangi qirralari kashf etildi. Bu borada amalga oshirilgan buyuk ishlar hozirgi kunga qadar o'zining qiymatini yo'qotmagan holda ajdodlardan-avlodlarga madaniy meros sifatida o'tib kelmoqda.

Mazkur madaniy merosimizni asrab-avaylash va har jihatdan o'rgangan holda yanada chuqur tadqiq etish, bu borada ilmiy izlanishlar olib borish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ibrohimov O. "Sohibqiron saltanatida harbiy musiqa san'ati". Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o'rganish va targ'ib qilishning umumbashariy ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2019-y.
2. Shomiy N. "Zafarnoma". – Toshkent, G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1996-y.
3. Shodmonov N. "Xoja Abdulqodir Marog'iy" – Toshkent: "G'afur G'ulom" nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000-yil.
4. "Temur tuzuklari" – Toshkent: "Sharq" N.M.A.K. Bosh tahririyati, 2005-y.
5. Toshkandiy S. "Temurnoma" - Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti, 1991-y.

*Azizaxon Maxammadali qizi Ismanova,  
2-kurs "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"  
mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: f.f.d, professor I.J.Yuldashev*

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARINING INSONPARVARLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'AT VA MADANIYATNING O'RNI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodni bolalik davridan boshlab san'at va madaniyat, kitob bilan oshno qilishda san'at va madaniyat xodimlarining o'rni nechog'li muhim ekanligiga to'xtalgan.

### **Аннотация**

В статье рассматривается важность роли деятелей искусства и культуры в приобщении подрастающего поколения к искусству и культуре, книгам с детства.

### **Annotation**

This article discusses the importance of the role of art and culture workers in acquainting the younger generation with art and culture, books from childhood.

### **Kalit so'zlar**

San'at, madaniyat, bolalar bog'chasi, boshqarish, rahbar, yetakchi, jamoa, tashkilot, xodim, faoliyat, festival.

### **Ключевые слова**

Искусство, культура, детский сад, менеджмент, руководитель, руководство, команда, организация, сотрудник, деятельность, фестиваль.

### **Keywords**

Art, culture, kindergarten, management, leader, leadership, team, organization, employee, activity, festival.

**T**arbiya insongao'zidayaxshi odatva insonparvarlik fazilatlarini hosil qilishiga yordam beradi. Bu borada oila muhiti asosiy rol o'ynaydi. Har qanday oilada muhit sog'lom bo'lsa, farzandning tarbiyasini ham mukammal bo'ladi. Farzand tarbiyasida

ota ham, ona ham teng huquqlidir. Gap insonparvarlik fazilatlari va ta'lim-tarbiya masalasida borar ekan, avvalo, har bir bolaga tarbiyani uning yoshligidan boshlab o'rgatish kerak.

Insonparvarlik deganda nimani tushunamiz, bunday inson qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?

Insonparvarlik bu – insonni sevish, unga mehr ko'rsatish, ardoqlash, yaxshilikni baham ko'rish demakdir.

Bolalarga tarbiya berishda ular bilan bola tilida so'zlashish zarur, har bir so'zni muloyimlik bilan aytish bola qabul qilayotgan ma'lumotlarini tez o'zlashtirib olishidan darak beradi. Ular bilan muloqotga kirishilganda o'ta ehtiyojkorlik bilan yondashish zarur. Boisi ular juda taqlidchan bo'lishadi. Bolalardagi rivojlanishlar bugungi kunda har birimizning oilamizda va ko'z o'ngimizda sodir bo'lmoqda, ularning aksariyati bir yarim, ikki yoshdan boshlab ko'rganlari va eshitganlarini o'rganib, o'zlariga darrov singdirib olishadi. Bola tarbiyani nafaqat oiladan, balki ko'proq maktabgacha ta'lim muassasidan ham oladi. Shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda oila bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim muassasalarining ham o'rni kattadir.

Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgachabo'lgandavrdahartamonlamapuxtata'lim-tarbiyaberish, dunyoqarashini kengaytirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish orqali ularni ona Vatanga muhabbat ruhida kamol topish masalasi davr talabidan ortda qolayotgani sababli maktabgacha ta'limning boshqaruvi tizimi qayta ko'rib chiqilishini taqozo etmoqda. Kelajak avlodlarning maktabda qanday o'qishi, yuksakmaqsadlar bilan kamoltopishi ko'pjihatdan maktabgachata'lim muassasalaridagi tarbiyaga bog'liq. Ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida dunyoni bilish, uni idrok etish borasidagi axborotning 70% ni 7 yoshgacha bo'lgan davrda olishi haqidagi fikr aynan bola shaxsining rivojlanishida maktabgacha ta'lim

muassasining o'rni nechog'li muhimligidan dalolat beradi.

Adabiyotlarda berilishicha, idrok – bu sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarning ongimizda bevosita aks etishidir. [2, 47-bet].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 16 avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishda mакtabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, tizimning boshqaruvi tuzilmasini tashkil etish, mакtabgacha ta'lim muassasiga 5-6 yoshli bolalarni 100% qamrab olish choralarini belgilash va ko'rib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Mакtabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, bu sohani bundan buyon oliy ma'lumotli, savodli, shu kasbga mexr qo'ygan, bolalarni chin dildan sevuvchi shu kasbning haqiqiy egasi boshqaradi. Bu ham bo'lsa, mакtabgacha yoshdagi bolalarga qaratilgan cheksiz e'tibor va yaratib berilayotgan keng ko'lamli imkoniyatlarning bir timsolidir!

Albatta, mакtab yoshidagi bo'lgan bolajonlarimizning ta'lim olishi, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanish, sog'lig'i haqida qayg'urish, ertangi kunimiz egalarining dunyoqarashini shakllantirish kabi ishlar Mакtabgacha ta'lim vazirligi zimmasidagi vazifa hisoblanadivabu boradadavlat siyosatini olib borishendilikda vazirlik zimmasiga yuklandi. Mакtabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanish barchamizning, xususan, Madaniyat muassasalari xodimlarining asosiy vazifalaridan biridir. Zotan, yosh avlod tarbiyasi borasida barchamiz mas'ulmiz. Mакtabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini har tomonlama sog'lom, ongli, fikrli va dunyoqarashi, ma'naviyati go'zal bo'lib tarbiyalanishida madaniyat va san'atning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Mакtabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining madaniyat va san'atga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va ularning ochilmagan

qirralarini keng namoyon eta olishi uchun madaniyat markazlarida faoliyat yuritayotgan barcha to'garaklarning, shuningdek, teatr studiyalarining roli ham kattadir. Bolalar hayotiga yanada quvonch bag'ishlab, ma'naviyvatarbiyaviyozuqaberishuchunavvalobolalarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadigan, ularni tarbiyalashga qaratilgan yangi yangi spektakllarni yaratish va ularni bolalarga zamonaviy talqinda eng yorqin ranglar bilan havola etish hozirgi zamon talabidan biridir.

Misol uchun, biz bolaligimizdan sevib tomosha qilgan "Zumrad va Qimmat" ertagini olaylik. Bu ertak ikki obrazda, ya'ni Zumrad ijobiy, Qimmat esa salbiy rolda namoyon bo'ladi. Ushbu ertak alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zumrad kamtar qiz bo'lganligi, mehnatsevarligi va kampirning barcha uy ishlariga ko'maklashganligi uchun rag'bat topadi, ya'ni kampir unga bir sandiq tilla berib Zumradning manziliga malikalardek uchar otlar yordamida eltib qo'yadi. Qimmat esa kattalarni hurmat qilmasligi, faqat o'zining nafsi o'ylaydigan, qo'pol va tarbiyasiz qiz bo'lganligi tufayli unga ko'p ham omad kulib boqavermaydi, u kampirga qo'pol muomalada bo'lib, uning uy ishlariga yordamlashmaganligi, o'zini tarbiyasiz ekanini ko'rsatganligi uchun kampir unga sandiq ichida temirdan yasalgan oddiy bir dona uzuk beradi xolos va Qimmat uyiga o'zi yolg'iz qaytib keladi.

Asarning ikkinchi talqinida esa Qimmat uyiga sandiqni olib ketayotib, hali uyiga yetib bormasidan turib sabrsizlarcha onasi bilan sandiqni yo'lda ochib ko'rganida ichidan ilonlar chiqadi, yana keyingi talqinlarida esa Qimmat va uning onasini sandiq yutib olib ketadi. Bu ertakning tarbiyaviy tomoni shundaki, o'z-o'zidan buni tomosha qilgan bolalarda ikki qaxramonga nisbatan ikki xil fikr uyg'onishi tabiiy. Har bir murg'ak tomoshabin ushbu spektaklni tomosha qilganida Zumrad aqli va yaxshi qiz ekanligini, undan doim namuna olishlarini, ular ham Zumraddagi barcha yaxshi xislatu fazilatlarni o'zlarida mujassam etishga kirishishlariga turtki bo'ladi.

Umuman olganda, bunday tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan

o‘zbek xalq ertaklari juda ko‘p. Madaniyat markazlarida faoliyat olib borayotgan teatr studiyalari to‘garak rahbarlari “Zumrad va Qimmat” va yana ko‘plab kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ertaklarni zamonaviy usulda sahnalashtirib, undagi ijobiliy qahramonlarda yanada ko‘proq yaxshi fazilatlar mujassam qilinsa, murg‘ak tamoshabin ongida o‘zgacha yangi ruh paydo bo‘ladi va bolalar ongiga chuqur kirib o‘rnashuvchi ijobiliy vosita bo‘lib qoladi.

O‘z-o‘zidan ayon bo‘lmoqdaki, bolalar ko‘proq sahnada ko‘rganlariga amal qilishar ekan. Buning uchun madaniyat markazlarining to‘garak rahbarlari nafaqat aktyorlardan, balki maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilaridan iqtidorlilarini tanlab olib, ular ishtirokida asar sahnalashtirilsa, bu maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilar uchun ham qiziqarli, ham maroqli bo‘lar edi.

Bolalarni kattalarga bo‘lgan hurmat, hattoki o‘z tengdoshini ham kerak bo‘lsa “Siz” deya chaqirishi, undagi jamiki yaxshi fazilatlar mujassam bo‘lishiga undaydi. Buni avvalo oilada ota-onas, so‘ng maktabgacha ta’lim muassasi tarbiyachilari albatta bolaga doimiy o‘rgatib borishlari zarur. Shuningdek, bolalarni madaniyat markazlari tomonidan tashkil etiladigan katta-kichik tadbirlarga jalb etib, bolajonlardagi san’atga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirib borish ham yaxshi samara beradi.

Madaniyat markazlari bolajonlar uchun ularning yoshiga mos bo‘lgan spektakllar, konsert dasturlari, rang-barang, qiziqarli tomoshalar tashkil etishlari kerak. Har bir tumanda qo‘g‘irchoq teatrlari bo‘lsa, ularda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bir biridan qiziqarli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi-yangi spektakllar namoyish etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yana bir masala yaxshilab e’tibor berib kuzatadigan bo‘lsak, bolalar madaniyat va istirohat bog‘lariga tashrif buyurishlari bilanoq dastlab o‘zlarining sevimli bo‘lgan attraksionlarida uchishga oshiqishadi. Bilamizki, madaniyat va istirohat bog‘larida turli xildagi attraksionlar mavjud.

Ko‘p kuzatganimizda bolalar attraksionlarda hayvonlardan ko‘pincha ot, kiyik kabilar tasvirlangan o‘rindiqqa talashib o‘tirib olishadi. Albatta, bu yaxshilikdan dalolat, chunki ot bu ezgulik ramzidir.

Shunday attraksionlar borki, vahshiy hayvonlar aks etgan suratlar bilan to‘lib ketgan. Kichik yoshdagi bolalar esa bulardan qo‘rqishadi. Demak, bu jarayonga ham sohaning mutasaddi vakillari alohida e’tibor qaratishlari kerak ekan degan hulosaga ham kelamiz. Madaniyat muassasalari ham o‘z faoliyatini aynan bog‘cha bolalariga kerak bo‘lgan, masalan: ashula, raqs, tasviriy san’at, amaliy san’at, notiqlik san’ati kabi to‘garaklar ochilsa, qo‘g‘irchoq teatrлari tomoshalari tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chunki yosh avlodni murg‘aklik davridan madaniyat, san’at, kitob bilan oshno qila olsak ular albatta kelajakda buyuk inson bo‘lib yetishadi. Zotan, kelajagi buyuk insonlar uchun buyuk insonlar ham zarur!

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017 yil 30 sentabrdagi PQ-3305-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 30 sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 30 sentabrdagi PQ-3955-sonli qarori.
8. “Xalq so‘zi” gazetasi. Toshkent - 2017 yil.
9. “Umumiyy psixologiya”. E.G‘oziyev. Toshkent - 2002 yil.
10. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. Toshkent “Ilm Ziyo” 2011 yil.

**Marg'uba Vaxobova G'opirjonovna,**  
**2- kurs "Xalq ashula va raqs ansambllariga rahbarlik"**  
**mutaxassisligi magistranti.**  
**Ilmiy rahbar: dotsent O'Rasulov**

## “TANOVAR”LAR AYOL QALBINING TARJIMONI

### Annotation

O‘zbek milliy misiqiy madaniyatimizda o‘chmas iz qoldirgan san’at olamining buyuk namoyondalari tomonidan halqimiz san’atining rivojlanishini ta’minlovchi manbalar, musiqiy asarlar mavjud. “Tanovarlar”- ana shunday asarlarning gultoji sifatida bizning qalbimizdan o‘chmasligi va bo‘gungi o’sib kelayotgan yosh avlodlarning qalbida an’anaviy qo’shiqchilikning nodir namunalari sifatida uzoq yil yashaydi.

### Key words

Tanovar, touzing, tonvor,

### Annotation

Узбекская национальная музыка оставила неизгладимый след в нашей культуре. Существует ряд музыкальных произведений, источников, обеспечивающих развитие искусства нашего народа великими представителями художественного мира. «Тановарлар» является неотъемлемой частью таких произведений и еще долгие годы будет жить в сердцах нынешнего молодого поколения как редкий образец традиционного пения

### Ключевые слова

Тановар, прикосновение, тонвор.

### Annotation

Uzbek national music has left an indelible mark on our culture. There are a number of musical works, sources that ensure the development of the art of our people by the great representatives of the artistic world. »Tanovarlar» is an integral part of such works and will live in the hearts of today's young generation for many years to come as a rare example of traditional singing.

### Key words

Tanovar, touch, tonvor.

**A**n'naviy o'zbek ijrochiligi taraqqiyotida yurtimiz hofizalarining alohida o'rni bor. Keksa avlod vakillari Hosiyatxon, Tojixon, Qurbonxon kabi o'nlab tanovarxon mug'anniyalar nomini hurmat bilan eslashadi. Bu ayollar ijro etgan "Farg'onani asra", "Qoro sochim" kabi o'nlab xalq qo'shiqlari gramplastinka yozuvlari orqali bizgacha yetib kelgan. Ushbu maqolada yuqoridagi va boshqa tanovar ijro etgan xonanda va raqqosalar haqida so'z yuritiladi. O'tmishda professional xalq og'zaki ijodiyotining yirik shakllaridan Farg'ona-Toshkent ijro yo'llariga xos bo'lgan "Navro'zi ajam", "Xojiniyoz", "Mirzadavlat", "Ajam taronalari", "Mushkuloti dugox", "Miskin", "Munojot" kabi asarlar yuzaga keldi. Xalq musiqa san'atida salmoqli o'rin egallagan xissiyotlarga boy, halkchilligi bilan mashhur bo'lgan "Tanovar"lar ham shular jumlasidandir. Har bir musiqiy asar nomlanishidan tortib, toki tinglovchiga yetib borguniga qadar o'z mezonlari, xususiyati, an'anasi va tarixiga ega bo'lgan. "Tanovar"larni xalq orasidan chiqqan bastakorlar ijrochilikning ma'lum bir tarixiy jarayonlarida ijod qilishgan. "Tanovar" so'zi kelib chiqishiga ko'ra, ustozona mumtoz ijrochilikning tarixan shakllangan ijroviy tajribalari o'laroq tanni eltuvchi, tanni erituvchi ma'nolarni anglatadi. "Tanovar"lar qadimda ba'zan yakka holda, ba'zida turkum sifatida, gohida cholg'u kuyi sifatida ijro etilgan. Ta'kidlash lozimki, tanovarlar o'zining xalqchilligi bilan ajralib turadi. Ularga asosan tahlili va tushunilishi nisbatan oson bo'lgan murabba'lar bog'langan. G'azallarda kajraftor falakka qarshi isyon bayon etilayotgandek go'yo. Shuning uchun ham o'zbek halq lirk musikiy majmularidan biriga aynan "tanovar" nomi berilgan. Farg'onalik marxum sozanda Husanxon akaning ta'kidlashlaricha, urush yillarida bir vodiylit qiz o'zga viloyatga kelin bo'lib tushadi. Zamonni notinchligi tufayli yaqinlarini, ota-onasi, opa-singil, aka-ukalarini ko'rishning iloji bo'lmaydi. Yurtidan, yaqinlaridan uzoqlashgan qiz juda ham ko'p sog'inch azobini boshidan o'tkazadi. Kunlar ketidan oylar, oylar ketidan yillar o'tib qizning sog'inch azobi kuchayib ranglari sarg'ayib qoladi. Buni ko'rgan turmush o'rtog'i rafiqasiga "bo'ldi o'zingni buncha qiynama

yurtingdan ton” deb aytadi. Shu bois, “tonvor” so‘zidan “tanovar” so‘zi kelib chiqqan bolsa kerak. Tanovar qadimda ichlaridan azob chekkan ayollarning sevgisi man qilingan, doimo pinxon saqlashga majbur etilgan muhabbat haqidagi kuydir.

XIX asrda “tanovar” iborasi Farg‘ona vodiysida ko‘proq ishlatalgan. Bu o‘lkada yashaydigan hunarmandlar ishlangan teridan tikilgan maxsi ilonning og‘zidan chiqqandek ko‘rinishda bolsa, maxsini tanovari tekis va tik zo‘r bo‘libdi-yu deyisharkan.

Tanovar kuy-qo‘shiqlarining bizgacha ma’lum bo‘lgan 18 ta turi mavjud. Buashulalardaabadiysog‘inch, erkvabaxtlimuhabbatxaqidagi orzular, butun dunyo ayollarini qalbidan joy olgan otashin muhabbat baralla kuylanadi. Tanovar ashulalari “Yovvoyi tanovar”, “Namangan tanovari”, “Qorasoch”, “Andijon tanovar”, “Qo‘qon tanovar”, “Marg‘ilon tanovar”, “Adolat tanovar”, “Tojixon tanovari” singari bir qator nomlar bilan atalgan. Muqimiy g‘azali bilan aytildigan tanovarning quyidagi bayti xalq orasida hikmatli so‘z, maqol darajasiga ko‘tarilgan:

*“O‘zim har joydaman ko‘nglim sandadur”...*

Bu misraga katta ma’no yuklatilgan va ayriliq talqin etiladi. Yana bir tanovarga bog‘langan she’rning dastlabki misralari quyidagicha ifodalangan.

*“Qorosochim o‘sib qoshimga tushdi,  
Na savdolar mani boshimga tushdi”...*

Fasohat va malohat bobida yagona bo‘lgan ayol o‘zining sochi o‘sganidan, ayniqla, uning qora ekanligidan iztirob chekayapdi. Boshiga tushgan qora savdolarning o‘z sochi rangiga mengzayabdi. Bunday misralar xalq she’riyatining nafosatidan darak beradi. Balki bunday qo‘shiqlar ayol qalbining haqiqiy tarjimoni bo‘la olganligi uchun ham tanovar deb atalgandir. Tanovarlar ichida “Adolat tanovari” o‘zgacha tarixga ega. O‘tmishda Adolat ismli go‘zal, nihoyatda oqila va mahzun ovozli qiz bo‘lgan ekan. Uning xonishini tinglagan har bir insonda yana bir tinglash ishtiyocoq paydo bo‘lar ekan. Qizning xonishidan xabar topgan zamonasining zodaganlaridan birining ishqisi Adolatga tushadi va o‘z maqsadiga erishish niyatida ko‘p harakat

qiladi, ammo xarakatlari natijasiz qoladi. O‘z sevgisiga sodiq bo‘lgan Adolat zodagonga rad javobini beradi. Bundan xabar topgan zodagon qattiq ranjiydi, qizni qatl qilishga buyuradi. Adolat o‘limi oldidan oxirgi istagini ado etishlarini o‘tinib iltimos qiladi. Rozilik berilgandan so‘ng, u dutor keltirishlarini so‘raydi va unga dutor keltirib berishadi. Adolat dutorining sehrli torlarini chertib kuylay boshlaydi Qo‘sinqni tinglagan jallodlarning qurollari qo‘llaridan tushdi, dillarini eritgan ohang sohibasini o‘ldirishga qo‘llari bormaydi. Qalb amri bilan bu ishni bajarishdan bosh tortishadi. Shunda Adolatning zolim akasi qo‘liga qurol olib, o‘z singlisini o‘ldiradi. Paranji ostida oxirgi nafasda, o‘z sevgisiga sodiq qolgan Adolat “Sen ayrılma mendan, Menam sendan ayrılmay...”deb jon beradi. Ushbu tanovar qadimda o‘zbek ayolining xaroratli ishqisi olovi bayoni sifatida bugungi kunda ham ezilgan qalblarga malxam bo‘layotgandek go‘yo. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Otaxon Matyoqubov shunday hikoya qiladi. “Bundan ko‘p yillar oldin Farg‘ona vodiysi tomonda doimo halq so‘zini aytadigan Tojixon ismli ayol yashab o‘tgan ekan. Bu ayolni amaldorlar, davlatmandlar yoqtirishmas ekan. 1937-yilda Tojixon opa tuxmat tufayli 17 yilga Magadanga surgun qilinadi. U yerda “Tojixon tanovari” Tojixon opa tomonidan yaratildi. 1953-yilda Tojixon opa ozod qilinadi. Tojixon opa xalq artisti Mukaramma Turg‘unboyeva bilan juda yaqin dugona bo‘lishadi. 1963-yilda Mukaramma opa, Zulfiyaxonim, Otaxon Matyoqubovlar Farg‘onaga Tojixon opani ko‘rgani borishadi, suxbatlashish jarayonida Tojixon opa boshidan kechirganlarini so‘zlab beradi.

*Buncha kuydurding mani o‘choqqa solgan choladek.*

*Ranginam sarg‘aytasan shoxida qolgan olmadek.*

*Yuragim choydishmidi choylar solib qaynotasan.*

*Yuragim g‘amsizmidi g‘amlar bilan uyg‘otasan.*

Tojixon opa bu qushiqda o‘zining 17 yil tortgan azoblari-yu sitamlarini joylagan. Bu tanovar Tojixon opaga 17 yil hamroh bo‘lgan.

O‘zbek milliy raqs san’atining darg‘alaridan Mukarrama Turg‘unboyevaning ijodi “Tanovar” timsoli bilan chambarchas

bog'liq. Chunki M.Turg'un boyevani halqimiz tanovarning eng go'zal, eng nafis, eng jozibali ijrochisi sifatida eslaydi. Xoreografiya sohasiga mehr qo'ygan har qanday raqqosa uchun eng oliy maqom- bu ustoz M. Turg'un boyeva saxnalashtirgan va o'zi ijro etgan Tanovarni ijro etishdir. M. Turg'un boyeva o'z hayoti haqida qilgan hikoyasida, undagi san'atga bo'lgan o'zgacha mehr onasidan o'tganini e'tirof etadi. U kishining onalari shunaqangi mohir sozanda bo'lgan ekanki, unaqasi Farg'ona-yu Namanganda ham bo'limgan. "Tanovar"ni chalganda eshitganlarning hammasining yuragi sel bo'lib, yum-yum yig'lar ekanlar. Mukarrama ismli raqqosa dugonasi onasi chalgan kuyga raqsga tushar ekan. Zolimlar tomonidan vahshiyarcha o'ldirilgan dugonasining ismini qiziga qo'ygan ekan. Bu achchiq haqiqat ko'p yillar davomida M. Turg'un boyevaning qalbida yashirincha yashab kelgan. M. Turg'un boyeva mashxur galerina Yekaterina Gel'tserning oqkushning o'limi saxnasini tomosha qilgach, undagi badiiy voqelik tasirida uning qalbiga o'zgacha tanovar paydo bo'ladiki, bu jarayonni M. Turg'un boyev shunday eslaganlar lavha necha minut davometganini bilmayman, lekin menga o'shanda butun boshli bir spektakldek tuyulgan, shu qadar tasirlangan edimki, kechasi bilan uyqum kelmadi, nihoyat dilimdagi "O'zbek oqqushi" "Tanovar" keldi" deya xotirlaydi.<sup>1</sup> M. Turg'un boyeva ijrosidagi "Tanovar" o'zbek raqs san'atining turli davrlarida turlichcha o'ziga xoslik kasb etdi. 1930-1936-yillarda M. Turg'un boyeva ijrosidagi "Tanovar" oddiy xalq ichidagi ayollarning dil tug'yonlarini aks ettiruvchi badiiy asar darajasiga ko'tarilgan.

O'z davrining boy zodagonlarning haramlarida qul kabi saqlanib, ular tomonidan tahqirlangan, erkin nafas olib yashashiga imkon yo'q, sevgisi uchun kurashishi esa "behayolik" deya ta'rif berilishidan qo'rquvchi, ochlik va xo'rliklga chidashga majbur bo'lgan, ayollarning qora kunlari boshida "hech qachon tarqalmaydigan qora bulut"day yopirilib olgan. Sharq ayollari va qizlarining ayanchli hayoti tasvirlanadi. Ularning qalbida yashirinib yotgan kuchli oh-u faryodi tillarda istirobli qo'shiq bo'lib yangradi, dutorning mungli ohangi bo'lib taraldi, raqsning o'tli harakatlarida namoyon bo'ldi. Ularning

ijrochilari asta sekin xalq orasida dong‘i tarala borgach, el og‘zida doston bo‘lishidan or qilgan og‘a- inilari va vahshiyilar tomonidan o‘tkir xanjar tig‘iga ro‘baro‘ bo‘ldilar, o‘ldirildilar. M.Turg‘unboyeva shunday tahlikali davrda o‘z xayotini san’atga bag‘ishlashga jazim eta oldi.

San’atshunos Gulsum Hamrayeva M.Turg‘unboyevaning “Tanovar”iga quyidagicha ta’rif beradi: “Qo‘llar go‘yo qo‘sinq kuylayotganday, qalb tug‘yonlarini anglatadi: ular oh tortadi, azob chekadi, lekin nimagadir ishonadi”.

1937-yilda A.Kozlovskiy “Qora sochim” nomi bilan ataluvchi tanovarni Xalq artisti Halima Nosirova ijrosida notaga yozib olgan. Kompozitorning xonanda va simfonik orkestr uchun kuyni qayta ishlashi keyinchalik, ya’ni, 1952-yilda “Tanovar” nomli simfonik poema va 1968-yilda shu nomdagi balet yaratilishiga asos bo‘lgan.. “Tanovar” kuyining turli yo‘llaridan A.Kozlovskiy 10 ga yaqin variantlarini notaga olgan. Hofizlarimiz tomonidan Halqimiz san’atining yashovchanligini ta’minlovchi manbalar musiqiy asarlar anchagina. “Tanovarlar” ana shunday asarlarning gultoji sifatida bizning kunlarimizda ham an’anaviy qo‘sinqchilikning nodir namunalari sifatida uzoq yil bizning qalbimizdan o‘chmasligiga ishonish mumkun. Oddiy xonandaman, lekin “Tanovarxon” ayollarning avlodi ekanligimidan faxrlanaman.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Roziya Karimova. O‘zbek raqlari “Cho‘lpon nashryoti. Toshkent-2003.
2. L.Avdeyeva.Mukarrama Turg‘unboyevaning raqsi. Toshkent.G‘G‘olom nomidagi Adabiyot va san’at nashryoti. 1989.
3. I.G‘aniyeva Tanavorlar.Toshkent-2003.

**Nasiba Ibaydullayevna Madreymova,**  
2-kurs “Madaniyat va sanat sohasi  
menejmenti” mutaxassisligi magistranti  
**Ilmiy rahbar:** fal.f.d., prof. V. Alimasov

## O‘ZBEKISTON DAVLAT SANAT MUZEYI FAOLIYATIDA MENEJMENT VA MARKETING

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston davlat sanat muzeyi adminstratsiyasi, jumladan, marketing va turizm bo‘limlarining ish faoliyati va bugungi kundagi boshqaruv sohasi yoritilgan.

### **Аннотация**

В данной статье освещается деятельность администрации Государственного музея искусств Узбекистана, в том числе отделов маркетинг и туризма, а также текущая сфера управления.

### **Abstract**

This article covers the activities of the administration of the State Museum of Art of Uzbekistan, including marketing and tourism departments, and the current field of management.

### **Kalit so‘zlar**

Menejment, muzey, marketing, turist, san’at, memorandum, kolleksiya.

### **Ключевые слова**

Менеджмент, музей, маркетинг, турист, искусство, меморандум, коллекция

### **Keywords**

Management, museum, marketing, tourist art, memorandum, collection.

**B**ugungi kunda muzeylar millatning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va sanat sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlarto‘g‘risida”gi PF-3022-sonli qarorini ijro etishyuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qildi.

2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi Buyuk Britaniya kengashi va Goldsmiths universiteti bilan hamkorlikda muzeylarni boshqarish buyicha uzoq muddatli dasturni amalga oshirmoqda.

Bundan maqsad shuki, muzeylarning ma'muriy tuzilmasini takomillashtirish va tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda Buyuk Britaniyadagi muzey ish tajribasiga asoslangan bo'lib, O'zbekiston muzeylarning muzey menejmenti, loyihalarni boshqarish, shuningdek, marketing va kommunikatsiya sohasidagi ilg'or xalqaro tajribalarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Bugun mamlakatimizda halqimizning tarixiy, ilmiy va madaniy merosini, ma'naviy qadriyatlarni o'zida asrab kelayotgan 130 dan ortiq muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Muzeylar Vatanimiz rivojlanish tarixi sanati, madaniyati, ijtimoiy-madaniy sohalarda erishgan yutuqlari haqida hikoya qiluvchi o'ziga xos ko'zgudir. Mamlakatimizda bu borada mustahkam xuquqiy asos yaratilgani, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi qonuni muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va takomillatirish, ularda saqlanayotgan noyob eksponatlarni asrab-avaylash, o'rganish va targ'ib etishga hizmat qilmoqda. Yosh avlodni vatanparvarlik, halqimiz tarixi va buyuk ajdodlarimiz merosi bilan fahrlanish ruhida tarbiyalashga ko'maklashish muzeylarning muhim vazifalaridandir.

Muzeylar faoliyatini yaqindan o'rganish, ularning mazmun va ma'no jihatdan rang-barang turlarini ajrata bilish, xalq ommasi orasida keng targ'ib etishning xilma-xil usullarini joriy qilish «Muzeysenoslik» degan keng bir sohaning vazifalaridan hisoblanadi. Mamlakatimizdagi muzeylar ishiga bo'lgan katta e'tibor mutaxassis kadrlarni yetishtirishni taqozo etadi (4-bet).

Bu borada, tabiiyki, manaviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada O‘rta Osiyoda ilk bor tashkil etilgan badiiy muzey hisoblangan O‘zbekiston Davlat sanat muzeyi ham o‘rin egallaydi. Muzey 1918-yilda Toshkent shahrida Xalq universiteti muzeyi sifatida asos solingan 1935-yildan boshlab muzey O‘zbekiston davlat sanat muzeyi deb atala boshlandi.

O‘zbekiston davlat sanat muzeyining xilma-xil kolleksiyalari asosini O‘zbekiston sanati tashkil etib, O‘zbekiston xalq amaliy va tasviriyligi sanati, Rus va G‘arbiy Evropa sanati, Xorijiy Sharq xalqlari sanati bo‘limlari bo‘yicha sanat asarlari saqlanib kelinadi. (5-bet)

Muzeyning eng katta to‘plamlaridan biri O‘zbekiston tasviriyligi sanat asarlarining kolleksiyasidir. Kolleksiya milliy badiiy madaniyatning shu turi tarixini to‘la-to‘kis ifodalab turadi. Muzey fondi xamisha to‘ldirilib turmoqda. Shuningdek, muzey eksponatlari vaqtiga vaqtiga bilan ekspozitsiyaga qo‘yiladi. Muzey zallarida, muzey zahirasida saqlanayotgan qadimiy sanat turlariga oid bo‘lgan tasviriyligi va amaliy sanat eksponatlari namoyishga qo‘yilgan. (7-bet)

Muzeyda turli davlatlarning sanat ko‘rgazmalarini tashkil qilinadi. Bu esa qiziqarli muzey to‘plamlari bilan go‘zallik, sanat shaydolarini yaqindan tanishtirish imkonini beradi. Ko‘p yillardan buyon O‘zbekiston Davlat sanat muzeyi dunyoning ko‘plab muzeylari bilan turli ko‘rgazmalar tashkil etib kelmoqda.

Jumladan, 2017-yilda Moskva zamonaviy sanat muzeyi bilan xamkorlikda Andrey Esionovning shaxsiy ko‘rgazmasi hamda Italiyaning yirik MASRI to‘qimachilik komponiyasining “Moda haftaligi” muzeyda tashkil etildi. 2019-yilda aprel oyida Qozog‘iston Respublikasining Milliy muzeyi bilan hamkorlikda “Buyuk dasht: tarix va madaniyat” nomli ko‘rgazmasi tashkil etiladi.

Muzeyda saqlanayotgan qadimiy qo‘lyozmalar, turli davrlarga oid tarixiy ashyolar, xaykaltaroshlik, amaliy va tasviriyligi sanat

namunalarini ko‘rishga, o‘rganishga chet ellik sayyoohlar o‘rtasida ham qiziqish juda kattadir.

Muzeyda marketing va turizm bo‘limi tomonidan 2019-2020-yillar davomida ko‘plab turistik firmalar bilan shartnomalar tuzilib, muzeyga chet el sanat ihlosmandlarini jalg qilib kelmoqda. Muzey mamlakatimizdagi eng sergavjum maskanlardan biri bo‘lib, yiliga 200 mingdan ziyod sanat ixlosmandlari tashrif buyurishadi.

Muzey va turizmning uyg‘unligi sayyoxlarga manaviy ozuqa berish bilan birlgilikda, tarixiy va madaniy merosimiz bilan yaqindan tanishishga imkon yaratadi. O‘zbekistonda bu turdagি turizmni yo‘lga ko‘yish uchun nafaqat chet davlatlararo balki respublikamizning barcha muassasalari bilan shartnomalar tuzib, qiziqarli tadbirlar tashkil etib sayyoohlarni jalg qilish mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekiston davlat sanat muzeyi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti bilan xamkorlikda memorandum tuzdi. Muzeyshunoslik kafedrasi filiali ochildi. Bu memorandumni tuzishdan maqsad shuki bugungi kunda Oliy malumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, Oliy talim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish va yoshlarni ilmiy faoliyatini keng jalg etishdir.

Muzeyshunoslik kafedra filialining ochilishi bu sohaga yetuk malakali kadrlar tayyorlash borasidagi muhim qadamlardan biri sanaladi.

Barcha muzey xodimlari muassasa siyosati va tizimlari bilan ma’lum darajada aloqada bo‘lib, ko‘pchilik o‘zlari uchun muhim boshqaruв vazifalariga egadir. Buyuk Britaniya hukumati tahlili shuni ko‘rsatdiki, barcha hodimlarning taxminan 24 foiz nafari menejment va nazorat funksiyalarini hech bo‘lmaganda ishlarining bir qismida bajaradilar hamda bu foiz kasbiy lavozimdagi xodimlar haqida gap ketganda sezilarli darajada oshadi, garchi ularning sarlavhasida «menejment» so‘zi yo‘q.

Yuqori rahbariyat masalalari bo‘yicha Buyuk Britaniyaning milliy professional tashkiloti, Chartered Menejerlar Institutti

shtat menejeri sifatida ishlamagan, balki professional yoki texnik ishchilar sifatida yo'llangan. (29-bet)

Masalan, muzeylarda malakali bosh muhofiz yoki restavrator ko'proq qimmatbaho texnik resurslarni, shu jumladan kolleksiyalar va jihozlarni boshqarish, loyihalar va ularning budgetlari, o'z bo'limida ishlash uchun doimiy yoki vaqtinchalik tayinlangan kichik xodimlar, tobora murakkablashib borayotgan ma'lumotlarni boshqarish uchun javobgardir.

Xulosa o'rnila shuni aytib o'tish kerakki, bugungi kunda O'zbekiston Davlat sanat muzeyi faoliyatida menejment va turizm sohalari tabora takomillashtirilmoqda. Shuningdek muzeylarning boshqaruv tiziminida muzeylar marketingining evolyutsiyasi, strategik rejlashtirish masalalariga chuqurroq kirish, muzeylarimizning missiyasi va qarashlarini ko'rib chiqish, ularning bozorini o'rganish bugungi kunda muhim masalalardan biriga aylanmoqda.

### Foydalanimanadabiyotlar:

1. Azizova N.K. Krukova S.M. Nikiforova Ye.M. O'zbekiston sanat muzeyi "O'zbekiston" Toshkent-1965.
2. Hakimov A. Fayziyeva V. O'zbekiston Davlat sanat muzeyi noyob xazinasidan-Toshkent-2014.
3. Patir Boylan i Viki Vulard Rukvodstvo dlya instruktora: "Upravleniye muzeyem prakticheskoye rukovodstvo" unisversitet goroda London-2008.



**Alisher Akramjon o‘g‘li Nazarov,**  
*2-kurs “Kino va televide niye rejissyorligi”*  
*mutaxassisligi magistranti*  
**Ilmiy rahbar: dotsent F.Fayziyeva**

## **TEATR VA KINODA AKTYORLIK MAHORATI**

### **Annotatsiya**

Maqola mahoratli kinoaktyorlar ko‘laming kengayishida aktyorlik kasbi mutaxassislarini individual tashabbuskorlikka undashni maqsad qilgan.

### **Kalit so‘zlar**

Aktyorlik, kinoaktyorlik, teatrdaqı aktyorlik faoliyatı, laboratoriya, aktyorlik psixotexnikasi, nozik ijro mahorati, nomuvofiq holat, detall, organika, amplua, traversi ampluasi, kinoapparat, tipaj, kasb mutaxassisi

### **Аннотация**

Статья призвана побудить профессионалов актерского мастерства проявить индивидуальную инициативу в расширении круга квалифицированных киноактеров.

### **Ключевые слова**

Актерское мастерство, игра в кино, игра в театре, лаборатория, актерская психотехника, тонкое исполнительское мастерство, несоответствующая ситуация, деталь, органическое, роль, роль траперса, кинематограф, тип, профессионал

### **Annotation**

The article aims to encourage acting professionals to take individual initiative in expanding the scope of skilled film actors.

### **Keywords**

Acting, film acting, acting in the theater, laboratory, acting psychotechnics, fine performance skills, inappropriate situation, detail, organic, role, role of traverse, cinematography, type, professional

**H**ozirda kino san’atini yanada rivojlantirish borasida ko‘pgina samarali izlanishlar qilinmoqda. Jumladan, muammolar o‘rganilib, uning yechimiga qaratilgan masalalar kun tartibida turibdi. “Bugun kinodagi mavjud muammolarning sababi

nimada?"- degan savol deyarli ko'pchilikni tashvishlantirmoqda. Ilgari o'zbek kinofilmlari bilan faxrlangan bo'lsak, bugungi kunda ayrimlarini tomosha qilib uyalish darajasiga boramiz. Vaziyatni oqlashga undovchi bahonalar talaygina, lekin kino tomosha san'ati ekanligini inobatga olsak, filmning qahramoni, albatta, inson va uning obrazi, o'yu-hayollari, quvonchu-tashvishlarini gavdalantiradigan aktyorga ko'p narsa bog'liq.

Bugungi kunda risoladagidek ijro mahoratiga ega aktyorlarimiz qancha? Nega ular barmoq bilan sanarli? Yangi shakllanib kelayotgan aktyorlar avlodining salohiyati qay darajada? Nega ko'plab teatrлarda ishlayotgan aktyorlar bir tomon-u, kinoaktyorlik tushunchasi bir tomon? Tomosha avvalo teatrnikи ekan, birinchi navbatda aktyor ham shu yerda bo'lmaydimi? Harqalay teatr aktyor uchun katta laboratoriya vazifasini o'taydi. U bu maskanda tajriba orttiradi, mahorati qirralarini charxlaydi. Shu o'rinda ayrim bitiruvchi va bir qancha teatr aktyorlari kinoaktyorlik masalasiga birmuncha ikkilanib qaraydi, lekin mohiyatan oladigan bo'lsak, aktyorlik kasbi teatrda ham, kinoda ham yagona o'zakka ega. Kasb mutaxassisini izlanib, har ikki jabbaga dahldor va farqli jihatlarni tushunib olsa, ikkala sohada ham samarali faoliyat yuritishi tayin.

Kino va teatrдagi aktyorlik faoliyatida bir-biriga tutash va umumiy jihatlar ko'p. Ikkala sohadagi aktyorlarning ifoda vositalari yagona. Bularga uning tanasi, plastik xatti-harakati, mimika, ovoz va nutq, psixotexnika kabi unsurlar xos. Ma'lum va mashxur K.S. Stanislavskiy sistemasi ham teatr, ham kino aktyorlik san'ati uchun asos hisoblanadi. Zero, uning o'zi "...yozganlarim ayrim davr va o'sha zamon kishilarigagina taaluqli bo'lmay, balki hamma zamon va zamonalardagi artistlik qobiliyatiga ega bo'lgan barcha millatlarning organik tabiatiga taaluqlidir". Shu bois kino, hoh teatrda bo'lsin rol ustida ishlash, unga qay tarzda tayyorlanish talablari deyarli bir xil. O'z o'rnida aktyorlik mahorati bobida har ikki san'atning alohida xususiyatlaridan kelib chiquvchi ayrim farqlari mavjud-ki, bu ikki san'at sohasining o'ziga xos shart-sharoitlari bilan bog'liq.

Teatrda aktyor odatda sahnada rejissyor va rassom tomonidan yaratilgan shartli makon muhitida rol ijro qiladi. Bu makonda (sharq teatr san'atidan farqli ravishda) to'rtinchi devor bor. Aktyor zalda

o'tirgan tomoshabin bilan goho qarshisidagi ko'rinas devor orqali, goho eski qadrdonidek bevosita jonli muloqotga kirishadi. Bunda tomoshabin zalining katta yo kichikligiga qarab, ijroda qahramon xatti-harakati, mimika, nutqiga yaqqol tus beriladi, ovoz tomosha zalining so'nggi qatoriga qadar eshitiladigan qilib yo'naltiriladi, grim bo'rttiriladi, kerak bo'lsa, detallar, mayda xatti-harakatlar ham shunga monand ishlanadi va hokazo. Xullas, aktyor rolining teatrona ta'sirchan bo'lishi uchun keng diapozonda ish ko'radi. Shuning uchun teatr aktyoriga qo'yiladigan talablar birmuncha yuqori va jiddiyligi bilan farqli. Teatr aktyori ayni vaqtida saviyali rol ijro qilish mahoratiga ega bo'lishi bilan birga yana qo'shiq kuylashi, raqsga tushishi, sahna harakati bobida faol, zarur bo'lgan biror musiqiy asbobni chala bilishi lozimdir.

Teatrda mohirona bo'rttirilgan ijro uslubi, tashqi ko'rinish, sahnaviy vositalar bilan uyg'un kechadigan va bari unsurlar badiiy yaxlit shaklda hal etilgan bo'lsa, har qanday rol tomoshabin tomonidan hotirjam va iliq kutib olinadi. Bu bilan teatrning o'ziga xos shartlilik tabiatini-da qabul qiladi. Kinoda esa u shartli sahna muhitida emas, ochiq tabiat (natura) – ko'cha, xona,sovuz yoki jazirama issiqda, rostakam shamol, yomg'ir yoki qorda xatti-harakat qiladi va navbatи bu muhitga (ba'zan sun'iy ravishda dekoratsiya yaratilgan bo'lsa ham) har qanaqa bo'rttirishdan holi hayotdagidek tabiiy singishib ketishi lozim bo'ladi. Kinodagi aktyorlik o'yinida muhim xususiyat nozik ijro mahoratining taqozo etilishidir. Bunda sahnaga xos plastika, mimika, ovoz qobiliyatlaridan farqli aktyorlik psixotexnikasi birlamchi ahamiyat kasb etadi. Aktyor psixotexnikasi – undagi o'y-fikrlarning tana va nigohlar xatti-harakati, imo-ishoralari bilan organik holda uzviy mos tushishi, uning har qanday zo'rakilik yoki g'alizlikdan holi, ifodali namoyon etilishidir.

Teatrda bo'lgani kabi kinoda ham saviyali dramaturgiya aktyor uchun obraz yechimini muvaffaqiyatli topishda ahamiyatli. Bu narsa rol ustida maroq bilan ishlashni rag'batlantiradi.

Kinoaktyor ham rolga tanlangach, teatrda bo'lgani kabi repititsiyaga muhtoj. U tayyorgarlik davridagi mashg'ulotlarda beixtiyor namoyon bo'luvchi xatti-harakatlar, imo-ishora, lozim paytlari aytilgan so'zlarining xilma-xil tovush ohangini mexanik

o'rnab qolishidan saqlangani ko'yi, turfa farqli variantlarda ko'rib, ishini o'rganishi maqsadga muvofiq sanaladi.

U teatrda boshdan oxiriga qadar spektakl ijro etsa, kinoda epizodma-epizod ishlaydi. Bu degani teatrda rol taqdiri ko'proq aktyorga bog'liq. Xatto, premeradan so'ng ham unda rolni isloh qilish imkoni mavjud. U sahna hukmdori. Kinoda bo'lsa, yakuniy natija bilan faqat rejissyor tanish va faqat u epizodlar yechimini hal qiladi. Kinoaktyor esa rol borasida rejissyor bilan o'zaro qanday yechimga kelingan bo'lsa, shuni o'ynaydi. Shu bois teatr aktyoriga qaraganda kino aktyorining yaratgan roli ko'proq rejissyor talabiga qaratiladi.

Teatr spektaklida aktyor rolni munosabatlar borasida har gal ularga ilk bor duch kelayotgandek o'ynashi lozim. Biroq kinoda bu kamera oldidava u bilan qilingan birnechta dubllardan narigao'tmaydi. Teatrda aktyor yaratayotgan obrazini premeradan keyin ham yaxshilash, takomillashtirish imkoniyatiga ega. Ko'pincha bu zarurat tomoshabin aktyor ijrosini qanday baholayotgani, uning qahramonini qaytarzda qabul qilayotgani natijasida – bir "oyna" misol yuzaga keladi. Yana, K. S. Stanislavskiy fikricha "rejissyorning spektakl va aktyorlar ustidagi ijodiy ishi premeradan keyin boshlanadi" ham deyiladi. Kinoda esa aktyor plyonkaga muhrlangan ijrosiga, yaratgan obraziga keyinchalik birorta o'zgartirish kiritolmaydi. Faqat suratga olish jarayonidagina postanovkachi rejissyor aktyor ijrosiga mulohaza bildirishi, o'zida tug'ilgan dastlabki taassurotni o'rtoqlashishi, "oyna" bo'lib ishga tuzatish kiritishi mumkin.

Teatrda aktyor ijrosi natiasi so'nggi repetitsiyada ko'rinsa, kinoda qahramonning roli rejissyorning montaj stolida poyoniga yetadi. Kamdan-kam hollarda kinorejissyor ketma-ketligi yopishmayotgan va "tuzatish lozim"- deb topilgan ba'zi bo'lak yoki bo'lakchalarni qayta suratga olishga ehtiyoj sezadi. Bunday hollarda aktyor rolini qaytadan ko'rib chiqish imkoniyatiga ega. Biroq, bu har doim ham sodir bo'lavermasligi hisobga olinsa, kinoda - najot har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rib keyin suratga tushishdagina xolos.

Kinoapparat har bir xatti-harakatni detalli tarzda ilg'ash xususiyatiga ega. Ijro me'yor darajasidan sal ortsa, nimadir yetmasa, yoki unda ozgina siqiqlik bo'lsa ham darhol seziladi. Aksincha, kamera qarshisida yengil, erkin, bosiq ish ko'rilsa vaziyatdan chiqish imkoni

tug‘iladi. Zero, kinematografiya paydo bo‘lgan paytlari aktyordagi neytral qarashni turfa predmetlar bilan montaj qilib sinagan L.Kuleshov aktyorning kinodagi birlamchi holati qay tarzda bo‘lishi kerakligini aniqlab bera oldi. Aynan shu omillar sabab, professionallar “kinoda ijro me’yoriga sal yetmagani ma’qul” deb ham aytishadi. Albatta, har qanday notabiyylik (soxtalik, yolg‘on) katta ekranda yanada aniq seziladi.

Ta’kidlanganidek, sezgir kamera qarshisida aktyor uchun tabiiy organik qobiliyat ko‘proq qo‘l keladi. Aktyorning dramatik holatdagi ishonarlio‘yini tomoshabindayuzaga keluvchi hissiyotlar, kechinmalar sababchisi. U umumiy, o‘rta, ayniqsa, yirik planda yana ham ta’sirchan kuchga ega bo‘ladi (mas: buni Bergmancha yirik planlarda ko‘rish mumkin va bu usuldan keyingi avlod rejissyorlari ham samarali foydalanmoqda). Va tomoshabin ko‘z oldiga bunday psixosoniyalarni faqat kino tutib ko‘rsata oladi. Shunday ekan, kinoda ijro maksimum darajada haqqoniy bo‘lishi talab etiladi.

Kino teatrtdagi uzun monolog va salmoqli dialoglardan farqli ravishda so‘zdan iloji boricha minimum darajada foydalanadi. Adabiy asosni maksimum xatti-harakatga ko‘chiradi, yoki o‘zining boshqa ifodaviy vositalari bilan kino tiliga boplaydi. Lekin so‘zlar hajmi qanchalik kam, qisqa va siqiq holda bo‘lmasin, ular orqali mazmun-mohiyat, chuqur tagma’nolar ochib berilishi vajidan nihoyatda zalvorli. Shuning uchun, teatrda bo‘lgani kabi kinoda ham aktyor ijrochiligida xos nutq ustida ishlash dolzarblik kasb etadi. Mazkur qobiliyat rol qirralarini nutq orqali ham ifoda qila bilish layoqati uchun zarur. Chunki so‘zlar talaffuzi, ba’zi tovushlarning tuslanishi va ohangdorlikda qahramon his-tuyg‘ularigina emas, uning asli, nasli, hududiy dahldorligi-yu, milliy fenomengacha akslanish mumkin. Yaxshi shakllangan bunday layoqat suratga olish davrida rejissyor bilan ishlashni yengillatadi va partnyorlar bilan ijodni jadallashtiradi, o‘z navbatи, aktyorni ovozlashtirish jarayoniga tayyorlaydi. Agar Gollivuddagidek suratga olish barobarida ijrochining so‘zlarini ham yozib borish tajribasiga suyanadigan bo‘lsak, bu kinoaktyor ega bo‘lishi lozim muhim sifatlardan biridir.

Teatrda bo‘lgani kabi, kino aktyorligi san’atida ham ampula mavjud va bu teatrdagiga nisbatan qat’iyroq ham. N.G‘aniyevning “Tohir va

Zuhra”sida Vazir hamda K.Yormatovning “Alisher Navoiy” filmida vazir Majdiddin rollarini mahorat bilan ijro etgan aktyor Obid Jalilov bu asarning teatr postanovkasida ham vazir, umuman, salbiy qahramonlar ijrochisi edi. Yoki Asad Ismatov kinoda ham, teatrda ham feodal hukmdor. Sh. Abbosovning “Mahallada duv-duv gap” va “Sen yetim emassan” filmlaridagi ona – Lutfixonim Sarimsoqova avvalida teatrning, kinodan so‘ng o‘zbek xalqining ayasi maqomiga erishgan. Bu teatrda ampulasi kinoga ko‘chgan komiklarimiz Soyib Xo‘jayev, Ergash Karimov, Shafoat Rahmatullayeva ijodlarida ham kuzatiladi. Ammo teatrda bo‘lgani kabi kinoda ham aktyor o‘z ampulasini yanchib, rollar xilma-xilligiga erishishi mumkin. Buning uchun aktyorda xohish, qat’iyat, ko‘p qirralilik va yangilikka intilish bo‘lsa bas. Masalan, yuqorida birlamchi ampulasi ta’kidlangan aktyor Obid Jalilovni kinorejissyor Sh.Abbosovning “Sen yetim emassan” filmida avvalgi rollaridan farqli asrab olingan bolalarga o‘z bolasidek mehribon, ular tarbiyasida karra mas’uliyatli, muruvvat sohib Mahkam ota obrazida ko‘ramiz. Bu roli bilan u kinodagi odatiy ampulasini yanchib, butunlay boshqa qiyofada namoyon bo‘ladi.

“Kinoning san’at sifatidagi noyob xususiyatlaridan biri filmlarda tipaj ishlatischidir. Tipaj – aktyor emas. Rejissyorlar o‘ylagan obrazni ifodali, haqqoniy va tabiiy chiqishi uchun ko‘pincha professional bo‘lmagan ijrochilar ham filmda qatnashadilar”. Teatrning ba’zi aktyorlarida esa hali kinoda o‘zini sinamay turib, “Men tipajmasman” yoki “Yuzim fotogenmas” degan shubhalar yuradi. Tipaj o‘zi mos keladigan rolini ijro etarkan, qahramon holatiga kirmaydi (garchi uni grim qilishsada) balki rejissyor taklif etgan shart-sharoitlarda o‘zini-o‘zi o‘ynaydi. “Tipaj har qanday shartlilikdan holi, tabiatan aynan hayotiylikka yaqin bo‘lgani bois kino san’ati undan foydalanadi. Teatrga esa tipaj umuman to‘g‘ri kelmasligi isbotlangan. Rus teatri tarixidan bilamizki, K. S. Stanislavskiy haqqoniyligka erishish uchun, “Zulmat sultanati” spektaklida haqiqiy dehqon ayolini o‘yinga kiritadi. Unga nag‘ma hirgoyi qilgan holda sahna bo‘ylab yurib o‘tish, kimnidir chaqirish vazifasi yuklanadi. Sahnada haqqoniy hayot yuzaga keladi. Lekin keyin rejissyorning tan olib aytishicha, u bu niyatidan darhol voz kechishga majbur bo‘lgan. Negaki dehqon ayoldan keyin teatr san’ati shartliligini o‘zida mujassam etgan professional aktyorlarning sahnaga chiqishi

mumkin bo'lmay qolgan. Zero o'rtada qandaydir nomuvofiq holat yuzaga kelgan va shu bilan tipaj teatr uchun tamoman yot ekanligi ayon bo'lgan".

Teatrda, hatto yosh tomoshabinlar teatrda: yosh qahramonlar rollarini ham katta aktyorlar ijro etishadi. Teatrda o'smirlar rolini o'ynaydigan traversti ampulasidagi aktrisalarning borligi ham tasodifiy emas. Yoki ayol rolini erkak va aksincha holatlar ham teatrga xos. Mashhur artist S. Bernar sahnada shahzoda Hamlet obrazini, yoki kampir holida 14 yoshli Julettani mahorat bilan o'ynay olgani fikrimizga dalil. Kinoda esa bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Film syujeti bo'yicha agar aktyor qiz bola kiyimini kiysa, yoki buning aksi bo'lsa, bu boshqa gap. Yana bolalar haqidagi filmda ham bolalarning o'zlarini rol ijro etadilar, kattalar uchun filmlarda ham bola qatnashsa, unda ham bolalar o'ynaydi. Teatrda shartli ravishda biror-bir qahramon yoki qatnashuvchi hayvon rolini teatr aktyori ya'ni odam o'ynashi mumkin, biroq kinoda qatnashuvchi yoki qahramon jonivor rolini jonivorning o'zi ijro qiladi.

Kinoda – badiiy filmlarda rollarni turli aktyorlik maktabiga molik bo'lgan, turli yo'naliishlardagi teatrlarga mansub aktyorlar tipajlar bilan yonma-yon turib ijro etishlari mumkin. Bunday toifa harakterli birlik faqat kinoda bo'lishi mumkin. Teatr sahnasidagi ijro esa bundan mustasno holda o'z ijro yo'naliishlariga qarab farq qiladi va hokazo.

Ayni dam bizning kino o'z kasbini yaxshi bilgan va mahorat sohibi bo'lgan aktyorlarga ko'proq muhtoj. San'at oliygohi bitiruvchilari va teatrlarda faoliyat yuritayotgan mutaxassis aktyorlarni boshqa vakillardan ko'ra ushbu mezonga yaqinroq deb bilaman. Zero, kinoda ham, teatrda ham aktyor ijodining oliy vazifasi o'z san'ati vositasida inson obrazini yaratishdir. Buni esa kasb mutaxassisigina maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishi mumkin.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. K.S. Stanislavskiy "Aktyorning o'z ustida ishlashi" T-2010
2. R.I. Usmonov "Rejissura" FAN -1997
3. X. Abulqosimova "Kino san'ati asoslari" T-2009

Xondamir Zuxrob o'g'li Niyozov,  
2-kurs "Aktyorlik sanati (qo'g'irchoq teatri aktyorligi sanati)"  
mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: s.f.d., professor S.M.Qodirova

## ZAMONAVIY QO'G'IRCHOQ TEATRI DRAMATURGIYASINING O'ZIGA XOSLIGI

### Annotation

Maqolada zamonaviy qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasining o'ziga xosligi, yutuq va muammolari xususida, bugungi kun qo'g'irchoq teatrining ijodiy faoliyatiga to'xtalib o'tilgan.

### Kalit so'zlar

Qo'g'irchoq, pesa, aktyor, rejissyor, konflikt, sahnaviy yechim.

### Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности, достижения и проблемы современной драматургии театра кукол, а также творческая деятельность театра кукол сегодня.

### Ключевые слова

Кукла, пьеса, актер, режиссер, конфликт, сценический образ.

### Annotation

This article examines the features, achievements and problems of modern puppet theater drama, as well as the creative activity of puppet theater today.

### Keywords

Doll, play, actor, director, conflict, stage image.

*"Teatrni haqiqiy ma'naviyat o'chog'iga  
aylantirish uchun avvalo yaxshi asar kerak.  
Buning uchun bu yerda taniqli san'at namoyandalari,  
dramaturglar bilan uchrashuvlar tashkil etib,  
ijodiy muhit yaratish zarur"*  
**Shavkat Mirziyoyev**

**I**nson ongiga ma'lum g'oyani singdirishda teatr san'atining o'rni va imkoniyatlari beqiyosdir. Teatr, tasviriylar san'at, musiqa, adabiyot va dramaturgiya unsurlarini o'zida mujassam etgan teatr san'ati

bir tomondan – jamiyatda kechayotgan jarayonlarga badiiy, falsafiy, estetik umumlashmalar nuqtai nazaridan yondoshsa, ikkinchi tomondan – unga xos bo‘lgan ommaviylik bu umumlashmalarni katta-katta auditoriyalarga maroqli va ta’sirchan shakl-shamoyilda yetkazib berish imkonini yaratadi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda san’atga xususan teatr san’atiga e’tibor kuchaydi. Bizga ma’lumki, teatr yurtning, xalqning ma’naviy ko’zgusi hisoblanadi. U har doim va har davrda tomoshabinlar talabiga javob berishga harakat qilgan va ularni og‘irini yengil qilishga intilgan. Teatrdoimo‘z tomoshabinlarini orzu-umidlari, quvonch tashvishlarini yengillatish, ularni orzu qilishga undash, yomonlik va yovuzliklarni bartaraf qilish uchun kurashish, yaxshiliklar uchun intilib yashash kerakligini o‘rgatgan va shuning uchun tinimsiz harakat qilgan. Shuni aytish lozimki, teatr faqatgina turli xil tomosha ko‘rsatadigan yoki bo‘lmasa, shunchaki, madaniy hordiq chiqaradigan joy emas. Teatr tomoshabinni fikrlashga, go‘zallik olamiga olib kirib bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratib beruvchi dargohdir. Hayotda yechimini topa olmayotgan muammolarni bartaraf qilish uchun yoki bo‘lmasa, savolariga javob topolmayotgan inson ibratxona sanalmish teatrga kelib, hayotiy spektakllarni tomosha qilish mobaynida juda ko‘p narsani anglab yetishi, muammolariga yechim topa olishi mumkin.

Bu borada qo‘g‘irchoq teatri yosh bolalar bilan bir qatorda ularni yetaklab kelgan ota-onalariga ham estetik ta’sir ko‘rsatadi. Boshqa teatrlardan farqli o‘laroq, qo‘g‘irchoq teatri sahnasini makonida ikkita ijodkor, ya’ni bir aktyor va bir qo‘g‘irchoq mehnat qiladi, muhit yaratadi va yashaydi. Aytish joizki, ushbu teatr sahnasida yaratiladigan har bitta spektaklda albatta jozibali va go‘zal qo‘g‘irchoqlar yordamga keladi. Ularning yordamisiz ham ushbu teatrda aktyorlarning o‘zlari turli hil multfilm yoki bo‘lmasa ertak qahramonlarining qiyofasiga kirib spektakl yaratish mumkin. Qo‘g‘irchoq teatr san’atining janr ildizlari

qadimda folkloriga, an'anaviy xalq teatri san'ati oqimlariga borib taqalgan. Umuman olganda, ibrat bo'la olish namuna ko'rsatish yo'li bilan kattalar va bolalarning ruhiyatiga tasir o'tkazishda san'atning ahamiyati muhim ekanligini eramizdan avvalgi IV-V asrlardayoq ajdodlarimiz anglab yetgan ko'rindi. Qo'g'irchoqlar orqali nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham tasir o'tkazib kelganligi Geradot, Mark Avreliy, Arastu kabi qadimgi tarixchi va allomalarining asarlarida keltirilgan.

Qo'g'irchoq teatr sahnasida namoyish etilayotgan har bitta spektakl yosh bolalarning dunyoqarashi, ularning ma'naviy ongini shakllanishi uchun beminnat xizmat qiladi. Garchi, asosiy tomoshabinlarini yosh bolalar tashkil qilsada, teatr sahnasida qo'yilayotgan spektakllarni ijodkorlar saralab qo'yishadi. Tomoshabinlar ham o'z tanlovidan o'tgan spektakllarni ko'rishadi. Ularni "Aldagani bola yaxshi" qabilida ma'nан sayoz spektallar bilan aldab bo'lmaydi. Tomoshabinlari asosan yosh bolalar bo'lsa-da, qo'g'irchoq teatrining har bitta spektakliga teatr jamoasi katta e'tibor qaratishi zarur va majbur chunki, spektakl tomoshabinlar ongiga ijobiy ta'sir qilishi uchun xizmat qilishi shart. Shunchaki, dramaturglar tomonidan yoziladigan va sahnalashtirilgan yoki bo'lmasa aktyorlari ham "xo'ja ko'rsinga" rol ijro etadigan spektakllarni (yoshidan qat'iy nazar) hech bir tomoshabin ko'rmaydi. Chunki, xar taraflama mukammal, dramaturgiyaning qonun-qoidalariga, talabiga javob beradigan, tomoshabinni ortidan emas, aksincha o'z ortidan ergashtira oladigan spektakllar bo'lsa, albatta hech bir tomoshabin shunday sahna asari tomoshasidan voz kecholmaydi.

Qo'g'irchoq teatrining aktyorlari ijrosida qo'g'irchoqlar harakatga keladi aynan shu holatga tomoshabin ko'proq ishonadi. Ular qo'g'irchoqlarning har bitta harakatini o'zgacha qiziqish va diqqat bilan kuzatadi. Joriy yilning statistik ma'lumotlariga qaraganda teatrga keladigan muxlislarning asosiy qismini rus, koreys, tatar va boshqa millatga mansub bo'lgan insonlar, qolganlarini esa ziyoli

o'zbeklar tashkil qilar ekan. Bundan ko'rinish turibdi-ki, teatrga kelgan ota-onalar farzandini dunyoqarashini takomillashtirishga katta e'tibor berishayapti. Ular farzandlarining estetik kamoloti, tafakkuri dunyoqarashiga loqayd emas.

Qo'g'irchoq teatri o'zining tabiatiga ko'ra jozibali bo'lish bilan bir qatorda chaqqonligi, safarbarligi, joy, vaqt va makon tanlamasligi, doimiy tomoshabinga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Qo'g'irchoq teatrining eng birinchi mas'uliyatli jihat shundaki, asosan yaxshi asar tanlab uni tomoshabinlarga qiziqarli va mazmunan qolaversa, xar taraflama mukammal shaklda jajji tomoshabinlarga yetkazishdan iborat.

Uzoq tarixga va boy qadimiyligi qiyofalariga ega an'anaviy qo'g'irchoq teatri o'zining maftunkorligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Muxsin Qodirov tabiri bilan aytganidek, "Osiyo qo'g'irchoq teatri bushunchaki ermak emas, balki bir qita xalqlarining falsafasi, dini, adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriy san'ati va albatta tillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir. Aynan mana shu uzoq tarixga ega san'at turi va uning dastlabki qiyofalari bevosita an'anaviy qo'g'irchoq teatr san'ati hisoblanadi". An'anaviy qo'g'irchoq teatri xalq orasida juda mashhur bo'lib, asosi og'zaki dramaturgiya hisoblangan. Zero, dramaturgiya teatr bilan birga tug'iladi va birga yashaydi. An'anaviy qo'g'irchoq teatr bugungi zamonaviy teatrda ayrim jihatlari bilan farq qilgan. Masalan, zamonaviy teatrda asosan dramaturglardan boshlanib, asosiy mas'uliyat rejissyor zimmasiga tushadi. Aktyorlar butun ijodiy guruxning mehnatini yuzaga chiqaruvchi jamoa a'zosidir. An'anaviy qo'g'irchoq teatrda esa asosiy mas'uliyat aktyor zimmasida bo'lgan. Shu sababdan aktyorlarga qo'yilgan talab va ularning imkoniyatlari ham yuqori darajada bo'lgan.

Og'zaki dramaturgiya – an'anaviy qo'g'irchoq teatrining asosini tashkil etadi. Aktyorlar jamoasi uchun ham og'zaki dramaturgiya asosida tomosha ko'rsatish qulay sanalgan. Aslini olganda, xalq orasida mashhur bo'lgan, xalq to'qigan voqealar va shu davrda sodir

bo'layotgan hodisalar tomoshalarning asosiy syujetini tashkil qilgan. Demak, og'zaki dramaturgiya bu tasodifiy holatemas. Bu asarning ham asosi bo'lgan va aktyorlar tomoshaning asosiy mazmunini buzmagan holda improvizatsiya orqali rol ijro etganlar.

Qo'g'irchoq dramaturgiysi o'z o'rnila rivojlanishi kutilayotgan va zarur bo'lgan soha hisoblanadi. Qo'g'irchoq teatr jamoalari bu muammoni baholi qudrat bartaraf etish yo'lida o'ziga xos izlanishlar olib borishmoqda. Qo'g'irchoq teatrlarining tarixiy faoliyatida xususan so'nggi 2000-2019 yillar davomida qo'g'irchoq teatrining bir qancha namunalari yaratildi. Ular orasida aynan sahna uchun mo'ljallab yozilgan dramaturgik asarlarda rang-barang yondoshuv, mualliflarning o'ziga xos talqini guvoxi bo'lish mumkin. Lekin asar mualliflariga e'tibor qaratilganda, ko'zni quvontiradigan holatlar kuzatilmaydi. Qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasidagi muammolar hal etish o'rniga yanada murakkablashib bormoqda. Sababi, mahalliy dramaturglarning qo'g'irchoq teatri janrida asar yaratmayotgani, yaratilayotgan asarlarning teatr talabalariga mosemasligi, muammoning yildan-yilga keng tus olishi bugungi vaziyatni taqazo etayapdi. Teatr repertuari esa avval tajribadan o'tgan mashhur asarlar, o'zbek va jahon ertaklari inssenirovkalari hisobiga to'ldirilmoqda. To'g'ri butunlay dramaturgik asarlar yo'q deya olmaymiz. Teatr jamoasi bor shart-sharoitda dramaturgiyanı butunlay chetga surib qo'ygani yo'q. Muammoning og'riqli tomoni shundaki, bugungi qo'g'irchoq teatri uchun sahna asari yaratadigan dramaturglarning kamligi. Bilamizki, teatrning boshqayo'nalishlarida asary ozadiga dramaturglar talaygina. Afsus bilan aytish o'rinliki, qo'g'irchoq teatri uchun daramaturglar deyarli yo'q. Misol uchun E.Xushvaxtov, M.Ashurova, I.Jumanov, J.Maxmudov va boshqa sanoqli insonlar asar yaratib kelmoqda. Biz bu muammoni bartaraf etish uchun qo'g'irchoq dramaturgiya kurslarini ochishimiz qolaversa, dramaturgiya yo'nalishida taxesil olayotgan talabalarning bazilarini qo'g'irchoq dramaturgiyasiga yo'naltirish

zarur va shartdir. Chunki, bu yo‘nalishda ijod qiladigan dramaturglar soni qancha ko‘p bo‘lsa biz chet el ertaklari asosida emas, o‘zimizning milliylik ruhi ufurib turadaigan asarlarni yoshlarimizga mazmunli yetkazib beramiz.

Muxtasar qilib aytganda, yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat, ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur. Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi hayotiy fikrlarni bayon qilgan ekan: “Dushmanlardan qo‘rqma – nari borsa ular seni o‘ldirishi mumkin. Do’stlardan qo‘rqma – nari borsa ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq – ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yerda xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi.” Har bir inson hayotda g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ana shu fikrlarni unib-o‘sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirishi, ularni hayot sinovlariga bardoshli qilib tarbiyalash nafaqat qo‘g‘irchoq teatrining balki ota-onas, ustoz-murabbiy va xar birimizning shu yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil.
- 2.Qodirov M. An’anaviy teatr dramaturgiysi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
- 3.Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2006.
- 4.Tursunov T. O‘zbek teatr tarixi. –Toshkent: ART PRESS, 2010.
- 5.Qo‘g‘irchoq hamda havaskorlik teatrlari uchun asarlar to‘plami. Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-metodik hamda axborot markazi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

Rustem Asanovich Niyetullayev,  
2-kurs “Kino, TV va radio ovoz rejissyorligi”  
mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: s.f.d. O.Tojiboyeva

## O‘Z KASBINI SEVIB YASHADI... (*Polat Juginisovning mehnat faoliyati xususida*)

### **Annotatsiya**

Bu maqolada o‘z kasbini sevib yashagan va teatrga mehr bergen ovoz operator Polat Juginisovning mehnat faoliyati haqida bayon etilgan.

### **Kalit so‘zlar**

Ovoz rejissyor, operator, spektakl, obraz, teatr.

### **Аннотация**

В этой статье рассказывается о трудовой деятельности звуко-оператора Полата Жугинисова отдавший свою любовь театру и профессию

### **Ключевые слова**

Звукорежиссёр, оператор, спектакль, образ, театр.

### **Annotation**

In this article deals with the labour activity of the sound operator Polat Zhuginsov who gave his love to theatre and to his profession.

### **Key words**

Sound engineer, operator, performance, form, theatre

**O**datda, aktyor sahnada tomoshabinni kuldiradi, fikrlashga undaydi. Spektakl davomida aktyor mahoratini musiqa to‘ldirib, boyitadi. Ovoz, nutq, harakat, yorug‘lik, ssenografiya bilan birlashadi. Bu oddiy insonlar tarafidan baholanadigan teatrning ajoyib sehri. Rejissyor, rassom, rejissyor yordamchisi va boshqa soha uchun hizmat qiladigan insonlarni «ko‘rinmas front askarlari» deb ham atashadi. Teatrda ovoz rejissyori ham mana shunday ko‘rinmas askarlardan biri.

Hozirgi zamon texnologiyalarining rivoji avj olgan ayni paytda ovoz rejissyorlarning xizmati juda ham katta ekanligini xis qilamiz. Teatrda spektaklmi yoki televedeniye ko‘rsatuvimi, hujjatli film tayyorlash jarayoni musiqasiz umuman tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Bugungi kunda teleserial bilan badiiy film tayyorlashda sauntrektlar katta rol o'ynamoqda. Sauntrekt – bu bir butun asarning voqeasini so'zlab berish va uni yuqori darajaga ko'tarishdir. Va bu joyda ovoz rejissyorining roli katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, ovoz rejissyori kim, nimani bajaradi va u kanday bo'lishi kerak degan savol o'rinni.

Birinchidan, ovoz rejissyori musika bilimiga, ilmiga va albatta didga ega bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, u jahondagi yangilanib borayotgan texnikalardan xabardor bo'lishi, ijodiy faoliyat jarayonida eskilarni yangi uskunalarga almashtirilishida o'z mahoratini namoyon etishi kerak.

Hozirgi vaqtda mikrofonlar, ovoz kuchaytiruvchi uskunalarva akustik sistemalar, dinamiklar va monitorlar borgan sari avtomatlashtirilib texnik-bazayangilanib bormoqda. Bir kun yangilikdan ortda qolish, bir nechta yil ortda qolish bilan barobar. Ushbu talablarning barchasiga javob bera oladigan Polat Juginisov, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatrida 30 yildan ortiq ovoz rejissyori, yorituvchi sex rahbari va bosh injener lavozimlarida xizmat qilib kelgan.

U 1956-yili Nukus shahrida tavallud topgan. Otasi Abilxaq Juginisov aktyor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan, Qoraqalpog'iston halq artisti halqimizning sevimli farzandi edi. U farzandi Polatning texnikaga qiziqishini sezib, uni shaxrimizdagi kasb-hunar kolleji radio-tele mexanik bo'limiga tavsiya qildi. O'smir yosh yigit sifatida kollejni tugatib, teatrda radio sexida ovoz operatori bo'lib o'z faoliyatini boshladi. Uning vazifasi spektakl vaqtida ovozli trektni boshqarishdan iborat edi. Ya'ni, sahnada yaratilayotgan obrazni diqqat bilan kuzatib, dialoglarni eshitish orqali zarur joylarida musiqani moslashtirib berishga javobgar edi.

Ovoz rejissyori bu shunday kasbki, o'z kasbi va teatrqa mehr berishni talab qiladi. Polat Juginisov mana shunday sabr-toqatli va teatrqa bor mehrini bergen inson bo'ldi. Ish boshlagan vaqtлari internet yoki SD diskalar bo'lмаган, mexanik boshqaradigan davrlar yedi.

1974-yili teatrning yangi binosi topshirilishi bilan yangi texnik uskunalar ham olib kelindi: og'ir va katta joyni egallab turadigan MEZ

studiya magnitofonlaridan iborat bo'lgan uskunaga ega bo'ldi. Bu katta mashinaga bir kilometrli plyonka joylashib, uni ishlatish oson emasdi. Har doim tik turgan holatda ishlab, zarur joylarda plyonkalarni bosib spektakl musiqasini eshitar edik deydi kasb egasi.

P.Juginisov ovoz operatori vazifasini bajarish bilan birga, ko'pincha spektakllarga musiqani tanlash rejissyor sifatida ham faoliyat olib bordi. Odatda, Polat Juginisov rejissyor tanlagan musiqani berish bilan cheklanib qolmasdi. Aksincha, spektakl syujetidan kelib chiqqan holda, shu spektaklning zarur joyida musiqalar haqidagi fikrga ega bo'lar edi. Oradan yillar o'tib, spektakllarga musiqani tanlashda rejissyorlarga o'zi maslahat beradigan darajaga ko'tarildi. Buning uchun u pesani o'qib, kaysi joyida musiqani kerak yekanligini sezib, o'zinig maslahatlarini berib turdi.

U ko'p yillar davomida teatr darg'alari hisoblanmish rejissyorlardan: Q. Abdireymov, N. Ansatbayevlar bilan birgalikda ijodiy faoliyat olib bordi. Ikki rejissyor ham ishini o'z vaqtida talab qiladigan, postanovkalarda spektaklning hamma kichik detallariga e'tibor berib, ularga qo'shimcha maslahat berish oson o'tmasdi. Mana shunday paytlarda ham, Polat Juginisov rejissyorlarga o'z fikrini yetkazishda, spektakllardagi psixologik joylarini musiqa bilan to'ldirish zarurligini uqtirardi.

Polat Juginisov, o'ztajribasi bilanteatr daijodiy faoliyat yuritayotgan yosh kadrlar bilan xamkorlikda olib borishni ma'qul ko'rар edi. Uning boshchiligida yirik to'rtta spektakl sahnalashtirilib, ularning har birida tomashabin tomonidan musiqaning rolini anglashga o'z hissasini qo'shdi.

Gastrol safarlaridan qaytishda, albatta radio plastinkalarini sotib olish uning odatga aylangan. «Buni nima qilasan deganlarga, zarur bo'lib qolishi mumkin»- deb javob berar edi. Natijada katta fonoteka yig'di.

Albatta, u o'zi yiqqan fonotekasini spektakllarda foydalandi. Har bir mavzuga tegishli musiqalar plastinkasini eshitib, zarur joyini yozish kerak bo'lgan. Uni qidirib topish uchun bir nechta hafta, hattoki oylar kerak edi. «Mavzusi» topilganida esa, ularni tartib bilan tasmaga yozardi.

Tasmalar kesib olinib bir-biriga bog'lanadi, kerakli joylari ko'chirilib bo'lganidan keyin ovozning baland-pastligini tekshiriladi. Undan so'ng spektaklning zarur joylarida foydalanishiga tayyorgarlik ko'rildi. Bitta kartina tugab, ikkinchi kartina boshlashdan oldin yoki pauzalarga musiqani tanlab bo'lgach uni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilish talab qilinadi. «Musiqani yeshitish»ning oddiy vazifasi – diqqat, tezlik reaksiya, stressga tushish imkoniyatiga ega bo'lish, stressga tushmaslik qobiliyatini namoyon etish jarayoniga kuchli tayyorgarlik ko'rildi.

Qoraqalpoq teatri o'tgan asrning 80-90-yillarida Respublikamizning tumanlarida 3 oylab, hatto 6 oylab ham gastrol safarlarida bo'lar edi. Bu olis qishloqlarda sharoitlar uncha yaxshi emasdi. Ammo Polat Juginisov doim teatr xodimlari, ya'ni barcha bilan birgalikda qiyin sharoitlarni yengishga xarakat qilar edi. Kasbdoshlari uning tinib-tinchimaydigan inson deb faxr bilan fikr bildirar edi.

Spektakl vaqtłari diqqat bilan kuzatib, texnikani boshqarish qiyin bo'lishiga qaramasdan spektaklni yaxshi o'tkazganliklarini ko'rib ham kasbdoshlari uning fidoyiligiga tan berardi. Uning hayot yo'ldoshi Shinargul Dosbergenova ham doim shirin so'zli, xazilkash va mas'uliyatli inson ekanligini ta'kidlardi. U faqat ovoz operatori emas, yorituv sexida ham mehnat qilib kelgan. Elektr uskunalarini yaxshi biladigan xodim sifatida bosh injener lavozimida ham uzoq yillar davomida xizmat qilib kelgan.

Davlatimiz Mustaqillikga erishib, teatrlarimizning rivojlanish jarayoni yanada tezlashdi. Ya'ni, teatr dagi moddiy-texnik bazasi kengaydi, ovoz yozish sexi kompyuterlashtirildi. Polat Juginisov buning barchasini ijodiy mahorat bilansifatlidara jadao'zlashtirib oldi. Nukus shahri Amfiteatrida o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan "Navro'z" umumhalq bayramlari, Respublika miqyosida o'tkaziladigan barcha bayram konsertlarda ovoz operatori va javobgar texnik xodim sifatida faol ishtirok etib keldi.

P.Juginisov 2010-yil 54 yoshida kutilmaganda to'saddan vafot etdi. Hayrlashish marosimida o'sha vaqtdagi teatr direktori N. Ansatbayev

«Endi Polatsiz teatr nima qiladi» - degan savol bilan o‘z nutqini boshladi. To‘g‘ri, Polat Juginisovsiz radio sexi, elektr yoritiv sexi bo‘sab qolgandek tuyulardi. Lekin, yaxshi sanatkor, ustoz, albatta o‘z shogirdlarini tayyorlaydi. Ha, Po‘lat akaning ham shogirdlari ancha. Ular orasida, Shamshetov Niyetulla yorug‘lik beruvchi sexni boshqarsa, Abdisattarov Azat radio sexida ishlab kelmoqda.

P.Juginisovning sanatimizning rivojlanishida qo‘sghan hissalarini hisobga olib, u bir necha marotaba Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengashining Fahriy yorlig‘i bilan muqofatlandi. 1995-yili Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi hurmatli unvoni berildi.

Hozirda O‘zbekiston davlat sanat va madaniyat institutining Nukus filialida ovoz rejissyori bo‘limida ustoz Karamatdin Zaretdinov malakali kadrni ham teatrga taylorlab berdi. Qoraqalpoq xalqida bir maqolni misol qilib aytsak bo‘ladi «ot tuyag‘ini-toy bosar» deganlaridek, Polat akaning ug‘li Juginisov Dosbergen ham ushbu filialning “Kino, TV va ovoz rejissyorligi” bo‘limini tugatib, malakali ovoz operator sifatida ijodiy faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Polat Juginisov ismini qoraqalpoq teatri mangu eslaydi va qadrlaydi.. Qoraqalpoq xalqi shunday ibrat oladigan farzandlari bilan maqtansa arziydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bayandiyev T. Karakalpaksiy teatr. – T.: Fan, 1971.
2. Baxtin M. Voprosi teorii i istorii estetiki. – M.: Iskusstvo, 1968.
3. Belinskiy V.G. O drame i theatre. / Izbr. stati i vanskazivaniya/. – M.: Iskusstvo, 1948.
4. Allanazarov.T Qaraqalpaq milliy teatrinda rejissuraniq qəliplesio‘i 1996



**Ro'zimurodov Ilyosjon Azamatovich,  
2-kurs "Cholg'u ijrochiligi" mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: m.f.n., dotsenti Mirmuhsin G'ofurov**

## **MUSIQA: ZAMON VA YOSHLAR**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada musiqa san'atining inson hayotidagi beqiyos o'rni, mamlakatimizda madaniyat va san'atni rivojdantirish sohasida olib borilayotgan islohotlar, hozirgi bosqichda, ya'ni fan-texnika taraqqiy topgan sharoitda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati va chet el ommaviy mada-niyatini o'zida mujassamlashtirgan, o'zbek mentalitetiga umuman mos kelmaydigan, yoshlarimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir etadigan san'at yo'nalishlariga qarshi kurash choralari haqida so'z yuritiladi.

### **Аннотация**

В статье обсуждается уникальная роль музыки в жизни человека. Проводимые реформы в области культуры и искусства в нашей стране, образовательная ценность музыки и зарубежной популярной культуры на современном этапе, то есть в контексте науки и технологий. Меры по борьбе с художественными течениями, негативно влияющими на образование нашей молодежи.

### **Annotation**

This article discusses the unique role of music in human life, the ongoing reforms in the field of culture and art in our country, the educational value of music at the present stage, namely, in the context of scientific and technological development and foreign popular culture, measures to combat the arts, which are not in line with the Uzbek mentality and have a negative impact on the education of our youth.

### **Kalit so'zlar**

Harakatlar strategiyasi, faol integratsiyalashuv, innovatsion rivojlantirish, konsepsiya, mentalitet, baynalminal, "bitlz", "rok", "pop"

### **Ключевые слова**

Стратегия действий, активная интеграция, инновационное развитие, концепция, менталитет, интернационал, Битлз, рок, поп

### **Keywords**

Action strategy, active integration, innovative development, concept, mentality, international, beatles, rock, pop.

**Y**er sharidagi har bir elat va millatning o‘ziga xos urf-odatlari, madaniyati va san’ati mavjud bo‘lib, ular boshqa xalqlar o‘rtasida qaydarajada e’tiborga olinishiga qarab, shu millatning butun dunyodagi mavqeini belgilab beradi . Bu sohada musiqa san’atining o‘rni beqiyosdir. XX asr boshlarida o‘zbek milliy musiqa san’ati ham ayni gullagan faslga kirdi. Avloddan-avlodga o‘tib bizga meros bo‘lib kelayotgan o‘zbek milliy musiqasini ko‘z qorachig‘idek asrab, bizgacha yetib kelishiga munosib hissa qo‘shtgan Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Hojixon Boltayev, Muhiddin Qori Yoqubov, Muhammadjon Mirzayev, Yunus Rajabiy singari ko‘plab buyuk san’atkorlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Mustaqillikka erishgan kunlarimizdanoq, mamlakatimizda xalqimiz madaniyati va san’atini yuksaltirishga jiddiy e’tibor berilib, bu sohada izchil islohotlar olib borildi. Chunki, xalqimizning ko‘p asrlik orzulari ushalib, o‘zbek nomi butun dunyoga keng yoyila boshladi, xalqimiz orasidan o‘sib kelayotgan yosh sportchilar, iste’dodli sozanda va xonandalar jahon miqyosida bo‘lib o‘tadigan xalqaro tanlovlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritib yurtimiz bayrog‘ini yuksaklarga ko‘tara boshladi, yurtimizda san’at va madaniyatga yanada keng yo‘l ochildi.

Bugungi kunda ham davlatimiz rahbari muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga juda katta e’tibor berilmoqdaki, bu barcha san’atsevar xalqimizni benihoya quvontirmoqda. Jumladan, “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 31-maydagi PQ-3022 sonli qarori aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand qilish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarini yetishtirishga qaratilgan bo‘lsa, o‘zbek musiqa san’atini dunyo standartlari talabiga mos ravishda tashkil etish, ularni jahon sahnalariga olib chiqish maqsadida “Yoshlar simfonik orkestrini qo’llab-quvvatlash to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-avgustdagи F-5009 sonli Farmoyishi barcha san’at ahlini, shaxsan meni ham quvontirdi.

Yana o‘ta muhim bir hujjatning qabul qilinishi, ya’ni O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o’rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-sonli Farmoni va shu sanadagi “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4730-sonli Qarori O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minalash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tub burilish yasadi.

O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish Konsepsiysi va uni amalga oshirish, sohada zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo’llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarini maxsus musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minalashning yaxlit tizimi yaratilmagani sababli yuqoridagi vazifalarni samarali amalga oshirish, madaniyat va san’at sohasidagi islohotlarni jadal davom ettirish, madaniyat organlari va muassasalarini faoliyatini yanada takomillashtirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ijrosini ta’minalash maqsadida:

- 2020-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’atni yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi;
- O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish Konsepsiyasining 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlari belgilandi, tasdiqlandi;
- madaniyat muassasalarini va havaskorlik san’atini rivojlantirish, sohada axborot texnologiyalarini keng joriy etish va raqamlashtirish masalalariga mas’ul vazir o‘ribbosari lavozimi joriy etildi;
- 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab notalar to‘plamlari va maxsus musiqa adabiyotlari Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan chop etilishi va ta’lim muassasalariga yetkazib berilishi belgilab qo‘yildi;

- 2020-yil 1-sentyabrdan san'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasi tashkil etildi;
- maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasi – Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etildi;
- Davlat muassasasi shaklidagi Madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi;
- Respublika ixtisoslashtirilgan estrada va sirk maktabi Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk kolleji etib qayta tashkil etildi;
- V.Uspenskiy va R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseylari V.Uspenskiy va R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktablariga aylantirildi;
- O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi Iqtidorli bolalar akademik litseyi hamda Toshkent ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi negizida Madaniyat vazirligi tizimida Respublika musiqa va san'at kolleji tashkil etildi;
- 2021 yildan boshlab 15-aprel – O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni etib belgilanishi san'atsevar xalqimizni, shuningdek, barcha madaniyat va san'at xodimlarini cheksiz ruhlantirdi.

Harbir millat musiqa san'atining o'ziga xos joyibasi bor. Masalan, hind xalqining musiqasi qadimdan ko'plab boshqa xalqlar e'tiborini o'ziga jalb etib keladi. Undagi milliylik ruhidagi kuy va qo'shiq hamda raqslar aks etgan kinofilmlar hind xalqining butun dunyoga san'atsevar millat sifatida tanilishiga olib keldi. Sharq mamlakatlarining ko'pchiligida musiqa va kino birgalikda mujassamlashganligiga yuzlab misollar keltirish mumkin.

O'zbek kino san'atining ham xalqimizning hayot tarzi va milliy tarixini dunyoga tanitishdagi xizmatlari beqiyosdir. Musiqa va kino bir-biriga chambarchas bog'langanki, go'yoki egizaklar singari ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. O'zbek milliy musiqasini kino san'atiga qo'llashda o'lkan hissa qo'shgan bastakorlar Monas Leviyev, Faxriddin Sodiqov, Mutal Burxonov, Doni Ilyosov kabi kompozitor va bastakorlarning xizmatlari hali-hanuz xalqimizning ko'nglida o'chmas iz qoldirgan. Ular tomonidan yaratilgan ohanrabo kuy va jozibali qo'shiqlar o'zbek kinosiga o'zgacha jilo bergen. Bu filmlarni takroran ko'rsangiz ham

me'dangizga tegmaydi, balki hamisha insongazavq-shavq bag'ishlaydi. Jumladan, "Mahallada duv-duv gap" kinofilmidagi diltortar navolar, "Yoshlik" qo'shig'i va buyuk hofiz Ma'murjon Uzoqov ijrosidagi "Janon bo'laman deb" ashulasi, "O'tkan kunlar" kinofilmidagi mashhur hofiz Murodjon Ahmedovning takrorlanmas "O'rtar" ashulasi va mungli kuyi, "Maftuningman" kinofilmidagi Klara Jalilovaning "Do'ppi tikdim" qo'shig'i, jozibali kuy va raqlar hamda ""Maftun bo'ldim" qo'shig'i, "Yor-yor" kinofilmidagi Muhabbat Shamayeva ijrosidagi mashhur "Ko'chalar" va otashnafas hofiz Tavakkal Qodirovning "O'xshaydiku" qo'shig'i kirib bormagan xonadon va sevib qayta-qayta tomosha qilmagan oilalar yo'q. Chunki, bu kinofilmlar hamda ularga o'zgacha joziba bergen kuy va qo'shiqlar o'zbek xalqining "Milliy merosi"ga aylanib ulgurgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Men bir havaskor sifatida yangi o'zbek milliy kinofilmlarini yaratishda uning mavzusi va mavqeiga qarab, o'zbek bastakorlari va taniqli xonandalari tomonidan mohirona ijro etilgan, hozirga qadar xalqimiz sevib tinglab kelayotgan milliy kuy va qo'shiqlardan oqilona foydalanilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi, deb fikr bildirib qolaman.

Musiqa jamiyat rivojlanishining hamma bosqichlarida ham insonni tarbiyalash va ma'naviy boyitishning bir vositasi sifatida xizmat qiladi. Hozirgi bosqichda, ya'ni fan-texnika taraqqiy topgan sharoitda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati yanada ortdi.

Birinchidan, texnikaning mo'lligi, hayot maromining nihoyatda tezlashuvi, inson o'zlashtirishi lozim bo'lgan axborotlarning oshib borishi uning aqlini takomillashtirsa-da, hissiyotlarini ma'lum darajada qashshoqlashtirishi ham mumkin. Anashu holyuz bermasligi uchun mamalakatimizda shaxsni har tomonlama va uyg'un kamol toptirishning barcha tadbirlari qo'llanilmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda musiqa g'oyat muhim rol o'ynaydi. Ikkinchidan esa qandaydir chet mamlakatlardan kirib kelib yoshlari o'rtasida keng tarqalayotgan, ularning axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan va shunday ta'sir ko'rsatayotgan "bitlz", "rok", "pop" kabi musiqalarning ommaviylashuviga qarshi kurashni kuchaytirish zarurati tug'ildi. Bu kurashning dastlabki omili yoshlarimizda musiqaga, umuman san'atga estetik munosabatni, estetik didni tarkib toptirishdir.

Ma'lumki, har bir xalq yuksak axloqiy va estetik ideallarning yaratuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Yoshlarni tarbiyalashda o'zbek xalq musiqa madaniyatidan foydalanish muammosini hal qilish g'oyat muhimdir. Binobarin yosh avlodni xalq musiqasi vositalari orqali tarbiyalash hamma vaqt ham zarurdir. Shu nuqtai nazardan insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalminalchilik, fuqarolik, axloqiy poklik g'oyalari aks etgan asarlarni tanlash zarur. Bunday umuminsoniy xususiyatlar aynan xalq musiqasi asarlarida badiiy jihatdan mukammal shaklda ifodalanadi. Zero, asarlarni tanlash xalq musiqa vositalari yordamida amalga oshadigan tarbiya jarayoni ijobjiy natijalar berishining nihoyatda muhim omilidir.

Musiqa insonning ongi va ma'nnaviy dunyosiga katta ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shu sababli u inson uchun ma'nnaviy go'zallikning, qalbi poklikning katta manbai bo'lishi ham, uni qo'rslikka odatlantirishi, umidsizlikka solishi, bag'ritosh va xudbin qilib qo'yishi ham mumkin. Bularning hammasi inson qanday musiqani tinglashiga va uning mohiyatini qanchalik to'g'ri baholashiga bog'liqdir.

Mashhur musiqachi – pedagog D.Kobalevskiy shunday deb yozgan edi: "San'at insonni o'ziga jalb etish yoki faqat uning ko'nglini chog' qilish qobiliyatiga ega. Qiziqish chuqur fikrlash va chuqur hissiyotlar bilanyuzaga keladi. Ko'ngil ochish esa har qanday yo'l bilan, arzimagan ish bilan amalga oshishi mumkin, buning uchun odam faqat band bo'lsa va uning asablari tinchlansa bas. Chinakam san'at modalar ta'sirida buzilmaydi, u asrlar davomida yashaydi va insoniyatning ma'nnaviy dunyosini boyitadi, o'zi eskirmaydi. Ko'ngilochar musiqa esa odatda o'tkinchi modalarning beqaror qonunlariga bo'ysunadi. Eng muvaffaqiyatli estrada qo'shiqlari ham bir yilcha, bir necha oy, hatto, bir necha haftagini yashaydi. Ko'ngilochar asarlar darrov me'daga tegadi, o'z jozibasini yo'qotadi va yanada qiziqarliroq narsaga ehtiyoj tug'diradi, keyin undan ham qiziqarli narsaga intilish paydo bo'ladi va bu hol cheksiz davom etaveradi".

Xulosa: Mustaqillikka erishgunimizga qadaryurtimizda elga tanilgan san'atkorlar sanoqli edi. Bugunga kelibelga manzur bo'ladigan xonanda va sozandalarning safi yildan-yilga ko'payib borayotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Bunga albatta, yurtimizda madaniyatva san'atga bo'lgan e'tibor va imkoniyatlarning mavjudligida deb o'ylayman. Xulosa qilib

aytganda, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda o'sib kelayotgan yosh iste'dodli san'at ixlosmandlariga san'atimiz tarixi va o'tmishi hamda istiqbollari haqida targ'ibot-tashviqot ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yomog'imiz darkor.

Men Respublikamizdagi barcha umumta'lim maktablarining musiqa darsliklarida "O'zbek musiqa san'ati tarixi" mavzusi bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tilishini, musiqa maktablarida esa maqom kuy-qo'shiqlarini o'rgatuvchi malakali mutaxassislarni ko'proq jalb etish hamda maqom kuy-qo'shiqlari nota matnlarining elektron bazasini yaratish taklifini bildiraman. Yana shuni ta'kidlamoqchimanki, O'zMTRKning "Navo" telekanalida namoyish etilayotgan "Yangi ovoz" ko'rsatuvida o'zbek xalq qo'shiqlari va kuylarini asl holida ortiqcha o'zgartirishlarsiz ijro etishlarini, chet el ommaviy madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan, o'zbek mentalitetiga umuman mos kelmaydigan, yoshlарimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir etadigan ayrim "bo'limg'ur klip"larni namoyish etmasliklarini iltimos qilib qolardim. Zero, otabobolarimizdan asrlar osha bizga meros bo'lib kelayotgan o'zbek milliy musiqa san'ati durdonalarini ko'z qorachig'imizdek avaylab-asrash bizning va biz kabi san'at ixlosmandlarining asosiy burchidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Madaniyatvasan'atsohasini yanada rivojlantirish va takomillash-tirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017 yil 31-maydagi PQ-3022 sonli qarori . / Xalq so'zi. 2017 yil 1-iyun./
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yoshlар simfonik orkestrini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi 2017 yil 4-avgustdagi F-5009 sonli Farmoyishi . /Xalq so'zi. 2017 yil 5-avgust./
3. Mirziyoyev Sh.M. "Madaniyatvasan'atsohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-sonli Farmoni. /Xalq so'zi. 2020 yil 27-may./
4. Hasanov A . "Musiqa va tarbiya" / Toshkent "O'qituvchi" 1998 y./

Dilnoza Toxirovna Qurbonova,  
2-kurs “Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi magistranti.  
**Ilmiy rahbar:** dotsent Q.Nishonboyeva

## **YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY AKTIVLIGI VA GENDER TENGLIK**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlar masalasiga davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotgani, oilada xotin-qizlarning tutgan o’rnini va ularni ijtimoiy himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan masalalar xususida fikrlar bayon qilinadi. Shuningdek, xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish, iqtisodiy faoliyatini keng yo’lga qo’yish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari davlatimiz oldida turgan masalalardan biridir. Shu bois, ayol jamiyatning negizi hisoblangan oilada farzandlar tarbiyasi bilan shug’ullanishi bilan birga jamiyatda ham o’z o’rniga ega bo’lmog’i lozim.

### **Kalit so’zlar**

Oila, xotin-qizlar, madaniy, ijtimoiy tenglik, gender, salohiyat, bandlik. Obnovlyayemaya informatsiya o sotsialnoy aktivnosti i gendernom ravenstve jenshin v Uzbekistane

### **Аннотация**

В этом сезоне руководством нашего государства на уровне государственной политики уделяется внимание вопросам женщин, реализуются меры по созданию семьи, месту рождения женщин и их социальной защите, улучшению сферы труда. Это также одна из задач, стоящих перед нами по вопросам повышения правовой грамотности женщин, расширения экономической деятельности, совершенствования системы социальной защиты. Поэтому, наряду с тем, что женщина занимается воспитанием детей за счет создания общества, она должна занять свое место в обществе.

### **Ключевые слова**

Семья, женщины, культурное, социальное равенство, пол, потенциал, занятость.

### **Annotation**

The article describes the attention that the head of our state pays to

the problem of women at the level of state policy, the role of women in the family and issues of their social protection and improvement of working conditions.

Also, one of the tasks facing the state is to increase the legal literacy of women, expand economic activity, and improve the social protection system. Therefore, a woman should not only participate in bringing up children in the family, which is the root of society, but also have a position in society.

### Key words

Family, women, cultural, social equality, gender, potential, employment



**X**XI asr ta'lif tizimi va ilm-fan kishilik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan global ma'naviy qadriyatlar, o'ziga xos ijtimoiy mentalitet va dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilishi munosabati bilan faqat o'qimishli, ma'naviy jihatdan yetuk kishilarga mavjud muammo va ixtiloflarni har qanday tajovuz va urushlarsiz yechishga qodir jamiyatni shakllantirish mumkinligini talabqilmoqda. Albatta, jamiyatni intellektual tarzdarivojlantirish – bu ijtimoiy taraqqiyot asosini tashkil qiladi. Bu holsiz ilmiy-texnik taraqqiyotga erishishning imkoniy yo'q darajada bo'lib, u insonning global xarakterdagi manfaatini himoya qilmaydi, jamiyat tadrijiy taraqqiyoti intellektual salohiyatning asosi shubhasiz ma'naviy barkamollik hisoblanadi.

Dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, ongu tafakkuri, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlarko'p. Lekin har qaysi millat vaxalqning ma'naviy kamolotini belgilovchi, ta'lif-tarbiyasini takomillashtiruvchi xilqat – ayoldir. Xotin-qizlarga bo'lgan munosabat, hurmat-ehtiromni davlatning ularga bo'ladigan munosabatida belgilash mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralsa, ayollarni ulug'lab, ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq o'zining yuksak madaniyati va olivjanob qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan millat sifatida hurmat

qozonadi. Ayolsiz hayotni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular jamiyatning yetakchi kuchlaridir. Zero, ayol kamolotisiz jamiyat kelajagi bo'lmasligiga to'la ishonch hosil qilamiz.

Ayollarni izzat-ikrom qilish, ulug'lash, ardoqlash, og'irini yengil qilish ota-bobolarimizdan qolgan muqaddas udumdir. "Ma'lumki muqaddas Qur'oni Karimning eng katta suralaridan biri – "Niso", ya'ni "Ayollar" deb ataladi. Allox Taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga da'vat etadi va bu ilohiy so'zlar zamirida albatta teran hikmat mujassam." [1]

Biz oilani ilk tarbiya o'chog'i sifatida e'tirof etamiz. Mana shu oilaning ustuni, tarbiyalanuvchilarning boshqaruvchisi ham – Ayol! Shu o'rinda aytish lozimki, ustunning ilm-ma'rifatli, ma'naviyatli bo'lishi, ya'ni ayol kishining ijtimoiy hayotdagi, jamiyatdagi o'rnii ta'lim-tarbiyani to'g'ri, izchil tashkil etishda faol rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning xotin-qizlarga qaratayotgan yuksak e'tibori – biz ayollarni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, jamiyat va oilada mavqeini yanada oshirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlash – har bir ayol yurtimizda o'zining munosib o'rnini topishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berdi. Bu borada, 2020-yil 20-fevral kuni "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi. Bunda, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishni belgilab berilgan qator vazifalar ko'ndalang qo'yildi:

- xotin-qizlar ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;
- xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining

samarali amalga oshirilishni ta'minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash;

- xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shujumladan, nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish;

- xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va hususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalg etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash; [2]

Ushbu farmonni qabul qilishdan asosiy maqsad xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqib, ularning oila va jamiyatdagi o'rni hamda mavqeini mustahkamlash, salohiyatini to'la namoyon etishi, oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirishga xizmat qiladi.

Zero, xotin-qizlar ma'naviyati oilani, jamoani, jamiyatni, millatni birlashtiruvchi kuch hisoblanadi. Ayol ma'naviyati jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini belgilovchi qudratli mezondir. Biz xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi haqida qayg'urar ekanmiz, bu masalalar yechimiga yo'l topishda bir necha shartlarni muhim deb hisoblaymiz:

- xotin-qizlarning fuqorolik rolini oshirish, jamoatchilik fikri bilan qo'llab-quvvatlash;
- qizlarga zamonaviy ta'lim-tarbiya berishga ko'maklashish;
- xotin-qizlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash;
- ayollar bandligini ta'minlash;
- xotin-qizlarning ijtimoiy va xuquqiy himoyasini ta'minlash hamda salomatligini muhofaza qilishni kuchaytirish;

Bugun jamiyatimizda ayollarni, onalarni, xotin-qizlarni davlat tomonidan ulug'lash ularning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni dunyo e'tirof etmoqda.

Bu borada jahonda bo'layotgan o'zgarishlar va jarayonlarga e'tiborimizni qaratsak. Ma'lumki, bugungi kunda global miqyosda

turli muammolar aks etmoqda: OITS, giyohvandlik, uyushgan jinoyatchilik, davlatlararo siyosiy, iqtisodiy kelishmovchilik, etnomilliy, diniy to'qnashuvlar, fuqorolar urushlari va hokazolar. Shu bilan birgalikda ayollarni "kichik" va "katta" siyosatga kirib borishlari ko'paymoqda. Chunki ayollar onalar sifatida farzandlarini baxtli qilib, muhofaza qilish maqsadida dunyoda ro'y berayotgan barcha salbiy voqeа va jarayonlarga chek qo'yishga munosibdirlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambliyasining 75-sessiyasidagi nutqida ham bu masalaga e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi", - deya ta'kidladi.[3] Darhaqiqat, O'zbekiston uchun ushbu soha davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu asosda yurtimizda oxirgi yillarda xotin-qizlar ijtimoiy siyosiy faolligini yuksaltirish, davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. Qisqa vaqt mobaynida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga qaratilgan 20 ga yaqin normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, xotin-qizlar va oilalar bilan ishlash tizimini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi tuzildi. Oliy majlis senatida alohida Qo'mita tashkil etildi. Buni yorqin misoli sifatida 2019-yil 3-sentyabrda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilinganligi asoslidir. Shuni ta'kidash joizki, yangi O'zbekiston jamiyatining madaniy taraqqiyoti, davlatimiz kelajagi ham rivojlangan davlatlar orasida tutgan o'rni va salohiyati ham, dunyoqarashi, bilimi, Vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas'uliyatini teran anglashi bugungi kun xotin-qizlariga bog'liqdir. Shu bois, jamiyat tayanchi bo'lgan ayollarga e'tibor kuchaymoqda. Bugungi kunda barcha sohalarda yetuklikka erishib kelayotgan opa-singillarimiz chinakam To'marislар avlodi ekanini alohida namoyish qilishmoqda. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur bir necha yillik safarlarda bo'lgan paytlarida sultanat barqarorligini

ta'minlashga Bibixonimning qo'shgan hissasini eslasak fikrimiz yanada asoslanadi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida yangi tuzilma – xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha qo'mita tuzish taklifini berdi. Bu tuzilma, albatta, mamlakatimiz hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularga keng imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gender – xotin-qizlar va erkaklarning (ijtimoiy) tengligi. Ya'ni tenglik deganda erkak va ayollarga teng xuquq va imkoniyatlar berilishi tushuniladi. Umuman olganda gender tenglik tushunchasi butun dunyoda yaxshi ma'lum: BMTning barcha hujjatlarida, jumladan, xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarda bu tushunchaga juda yaxshi ta'rif berilgan.

O'zbekistonda aslida ayollar va erkaklar orasida rahbarlikka teng qaraladi, bu qonunda ham belgilangan. Lekin amaliyotda shuni ko'rayapmizki, ayollar ko'proq ijtimoiy sohada rahbarlik lavozimida ishlayaptilar.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinib, 2019-yil 23-avgustda Senat tomonidan ma'qullangan ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

– *gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar – jinslarning notengligini bartaraf etish, xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy yoki asos bo'ladigan tengligini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadlarga erishish uchun davlat organlari tomonidan ko'rildigan huquqiy, tashkiliy hamda institutsiyaviy xususiyatga ega chora-tadbirlar;*

– *gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat;*

– *jins bo'yicha bevosita kamsitish – jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar xuquqlari hamda erkinliklarini tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash,*

*istisno etish yoki cheklash, shu jumladan oilaviy holati, homiladorligi, oilaviy majburiyatları tufayli kamsitish, shuningdek shahvoniy shilqimlik qilish, teng mehnat va malaka uchun har xil haq to'lash;*

*- jins bo'yicha bilvosita kamsitish – bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan noqulayroq holatga tushirib qo'yadigan vaziyatlarni, holatlarni yoki mezonlarni yaratish, shu jumladan, gender tengsizlikni ommaviy axborot vositalari, ta'lim, madaniyat orqali targ'ib etish, muayyan jinsdagi shaxslar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar yoxud talablar belgilash.[4]*

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi globallashuv jarayonida yuqoridagi qonun loyihalari ishlab chiqishni, davrning o'zi taqozo qilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining qariyb 50 foizini ayollar tashkil etadi. Bizning mamlakatimizda xotin-qizlar ijtimoiy faolligi va gender masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor berilib kelinmoqda. E'tirof etish kerakki, ayni paytda yurtimizda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash hamda madaniyat va san'at sohalarida mehnat qilayotganlarning 72 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev raisligida 2020-yil 8-oktyabr kuni jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan vidoselektor yig'ilishida ham ayni masala yechimlari atroflicha muhokama qilindi. O'z ma'ruzalarida "Xotin-qizlar va yoshlar aholining katta qismi, ijtimoiy masalalarining aksariyati ham ular bilan chambarchas bog'liq"-deya ta'kidlandi.[4] Yurtimizda xotin-qizlarning mavqeini yuksaltirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda ularning bilimlarini kuchaytiish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

«Ayol – bir qo'lib bilan beshikni, bir qo'li bilan dunyon tebratadi», - deb bejiz aytilmagan. Chunki, ayol oilada farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi bilan birga, jamiyatda ham o'z o'rniga ega bo'lishi kerak.

Xulosaqilibaytganda, har qanday millat taraqqiyotining negizida-oila, ayol yotadi. O'zbekiston ayollari davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda, ularning oiladagi mavqeい mustahkamlanmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy

yo'naltirilgan siyosat xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashi uchun, ularning huquq hamda erkinliklarni ta'minlash, intellektual va ma'naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni hamohang tarzda bajarish uchun zarur imkoniyatlar yaratilyapti. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada ham xotin-qizlarning barcha sohalarda teng xuquqli ekanligi etirof etilgan. Hukumat tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarda ayollar, oilalar, farzandlar manfaati hamisha ustuvor bo'lib kelmoqda. Bu sa'yisharakatlar ayollarning jamiyat xayotida faolligi orqali o'z ifodasini topmoqda. Zero, Prezidentimiz tomonidan bildirilayotgan yuksak ishonch va e'tiborga munosib bo'lgan holda, yurtimiz ravnaq topishida ulushlarini qo'shib, vazifalariga mas'uliyat bilan yondashish har bir xotin-qizlarning muqaddas burchidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. "Xalq so'zi" 2020-yil 8-mart.
2. "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni 2020-yil 20-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assamblyasining 75-sessiyasidagi nutq. "Yangi O'zbekiston" 2020-yil 24-sentyabr. 183 son.
4. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev raisligida 2020-yil 8-oktabr kuni jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan vidoselektor yig'ilishi. "Xalq so'zi" 2020-yil. 9-oktyabr. 212 son.
5. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni 2019-yil 3-sentyabr.
6. Ayol bo'lish sharaf, o'zbek ayoli bo'lish yanada sharaf! "O'zbekiston ovozi" 2020-yil 10-mart.

**Dawletyar Botir og'li Mambetniyazov,**  
2-kurs "Kino TV va radio rejissura" mutaxassisligi magistranti  
**Ilmiy rahbar:** s.f.n. dots., F.Fayziyeva

## XALQ OG‘ZAKI IJODINING MA’NAVIY VA TARBIYAVIY QIYMATI (Qoraqalpoq dostonlari misolida)

### **Annotatsiya**

Mazkur ilmiy maqolada xalq og‘zaki ijodining jamiyat hayotidagi ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyati shaxsiy fikr-mulohazalar, badiiy tahlil, shuningdek, qoraqalpoq dostonlari misolida yoritib berilgan.

### **Аннотация**

В данной научной статье рассматривается духовно-просветительское значение фольклора в жизни общества на основе личного мнения, художественного анализа, а также на примере калпакских эпосов.

### **Annotation**

This scientific article discusses the spiritual and educational significance of folklore in the life of society through personal opinions, artistic analysis, as well as the example of Karakalpak epics

### **Tayanch so‘z va iboralar**

Xalq og‘zaki ijodi, ma’naviyat, dostonlar, folklore, epos

### **Основные слова и фразы**

Народное искусство, фольклор, духовность, эпосы,

### **Basic words and phrases**

Folk Art, folklore, spirituality, epics.

**X**alq og‘zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo‘lgani ko‘pchilikka ma’lum. Aynan shu og‘zaki ijod namunalari yozma adabiyotning paydo bo‘lishida asos bo‘lib xizmat qilgan. Xalq qo‘sishlari, rivoyatlar, turli ertak va qissalar og‘izdan og‘izga ko‘chib-o‘tib, keyingi avlodlarga meros qolgan. Biroq bu asarlar har gal og‘izdan og‘izga o‘tganda o‘zgarishlarga uchrar, ayrim parchalari tushib qolardi yoki zamonga moslashib boshqacha talqinda namoyon bo‘ldi, yangi voqeа-hodisalar bilan boyitildi. Shuning uchun ham ularni asl holida saqlab qolishning imkoni yo‘q edi.

Keyinchalik sivilizatsiya, rivojlanish, ilm-fan taraqqiyoti ortidan ixtiro qilingan, yozuv, siyoh, qog'oz, kitob chop etish dastgohlari xalq og'zaki ijodini yozib olish va aslidek saqlab qolish imkonini berdi. Shunga qaramay ushbu ijod namunalari orasida qog'ozga muhrlanmay qolgan qanchadan-qancha dostonlar, xalq qo'shiqlari, qissalarni yozib olish ishlari yaqin o'tmishda va hozirda ham davom etib kelmoqda. Bu xalq og'zaki ijodining naqadar boy va rang-barang ekanini ko'rsatadi.

Xalq yaratgan asarlar o'zining g'oyaviyligi, chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiiyligi bilan ajralib turadi. U xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bo'lgan ishonchini, haqiqat, adolat, tinchlik va baxt haqidagi tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi. Xalq shoirlari yoki jamoat tomonidan yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan badiiy asarlar xalq og'zaki ijodi deyiladi. Xalq og'zaki ijodi "folklore" deb ham yuritiladi. Folklor so'zi ingliz tilidan: folk — (xalq, lore — bilim, donolik) — xalq donoligi, xalq ijodini ifodalovchi atamadir. Bu so'zni fanga ilk marta 1846-yilda ingliz arxeologi U.J.Toms olib kirgan. 1880-90-yillarda "folklor" atamasi ko'plab mamlakatlarda ishlatilgan. O'zbekistonda dastlab, «og'zaki adabiyot», «og'iz adabiyoti» atamalari qo'llangan. Folklor atamasi 30-yillarning o'rtalaridan ishlatila boshlagan. 1939-yilda Hodi Zarifning «O'zbek folklori» xrestomatiyasi nashr etilgach, bu termin o'zbek folklorshunosligiga ham kirib keldi.

Xalq og'zaki ijodi (folklor)ga quyidagi janrlar kiradi: qo'shiq, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, doston, askiya, tez aytish, masal, alla, yor-yorlar, kelin salomlar va shu kabilar.

Yuqorida sanab o'tilganlarning barchasi o'zining badiiy-tarbiyaviy, ta'limiyy-didaktik xususiyatiga ega bo'lib, har bir xalqning urf-odati, mentaliteti, xarakter va xususiyatini o'zida ifoda etadi. Ya'ni biron bir xalqni yaxshi bilib olish uchun uning og'zaki ijodi (folklor) ga nazar tashlash kifoya. Ushbu janrlar orasida dostonlar alohida ajralib turadi. Sababi, bu janr nisbatan yirikroq va voqealarga boy bo'ladi. Dostonlar xalq og'zaki ijodining eng murakkab, yirik va keng tarqalgan janrlaridan biri. Doston so'zi qissa, hikoya, shon-u shuhrat, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi.

Dostonlar lirik doston, epik doston, dramatik doston kabi uch turga bo'linadi.

Qoraqalpog'istonning boy xalq og'zaki ijodi bir necha asrlar davomida rivojlangan. Uning asosini xalq og'zaki ijodining barcha janrlari: ertaklar, maqollar, matallar, rivoyatlar, she'rlar va boshqalar tashkil etadi.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodining eng yorqin namoyondalari bu epos yoki epos she'rlar (dostonlar) hisoblanadi. Ushbu janrdagi ijod namunalari besh mingdan ortiq bo'lib, ular o'z ichiga: qahramonlik, lirik, ijtimoiy-maishiy, ertak-roman va boshqa turdag'i dostonlarni o'z ichiga oladi. Ular dostonchi-qo'shiqchilar- baxshi va jirovlar tomonidan, musiqiy asboblar – qo'biz va dutor jo'rligida ijro etiladi. Folklor san'atida muhim o'rinni XI-XVIII asrlardagi ijod namunalari: Sharyar, Qoblan, Yedige, Yer Shora, Alpomish, Qurbanbek, Yer Ziyor, Qirq qiz va boshqalar tashkil etadi. Alpomish qahramonlik dostonida asosiy g'oya buzilib ketgan qabilalarning birlashishi, do'stlik, vatanparvarlik hisoblanadi. Qoraqalpoq madaniyatining ko'zga ko'ringan yodgorligi va durdonasi hisoblangan Qirq qiz dostoni tashqi bosqinchilarga qarshi kurashgan ayol himoyachilar va erkak qahramonlar haqida hikoya qiladi. Bu kabi mazmundagi xaql ijodi yoshlarda vatanparvarlik, yurtga va oilaga sadoqat kabi xislatlarni yanada mustahkamlashda katta ma'naviy ozuqa bo'la oladi. Ularni komil inson qilib tarbiyalaydi. Biz bu kabi ijod namunalarini asli kabi saqlab qolishimiz, kelajak avlodga yetkazib berishimiz kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Propp V.Ya. Folklor I deystvitelnost. M. 1976.
- 2) Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi. O'zbek folklorining epic janrlari, "Fan" nashriyoti, T. 1981, 133-134-betlar.
- 3) Masketov Q. Dostonlar, jirovlar, baxshilar. No'kis, Qaraqalqaqstan, 1992-yil, 91-bet.
- 4) Akramov G. Mifologiyaning ayrim epik janrlar bilan o'zaro munosabati. O'zbek folklorining epik janrlari. T., 1981.



**Isfandiyor Kamoliddin o'g'li Xomidov,**  
2-kurs "Aktyorlik san'ati" mutaxassisiligi magistranti  
**Ilmiy rahbar:** Xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi,  
prof. Isoqtoy Jumanov

## AKTYORLIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA K.S.STANISLAVSKIY TA'LIMOTINING 5 TA ASOSIY TAMOYILI

### Annotatsiya


Ushbu maqola dunyo aktyorlik mакtabalarida aktyorlarni tarbiyalash metodikasi va uning asosi hamda Stanislavskiy sistemasining besh tamoyiliga bag'ishlanadi.

### Аннотация

Данная статья посвящается на методике воспитание актёров в мировых актёрских школах и пяти принципах системы Станиславского, лежащей в её основе.

### Annotation

The article is devoted to the methods of educating actors in world acting schools and the five principles of the Stanislavsky system based on it.



*Teatr sahnasi – umumxalq mакtabi ekanligini  
hech qachon unutmasligimiz kerak.*

K.Gotsi

**I**nsoniyat yaralgandan buyon san'atga ehtiyoj sezadi. Chunki, san'at – insonni ruhan poklaydi va ma'nан ulg'aytiradi. Ayniqsa, san'at turlari ichida o'zining ta'sirchanligi bilan betakror hisoblangan teatr san'ati – kelajak egalari bo'lgan yosh avlodning saviyasini shakllantirishda, tarbiyalashda muhim ahamiyat kasbetadi. Zero, jadidchi bobomiz Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir." [1. 11-bet] degan ta'rifni ham beziz aytmagan. Bundan kelib chiqadiki, tarbiya masalasida aynan teatr san'ati orqali kishilar ongiga ziyo ularishish, ma'rifat taratish osonroq kechadi. Bunga o'z hayot yo'llarida

ishonch hosil qilgan yana bir jadidchi bobomiz Behbudiyning “Teatr – ibratxonadur” [2. 550-bet.] chaqirig‘i yaqqol misol bo‘la oladi.

Jahon teatri tarixida antik teatr – xalq hayoti va uning taqdiri bilan bog‘liq ulug‘vor g‘oyalar teatri sifatida dunyoga keldi. Qadimgi Yunonistonda Esxil, Sofokl, Yevripid, Aristofanlar, Rimda esa Plavt va Senekalary yangi sahnaviy shakllar, falsafiy hamda badiiy obrazlar orqali vatanni sevish, do‘siga sadoqat, yorgavafo, ota-onaga muhabbat, haqqa imon-e’tiqod tuyg‘ularini tarannum etdilar. XV asrdan boshlangan Uyg‘onish davrida Italiya, Ispaniya, Angliya, Fransiya zaminida teatr san’ati yangi taraqqiyot davriga ko‘tarildi. Shekspir va Molyer bunga o‘zining salmoqli ijodi bilan katta hissa qo‘shdi. XVIII asrga kelib ma’rifatparvarlik dramaturgiyasi vakillari Angliyadan Sheridan, Fransiyadan Volter, Didro, Bomarshe, Italiyadan Goldoni, Gotsi, Germaniyadan Lessing, Shillerlar teatr san’atini umumxalq minbariga aylantirish g‘oyasini ilgari surdilar. Yevropa mamlakatlari va AQSHda XIX asrda Gyugo, Bayron, Meterlink, Ibsen, Shou, Gauptmanlar voqelikni aks ettirishning yangi usullarini o‘zlashtirishgan bo‘lsa, XX asrda Brexitning “Epik teatri”, Grotovskiyning “Kambag‘al teatri” hamda Stanislavskiy tomonidan “Aktyorlik sistemasi” yaratilishi teatr san’atining zamonaviy ijod yo‘lini belgilab berdi.

XX asrda yaratilgan “Stanislavskiy sistemasi” o‘zining mukammalligi bilan barcha aktyorlar uchun eng yaxshi uslub bo‘ldi. To‘g‘ri, bungacha ham o‘ziga xos aktyorlik usullari, maktablari bo‘lgan. Lekin, aktyorlik maktabini egallahning barcha davrlardagi qonuniyatlarini chuqur o‘rgangan Konstantin Stanislavskiy o‘zining ta’limotini yaratgach, butunjahon teatr san’atida misli ko‘rilmagan yangilik bo‘ldi va bu hozir ham dolzarb bo‘lib kelmoqda.

Konstantin Sergeyevich Stanislavskiy (Alekseyev) 1863-yil 1-yanvarda Rossiyaning Moskva shahrida dunyoga kelgan. Aktyor va rejissyor, pedagog hamda teatr nazariyotchisidir. Stanislavskiy 1898-yil Vladimir Nemirovich Danchenko bilan birga “Moskva Badiiy akademik teatri” ga asos solgan. Umrini rejissyorlik va aktyorlik san’atining yangi yo’llarini ochishga sarflagan Stanislavskiydan bizga “Stanislavskiy sistemasi”

meros bo'lib qoldi. Bu sistema dunyoning barcha teatr oliygoхlarida aktyor tarbiyalash metodikasining asosi hisoblanadi. Sistemaning beshta asosiy tamoyilini "Hayotiy haqiqat", "Berilgan shart-sharoitda ishlash", "Hozir va shu yerda ijro qilish", "Aktyorning takomillashuvi", "Sahnada partnyorlar bilan munosabat" tashkil etadi. [3]

1 – Hayotiy haqiqat: Aktyor sahnada qahramonning kechinmasini qanchalik hisqlib, to'g'ri yetkazib beraolsa, sodir bo'layotgan narsalarga tomoshabin shunchalik ishonadi va aktyor bilan tomoshabin o'rtaida o'ziga xos aloqa o'rnatiladi. Agar aktyor haqqoniy ijro mahoratini egallamagan bo'lsa, uning ishi "ishonarsiz" deb baholanadi. Sahnada bo'rttirib ijro qilish va hayotiy haqiqatga zid harakat bajarishdan hamma aktyorlar qo'rqlishadi. Chunki bu narsalar tomoshabinni aldash sanaladi. Stanislavskiy aktyorlik matabining hayotiy haqiqati ikkiga bo'linadi: Asl haqiqat va sahnaviy haqiqat.

Asl haqiqat – inson o'zining hayotidagi har xil voqealarni boshidan kechirishi. Bunda ijro qilish ham, his-tuyg'ularni ko'rsatish ham talab qilinmaydi. Chunki ular o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Buni atrofdagilar to'g'ri qabul qilishadi va ishonishadi.

Sahnaviy haqiqat – avvaliga badiylashadi (surat, haykal, pyesa va h.k.) va aktyor tomonidan sahnaga ko'chiriladi. Bunday haqiqatni yaratishda aktyordan kuchli tayyorgarlik talab qilinadi. Chunki aktyor sodir bo'layotgan voqealarga nafaqat ishonishi va shu bilan birga uning har lahzasida yashashi kerak.

Buyuk pedagog shogirdlaridan shunchaki haqqoniy ijro qilishni emas, balki, qahramonning obrazidayashashni, ich-ichidan hisqlishni va tomoshabin ko'zi bilan ko'rishni o'rgatdi. Sahna san'atining ko'p tadqiqotchilari Stanislavskiy gacha aktyorlar teatrda shunchaki ijro qilishganligini, uning sistemasi paydo bo'lgach esa ularni yashashga o'rgatganini ta'kidlashadi. Talab shuki, spektakl vaqtida tomoshabin o'zini teatrda ekanligini unutib qo'yishi, sahnada ko'rayotgan voqealariga ishonishi va uni aktyorlar bilan birga kechinishi kerak.

2 – Berilgan shart-sharoitda ishlash: Rolni aktyor berilgan shart-sharoitni tushunmay turib haqqoniy ijro qilolmaydi. Aktyor uchun

berilgan shart-sharoit qahramonning fikrini, his-tuyg‘usini, o‘zini qanday tutishini mantiqan anglashga yordam beradi va sahnada haqqoniy harakatlanishga turtki bo‘ladi. Qahramonning holatini anglab yetgan aktyor o‘zining tasavvuri va qobiliyati orqali voqealar rivojini keskinlashtiradi. Aktyor berilgan shart-sharoitda ishlaganda uchta diqqat doiralaridan foydalanadi. Ular: kichik, o‘rtalik va katta doiralardir.

Kichik doirada aktyor – sodir bo‘layotgan voqeada qahramonning hissiyoti, xohishi, maqsadi va o‘zini tutishini ko‘rsatadi. Aktyorning vazifasi shundan iboratki, qahramonning xarakterini, bo‘layotgan voqealarga munosabatini tomoshabinga tushunarli qilib yetkazishdir.

O‘rtalik doirada aktyor – qahramonning hayoti, oilaviy ahvoli, yoshi va turish-turmushuni ko‘rsatadi.

Katta doirada aktyor – qahramonning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy qarashlarini ko‘rsatadi.

3 – Hozir va shu yerda ijro qilish: Aktyordan rolni har safar yangitdan kechinish talab qilinadi. Sahnada har qanday harakat yangitdan qayta tug‘ilishi kerak. Bu tamoyilga amal qilinganda, aktyor bitta rolni bir necha marotaba har safar yangitdan ijro qilayotgandek o‘ynashi mumkin va turli odatlarga, shtamplarga o‘rganib qolmaydi hamda spektakl tomoshabin uchun doimo yangilik bo‘lib qoladi. Hozir va shu yerda ijro qilish mashqlarini o‘zlashtirish orqali aktyor o‘zining his-tuyg‘ularini, sahnadagi voqealarni, partnyorlarga munosabatini va albatta, tomoshabin bilan o‘zaro aloqa o‘rnatishni boshqara oladi.

4 – Aktyorning takomillashuvi: Kuzatuvchanlik, xotira, diqqat, ikkinchi darajali narsalardan voz kechib o‘zni muhim vazifa tomon yo‘naltira olish qobiliyati va tasavvur ustida ishlashdan iborat. Maqsadga erishish uchun aktyor doimiy ravishda bu narsalar ustida ishlashi kerak. Chunki, kuzatuvchanlik orqali real hayotdan sahnaga qiziqarli voqealarni, turli xarakter egalarini olib chiqish mumkin. Xotira esa ularni yaqindan bilishga va aniqroq ko‘rsatib berishga undaydi. Diqqat bo‘lsa chalg‘ib ketmaslik uchun kerak. Tasavvur o‘zgacha yondashuvlarni, yangi-yangi ideyalarni tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

Stanislavskiyaktyorning takomillashuvida tana ustida ishlashga ham katta e'tibor qaratgan. Chunki, aktyorning jismoniy apparati doimo sog'lom, ixcham, kuchli, go'zal, egiluvchan bo'lsa, sahnada maqsadga erishish osonroq kechadi.

5 – Sahnada partnyorlar bilan ishlash: Teatr jamoaviy ijod bo'lgani uchun aktyordan partnyor bilan ishlashni talab qiladi. Qachonki, partnyorlar bir-birini tushunib, eshitib, his qilib, kerak bo'lsa bir-biriga ishonib harakat qilishsa, tomoshabinni ko'nglidan joy olishadi. Shuning uchun ham partnyorlar bilan bitta sahnada rol ijro qilish uchun qalban yaqin, imo-ishora va ko'z qarashlar orqali anglaydigan bo'lish kerak. [4]

Bularning barchasiga Stanislavskiy ta'limotini o'rganish orqali erishiladi. Chunki, Stanislavskiy sistemasi tamoyillari so'zsiz dunyoda tan olingan aktyorlik mahoratining asosidir. Sistemada ba'zi aktyorlik mahorati elementlari Stanislavskiyning shogirdlari tomonidan to'ldirilgan bo'lsa-da, uning tamoyillari o'zgarmasdir. Mamlakatimizda ta'limning, san'at va madaniyatning gullab-yashnashi, albatta, sohaga qaratilayotgan e'tiborga bog'liq. Hozirda bu e'tibor qay darajada ekanligini bilish uchun 2020-yilni nomlanishiga nazar solsak kifoya – “2020- yil Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq.T.Yoshlar nashriyot uyi.2019.11-b.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Teatr nadur?. “Oyna” jurnali. 1914. 29-son. 550-b.
3. [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org)
4. [leludi2011@gmail.com](mailto:leludi2011@gmail.com)

*Saodatxon Fazliddin qizi Nosirova,  
2-kurs“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”  
mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: f.f.d., professor V. Alimasov*

## **SAN’AT VA MADANIYAT — SHAXS KREATIV IJODKORLIGINI HARAKATLANTIRUVCHI KUCH SIFATIDA**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada san’at va madaniyatning shaxs kamolotida tutgan o’rni shuningdek, yurtimizda madaniyat va san’at sohasida olib borilayotgan islohotlar, chora-tadbirlarning o’rni xususidagi fikrlar o’rin olgan.

### **Аннотация**

В статье рассматривается роль искусства и культуры в развитии личности, а также важность реформ и мер в области культуры и искусства в нашей стране.

### **Annotation**

The article examines the role of art and culture in the development of personality, as well as the importance of reforms and measures in the field of culture and art in our country.

### **Kalit so’zlar**

San’at, madaniyat, kreativlik, ijod, ta’lim, estetik tarbiya, iqtidor.

### **Ключевые слова**

Искусство, культура, творчество, образование, эстетическое воспитание, талант.

### **Keywords**

Art, culture, creativity, education, aesthetic education, talent.

*San’at mo’jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki,  
unga faqat san’at vositasidagina kirib borish mumkin.*

**Abu Ali Ibn Sino**

**M**amlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san’atning hayotimizdagio o’rniga ahamiyatini oshirish, yoshlarimizni

milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Hukumatimiz tomonidan madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarbuulkanmaqsadlarniamalgaoshirishyo'lidagi harakatlarning yaqqol namunasidir. Ayniqsa, 2017-yil 3-avgust kuni Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning yurtimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvida: "Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni, avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim" degan fikr va mulohazalari soha rivojida yangi tarixiy davrni boshlab berdi. Shuningdek "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi"da ham ushbu ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Ma'lumki san'at ijtimoiy hayotning murakkab, rango-rang munosabatlari bilan aloqador bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham mehnatning alohida turi, ham ijtimoiy ishlab chiqarishning o'ziga xos sohasi, ijtimoiy ongning bir shakli, maxsus bilim sohasi, shu bilan birga ijodiy faoliyatning bir ko'rinishi sifatida amal qiladi. San'at ijtimoiy hayotning mustaqil bir yo'nalishi bo'lib, o'ziga xos qonuniyatları vazifalariga ko'ra u alohida jamiyat birligini ifodalaydi. San'at jamiyatning barcha tomonlariga ta'sir o'tkaza oladi, ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan aloqaga kirishadi, hayotning turli jabhalarida odamlar faoliyat olib borishlarini rag'batlantiradi va to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shib, madaniyatning barqaror ravnaq topishiga asos yaratadi. San'atning ba'zi holatlarda qo'shimcha "mahsulot" sifatida qaralishi afsuski haqiqatdir, lekin

chuqurroq mushohada qilinganda madaniyat, shu jumladan san'at bizning kundalik hayotimizning asosiy qismi ekanligi ayon bo'ladi.

XX asrning oxirida global inqiroz jamiyatning barcha sohalarini qamrab oldi: ijtimoiy-siyosiy, ekologik, iqtisodiy, madaniy va hokazo. Zamonaviy ilm-fan insoniyatga murojaat qilmoqda. Shu sababli, inson faoliyati, ijodkorlikning eng yuqori shakli sifatida tabiatini o'rganish, shaxsnинг o'zini-o'zi rivojlantirish impulsları kelajakdagi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda alohida ahamiyatga ega. Inson mohiyati, uning o'ziga xos fazilatlari va kreativligi, ijodkorligi, individual namoyon bo'lishi hozirgi davr talablaridan biridir. Bejizga "kreativlik- dunyoda yuz berayotgan to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli, harakatga keltiruvchi asosiy kuchi" – deya ta'rif berilmagan. Globallashuv davrida bu "kuch" kundalik hayotimizdagi asosiy o'rinni egallab bo'ldi. Raqamlı iqtisodiyot, elektron xizmatlar, virtual reallik, bularning barchasi albatta inson tasavvuri, tafakkuri mahsulidir. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan narsa va hodisalar qachonlardir orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan. Buning negizida esa albatta san'atning ahamiyati katta. San'at olamida odam xayolot o'yiniga, hissiy impuls larga, hayajonlarga beriladi, stereotipik chegaralardan uzoqlashishga imkon beradi va buning natijasida sezgi va ilhom insonni yaratishga, badiiy obrazlarda aks ettirilgan haqiqatni yaratishga majbur qiladi. San'atga qiziqmagan, uning estetik zavqini, energiyasini sezmagani biror inson yo'qliki, u deyarli barcha bilan bilan hamohang yashaydi. Biz o'z millatimiz, mentalitetimiz va qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashadigan bo'lsak, san'at-bu tarbiya vositasidir. Oilada farzand tug'ilibdiki, onasining aytgan allasini eshitiboq ilk marotaba san'at bilan yuzma-yuz keladi. Bolaning yoshligidagi o'yin faoliyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, san'atning teatr, qo'shiqchilik, rassomlik, haykaltaroshlik turlaridan o'zi bilib bilmagan holda foydalanadi. O'qish faoliyatiga o'tganda esa san'at uning hayotiga chuqurroq

singib kiradi. Chunki shu davrda kelajakdagi o‘rni va rejalarini amalga oshirish uchun harakatni boshlaydi. Bola kelajakda o‘zini aynan san’at sohasidan yiroq bo‘lgan kasbda ko‘rsa ham, lekin uning shu qarorga kelishiga san’at ko‘makchi bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida birgina kino san’atini keltiradigan bo‘lsak, agar kino dolzarb mavzudagi mazmunga boy ssenariyga ega bo‘lsa, rejissyor aktyorlarni to‘g‘ri tanlay olib, aktyorlar berilgan qahramonning obrazini ishonarli va mahorat bilan gavdalantira olgan bo‘lsa yosh tomoshabin o‘sha qahramon timsolida o‘zini tasavvur qiladi hamda bu qahramon unga motivatsiya vazifasini o‘tashi mumkin. Demak san’at asarini idrok etish jarayonida dunyoqarashi, uning hissiyyaxlit shaxsiyati shakllanadi, inson o‘zining «men»ini yaratadi, ijodiy tabiatini anglaydi, o‘zini rivojlantiradi. Har qanday o‘zgarishlarga ijodiy yonda shaoladigan, mavjud muammolarni noan’anaviy va samarali hal qila oladigan yetuk shaxsga aylantiradi.

Zamonaviy dunyoda inson faoliyati to‘laqonli ijodiy tamoyillarga ega zamonaviy shaxsni rivojlantirish muammolarini aktuallashtiradi. San’at - barcha ijodiy sa’y-harakatlarni oqlaydigan, atrofimizdagi dunyoda o‘zini qidirib topadigan va shaxslarga ma’naviy rivojlanish va o‘zini takomillashtirish imkoniyatini beradigan quroldir. Demak san’atning vazifasi insonni komillik sari undash ekan, bu maqsadni to‘laqonli amalga oshishida ijodkorlar, san’atkorlar shuningdek madaniyat va san’at sohasida faoliyat olib borayotgan kadrlarga katta mas’uliyat yuklaydi. Mustaqil O‘zbekistonimiz ravnaqi jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi yoshlari qo‘lida ekan, avvalo yoshlarni milliy madaniyatimiz va san’atimizni o‘rganishga qiziqishni shakllantira olishimiz lozim, bunga javoban yosh avlodga har tomonlama mukkammal va sifatli san’at asarlarini taqdim etishimiz zarur. Bu ishlarni amalga oshirishda san’at muassasalarining ta’lim muassasalari bilan hamkorligini sifatli tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, muzeylar va san’at galereyalari yangi yosh ijodkorlarning yaratayotgan asarlarini kolleksiya qilib, ta’lim

muassasalarida tengdoshlari uchun ko'rgazma va taqdimotlarini tashkil etishi ham katta samara beradi. Bunda ko'rgazmasi tashkil etilgan ijodkor ham o'zining san'ati qaysidir ma'noda "tan olinishiga" erishadi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, yanada ijod qilishga kuch oladi. Uning ijodini kuzatgan o'quvchi ham faqatgina estetik zavq olibgina qolmay, san'atni, ijodkorning mashaqqatli mehnatini qadrlashga o'rganadi. Shuningdek ijodkorga havas qilgan holda, o'zidagi yashirin iqtidori, ijodkorlik va yaratuvchanlikni yuzaga chiqarishga intiladi. Bu kabi tashabbuslarni barcha san'at yo'nalishlari bo'yicha qiziqarli tarzda tashkil etish mumkin.

Maqsadimiz yuksak bilimli, zamонавиј fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega, boy milliy madaniyatimizni targ'ib etuvchi yoshlarni tarbiyalash ekan, san'at va madaniyatning ular hayotida muhim o'rinnegallashiga erishishimiz zarur. Zero, uning samarasi kelajakda o'z kasbining mohir ustasi bo'lishda, har bir ishga ijodiy yondashib uni san'at asari darajasida bajarishga muvaffaq bo'lishida ko'rinadi.

### **Foydalanimanligan adabiyotlar:**

1. E. Omarov, R. Karimov, M. Mirsaidova, G. Oyxo'Jayeva. Estetika asoslari Cho'lpon 2013.
2. Бердяев Н. А. Философия творчества, культуры, искусства,- М., 1994
3. Гачев Г. Д. Творчество, жизнь, искусство.- М., 1980.  
<http://uza.uz/uz/politics/prezident-madaniyat-va-san-at-sohasi-rahbarlari>



**Saidov Vohidjon Abdusalom o'g'li,**  
**2-kurs "Folklor va etnografiya" mutaxasisizligi magistranti**  
**Ilmiy rahbar: Tarix fanlari doktori, professor Ashirov A.**

## O'ZBEK FOLKLORI TO'Y MAROSIMIDA QO'SHIQCHILIK SAN'ATI

### Annotations

O'zbek to'ylarida qadimiy urf-odatlar turli viloyatlarda mahalliylashgan ko'rinishda o'z ifodasini topgan. To'ylarda yor-yor, Hazorali, kelin salom va boshqa turli tuman folklor qo'shiqlari ijro etilib, zamonaviy dunyoda yangicha ko'rinishda urf-odatlarga moslashib ijro etilmoqda.

### Kalit so'zlar

Folklor, folklorshunos, qo'shiq, to'y, yor-yor, marosim, urf-odat, o'lan, kelin salom, hazorali.

### Аннотации

На узбекских свадьбах старинные традиции отражаются в локализации различных регионов. На свадьбах такие народные песни, как ёр-ёр, хазарали, келин салом и другие исполняются по-новому в современном мире в соответствии с традициями.

### Ключевые слова

Фольклор, фольклорист, песня, свадьба, йор-йор, обряд, традиция, улань, поздравление невесты, хазарали.

### Annotation

At Uzbek weddings, ancient traditions are reflected in the localization of various regions. At weddings, folk songs such as yor-yor, hazarali, kelin salom and many others are performed in a new way in the modern world in accordance with the traditions.

### Keywords

Folklore, folklorist, song, wedding, yor-yor, ceremony, tradition, death, bride greetings, hazarali.

**O**'zbek xalq qo'shiqlari badiiy jozibadorligi, chuqurma'nnaviy-madaniy mazmundorligi, betakror ohanglarga yo'g'rilganligi va ramziy obrazlarga juda-juda boyligi bilan dillarga ezgulik tuyg'ularini baxsh etib kelmoqda. Turli

janrlardan tarkib topgan O‘zbek xalq qo‘shiqlari xalq orasida o‘ziga xos muhabbat qozona olgan.

Millatuchun muhimahamiyatgaega bo‘lgan etnik jihatvaxususiyatlari bilan bog‘liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Qo‘shiqlar folklorda eng qadimiy va eng boy janrlardan biri hisoblanadi. Maqol, matal, topishmoq bilan bir qatorda xalq qo‘shiqlarining Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” kitobidan joy olishi ham bejizga emas.

Bugungi kunda ularni yig‘ish, o‘rganish va tadbiq etish jamiyatimiz ma’naviy boyligini qadrlashga barobar eng yuksak ishdir. O‘zbek xalq qo‘shiqlari butun boshli tizim holida shakllangan bo‘lib, shakliy xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Qo‘shiq kishining ongi va hissiyotlariga ta’sir etish kuchiga ega. Aksariyat qo‘shiqlarda xalqning urf-odati, milliy an’analari o‘z aksini topgan.

Bularga misol qilib to‘y marosimlarini olsak. To‘y juda qadim zamonalardan beri kishilar hayotida muhim voqealarni bo‘lib kelgan. To‘y atamasi o‘z ichiga juda ko‘p rasm-rusumlarni, irim-sirimlarni va turli hajmdagi marosimlarni olgan. To‘y atamasi folklorshunos olim B.Sarimsoqovning ta’rificha “to‘ymoq”, “do‘s’t diydoriga to‘ymoq”, “el-yurtga ziyofat bermoq” singari ma’nolarni anglatgan. To‘y marosimlari — beshik to‘yi, xatna to‘yi, muchal to‘yi, nikoh to‘yi singari xilma-xil to‘ylar bo‘lganidek, ularning qo‘shiqlari ham turli-tumandir.

Qiz uzatar kechasida aytildigan qo‘shiqlardan biri “yor-yor”lardir. “Yor-yor” qo‘shiqlari ma’lum cho‘ziq ohangda ko‘pchilik bo‘lib kuylanishi, naqoratlari bilan ajralib turadi. “Yor-yor” qo‘shiqlarida asosan qiz o‘stirgan ota-onaning ta’rifi, orzulari va to‘yi bo‘layotgan kelinning go‘zalligi, chevarligi, kelinga oila qurish haqidagi nasihatlar, serfarzand bo‘lishi, unib-o‘sishi haqidagi tilaklar tashkil qiladi. Respublikamizning hamma yerida “Yor-yor” qo‘shiqlari ham keng

tarqalgan va asosan ayollar tomonidan ijro etiladi.

*Bizlar yor-yor aytaylik,*

*Birday bo'lib yor-yor,*

*Tong saharda ochilgan,*

*Gulday bo'lib yor-yor.*

*Davlatingni borida*

*To'y qila ko'r, yor-yor,*

*Ostonasi tillodan,*

*Uy qila ko'r, yor-yor.*

“Mezon ul –avzon” asarida Alisher Navoiy aruz vazniga mos keluvchi turkiy xalqlar og‘zaki ijodi janrlariga to‘xtalib, yor-yor haqida shunday yozadi: “Yana chinga” durkim, turk ulusi zufof va qiz ko‘chirur to‘ylarida ani aytadurlar”. Yuqorida berilgan yor-yor Alisher Navoiy qayd etgan “chinga”ning aruz vazniga mos keluvchi turini aynan o‘zginasidan iborat.

*Yor-yor aytib kelaman, yo'l beringlar, yor-yor,*

*O'lanchining piriman, qo'l beringlar, yor-yor.*

*Hay-hay o'lan, jon o'lan, to'ydir bugun, yor-yor,*

*Do'st kelib, dushman ketar kundir bugun, yor-yor.*

Yor-yorlar respublikamizning ayrim hududlarida erkaklartomonidan ham ijro etiladi. Ilgari kelin va uning dugonalari kuyovnikiga aravalarda borishgan, yo'l-yo'lakay kelinning dugonalari yor-yor aytib ketishgan.

*Aravaning cho'pchagi yoriq ekan, yor-yor.*

*Kuyov bergen qo'ylari oriq ekan, yor-yor.*

Respublikamizning Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining ayrim joylarida kuyov kelinni uyiga olib kirishda, ya’ni uy ostonasiga to‘shalgan poyondozni bosib o’tgandan keyin, qaynonasi “xush keldingiz” aytimini aytadi. Uning atrofidagilar jo‘r bo‘lishib, “hazorali” deb turishadi:

*Hazorali, hazorali,*

*Oftobim, anbarim, xush keldingiz,*



*Jonim, oltin parim, xush keldingiz,*

*Hazorali, hazorali.*

*Davlat boshingizda bo'lsin, xush keldingiz,*

*Himmat qo'lingizda bo'lsin, xush keldingiz.*

“Xush keldingiz” kuyovning xonadoniga yangi a’zo bo‘lib kelgan kelinning poyqadami oq bo‘lsindegan ma’nodaaytilgan. Kelinchakni kuyovning yaqin qarindosh-urug‘lari bilan tanishtirish marosimida kelin salom yoki betochar qo’shiqlari aytiladi. An’anaga ko‘ra kayvoni (dasturxonchi) kelinni kuyov xonadonining darvozasidan olib kirishdan boshlab aytadi. Uy egalari, to‘yga kelganlar esa “alik salom” deb javob qaytaradilar.

Ko‘rib turganingizdek bu to‘y marosimlarining ajralmas bir qismi va o‘zbek xalqining go‘zal urf-odatlaridan biri. Hozirgi kunda o‘zbek folklor qo’shiq matni namunalarini yig‘ish, to‘plash va nashrga berish borasida juda keng ko‘lamda ishlar olib borilmoqda. Ammo bizning ota-bobolarimizdan qolgan bu qo’shiqlarni yosh avlodga yangicha ko‘rinishda emas, o‘z holatida yetkazib berishimiz lozim. Ularning ongiga milliy folklorimizni singdirish orqali folklor namunalarimizni asrab qolishga mustahkam zamin yaratamiz.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. M.Jo‘rayev, L.Xudoyqulova. Marosimnoma. Toshkent:. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2008
2. Mahmud Koshg‘ariy. Devoni lug‘otit turk. Birinchi jildi. Toshkent; Fan.1960
3. S. Davlatov. Qashqadaryo vohasi to‘y marosim folklori. 1998

### **Internet saytlari:**

1. [www.tarix.uz](http://www.tarix.uz)
2. [www.saviya.uz](http://www.saviya.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.o'qituvchi.uz](http://www.o'qituvchi.uz)



**Toshlanov Mavlonbek**

*“Xalq ashula va raqs ansamblariga rahbarlik”  
mutaxasisligi 2-kurs magistranti.*

**Ilmiy rahbar:** O’zbekiston Respublikasi san’at arbobi J.Shukurov

## **MAQOM YO‘NALISHIDA IJOD ETGAN SAN’ATKORLAR VA ULARNING BU SOHAGA QO‘SHGAN HISSASI**

### **Annotatsiya**

Mazkur maqola milliy musiqa san’atining maqom yo’nalishi bo'yicha faoliyat yuritgan ijodkorlar, allomalar haqida xabar beradi. Bundan tashqari, maqolada san’atkorlarning aynan shu soha yuzasidan amalga oshirgan sa'y-harakatlari borasida ham so'z boradi. Ayniqsa, maqom yo’nalishining hozirgi davrdagi yuksak e’tirofi qay yo’sinda bunyod bo’lganini bilib olish mumkin. Shuningdek, maqom kuylagan san’atkorlaning erishgan yutuqlari va hayot yo’llari haqida ma'lumotlar berilgan.

### **Kalit so’zlar**

Maqomat, bastakorlik, Borbad, Abul Faraj al-Isfahoni, «Qo’shiqlar kitobi», G’ulom Ali Shunqor

### **Annotation**

This article tells about the artists and scholars working in the field of makom of national music. The article also discusses the efforts of artists in this area. In particular, it is possible to find out how the high recognition of the makom was builtin modern times. It also provides information about the achievements and life paths of the artists.

### **Key words**

Makamat, composition, Borbad, Abul Faraj al-Isfahani, «Book of songs», Ghulam Ali Shunkar

**M**usiqa asarlarining muhim tarbiyaviy ahamiyati shundaki ular kishilarning aqliy qobilyatini ongini ustirishga, irodasini mustahkamlashga, didini shakllantirish va takomillashtirishga, hissiyotini yorqinlashtirishga o’z emotSIONAL ta’sirini o’tkazadi. Mumtoz musiqa inson moddiy va manaviy turmush talablari, ehtiyojlari va o’zini qurshab turgan tashqi muhitga, boshqa kishilarga bo’lgan munosabatlari natijasida paydo

bo'lgan. Xalqning ichki ruhiyati, dunyoqarashi, intilishlari va orzu-havasi musiqa ohanglarida aks ettirib kelingan. O'tmish ajdodlarimiz katta yig'inlar, xalq bayramlari va sayllari, to'y-marosimlarni 45 musiqasiz tashkil qilmaganlar, chunki bu yirik anjumanlarda yangragan har bir cholg'u kuyi, ijro etilgan qo'shiq-ashula yoki raqs anjuman ishtirokchilarining ruhiyatiga ijobiy tasir ko'rsatgan.

«Musiqa ilmida, – deb yozadi O. Matyoqubov, – janglarning eng oliy navlariga nisbatan maqom iborasi bиринчи bo'lib Safiuddin Urmaviy tomonidan ishlatilgan. Sharq musiqasida keng tarqalgan «12 maqom» sistemasi ham ana shundan boshlangan». <sup>1</sup> 12 maqom tizimidagi Rost, Isfahon, Iroq, Ko'chak, Buzurg, Hijoz, Busalik, Ushshoq, Husayniy, Zangula, O. Matyoqubov. Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariiga kirish. – T., 1983. 23-24-betlar. 15 Navo, Rahoviy kabi turkumiy asarlar majmuasi bastakorlik ijodiyotining eng murakkab va mukammal namunasi sifatida keyingi avlod uchun namuna bo'ldi.

Musiqa san'atining kasbiylik an'analarida yuzaga kelgan mumtoz namunalar, xalq marosimlari jarayonida yaratilib kelingan kuy va qo'shiqlar o'ziga xos an'analar asosida zamonlar osha yashab, rivojlanib kelmoqda. Odadta, bastakorlik ijodiyoti bir-biridan kelib chiqqan ikki qatlamga bo'linadi. Birinchi qatlam – xalq musiqa ijodiyoti, ya'ni xalq tomonidan yaratilib kelingan folklor musiqasi. Ikkinchisi – musiqa ijrochiligi amaliyoti; meros bo'yicha muayyan bilimga ega bo'lgan shaxs, ya'ni bastakorlar ijodiyoti natijasida yaratilgan mumtoz musiqiy asarlaridir. Bastakorlik ijodiyotining eng yirik va mukammal shakli maqomot tizimiga kiruvchi asarlardir. Bastakorlik amaliyotida shakllanib maqomot shakligacha rivojlangan janrlar, manbalarda amal, qavl, parda, nag'ma, ovoz, naqsh, peshrav, savt, chorzarb, kor, tarona kabi iboralarda tasvirlanib kelingan. Ushbu iboralarning amaliyoti va ijodiyoti xususida, tarixda bitilgan musiqiy risolalar, turli ilmiy va badiiy adabiyotlarda aks ettirilganligini qayd etish lozimdir. Bastakorlik ijodi va umuman, musiqa san'atining turli yo'nalishlari bilan bog'liq masalalar, IX–XVII asrlarda yashab ijod etgan AlKindiy,

Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog’iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy, Najmuddin Kavkabi, Darvish ali Changiy kabi allomalarining musiqa ilmiga bag’ishlangan risolalarida musiqa zamonasi kesimida bayon etilgan. Risolalarda qayd etilishicha, musiqaning nazariyasi va amaliyoti azaldan o’zaro bog’liq holda shakllanib kelgan. Markaziy Osiyo hududida VI asrning ikkinchi yarmi va VII asrning boshlarida yashagan afsonaviy sozanda, xonanda va bastakor Borbad Marvaziyning ijodiy ijrochilik merosi kasbiy musiqa ijodiyotining ilk qadamlari deb e’tirof etiladi. Manbalarda bastakorlik ijodiyoti, ajam xalqlarining keyingi tarixiy rivoji yo’lida o’ziga tasnif etilganligining guvohi bo’lamiz. Bu jarayonni Abul Faraj al-Isfahoniy o’zining «Qo’shiqlar kitobi» asarida muxtasar qiladi va VII-IX asrlarda yaratilgan 1000 ga yaqin qo’shiqlar haqida ma’lumotlar bayon etadi. Bastakorlik ijodiyotining tadrijiy jarayonida «Ilk o’rta asrlar bastakorligi», «Borbad ijodi», «Abul Faraj al-Isfahoniy ijodi va xususan, uning «Qo’shiqlar kitobi» alohida ahamiyatga egaligi fanda e’tirof etiladi. Shu bois bu mavzularni alohida o’rganish va o’zlashtirish maqsadga muvofiqli.

Borbad ijodi. Markaziy osiyolik buyuk san’atkor, xonanda, sozanda, tarixda mumtoz musiqa asoschisi sifatida mashhur bo’lgan bastakor Borbad eramizning VI asri 60-yillarida tavallud topgan. U Xurosonning qadimiyligi va markaziy shaharlaridan biri hisoblangan Marvda yashagan. O’tmisht yozma manbalarida Borbadning yoshlik davrlari xususida ma’lumotlar bayon etilmagan. Uning asli ismi Falaxbod Marvaziydir. «Borbad» Falaxbod Marvaziyning taxallusi bo’lib, qadimiyligida borbatcholg’usi ijrochiligida mohirlikka erishganligi uchun unga shu nom berilganligi ham e’tirof etiladi. Borbad o’smirlilik davridayoq xalq orasida mohir sozanda sifatida tanilgan. Shu bilan birga Marvda musiqa ilmini ham o’zlashtirganligi xususida ma’lumotlar keltiriladi. Firdavsiyning «Shohnoma», Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin», Amir Xusrav Dehlaviyning «Shirin va Xusrav» kabi badiiy asarlarida Borbadning xushovoz hofiz, mohir sozanda, betakror bastakor bo’lganligi xususida

ma'lumotlar bayon etilgan. Betakror iste'dod egasi bo'lgan Borbad sosoniylar (V-VII asrlar) davrining nomdor hukmdori Xusrav Parviziylar saroyida, 591-628-yillar orasida xizmat qilib, o'zining yorqin faoliyatini olib borgan. Borbadning ijodi haqida xalq orasida ko'plab affsonalar hamda ma'lumotlar keltirilgan. Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» kitobida keltirilgan «Borbad qissasi,<sup>1</sup> Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin» dostonida «Borbadning 30 ta kuyi» kabilardagi ma'lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi.<sup>2</sup> Xusrav Parviziyning saroyida Sarkash, Bamshod, Nokus, Romtin kabi mashhur xonanda va sozandalar faoliyat olib borganliklari to'g'risida manbalarda bir qator ma'lumotlar keltiriladi. Lekin Borbad o'zining betakror iste'dodi va ijodi bilan san'at sohasida juda mashhur bo'lgan. Borbad ijodi davomida 7 ta yirik shakldagi asarlar turkumi «Xusravoniy»larni, 30 ta lahn, 360 ta (alhon) qo'shiq-dostonlarni yaratishga erishadi va kasbiy musiqa ijodini boshlovchilaridan biri sifatida tarixga nomi muhrlanadi. Borbad yaratgan kuylarning musiqiy ohanglari saqlanib qolinmagan, lekin ularning nomlari turli manbalarda turlicha tarkibda keltiriladi. Manbalarda qo'shiqlarning «Yazdan ofrid», «Ganji bod ovar», «Bog'i Shahriyor», «Nimro'z», «Sabr dar sabz», «Kini Eraj», «Kini Siyavush», «Xaft ganj», «Rohi Shabdiz», «Bog'i Shirin» kabi nomlari bilan birga muayyan yo'nalishga xos qo'shiqlar ham saqlanib qolgan. Jumladan: Navro'z marosimi bilan bog'liq qo'shiqlar – «Bodi Navro'z», «Nozi Navro'z», «Sozi Navro'z», «Navro'zi Xurdak»; xalq qahramoni Siyovushga bag'ishlangan qo'shiqlar – «Bog'i Siyovush», «Kini Siyovush», «Siyovushon» va boshqalar. Borbad «borbat» cholg'usini kashf etgan izgar sifatida ham nom qoldirgan. Borbad O'rta Sharqda mumtoz musiqa san'atining ilk professional namoyandasini darajasiga ko'tarilgan va aynan shu soha asoschisi sifatida tarixdan o'rin olgan.

Abul Faraj al-Isfahoniyning «Qo'shiqlar kitobi» Abul Faraj al-Isfahoniy Eronning janubida joylashgan Isfahon shahrida 897-yili tavallud topgan. Abul Faraj al-Isfahoniy butun o'zining ijodida bir qator sohalarda ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, tibbiyot, tarix, falsafa, geografiya, astronomiya va musiqa bo'yicha 30 dan

ortiq risolalar yozib qoldirgan. Faoliyati davomida musiqaga bag'ishlangan 7 ta risola yozgan. Ularning ichida eng mashhuri «Qo'shiqlar kitobi» («Kitab ul-ag'ani») deb nomlangan bo'lib, oldin yaratgan 6 ta kitobga kirgan ma'lumotlarning aksariyatini qamrab olgan. 6 ta musiqa haqida kitoblarining nomlari quyidagicha: «Faqat qo'shiqlar haqida kitob», «Tinglash haqida kitob», «Xonandalar kitobi», «Mashhur xonandalar haqida kitob», «Kuy haqida kitob» va «Ashulalar haqida kitob». Abul Faraj al-Isfahoni ushbu risolani o'zidan oldin yashab o'tgan bastakor va ijrochi Is'hoq Mavsuliy kitobiga asoslanib yozadi. Qo'shiqlarni o'tmish xonandalar talqinlaridagi rivoji va o'zgarishlari, turli ijro maktablari va uslublaridagi ijrosini VII-X asrlar mobaynidagi rivoji kesimida ko'rsatib beradi. Risolada, asosan, arablar musiqiy estetikasi, musiqaning ahamiyati keng yoritilgan. Risola tarkibidan o'rinni olgan qo'shiqlarda arablar, ya'ni ko'chmanchi badaviylarning qo'shiqlari, xalifalarni madh etuvchi marsiyalar, diniy-dunyoviy musiqalar o'rinni olgan. «Qo'shiqlar kitobi»da musiqaning nazariy masalalari yoritilmagan, aksincha, asosan, amaliy jarayon ifoda etilgan. Risola 8 bobdan iborat. Harbir bobo'z tarkibiga bir nechta qismni qamrab olgan. Ular asosan ocherklar ko'rinishidadir. Kitob tarkibidagi qo'shiqlar uch guruhga bo'lingan: – birinchisi: quvnoq, harakatga ega bo'lgan qo'shiqlar; – ikkinchisi: nazokatli, nozik, ma'yus, xijronli kayfiyatni tarannum etuvchi qo'shiqlar; – uchinchisi: mumtozlik uslubiga yaqin bo'lgan qo'shiqlar. Ularni ijro etish uchun ijrochida yetarli darajada malaka bo'lishi talab etilgan. Risolada arab xalqlarining musiqa madaniyati rivoji qo'shiqlar misolida berilgan bo'lib, eng muhimi, kasbiy musiqaning rivoji xususida tartibli ilmiy-amaliy ma'lumotlar bayon etilgan.

XV asrdan boshlab to XVIII asrgacha bo'lgan davr musiqa madaniyati rivoji, asosan, musiqiy risolalarda, adabiy, tarixiy va badiiy manbalarda o'z ifodasini topgan. Ushbu davrni maqomchilik san'ati ustida ijodiy ish olib borilgan davr deyish mumkin. Chunki shu davrlarda yaratilgan musiqiy va badiiy asarlarda sozanda va xonandalar, bastakorlar, ular yaratgan kuy va ashulalar xususida ma'lumotlar keltirilib, asarlarning nomlari bayon etilgan. Musiqiy

risolalarda esa maqomlarning nomlari va ularning tarkibiga kirgan asarlarning maqomlarga tegishli bo'lgan doira usullari haqida va ularning tartibi xususida so'z yuritilganligining guvohi bo'lamiz. Mumtoz musiqaning tarkibidan o'rin olgan usul masalasi o'tmish allomalarining diqqat markazida bo'lib kelgan musiqaning tarmog'idir. Va deyarli barcha risolalarda qadimiy usullarning nomlari deyarli bir xildir. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Ilmlar kaliti» qomusi, Abu Ali ibn Sinoning «Iyqo ilmi» risolasida keltirilgan usullar jadvallari shular jumlasidandir. Lekin, ushbu davrga kelib usullar ham o'ziga xos nomlanganligini va ularda hozirgi Shashmaqom tarkibidagi usullarning ifodalanganligini ko'rish mumkin. Ushbu masalaga XX asr musiqa bilimdoni Abdurauf Fitrat o'zining «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» nomli risolasida murojaat etib, mavjud usullarning nomlarini va usul shakllarini bayon etadi.

G'ulom Ali Shunqor – musiqada davrining betakror bilimdonlaridan biri. Tutuq begin xizmatida bo'lim, o'zining ijodini, savt-u naqshlarini unga bag'ishlagan. Turkiy zarb usuli asosida, dugoh ohanglaridagi «Savt-u naqsh» asari ham xalq orasida «Savt-u Nashiq begin» nomi bilan keng ommalashgan deb baho beradi; Ustod Zaytun g'ijjaki – maqom ijodiyotida ko'proq peshravlar bog'lagen. Ulardan biri Husayniy maqomida davri saqil usuli asosidagi asardir. Xon Ahmad G'iloniy – musiqa ilmida, ijodiyotida va ijrochiligida unga teng keladigani bo'limgan, deb yozadi muallif. Ayniqsa, ud cholg'usi ijrochiligidagi mohirligi alohida qayd etib o'tiladi. Musiqa ijodiyotida ko'p peshravlar yaratganligi va o'z zamonasining xotirasida qolganligi xususida bayon etadi. Ayniqsa, muhammas usulida Panjgoh zaminida yaratgan «Peshravi Isfahon» asari mashhur ekanligini izohlaydi. Mavlono Axi Hitoriy haqida qiziq ma'lumot keltiriladi. Ustoz Darvish Shodiyning qalamiga mansub ilk asarlarni keltirar ekan, shunday yozadi: «Iroq pardalariga asoslangan «Savt»ni Rost-Panjgoh ladiga o'girib, Zarbi Turk usulida soldi». Bu, albatta, bastakorlik 24 ilmining qayta ishlash bilan bog'liq amallarini ko'rsatuvchi dalillar deb qabul qilish lozimdir. Mir Ali Akbar

Samarqandiy – o’z davrining musiqa dunyosidagi noyob iste’dod sohibi bo’lgan. Undan betakror naqshlar va savtlar, qavl va korlar davrining betakror musiqiy durdonalari sifatida meros bo’ldi.

XXI asrga kelib, ushbu davrda samarali faoliyat olib borayotgan Qahramon Komilov, Axmadjon Dadayev, Bahrillo Lutfullayev, Baxtiyor Aliyev, Abduhoshim Ismoilov, O’lmas Rasulov, Shavkat Mirzayev, Tursunboy Jo’rayev, Ahmadjon Dadayev, Muhammadjon Maraximov kabi bir qator bastakorlarning ijodlari keng ommalashganligi va xalq bastakorlik san’ati turli yo’nalishlarda o’zini namoyon etayotganligini kuzatish mumkin. Bastakorlarning zamongaxosyaratayotganasarlaridayirik kuylar, ashulavaqo’shiqlar, romans, duet va trio kabi professional janrlar ko’rinishida ijod etish rasm bo’lmoqda. Bu, albatta, bastakorlik ijodiyotining turlanishi, qo’shiqchilik san’atining xalqaro miqyosda keng ommalashishidan darak ekanligini e’tirof etish mumkin.

Musiqa orqali insonga jon ato etilgan deb bejiz aytilmagan, chunki u inson tanasiga tetiklik va ruhan kuch baxshida etadi. Maqom san’atida ijod etgan san’atkor-u bastakorlarning uni yuksak pog’onaga olib chiqishdi. Xalqaro sahnalarda ham milliy musiqamizning yorqin yo’nalishi kuylanib kelinmoqda. Bu esa ijodkorlarning asl iste’dodi, mehnatining samarasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Xasanov. “Musiqa va estetik tarbiya” T., “O’qituvchi” 1993 y
2. I.A.Karimov. //Barkamol avlod –O’zbekiston taraqqiyotining poydevori//. T-t 1998 y “SHarq” nashriyoti.
- 3.”Buyuk siymolar, allomalar”. T-1995 y A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti
4. I.A.Karimov. ”Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir” Toshkent - “O’zbekiston”-2015
5. Soibjon Begmatov. Bastakorlar ijodi. Toshkent – «Niso poligraf» – 2017
6. [http://www.balletart.ru/rus/2006/img/bo6\\_06\\_3.jpg](http://www.balletart.ru/rus/2006/img/bo6_06_3.jpg)
- 7.[http://img-fotki.yandex.ru/get/4703/dioseya.26/o\\_482C4\\_4f175f16\\_1](http://img-fotki.yandex.ru/get/4703/dioseya.26/o_482C4_4f175f16_1)

*Abbos Adhamjon o‘g‘li Anvarjonov,  
2-kurs “Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi” mutaxassisligi magistranti.  
Ilmiy rahbar: falsafa fanlar nomzodi, dotsent: M.Umarov*

## MILLIY QO‘G‘IRCHOQ TEATRIGA ZAMONAVIY TALABLAR

### Annotatsiya

Maqolada zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrining turmush tarzida, o‘ziga xos jihatlar bilan o‘zgarayotgani shuningdek, o‘z faoliyati, maqsad xamda vazifalarini qayta ko‘rib chiqish jarayonidagi yutuq va kamchiliklari xususida.

### Kalit so‘zlar

Qo‘g‘irchoq teatri, dramaturgiya, aktyor, rejissyor, konflikt, badiiy g‘oya.

### Аннотация.

В статье раскрываются особенности современного театра кукол. В целом она поможет найти ответы на самые насущные и острые вопросы, которые ставит театр кукол в наше время.

### Ключевые слова:

куколкий театр, драматургия, актер, режиссер, конфликт, художественные идеи.

### Annotation

The article reveals the features of modern puppet theater . In addition, the activities of the puppet theater today as well as the goals and objectives of the puppet theater were discussed. It is also about the successes and disadvantages of the puppet theater.

### Key words

Baby doll, Scenario, Drama, actor, director, composition, artistic ideas.

**S**o‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangilanayotgan O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy, nomoddiy va madaniy meros durdonalarini saqlash, targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti hamda havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.“Biz uchun bolalarimizning ma’nnaviyati, bilimi, sog‘lig‘i eng muhim masala”, deya ta’kidlaydi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydag‘i PF-6000-sonli Farmoniga muvofiq boy tariximizning o‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatrini shakllanishi va rivojlanishidagi beqiyos hissasi inobatga olinib, Respublika Qo‘g‘irchoq teatriga “O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri” nomi berildi. Shuningdek, ushbu Farmonga ko‘ra, Navoiy, Namangan, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari hokimliklari bilan birgalikda yuqoridagi viloyatlarda qo‘g‘irchoq teatrini tashkil etish to‘g‘risidagi vazifalar belgilab olindi. Bu farmondan kelib chiqqan vazifalar qo‘g‘irchoq teatrlari uchun malakali kadrlar tayyorlaydigan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi san’ati” kafedrasи mutaxassislarini ma’sulyatini yanada oshiradi.

Yosh avlodni zamon ruxiga mos ravishda tarbiyalash, ularning ma’naviy olamini yuksaltirish, buyuk ajodolarimizga munosib avlod bo‘lishlari yo‘lida xizmat qilib kelayotgan qo‘g‘irchoq teatri san’atining mutaxassislarini 2020-yil 1-iyunda O‘zDSMIda “Qo‘g‘irchoqteatrsan’atini rivojlantirishda innovatsion xamkorlikning afzalliklari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga jamlanishdi. Ular sohani yanada rivojlantirish, ta’lim hamda amaliyot o‘rtasidagi integratsiyaga to‘siq bo‘layotgan ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablarni, yechimini kutayotgan dolzarb masalalarini bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish yuzasidan muzokaralar olib bordi.

Konferensiya institutning “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi san’ati” kafedrasidagi ta’lim yo‘nalishlari talabalari, teatrning ertangi ijodiy jamoalari safini to‘ldirish bilan birga, uning repertuarini shakllantiruvchi ijodiy kuch sifatida namoyon bo‘lishi alohida ta’kidlandi. Konferensiya ishtirokchilari qo‘g‘irchoq teatrining quyidagi dolzarb masalalariga alohida e’tibor qaratishdi:

- *qo‘g‘irchoq teatrining badiiy yaxlit spektakllari – ijodiy jamoaning badiiy darajasini belgilovchi muhim omildir;*
- *qo‘g‘irchoq teatri san’atining o‘ziga xos tomonlarini ilmiy jixatdan o‘rganish masalalari;*
- *o‘zbek qo‘g‘irchoq teatridagi an’ana va zamonaviy jarayon;*
- *yosh avlod tarbiyasi va talaba yoshlarning ma’naviy qiyofasi;*
- *qo‘g‘irchoq teatrlarida professional rejissuraning muammo va yechimlari;*

- qo‘g‘irchoq teatr ijodining rivojlanishida innovatsion yangiliklar;
- qo‘g‘irchoq teatri uchun malakali kadrlar tayyorlashda ta’lim va ishlab chiqarish uzviyligi;
- professional aktyorlar qo‘g‘irchoq teatri poydevori;
- viloyat qo‘g‘irchoq teatrlarida profesional ijod va kadrlar masalasi;
- qo‘g‘irchoq teatrining bugungi kuni va istiqboli;
- yoshlarning badiiy tarbiyasidagi teatr san’atining o‘rni;
- O‘zbekistondagi davlat qo‘g‘irchoq teatrlarida repertuar masalalari;
- qo‘g‘irchoq teatri rivojida festivallarning o‘rni va ahamiyati;
- qo‘g‘irchoq teatrining dramaturgiyasi masalalari;
- qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi dagi yangi tendensiyalar;
- qo‘g‘irchoq teatri san’atini rivojlantirishda innovatsion hamkorlikning afzalliklari;
- qo‘g‘irchoq teatri san’atiga innovatsion yondashuvlar ko‘lamni;
- o‘quv jarayonida qo‘g‘irchoq yasash texnologiyasi masalalari;
- qo‘g‘irchoq teatri spektakllarida sahnaviy nutq masalalari;
- bolalar uchun mo‘ljallangan telekanallarning tarbiyaviy ahamiyati;
- professional ta’lim: qo‘g‘irchoqlarni boshqarishda diqqatning roli;
- qo‘g‘irchoq teatrida zamonaviy qahramon obrazini yaratish masalasi kabi mavzular ko‘rib chiqildi. Konferensiyada ko‘rilgan masalalar ko‘lamidan – zamonaviy qo‘g‘irchoq teatri qanday bo‘lishi kerak degan masalalarga javob izlangani ayon bo‘ladi.

Ma’ruzalar, bugun insoniyat turmush tarzi tarakkiyotning avj pardalarida ekanligini alohida ta’kidladi. Natijada, bolalar tarbiyasiga e’tibor, ularning badiiy tasavvuriga qo‘g‘irchoq teatrlari orqali ta’sir etish masalalari tubdan o‘zgardi. Shunday yekan, qo‘g‘irchoq teatrlarimizning salohiyati va imkoniyatlari zukko bolalarni zamon ruhida tarbiyalashga yetarlimi degan savol tug‘iladi. Qo‘g‘irchoq teatri sanati istiqbolini belgilashda nimalarga e’tibor berish lozim va qanday muamolarni xal etish kerak?

Zamonaviy qo‘g‘irchoq teatri folklor, drama, opera, balet, musiqali drama, operetta, pantomima, badiiy so‘z singari san’at turlarini sintezlashtirgan xolda, badiiy yaxlit spektakllar namoyish etadigan muqaddas ijod maskani. Shunday ekan, u alohida ijod turi sifatida rivojlanib, shu paytgacha e’tibor berilmay kelingan mavzularni va obrazlarni kashf etishi, janrlar doirasini kengaytirishi, saxnalashtirish

uslubi va ijrochilik vositalarini boyitishi, unutilgan shakllarni tiklashi lozim. Ana o'shandagina qo'g'irchoq teatri – o'z mavqeiga va turli toifa tomoshabinlar talablariga munosib bo'la oladi.

Mamlakatimiz qo'g'irchoq teatrлari mavjud imkoniyatlardan foydalangan xolda oxirgi yillarda sezilarli yutuqlarni qo'lga kiritdi. Faoliyatlarida surunkali bo'lib kelayotgan dramaturgiya muamosini bir qadar yechishga erishdilar. Teatrlar repertuaridan jahon mumtoz merosi asarlari yangicha saxnaviy talqinlarda o'rin olayotganligi ham bugungi kun qo'g'irchoq teatrining yutuqlaridan deb o'ylayman. Qo'g'irchoq teatrlarida zamonaviy texnika va texnologiyalar, inson gavdasining plastikasi, ritmik harakatlari asosida ertakona-mo'jizaviy kompozitssiyalar yaratish davr talabiga aylandi. Respublikamizdagи o'z tarixi va yutuqlariga ega bo'lgan qator qo'g'irchoq teatrlarda avlodlar almashish jarayoni ketmoqda. Tajribali kadrlardan soha sirlarini o'rganadigan iqtidorli aktyorlar, rejissyorlar, rassomlar, qo'g'irchoq ustalari va boshqa ixtisosliklar bo'yicha professional yosh mutaxasislar kerak.

Bugungi kunda O'zbekiston Davlat sanat va madaniyat institutini bitirayotgan yosh mutaxasislar viloyat teatrlariga ishga borishi muamoli masala. Shuning uchun, yoshlarga, ijodkorlarga ehtiyoj katta. Amaliyotda esa, viloyatlardagi sanat kollejlariда ham aktyor kadrlar tarbiyalanmoqda. Demak, viloyat teatrlaridagi aktyorlar jamoasining birqismini kollej bitiruvchilariva havaskoryosh ijodkorlartashkiletadi. Bu holat viloyatdagi qo'g'irchoq teatrlarida yuksak professionalizmga erishishni bosh masala sifatida namoyon etmoqda.

Professionalizm borasidagi kemtiklar, eng avvalo, repertuar uchun asar tanlashda ko'rinyapti. Buni to'ldirish uchun teatr ijodkorlari, avvalo, o'z teatrining ijodiy-texnik imkoniyatlarini bilishi va to'g'ri baxolashi juda muhim. Rejissyor asar tanlar ekan, spektaklni saxnalashtirish uchun teatrning ijodiy, moddiy, texnikaviy potensiali yetarlimi, degan muhim savolga xolisona javob berishi zarur. Ijodiy potensial deganda, personaj qo'g'irchoqlari mahorat bilan jonlantirishni taminlaydigan barcha soha mutaxassislarining teatrda mavjudligi va ular o'z vazifalarini yuqori malakada bajara olishini tushinish kerak. Bular - eng avvalo, aktyorlar, rejissyorlar, rassomlar, butaforlar, qo'g'irchoq yasash va dekoratsiya ustalari, bichish-tikish

sexi, saxnani yoritish va xarakatlantirish, ovoz, rang, nur effektlarini yuzaga keltirish kabi qator noyob sohalarning mutaxassislaridir. Shuningdek, sahnalashtirish jarayonini zarur darajada moddiy, moliyaviy va texnik taminlash kabi tashkiliy vazifalarining bajarilishi ham teatrning ijodiy potensialini belgilaydi.

Sahnalashtirish uchun aynan shirmaga mo'ljallangan, dramaturgik jixatdan mukammal va mashxur asarlarni tanlamoq darkor. Tanlangan asardagi g'oya va syujet nutqiy bahslar orqali emas, balki, xatti-harakatlarga, asoslangan yorqin konfliktlar orqali namoyon bo'lmog'i lozim. Boshqacha aytganda, qo'g'irchoq teatri so'zamonlikni ko'tarmaydi, g'oyani ochuvchi qiziq voqealar tizimi tomoshabin ko'z o'ngida sodir bo'lishini yoqtiradi.

Jahondagi zamonaviy qo'g'irchoq teatrlarida aktyor ijrosi, sahnalashtirish usullari, sahnaviy qo'g'irchoqlarning turlari kabi jihatlar juda ilg'orlab ketgan. Bu sohadagi yetakchi jamoalar, shirmada o'ynaladigan spektakllar qatori, shirma oldi va umuman ochiq saxnada o'ynaladigan yangi-yangi ijro usul va uslublarini qo'llab katta-yu kichikka maqsadga muvofiq xizmat qilmoqda. Professional maqomga ega bo'lgan ilg'or qo'g'irchoq teatrlarida dramaturgiyadan tortib, aktyor, rejissyor, rassom va boshqa ijodiy-texnik soha vakillari namoyon etadigan ish sifatlari yuqori darajadagi badiiylikga ega.

Agar bizda ham shu talab bajarilmas ekan, natija xavaskorlik darajasida bo'lib, jamoa el nazari va tomoshabin e'tiboridan chetda qoladi. Chunki tomoshabin teatrga xavaskor ijrochining beo'xshov urunishlari natijasini ko'rish uchun emas, balki, professional sanat namunasidan estetik zavq olib o'zining badiiy-estetik ehtiyojlarini qondirish uchun keladi. Buning uchun u qimmatli vaqtini va mablag'ini sarflaydi.

Bolalar zamonaviy qo'g'irchoq teatridan doimo yangi mavzu, g'oya va ularning o'ziga xos original talqinlarini kutadi. Bu talqinlar aktyor ishi bo'ladimi, rejissyorning, rassomning, bastakorning yoki raqs qo'yuvchilarning izlanishlari bo'ladimi, u eng avvalo, professional darajadagi yuksak ijroga ega bo'lishi kerak. Shuningdek personaj - qo'g'irchoqlarning jozibali qiyofalari, fantastik darajaga ko'tarilgan xatti-harakatlari, chiroyli plastikalari, aktyorlar ijrosida ro'yobga

chiqsa rejissyor va rassom talqini bo'lsagina qo'g'irchoq teatrda badiiy yaxlit spektakl barchani birdek quvontiradi.

Xulosa shuki, konferensiyada ko'tarilgan masalalar dolzarb va ular o'z yechimini kutmoqda. Yangilanayotgan O'zbekistonning zamonaviy qo'g'irchoq teatrlarini davr talabi darajasiga olib chiqish uchun, avvalo, qo'g'irchoq teatrlarida faoliyat yuritayotgan yosh aktyorlar muntazam ishlab, o'z mahoratini to'la namoyon etishi uchun, ijodiy izlanish muhitini yaratish zarur.

Ikkinchidan, badiiy jihatdan baquvvat dramaturgiyaga tayanish uchun, jamoaviy hamkorlikda ishlashni yo'lga qo'yish va badiiylik hamda uyg'unlik talablaridan kelib chiqqan holda yaratilgan spektakllarni yosh tomoshabinlar e'tiboriga havola qilish lozim.

Uchinchidan, teatr repertuarida milliy asarlar salmog'ini oshirish, ularning badiiy saviyasini ko'tarish, milliy o'ziga xos xususiyatlarini yanada kuchaytirish borasida izlanishlar olib borish darkor.

To'rtinchidan, qo'g'irchoq teatrining badiiy omillari hamda ifoda vositalari bo'lgan personaj – qo'g'irchoqlarni yasash, dekoratsiya va tasviriy vositalarning yuqori badiiy saviyada bo'lishini taminlash, spektakllarni faqat statsionarda emas, boshqa sahnalarda ham namoyish yetish talabini bo'shashtirmaslik maqsadga muvofiqdir. Zero, "Teatr-tarbiya maskani. Yoshlarimizni turli mafkuraviy taxdidlar va g'araz niyatli kuchlardan, tasirlardan asrab-avaylashga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashda pand-nasihat bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Ezgulikni, yurtparvarlikni, insoniy fazilatlarni kamol toptirishga xizmat qiladigan amaliy ishlar qilish kerak. Ana shunday amaliy tarbiya omillaridan biri teatrdir" deb ta'kidlagan edi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. M. Qodirov, S. Qodirova. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2006.
3. H. Ikromov. Davr va teatr – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009.
4. Zamonaviy qo'g'irchoq teatri. // Teatr. 2011. № 2,3,4,5.

## KASBIMIZNI QIZG’ANAMIZMI?

(Zamonaviy rejissura masalalari xususida  
ilmiy-publitsistika)

“ Bilasizmi, hozirgi kunda o’zini kinorejissyor deb ataydiganlar juda ko’payib ketgan. Aytish mumkin-ki, daraxtni bir temsang guv etib kinorejissyorlar tushadi. Lekin, masalaga jiddiyroq qarasak, kinorejissyor bo’lish oson emas, bunga alohida iqtidor va mahorat kerak. Ana shu ikkita jihat sizda mujassam bo’lmasa, ushbu kasb sirlarini mukammal o’rganish juda qiyin bo’ladi. Uchinchisi albatta bilim. Bilimingizga ishonchingiz komil bo’lmasa, bu sohaga yaqinlashmagan ma’qul. Mahoratli kinorejissyor bo’lish uchun albatta, juda ko’p kitob o’qish kerak. Mukammal bilim qilayotgan ishingizning sifatli chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat qiziqish bilan yaxshi kinolenta suratga olib bo’lmaydi”, – deydi mahoratli kinorejissyor Jahongir Qosimov.

Haqiqatda, bugungi kunda san’at sohasiga tegishli inson bo’lish juda oson bo’lib qoldi. Butun boshli ijtimoiy tarmoq orqali bir kunning o’zida yulduz bo’lib uyg’onishingiz mumkin. Aktyorlardan rejissyorlar, rejissyorlardan aktyorlar kundan-kun ko’payib boryapti. Go’yo har kuni taxminan kamida 50 ta aktyor va rejissyorlar yetishib chiqayotgandek. Qaysi tanishimizni ko’rmaylik, 10 tadan 8 tasi “Bir kino olsammikan, bir kinoda o’ynasammikan” degan jumla bilan gap boshlab qoladi. Kechirasiz. Haqiqiy mакtab ko’rgan va maktab ko’rayotgan, tish-tirnog’i bilan mehnat qilib, goh u eshikka borib, goh bu eshikdan haydalib, goh ishi o’xshab, goh o’xshamay, goh kino sinovlardan o’tib, goh o’ta olmay yurgan rejissura va mahorat maktabini ko’rganlar “Bir buxgalterlik qilib ko’ray, yo bir injenerlik qilib ko’rmoqchiman” demaydi-ku!

Ustozimiz Mahkam Muhammedov doim bir gapni aytar edilar: “Har bir odam o‘z ishini qilsin”. Hozir juda ko‘plab milliy seriallar, filmlar, klipler suratga olinyapti. Ularning hammasini ham professional ijodkorlar suratga olyapti desak adashamiz. Nomlari bir-biridan jarangdor, bir-biridan qiziq. Filmini yoki serialni o‘zini ko‘rsangiz.... Televizoringizni olib otib yuborgingiz keladi. Yo‘q, bu tanqid emas. Bu shunchaki oddiy tomoshabinlardan birining fikri holos. Eng alam qilarlisi bilasizmi nima? Mana shu seriallarning ba’zilarini tomoshabinlar ikkinchi faslini ham kutishar ekan. Juda tezlikda va juda osonlik bilan olingan yengil-yelpi mavzulardan tashkil topgan seriallar va klip-u, filmlar jamlanmasi qayoqda-yu... Haqiqiy professional ustozlarimizning suratga olgan filmlari qayoqda. Ikkita umuman boshqa-boshqa dunyo. Ikkita boshqa-boshqa olam.

Ijtimoiy tarmoqda bugungi kunda “vine” nomi bilan mashhur bo‘lgan videorolik suratga olgan oddiy bir yigit ertaga yangi o‘tkir syujetli drama, keskin burilishlarga ega bo‘lgan hayotiy serial uchun kasting e’lon qilib tursa... Ha-da. E’lon qilingan kasting bannerida aynan shunday jumlalar bo‘ladi.

Mashhur Eron kinorejissyori Muxsin Mahmalbaf shunday deydi: “Odamlar san’atkorlarni toifaga ajratishni yaxshi ko‘rishadi. Men esa filmlarim bilan odamlarni toifaga ajrataman. Agar filmlarimdan qaysi biri sizga yoqishini bilsam, sizning qanday inson ekanligingizni ayta olaman”. To‘g‘ri gaplar. Biz nafaqat Mahmalbafning tomoshabinlarini balki, butun o‘zbek kinosi tomoshabinlarini ham shu yo‘l bilan toifaga ajratishimiz mumkin. Did borasida talashib bo‘lmaydi, lekin, to‘g‘ri did egasi bo‘lish, menimcha, koni foyda. Yaxshi filmni tanlay bilish, film tomosha qilishda ham o‘ziga yarasha alohida did bo‘lsachi? Undan ham yaxshi. Tomoshabinlarimiz aynan mana shu borada shoshib qolishayotgandek nazarimda. Agar mana shu tanlovda adashishmasa, balki, rejissura va aktyorlik mahoratiga umuman ega bo‘lmaganlardan tashkil topgan seriallar va filmlar jamlanmasi

kamayib borgan bo'larmidi, deya xayol qilaman gohida.

Xalqimizning sevimli rejissyori Zulfiqor Musoqovga jurnalistlardan biri shunday savol berdi: "Millat g'ururi qanday shakllantiriladi?" Rejissyor quyidagicha javob qildilar: "Konfutsiy aytgan ekan "Bir narsani o'zgartirishdan oldin, hamma narsani joyiga qo'yish kerak". Mana shundagina milliy g'urur ham bo'ladi. 3 ta narsa rivojlansa, milliy g'urur bo'ladi. Birinchi navbatda tinchlik, ikkinchi navbatda odamlarning moddiy va ma'naviy ravnaqi, uchinchidan qonun ustuvorligi. Poraxo'rlik yo'q bo'lishi kerak". Bu uchta narsadan kelib chiqib men nafaqat milliyg'ururimiz balki, milliy o'zbek kinoyimizning taqdirini ham ko'z oldimga keltirdim. Gapning indalloagini aytganda, "kampitlar" ko'payishi ham bugungi o'zbek tomoshabinlarining milliy kinematografiyamizga bo'lgan hurmatini yo'qolib borishiga sabab bo'lyapti, desak adashmaymiz.

Joriy yilda "O'zbekkino" milliy agentligi tomonidan yosh ijodkorlarga haqiqatda juda keng imkoniyatlaryaratildi desak mubolag'a bo'lmaydi. 18 ta kinoloyiha uchun pul ajratilib, yangidan-yangi yosh rejissyorlar, ssenaristlar, kino rassomlar, operatorlar, aktyor va aktrisalarga yol ochildi. Yoshlar o'z mahoratlarini ko'rsatishlari uchun ularga imkon berildi. Demak-ki, tomoshabinlar e'tiborida ijod qilish uchun ruhan kuchga ega bo'lgan bo'lajak professionallaryetishib kelyapti. Ya'ni, BIZ! Demakki, milliy kinematografiyamizgachetdan "rejissyorva" "aktyorlar" kelsa, bizda yetarlicha qalqon bor. Biz milliy kinematografiyamizni, o'z kasbimizni himoya qila olamiz. O'z kasbimizning kelajagini boshqa kasb egalarining qo'liga topshirib qo'yamaymiz. Bir so'z bilan aytganda, o'z kasbimizni qizg'anib yashaymiz!

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Kino san'ati" telegram kanali;
2. T. Muhammad "Rejissyorlik ma'suliyati"



**Davronbek Raymnazarovich Xo'jaqulov,**  
2-kurs "Madaniyatshunoslik" mutaxassisligi magistranti.  
**Ilmiy rahbar:** t.f.d.prof. A.A.Mavrulov

## O'ZBEK XALQI IJTIMOIY MADANIYATINING SHAKLLANISHIDA MUSIQANING O'RNI

### **Annotatsiya**

O'zbek milliy musiqiy san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar an'analari, buyuk bastakorlar, hofiz hamda sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash, targ'ib qilish, xalqimizni musiqiy merosimizning eng go'zal an'analaridan bahramand etish, yosh avlodni milliy musiqa san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish kabi qator vazifalardan iborat.

### **Kalit so'zlar**

Munojot, touzing, musiqa

### **Аннотация**

Дальнейшее развитие узбекского национального музыкального искусства, изучение и восстановление традиций исполнительских и творческих школ, наследия великих композиторов, хазар и музыкантов на глубокой научной основе, приобщение нашего народа к лучшим традициям нашего музыкального наследия, приобщение молодого поколения к национальной музыке, их приобщение к национальной идентичности через внедрение состоит из ряда задач, таких как развитие чувства патриотизма.

### **Ключевые слова**

Munojot, прикосновение, музыка.

### **Annotation**

Further development of the Uzbek national musical art, study and restoration of the traditions of performance and creative schools, the heritage of great composers, hafiz and musicians on a deep scientific basis, promotion of our people to enjoy the best traditions of our musical heritage. their introduction to national identity through introduction consists of a number of tasks, such as the development of a sense of patriotism.

### **Keywords**

Munojot, touzing, music

*“Inson tafakkurini yuksaltirish, ayniqsa, yoshlar qalbida ezgu fazilatlarni shakllantirishda san’atning o’rni va ahamiyati beqiyos. Binobarin, xalqimizning boy madaniy merosi, ko’z-ko’z etsa arzigulik urf-odatlari, san’ati borki, ular bilan cheksiz faxrlanamiz”.*

**Shavkat Mirziyoyev**

Ozbek xalqining ko’hna va boy musiqa madaniyati asrlar osha qudratli ma’naviyat manbai bo’lganligi tarix zarvaraqlaridan ma’lum. Milliy qadriyatlarni ajoyib an’analar ila o’zida mujassam etgan an’anaviy musiqa (yunonchaso’z bo’lib, “ilhom parilari”ma’nosini anglatadi) xazinasi hanuzgacha badiiy estetik qimmatini yo’qotmasdan kelmoqda. Bugungi kunda mustaqil yurtimiz dunyoda tomomila yangi bir ko’rinish, yangi tashabbus, yangi g’oyalar bilan tanilmoqda. Tom ma’noda, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari qadam tashlamoqda. Shuni aytish joizki, bu o’zgarishlar tagida ilm-fan, adabiyot va san’at hamda milliy va ma’naviy qadryatlarimizga bo’lgan e’tibor kuchayib bormoqda. Ayni damda amalga oshirilayotgan islohotlarning yuqori qismi bugungi yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga qaratilgan. Yoshlarni ma’naviy olamini yuksaltirish, boyitish, dunyo qarashini kengaytirish, yuqori saviyada fikrlashda, ma’naviy tarbiyasini yaxshilashda milliy musiqiy qadriyatlar hamda milliy va umuminsoniy qadryatlar ruhi datarbiyalash masalasi biz uchun eng muhim dolzarb vazifadir. O’zbek xalqining ko’hna va boy musiqa madaniyati asrlar osha qudratli ma’naviyat manbai bo’lganligi o’tmisht tarix zarvaraqlaridan ma’lum. An’anaviy o’zbek ijrochiligi taraqqiyotida yurtimiz hofizalarining alohida o’rni bor. Keksa avlod vakillari ijro etgan touzingni “Farg’onani asra”, “Qaro sochim” kabi o’nlab xalq qo’shiqlari gramplastinka yozuvlari orqali bizgacha yetib kelgan. Musiqalarimiz ulkan ta’sirchan kuchga ega bo’lgan tarbiya vositasi hisoblanadi. Inson ruhiyatiga qalbiga yuragiga hayotbaxsh kuch beraoladigan jon ozug’idir. Qudratli kuchga ega bo’lgan musiqa o’z jozibasi bilan inson qalbini qamrab oladi. Musiqani faqat qalbi go’zallikka ishtiyoqmand kishilargina sevadi va uni anglab yetadi. Oddiygina «Munojot» (arabcha – yalinish, yolvorish) yirik shakldagi o’zbek cholg’u kuylarini ijro etganida muxlislar, qalbi go’zal

insonlar uni mehr-muhabbat bilan eshitadi. Musiqa tinglash va uni idrok etish bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi.

Insonning go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkamollik haqida gapirib bo'lmaydi. Musiqa ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashning qudratli vositalaridan biridir. Musiqa san'ati haqida Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov shunday yozganlar: "Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa sanatisiz erishib bo'lmaydi... Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarini ifoda etadi" [1].

O'zbek xalq musiqasi xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, diniy e'tiqodining ayrim jihatlarini o'zida mujassamlashtirib, orzu-umidlari, mehnatga, vatanga bo'lgan muhabbatni, sevgiga vafodorlikni tarannum etadi. Ma'naviy sohada o'z ifodasini topgan musiqa tarbiyasidagi yutuqlar odamlarning, xalqimiz, millatimizning axloqi va madaniyatida, dunyoqarashida ro'y bergan sifat o'zgarishlari mustaqillik ilk bosqichining muvaffaqiyati hisoblanadi. Musiqa san'ati insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilar niyaxshilikqilishga undaydi. Musiqaning yoshlartarbiyasida uning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Yaratilayotgan, kuylanayotgan kuy-qo'shiqlar har birimizni, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni ezgu amallarga ruhlantirishi va hayotga, vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otadigan bo'lishi kerak.

Zero, musiqaning tarbiyaviy ta'sir kuchi, uning bugungi kundagi ahamiyati haqida birinchi Prezidentimiz I. Karimovning aytgan quyidagi so'zlari ham fikrimizni tasdiqlaydi: "Musiqaning hayotbaxsh ta'sirini bu hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin... Eng muhimi bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda" [2]. Har qanday qo'shiqning asosini matn tashkil etishini yaxshi bilamiz. Shubhasiz, musiqa va ijro ham qo'shiqning asosiy tarkibiy qism-lari. Lekin bu o'rinda so'zning insonga ta'sir kuchini, uning qudratini e'tirof etmaslikning iloji yo'q. So'zning odam

ongiga, dunyoqarashiga, ma'naviyatiga ta'siri nihoyatda katta ekani haqida buyuk ajdodlarimiz bisyor hikmatlar qoldirib ketgan. «Musiqiy soz torlaridan yangraydigan ohanglar inson tabiatiga mos ravishda tanlangan va yaratilgan» deb fikr yuritiladi sharq pedagogikasining durdona asarlaridan biri «Qobusnomá»da. Uning muallifi Unsurunmaoliy Kaykovus inson va uning kamol topishi, ta'limtarbiya muammolariga bo'lgan qarashlarini bayon etib, tarbiyadan maqsad - insonni hozirgi zamon va kelajak uchun yaroqli shaxslar qilib yetishtirishdir deb hisoblaydi. Markaziy Osiyo allomalarini orasida Kaykovus singari san'atkorlarni ma'naviyat tarqatuvchilari sifatida ijtimoiy hayotdagи o'rnini juda ob'ektiv tahlil etib, musiqiy-didaktik meros qoldirgan mutafakkir alloma, buyuk o'zbek adibi, san'at shaydosi Alisher Navoiydir. Navoiyning musiqiy qarashlari asosan uning «Mahbub ul-qulub», «Majolis ul-nafois» asarlarida mujassam bo'lgandir. Jumladan, «Mahbub ul-qulub» nasriy risolasida alloma musiqaning ilmiyligini e'tirof etgan holda uni ko'proq ma'naviy ozuqa beruvchi san'at turi sifatida didaktik tarzda talqin qilgan. [3].

Milliy qadriyatni yoshlar qalbida singdiradigan milliy qo'shiqlar, qo'shiqqa hammohang bo'lgan kuy va ohang bo'lishi kerak. Bunga misol qilib aytadigan bo'lsak, milliy maqomlarimiz, mumtoz qo'shiqlarimizda olloh ishqisi, ona madhi, ona yurt, va vatanparvarlik tuyg'ularini aks etadigan milliy qo'shiqlarimiz va kuylarimiz bor, juda ko'plab misol ko'rsatish mumkin. Umuman olganda, bularning tagida milliy musiqiy qadriyatimiz yotadi.

Asosan, bolaning ongi besh-yetti yoshda shakllanishini inobatga olsak, aynan shu davrda uning qalbida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. O'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini yuksaltirish haqida so'z borganda esa, qo'shiqlarning roli va ta'siri xususida to'xtalish, albatta, o'rinnlidir. Buning uchun esa umumta'lim maktablaridagi musiqa darslarining soatini, musiqa to'garaklari soni va turini imkon qadar ko'paytirishimiz kerak bo'ladi. Natijada yoshlarimiz musiqiy janrlar va qo'shiqlarning badiiy, g'oyaviy jihatlaridan chuqurroq xabardor bo'lib boradi.

Bu esa, o‘z navbatida, ziyolilar zimamasiga, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongida Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, fidoyilik g‘oyalarini badiiy puxta va mukammal asarlar orqali samarali va ta’sirchan usullarda singdirish mas’uliyatini yuklaydi. Bizgacha yetib kelgan uzbek xalq musiqa madaniyatida san’at va ma’naviyat tarixining pedagogik masalalari bugungi kunda pedagogika sohasida muhim ilmiy muammo sifatida o‘z dolzarbligini namoyon etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy madaniyatimizning xalq mahnaviy hayotidagi o‘rni beqiyosdir. Musiqiy madaniyat xalq mahnaviy dunyosining ajralmas qismi bo‘lib, uning ma’naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo‘lgan, beminnat xizmat qilgan. Zero, bugungi mustaqillik davrimizda ham o‘zining mahnaviy burchini muqaddas bilib, xalqimizga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoniga aylandi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib quyidagi taklif va mulohazalarни berish o‘rinlidir:

- Yaratilayotgan qo‘shiqlarda vatan tuyg‘usi, ona madhi, yurt ishqini kabi tarbiyaviy qo‘shiqlar yaratish, bu esa yoshlar tarbiyasiga samarali foyda beradi.
- O‘sib kelayotgan yosh avlodni qalbiga musiqiy ta’lim-tarbiya orqali milliy madaniyatni singdirish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.I.Karimov. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. -T.: “Ma’naviyat”. -2008-yil, 141-bet
- 2.Navoiy A.Mahbub ul-qulub.T.: G.G‘ulom.1983. 111b
- 3.Internet saytlari.

**Muhriddin Nurmuxamadovich Xoliqov**  
**2-kurs “Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi” mutaxassisligi magistranti**  
**Ilmiy rahbar: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan**  
**yoshlar murabbiysi, dotsent I.Djumanov**

## **QO‘G‘IRCHOQ TEATR SAN’ATINI RIVOJLANTIRISHDA INOVATSION HAMKORLIKNING AFZALLIKLARI**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada muallif qo‘g‘irchoq teatrlarimizda sahnalashtirilayotgan spektakllar va ulardagи innovatsion yechimlar, zamonaviy teatr texnologiyalarini joriy qilish, dramaturgik g‘oya, rejissura, aktyorlik talqini imkoniyatlarini o‘rganadi va tahlil qiladi, shuningdek qo‘g‘irchoq teatrining bugungi kun muammolari hamda yechimlari, spektakl yaratishnig yangicha talqinlarini o‘rganish masalalarini ko‘rib chiqadi.

### **Kalit so‘zlar**

Teatr san’ati, spektakl rejissyor, dekoratsiya, musiqa, inovatsiya, ko‘g‘irchoqteatri, tehnologiya, libos, dramaturgiya, rassom, dekoratsiya.

### **Annotation**

In this article, the author explores and analyzes the performances staged in our puppet theaters and their innovative solutions, the introduction of modern theater technologies, the possibilities of dramatic idea, directing, acting interpretation, as well as current problems and solutions of puppet theater, new interpretations of performance.

### **Keywords**

Theater art, play director, decoration, music, innovation, puppet theater, technology, costume, decoration.

### **Аннотация**

В статье автор исследует и анализирует спектакли, поставленные в наших кукольных театрах, и их новаторские решения, внедрение современных театральных технологий, возможности драматической идеи, режиссуры, актерской интерпретации, а также текущие проблемы и решения кукольного театра. новые интерпретации перформанса.

### **Ключевые слова**

Театральное искусство, постановщик, декорация, музыка, нововведение, кукольный театр, технология, костюм, драма, художник, оформление.

**Q**o‘g‘irchoq teatri san’ati o‘zining nufuzi, salohiyati, tarbiyaviy vazifalari bilan kichkintoy tomoshabinlar nigohida dunyoni bilish, oq qorani tanish, yaxshilikda ibrat olish, yomonlikdan nafratlanish kabi munosabatlarning shakllanishida muhim o‘rin tutib kelmoqda. Globallashuv jarayoni avj olgan bugungi kunda tezkor zamon muhitida, zamon bilan hamnafas yashashga chorlayotganini his etamiz. Yangi texnologiyalar asrining kundan kunga takomillashayotgan zamonaviy inovatsion talablariga mos texnik yechimlarning joriy qilinayotgani buning oqibatida dunyo xaritasidan joy olgan mamlakatlar ko‘z ilg‘amas yangiliklarni kashf qilayotgani yosh avlod taribiyasida ham iz qoldirishi, o‘rin tutishi, ta’sir qilishini nazardan qochirib bo‘lmaydi. Ulg‘ayayotgan yosh avlod nigohida o‘zining betakror tomoshalari bilan zavqu-shavq ularshadigan qo‘g‘irchoq teatri sahna asarlarida yangiliklar bo‘lishi lozimligi, yangiliklar bo‘layotgani barchamizga yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Texnika yo‘nalishida yangiliklarni texnika orqali bilib olsak, teatr san’atida esa aksincha yangi-yangi yozilgan asarlardan, barcha muxlislar qalbidan joy egallayotgan spektakllardan bilishiz mumkin. Shu o‘rinda «Innovatsiya» tushunchasiga to‘xtalsak, «Innovatsiya» tushunchasi «o‘zgarish» va «rivojlanish» tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq. Innovatsiya inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “innovationas”— kiritilgan yangilik, ixtiro — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minalash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanilishi hisoblanadi. Shu o‘rinda haqli bir savol tug‘iladi. Xo‘s, teatr san’atiga inovatsion yondashish nega kerak? Agar kerak bo‘lsa inovatsion yo‘nalishda nimalar qilishimiz zarur? Yosh avlod qalbini qay yangilik bilan o‘zimizga jalb qila olamiz degan savollar biz teatr ijodkorlarini tinmasdan qiynayveradi. Aytish joizki, teatr darg‘alari bosib o‘tgan yo‘llar, bizga qoldirilgan qimmatbaho meroslar har birining o‘z o‘rni va muxlisi bor edi. Hozirgi kunda

esa yosh tomoshabinni jalb qilish uchun yangi ijod, yangidan yangi o'zgarishlar kerak, rivojlanish kerak. Yangi shakl va formatlarni qidirib, Uning o'ziga xos xususiyatini topmog'imiz lozim.

Har bir sohada bo'lgani kabi teatr sohasida ham uning sifatini yaxshilaydigan texnik yangiliklar paydo bo'ladi. Mashinalar, 3D texnologiyalari, ovoz va yoritish tizimlari. Albatta, inovatsiya kerak. Bugungi kunda tomoshabinlar uchun qattiq kurash sharoitida barcha teatr soha vakillari tinmasdan izlanmog'i kerak.

Albatta, biz bilamizki, yoshligimizdan onalarimiz allalarida, buvijonlarimiz ertaklarida vatanga muhabbat, oilaga sadoqat, g'urur, tinchlik osoyishtalik timsollari barq urib turadi. Shu timsollarni asta sekin katta bo'la boshlaganimizda buvilarimiz aytgan ertak qahramonlarini barcha katta-yu kichiklarni o'ziga tezda jalb qila oladigan qo'g'irchoq teatri olamiga kirganimizda guvoh bo'lamiz. Bu olam mo'jizalarga boy, insonlarni sehrlab boshqa bir olamga tushurib qo'yadi. Sababi bir-biridan ajoyib-u g'aroyib qo'g'irchoqlarning jonlanishi buning isbotidir. Qo'g'irchoq teatr san'ati boshqa san'at turlaridan farq qiladi.

Aytish joizki, respublikamizda 10 davlat qo'g'ichoq teatri va 1 ta marionetka qo'g'irchoq teatri faoliyat yuritayotgan bo'lsa, har birining o'ziga hos ish uslubi va yo'nalishi bor. Lekin shu yo'nalishlar qanchalik o'zining samarasiga ega. Qay jabhalari orqali o'z tomoshabiniga ega bo'lmoqda. Agar qilinayotgan samarali ishlar ijobiy bahoga loyiq bo'lsa balki uni barchaga tatbiq qilish lozimdir.

Yurtboshimiz tomonidan ilgarisurilgan beshtamuhimtashabbusning ilk bosqichi ham aynan musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshka turlariga kizikishini oshirishdir. Sababi o'sib kelayotganyoshlar beshtamuhimtashabbusning barchayo'nalishlarida ham o'z bilimlarini butun O'zbekistonga qolaversa butun dunyoga tarannum qilmoqda. Albatta, bu yoshlarga yangi inovatsiyalar kerak. Shunday ekan har bir teatrga yangi inovatsiya uchun avvalo birinchi navbatda, qo'g'irchoq teatrining dramaturgiyasini yaratib olish zarur. Asarlar ham zamon ruhiga mosqilib yozilishi lozim. Ikkinchi navbatda,

iste'dodli rassomlarni teatrga jalg qilish lozim. Chunki teatrga kirgan har bir kishining ko'zi parda ochilishi bilan sahnada yaratilgan dekoratsiyaga diqqati qadaladi. Bu esa spektaklning tomoshabinni zamon ruhiga olib kirishga yordam beradi. Uchinchi navbatda esa iqtidorli rejissiyorlarni jalg qilish lozim bo'ladi. Bundan tashqari, qo'g'irchoq yasash ustalari va kiyimilarini tikish mutahasislarini ham qayta tayyorlash lozim. Sababi qo'g'irchoq yasash texnologiyasi juda murakkab bo'lib shuning evaziga mutahasislar kam. Ushbu kasb bo'yicha ya'ni qug'irchoq yasash va liboslarini tikish mutaxasislarini tayyorlash yo'nalishini tashkil etish lozim. Qo'g'irchoq aktyorining qo'li va besh barmog'i qo'g'irchoqning yuragi hisoblansa, ushbu yurak urish zamirida qo'limizning besh barmog'i ya'ni dramaturg, rassom, rejissiyor, aktyor va qo'g'irchoq yasash mutaxasislari jam bo'lib yangi asarlar vujudga kelishida kamarbasta bo'ladi.

Xulosa qilib, yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – bиринчи darajali ahamiyatga egadir". Shu bois, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o'ta sharafli vazifadir. Har bir sahnalashtirilayotgan tomosha o'z o'rniga va o'z tomoshabiniga ega bo'lar ekan. Bu ijodkorning yutug'idir. Maqsad esa – ertamiz egalarini tarbiyalashda qo'g'irchoq teatr san'atining o'rnini yuqori cho'qqilarga chiqarish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ziylolar bilan uchrashuvdagi ma'rzasidan. 2017 y.
2. «Invest forsyt» delovoy jurnal <https://www.if24.ru/>

*Yuvashov Aziz Mamasoliyevich,  
2-kurs “Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi”  
mutaxassisligi magistranti  
Ilmiy rahbar: dotsent Husan Mirpo'latov*

## XALQARO HUNARMANDCHILIK FESTIVALI REJISSURASINING MA’NAVIY VA TASHKILIY ASOSLARI

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Xalqaro hunarmandchilik festivalini tashkil etish, unda milliy va zamonaviy badiiy vositalardan foydalanish, festival rejissurasining badiiy ahamiyati va ma’naviy jihatlari o’rganilgan.

### **Kalit so’zlar**

Festival, hunarmand, nomoddiy madaniy meros, folklor, marosim, urf-odat.

### **Аннотация**

В этой статье исследуются организация международного фестиваля ремесел, использование национальных и современных художественных средств, художественное значение и духовные аспекты руководства фестивалем.

### **Ключевые слова**

Фестиваль, ремесленник, нематериальное культурное наследие, фольклор, церемония, традиция

### **Annotation**

This article explores the organization of an international craft festival, the use of national and modern artistic means, the artistic significance and spiritual aspects of festival directing.

### **Keywords**

Festival, artisan, intangible cultural heritage, folklore, ceremony, tradition

**M**ustaqlilik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg’or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziylolilarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan

bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Harqaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og‘zaki ijodi – folklor san’atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo‘lib, ular millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatları va an’analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda qadimiy va boy tariximiz, milliy o‘zligimiz, betakror qadriyat va an’analarimiz timsoli bo‘lgan xalq amaliy san’atini rivojlantirish, hunarmandlarni harto monlama qo’llab-quvvatlash, ushbu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni kengaytirish va shu asosda O‘zbekistonning bu sohadagi ulkan salohiyatva imkoniyatlarini dunyoga namoyon etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtida hunarmandchilik san’ati xalqimiz kundalik hayotidan tobora mustahkamo‘rine gallamoqda. Mamlakatimizda haryili mazkur yo‘nalishda yuzdan ziyod festival va yarmarkalar, savdo ko‘rgazmalari va boshqa tadbirilar o‘tkazilayotgani ham shundan dalolat beradi.

Shahrisabzda maqom, Termizda baxshichilik san’atiga bag‘ishlangan xalqaro festivallar, Buxoro shahrida “Ipak va ziravorlar”, Marg‘ilonda “Atlas bayrami” anjumanlari o‘tkazib kelinayotgani, ularda dunyoning ko‘plab davlatlaridan madaniyat va san’at namoyandalari, bu yo‘nalishda o‘zining ilmiy ishlari, amaliy faoliyati bilan tanilgan olimlar va mutaxassislar ishtirok etayotgani diqqatga sazovordir.

2019-yilning 10-15-sentyabr kunlari Qo‘qon shahrida YUNESKO shafeligida birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivali o‘tkazilgani, Juhon hunarmandlar tashkiloti tomonidan ushbu shaharga “Juhon hunarmandlari shahri” maqomi berilgani o‘zbek xalq amaliy san’atining xalqaro miqyosdagi yuksak e’tirofi bo‘ldi.

Juhon xalq amaliy san’atini, uning ajralmas qismi bo‘lgan o‘zbek milliy hunarmandchiligini asrab-avaylash va rivojlantirishga qaratilgan ana shunday ezgu ishlar ushbu bebaho boylikni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, bu yo‘ldagi say-harakat va imkoniyatlarimizni birlashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlash lozim.

Hunarmandchilik xalqimiz kundalik hayotidan tobora mustahkam o‘rin egallamoqda. 2019-yil O‘zbekistonda ilk bor tashkil etilgan Xalqaro hunarmandchilik festivali uchun Qo‘qon shahri tanlangani ham beziz emas. Qo‘qon shahrining ko‘rkiga ko‘rk qo‘sib turgan Xudoyorxon O‘rdasining noyob me’moriy bezaklari va tarovati hech

bir insonni hayratga solmay qo‘ymaydi. Undan qadim Sharqning sirli nafasi ufurib turadi. Ushbu qadimiylar go‘zal shahar mohir hunarmandlar maskani, xalq badiiy va amaliy san’atining markazi sifatida dunyoga ma’lumu mashhur [2].

2019-yil 14-sentyabr kuni Qo‘qon shag‘rining O‘rda maydoniyada festivalning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o’tdi.

Maydon markazida qurilgan, festival ruhiga hamohang bezatilgan amfiteatrga minglab nigohlar qadalgan. Birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining ochilish marosimiga yig‘ilgan odamlarning chehrasidagi mammunlik, xursandchilik dillardan dillarga ko‘chayotgandek go‘yo. Ular orasida anjuman qatnashchilari va mehmonlari, taniqli madaniyat arboblari, san’atshunos olimlar, chet ellik va mahalliy jurnalistlar, sayyohlar bor.

Festival ishtirokchilari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni qarsaklar bilan kutib oladi. So‘z O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga beriladi. Davlatimiz rahbari Xalqaro hunarmandchilik festivali ishtirokchilari va mehmonlarni samimiy qutlab, jahon xalq amaliy san’atini asrab-avaylash va rivojlantirish, bu bebaho boylikni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, bu yo‘ldagi say-harakat va imkoniyatlarni birlashtirishda mazkur xalqaro anjumanning ahamiyati beqiyos ekanini ta’kidlab, anjuman qatnashchilariga ijodiy muvaffaqiyatlar tiladi [1].

Xalqaro hunarmandchilik festivalining ochilish marosimidagi mumtoz ashulalar, folklor, jahon musiqa va qo‘shiqchilik san’atining nodir namunalari, dilbar raqlar dillarni jo‘sh urdiradi. Tomoshabinlar yurakka yaqin qo‘shiqlarga jo‘r bo‘ladi, sho‘x kuy-navolardan zavqlanishib, raqsga tushadi.

Tantanali marosim yurtimiz san’at ustalari, yosh ijrochilarning sho‘x kuy-qo‘shiqlari bilan davom etdi. Qo‘qon osmoni uzra porlagan mushaklar dillarga quvonch, qalblarga shodumonlik bag‘ishladi.

Anjuman o‘tkaziladigan maydon atrofi bayramona bezatilgan. Qoraqalpog‘iston va barcha viloyatlardan, shuningdek, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston kabi qo‘shni davlat hamda boshqa xorijiy mamlakatlardan kelgan hunarmandlar buyumlari ko‘rgazmasi tashkil etilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ochilish marosimidan so‘ng ushbu mahsulotlarni ko‘zdan kechirdi, hunarmandlar bilan suhbatlashdi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, ushbu festival nafaqat ko‘p

millatli vatandoshlarimiz, balki butunjahon hunarmandlarining ham bayramidir. Zero, festival ko'laming kengligi uning jahon xalqlarini, madaniyatlarni bog'lovchi muhim ko'prik bo'lishidan dalolatdir.

Mazkur nufuzli anjuman xalqimizning qadimiyligi tarixi va madaniy hayatini har tomonlama keng yoritish, nomoddiy madaniy merosimiz bo'lgan ko'p qirrali o'zbek milliy hunarmandchiligin keng namoyish qilish, uning noyob namunalarini targ'ib etish, shuningdek, ushbu yo'naliishda o'zaro tajriba almashish orqali turli xalqlar o'rtaida do'stlik va hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir. Qo'qon shahrida festivalga katta tayyorgarlik ishlari olib borildi. Festivalda xorijiy davlatlardan mahoratli hunarmandlar, amaliy san'at ustalari, mutaxassislar, soha olimlari va faxriy mehmonlar ishtirok etadi [3].

Dasturga ko'ra, O'rda maydonida festivalning rasmiy ochilish va yopilish marosimlari, mahalliy va xorijiy hunarmandlarning mahsulotlari ko'rgazma-savdosi hamda xalq sayllari, qo'g'irchoqbozlik, dorbazar va folklor jamoalari, viloyatlar madaniyat boshqarmalari tomonidan tayyorlangan konsert dasturlari namoyishlari, osh tanlovlari o'tkaziladi.

O'rda maydonida, shuningdek, Rishton, G'ijduvon, Urgut, Toshkent, Kattabog', Madir, Samarqand, G'urumsaroy, Oltinko'l, Shahrisabz kulolchilik maktablari namoyandalari tomonidan mahorat darslari namoyishi va treninglar tashkil etildi.

Festival dasturida, shuningdek, Jome majmuasida O'zbekiston xalq ustasi, yog'och o'ymakori Muhammadali Yunusovning ijodiga bag'ishlangan ko'rgazma, Dasturxonchi madrasasida taqdimot va ko'rgazmalar, Qo'qon musiqali drama teatrinda spektakllar namoyishi kabi 50 dan ortiq qiziqarli tadbirlar o'tkazildi.

Xalqaro festival Madaniyat vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi, "Hunarmand" uyushmasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Farg'ona viloyati hokimligi tomonidan har ikki yilda bir marta Qo'qon shahrida o'tkaziladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentimining Xalqaro hunarmandchilik festivalining ochilish marosimidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2019-yil 15-sentyabr.
- 2.[www.uza.uz](http://www.uza.uz)
- 3.[www.madaniyat.uz](http://www.madaniyat.uz)

Кумушбону Улугбек кизи Махмудова  
Магистрант 2-курса по специальности “Режиссура кино и  
телевидения”

**Научный руководитель:** Заслуженный деятель культуры  
Республики Узбекистан Б.Одилов

## ДЕТЕКТИВ КАК ЖАНР В УЗБЕКСКОМ КИНО

### **Аннотация**

В статье затрагивается тема жанрового разнообразия в узбекском кино. Причины и следствия превалирования жанровых стереотипов в создании современного кино и телесериалов. Предлагается обратить внимание на детектив, как расширяющий горизонт творческих поисков режиссёров, сценаристов.

### **Аннотация**

Мақолада кинода жанр хилма-хиллигига, ҳозирги кун кино ва телесериалдардаги жанр жиҳатидан бир-бираға ўхшашлиги сабаблари таҳлил қилинган. Жанр ҳилма-хиллигига эришиш учун режиссёр ва сценарийнависларнинг дикқатини турли жанрларга, хусусан детектив жанрига мурожаат қилиш орқали ижодий ранг-барангликка эришиш ва ҳозирги замон кино санъати истиқболини кенгайтиришта эътибор қаратилган.

### **Annotation**

The article touches upon the topic of genre diversity in Uzbek cinema. Causes and consequences of the prevalence of genre stereotypes in the creation of modern cinema and television films. It is proposed to pay attention to the detective story as expanding the horizon of creative searches for directors and screenwriters

### **Ключевые слова**

Кино, жанр, детектив, режиссера, однообразие, узбекская кинематография, проблемы, киноиндустрия, бюджет.

### **Kalit so‘zlari**

Kino, janr, detektivlik, rejissyor, monotonlik, o‘zbekkinematografiyasi, muammolar, kinoindustriya, byudjet.

### **Keywords**

Cinema, genre, detective story, director, monotony, Uzbek cinematography, problems, film industry, budget.

**K**ак и все остальные жанры кино - детектив имеет свое место быть. Он актуален на сегодняшний день за рубежом, однако наши узбекские режиссеры, не берутся снимать фильмы в данном жанре. Можно ли сегодня повлиять на развитие детективного жанра в нашем национальном кино производстве?

Давайте разберемся для начала со статистикой популярности жанра детектив. Представьте себе, что он даже не входит в статистику, а там где - то внизу списка, наверное, в разделе «другие».

Можно перечислить множество хороших детективов, снятых за последние 10 лет.

Всем известный фильм «Остров проклятых» режиссером, которого является Мартин Скорсезе, собрал \$128 012 934. И, это только в США. Далее «Код Да Винчи» в кассовом прокате он обошел «Остров Проклятых» и собрал сумму в \$217536138. Далее «Воздушный маршал», «Темное наследие», «Престиж», «Тело», так же все части «Шерлока Холмса» и многие другие.

Обратим внимание на последний вышедший фильм в прошлом году, классический, вывернутый на изнанку детектив в духе Агаты Кристи «Достать ножи». 10 баллов из 10, почему? Потому что это именно, тот детектив, который стоит посмотреть и пересмотреть. Это чистый постмодерн, поскольку подход к детективной составляющей оказался самым главным твистом этой картины.

Идем дальше, фильм гениального режиссера Джузеппе Торнаторе «Лучшее предложение» снятый в 2012 году стал шедевром. Его фильм развивается постепенно, раскрывая человеческие чувства и демонстрируя предметы искусства.

Детектив, его популярность среди читателей не высока. Женщинам, как более многочисленной и чувствительной части аудитории, интереснее читать, или смотреть мелодрамы, комедии либо драмы. Сентиментальность у нас не отнять. Вот причина, по которой кинопроизводство, сценаристы, режиссеры тематически ограничиваются семейными мелодрамами. Ибо известно - спрос рождает предложение. Однако однобокость, однообразие тем, привело наше киноискусство, ко всем известному, кризису. Не наблюдается поиски форм и содержания, стремления разнообразить жанровое своеобразие кинопродукции.

Обратимся к прошлому, к творчеству исключительно талантливых наших кинематографистов, благодаря которым мы с гордо-

стью можем говорить о славной истории узбекского кино.

Наби Ганиев считается основателем узбекского кино, его фильмы получили мировую известность, творчество народного артиста Комила Ярматова стало яркой страницей в истории узбекского кино. Режиссеры Ю. Агзамов, Ш. Аббасов, Л. Файзиев, З. Собитов, Р. Ботиров, А. Хамраев, А. Кобулов, К. Камалова, З. Мусаков, И. Эргашев, Х. Файзиев и кинооператоры Х. Файзиев, А. Панн, М. Краснянский, А. Мукаррамов, М. Пенсон, Д. Фатхуллин, А. Исмоилов, Л. Травицкий, Д. Абдуллаев и другие внесли свой огромный вклад в развитие национального кино, благодаря их труду и изобретательности, многожанровости узбекское кино стало подлинно национальным. Они также они разработали образную систему национальной кинематографии. Операторы при съемке применяли новейшую технику и технологии, умело оперировали светом и цветом, передавали пластику, динамику, ритм, план и стили кадров, изучали зарубежный опыт и применяли его в своей работе.

Тогда узбекское кино стремилось расширить границы своих изысканий, создавать киноленты, где социальные процессы изображались бы глубже и ярче. Экран в количественном и качественном отношении поднялся на новую ступень, расширился в жанровом и тематическом отношении, отказался от стереотипного подхода к кинофильмам. Такие фильмы, как: «Алибаба и сорок разбойников» (реж. Л. Файзиев, У. Медра), «Вот он вернулся» (Р. Ботиров), «Золотое руно», «Пробуждение» (Л. Файзиев), «Непоколебимый» (А. Кобулов), «Киёмат карз» (У. Назаров), «Дахонингёшлиги», «Карахтлик», «Севишганлар», «Нафосат» (Э. Эшмуламедов), «Пароль «Регина» мешмонхонаси» (Ю. Агзамов), «Армон», «Суюнчи», «Бунт невесток», «Майсаранинг иши» (М. Абзалов), «Орзулар оғушида» (Ф. Зайнутдинов) и другие отличаются своим высоким эстетическим качеством и новыми формами.

Как вернуть тот высокий уровень кино, который был раньше, как расширить горизонты жанрового аспекта, как дать зрителю качественное кино?

Режиссеры М. Абзалов, З. Мусаков, Ю. Собитов, Ж. Косымов и другие продолжая традиции развития узбекского киноискусства создали фильмы, где смело поднимаются современные проблемы, изображается жизнь и мечты молодежи, обеспечено стилевое разнообразие фильмов.

По мнению большей части активно действующих кинематографистов, узбекская кинематография, пережившая определенный период застоя, по-прежнему сталкивается со структурными проблемами из-за устаревшей правовой базы и отсутствия современной производственной системы.

В социальных сетях широко обсуждаются явные и скрытые болезненные проблемы узбекского кинопроизводства. «За последние 30 лет мы стали свидетелями потрясений, оскорблений и заговоров, которые привели к деградации и разрушению. Дискуссии и критика должны обсуждаться не в форме обвинений и оскорблений в социальных сетях и медиапространстве, а в рамках конструктивного диалога в стенах «Узбеккино», - говорится в сообщении группы кинодеятелей. И они, безусловно, правы. Однако проблемы все равно существуют. Вот некоторые из них:

Несовершенство внутренней правовой базы, низкий уровень качества образования, не налажена системная работа по сохранению кинематографического наследия, низкая материально-техническая база, недостаточные арендные возможности, недостаточное количество узбекских фильмов и слабая конкуренция, проблемы с защитой интеллектуальной собственности, низкий уровень заработной платы, недостаточная информированность зарубежных партнеров о перспективах развития киноиндустрии Узбекистана и ряд других.

И все это упирается в бюджет. Режиссеры-постановщики высшей категории «Узбекфильма» получают всего 1,95 млн сумов в месяц и то, только в период производства, а постановочные, получаемые в лучшем случае раз в 2–3 года, разделите на 24 и больше месяцев. Получится меньше, чем у уборщицы. Об операторах и остальных я вообще молчу. Актёры за съемочный день получают меньше, чем игровые животные.

По этой причине, все кто связан с кино, вынужден думать, прежде всего, о материальных, финансовых затратах при съемке кино, о своём жизнеобеспечении в период простоя, короче говоря, о выживании в профессии. «Служение муз, не терпит суэты». Вызревание замыслов, поиск новых форм, творческое осмысление – сложнейший процесс. Реализация же проектов, при нынешней всеобщей бюрократизации вообще трудновыполнимое дело. Возможно поэтому, режиссёры не рисуют пробовать себя

в других жанрах, в частности в жанре детективного кино.

Есть всего три страны, где государство не помогает и все кино частное.

Это США, где мощная киноиндустрия, она в руках кинокомпаний-гигантов: Paramount, Metro-Goldwyn-Mayer, Warner Brothers и так далее. Они имеют свои кинотеатры, это столетняя мощная киноиндустрия по воспитанию американцев в духе патриотизма, и это, прежде всего, идеологическое оружие. Это притом, что выпускается тысяча фильмов, из них только 15–20 картин окупают себя.

Другая страна — это Индия, где почти 1,5 миллиарда человек населения. Это чисто индийская специфика. Бедный индус будет неделю голодать, чтобы набрать несколько рупий и посмотреть сказку, чтобы хоть два часа побывать в райской жизни.

Третья страна, как ни странно, это Нигерия, которая нашла четкий способ: она просто делает ремейки, снимает дешевые картины, и вся Африка смотрит все эти картины с удовольствием.

Ни одна национальная кинематография мира не обходится без помощи государства. Англия, Германия, Франция делают все, чтобы беречь свою национальную кинематографию от экспансии голливудской продукции.

Есть совсем другой, самобытный и глубоко национальный путь Ирана, который на всех международных кинофестивалях получает награды.

Узбекские режиссеры также стремятся создавать настоящее искусство: «Две тысячи песен Фериде» Ёлкина Туйчиева, «Ибрат» Жахонгира Касымова, «Бесцветные сны» Аюба Шахобиддина, «Иссик нон» Умида Хамдамова, «Авлоний» Музaffer Эркинова, «Ат Термези» Абдухалила Мигнарова, «Стойкость» Рашида Маликова, эти и другие фильмы получили признание специалистов и зрителей

Однако к жанру детектива интереса, по большому счёту, не наблюдается. А ведь его можно снять талантливо, интересно, с захватывающим сюжетом. В реальной жизни есть множество примеров, которые бы послужили основой для любопытного сценария. Надеемся, что мы расширим жанровое разнообразие нашего кино и оставим позади стереотипы и однотипные жанры.

### **Использованная литература:**

1. Маркулан Янина Казимировна /Зарубежный кино детектив/ Издательство: Искусство-1975 год

## O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR HUQUQ VA ERKINLIKALARINI HIMOYA QILISH KAFOLATLARI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatimizda xotin-qizlar, ularning oilada va jamiyatimizdagi o‘rni nechog‘lik yuksalib borayotgani, ularni ijtimoiy siyosiy faolligini oshirish va bu borada davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlar haqida ma’lumotlar va fikrlar berilgan.

### Kalit so‘zlar

Ayol, ona, jamiyat, davlat. ijtimoiy makon, ta’lim-tarbiya, oilaparvarlik, huquq va majburiyatlar.

### Аннотация

В этой статье даны информация и мнения о женщинах в нашем обществе, о повышении их места в семье и социуме, развитии их социально-политической активности и политico-юридических реформах, проводимых нашим государством в этом плане.

### Ключевые слова

Женщина, мать, общество, государство, социальное пространство, образование и воспитание, семейственность, права и обязанности.

### Abstract

This article provides information and opinions about women in our society, about raising their place in the family and society, the development of their socio-political activity and the political and legal reforms carried out by our state in this regard.

### Key words

Woman, mother, society, state, social space, education and upbringing, family, rights and obligations.

**O**‘zbek zaminida qadimdan ayollar hamisha e’zozlanib kelingan. Ularga oilani ham, jamiyatni hambirlashtirib, fayzu barokat kiritadigan, xonadonlarni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan muqaddas zot deb qaralgan. Har bir oilada ayol avvalo, mehribon ona, sevikli yor, munis opa va singil sifatida e’tirof etilgan. Ularning oiladagi o‘rni, jihsiy va boshqa

o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida qadrlangan. Mard va olижаноб erkaklarimiz og‘ir va mushkul vazifalarni o‘zlari bajarishga odatlanganlar. Avoddan-avlodga meros bo‘lib kelayotgan bunday mehr, oqibat davlat siyosatining ham alohida yo‘nalishi etib belgilangan. Bugungi kundao‘zaqli, bilimi va iste’dodi, mehnatsevarligi va shijoati bilan hayotning hal qiluvchi sohalarini tebratib – bu oila bekaligi bo‘ladimi, davlat va jamiyat boshqaruvi, tibbiyot ta’lim-tarbiya, madaniyat ilm-fan taraqqiyoti bo‘ladimi, fermerlik harakati va kasanachilik, kichik biznes tadbirkorlik bo‘ladimi, mana shunday murakkab vazifalarni ayollar samarali ado etib kelmoqdalar.

Mamlakatimiz kelajagi O‘zbekistonni poydevori bo‘lgan kelajak avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalash munis ayollarimiz zimmasida ekan, davlatimiz rahbari tomonidan ayollardagi bunday ma’suliyatni his qilib, mamlakatimizda 1998-yil – “Oila yili”, 1999-yil – “Ayollar” yili, 2001-yil – “Ona va bolalar yili”, 2012-yil - “Mustahkam oila yili” deb e’lon qilishlari hamda Davlat dasturlarining qabul qilinishi davlatimizda bu yo‘nalishda aniq maqsadga qaratilgan izchil siyosat olib borilayotganidan dalolat beradi. Bu ishlarni mantiqiy davomi sifatida so‘nggi yillarda davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev tomonidan ham oila institutiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325- sonli “Xotin-qizlarni qo’llab quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu sohada yana bir huquqiy asos bo‘ldi. O‘zbekistonda qonunchilikni yanada takomillashtirish jarayoni ayollarni kansitilishiga yo‘l qo‘ymaslik prinsipiiga asoslangan. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 18-, 46-, 63-, 64-, 65-, 66-moddalaribilanayollarhuquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari mustahkamlab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-bobi talabidan kelib chiqib, ayollarning huquqlari ularning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy, madaniy va reproduktiv huquqlarga bo‘linadi.

Asosiy qonunimizning bu normalari boshqa qonunlar bilan yanada takomillashtirilib borilmoqda. Shuningdek, ayollar huquqlarining himoya qilish vakolatiga ega bo‘lgan mexanizmlar tashkil etilmoqda.

Ayollar huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmlari deganda, o‘z faoliyatlari davomida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga daxldor bo‘lgan davlat va jamoat organlari tushuniladi. Bunday organlarga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar kiradi. O‘zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilishda Respublika xotin-qizlar qo‘mitasi va Vazirlar Mahkamasi huzurida yangidan tashkil etilgan “Oila” ilmiy amaliy tadqiqot markazi va ularning hududiy bo‘linmalari alohida o‘ringa ega. Bu jarayonda O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qo‘mita tomonidan yurtimizda xotin-qizlarning salohiyatini yanada rivojlantirish, siyosatchi, rahbar va jamoat arboblari sifatida o‘zlarini namoyon qilishi uchun sharoit yaratish hamda jamiyatda faol ishtirokini ta’minlashga e’tibor qaratilayotir. Yuqoridaagi farmon bilan Xotin-qizlar qo‘mitasi va “Oila ilmiy amaliy markazi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. Oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” konseptual g‘oyasini hayotga tadbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishini, uning farovonligi va xotirjamligini oshirish masalalari, zamonaviy oilani rivojlantirish, oilaning ichki munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va oilaviy ajrashishlarning oldini olish asosiy vazifalar etib belgilangan. Ana shu prinsiplar asosida davlatimiz o‘z siyosatida oila va ayollarning ma’naviy, ijtimoiy va moddiy tomonidan qo‘llab quvvatlash borasida bir qancha ishlarni amalga oshirmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 27-iyun kuni imzolagan “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-3808 qarori ayni shu mazmundagi muhim ahamiyatli ishlarni amalga oshirishga qaratilgan hujjatsanaladi. Mazkur qaror 2018-yil 2-fevral kuni imzolangan «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashva oilainstitutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni yuqoridaagi farmon ning mantiqiy davomi bo‘lib, maqsad

va vazifalariga ko‘ra keng ko‘lamlı islohotlar amalga oshirilishini ta‘minlashga qaratilgan. 2019-yil 7-mart kuni Prezidentimiz yana bir muhim qarorni imzoladilar, ya’ni «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi bu qarorda ayollarning mehnat va pensiya sohasidagi huquqlari, gender tengligini ta‘minlash bo‘yicha mutlaqo yangi kafolatlar belgilab berildi. Ayollarga o‘z biznesini tashkil etish, biznes g‘oyalarini tayyorlashda yordam berish, uzoq vaqt davomida bola tarbiyasi bilan band bo‘lgan, og‘ir iqtisodiy ahvolga tushib qolgan ayollarni talab katta bo‘lgan kasbga tayyorlash va ishga joylashish uchun ularga ko‘maklashish maqsadida Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi va “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” gi Qonunlarda ayollar mehnat sharoitidagi alohida imtiyoz va kafolatlar berilgan. Ularda onalikni rag‘batlantirish, onalar va bolalar sog‘lig‘ini saqlash kafolatlari, ayollarga, yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga tibbiy yordam ko‘rsatishni ta‘minlash, bolalar va o‘smlar sog‘lig‘ini mustahkamlash hamda g‘amxo‘rlik qilish kabi maslalar o‘z ifodasini topgan. Ayol huquqlarini har tomonlama muxofaza qilish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biridir. Ana shulardan biri ayollarning bilim olish huquqlaridan biridir. Bilimolish huquqi insonning asosiy huquqlaridan va eng muhimi tenglik, taraqqiyot tenglik kabi maqsadlarga erishish vositalaridan biridir. Bilim olishda tenglik ko‘p sonli ayollarni islohotlarini faol ishtirokchilariga aylanishlari uchun zarurdir. Bu borada ham Oliy ta‘lim muassasalariga qirishda qabul kvotasiga xotin-qizlar uchun kvotani ikki barobar oshirilishi belgilandi.

Joriy yilda mamlakatimizda “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni ta’sis etildi va 8-mart bayrami arafasida 290 nafar faol xotin-qizning munosib taqdirlanishi ham munis va mo‘tabar ayollarimiz jamiyatda o‘z o‘rnini topayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni rag‘batlantirish maqsadida 2017-yildan boshlab “Yil ayoli” va “Ibratli oila” respublika ko‘rik-tanlovlari o‘tkazib kelinmoqda.

Ixtirochi xotin-qizlar o'rtasida "O'zbekiston ayollarining 100 ta innovatsion loyihasi" respublika tanloving joriy etilishi olma, izlanuvchan va iqtidorli xotin-qizlarimizga davlatimiz tomonidan qaratilayotgan katta e'tibor namunasidir.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda O'zbekistonda ayollar huquqlarini kansitishga yo'l qo'ymaslik, xotin-qizlarni mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishga jalg qilish uchun bir qancha huquqiy asoslar yaratilgan. Davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor va imtiyozlarga javoban, vatanimizni yanada rivojlanishi uchun biz ziyorilar munosib yosh avlodni tarbiyalash bilan bir qatorda yashab turgan mahallamiz tumanimiz va viloyatimizda, faoliyatolib borayotgan jamoamizda xotin -qizlarni jamiyatda o'z o'rniiga ega ekanligini yana bir bor ta'kidlab, ularga to'g'ri maslahatlar bilan yo'naltirish orqali o'z hissamizni qo'shish burchimizdir.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2019
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyun "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808 qarori
3. 2020-yil 2-fevral «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashva oilainstitutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident farmoni
4. O'zbekiston Respublikasida oilainstitutini mustahkamlash Konsepsiysi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son qaroriga 1-ILOVA
5. 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni
6. «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son Prezident qarori.

# MUNDARIJA

## Ibrohim Jo'rayevich Yuldashev.

San'at va madaniyat sohasidagi yoshlarga bo'lgan g'amxo'rlikning yuksak na munasi.....3

## Shavkat Do'stmuhammad o'g'li Bobomurodov.

O'zbek teatr san'atida zamonaviy uslubiy tajribalarning ahamiyati.....5

## Shirin Inomxodjayevna Asqarova.

Folklor musiqa ijrochiligidagi musiqiy savodxonlik masalalari.....9

## Jumagul Ibrohimjon qizi Nishonova.

Yoshlar uchinchi renessans drayverlari.....13

## Aziza O'tkir qizi Axmedova.

Zamonaviy yoshlar dunyoqarashi va ma'naviyatini shakllantirishda teatrning o'rni.....20

## Mohidil Ulug'bek qizi Rustamova.

Kinoda musiqa va bastakorlik ishi.....24

## Azamat Aminjanovich Kurbonov.

Ovoz rejissyorligida ta'lif.....29

## Saodat Anvarovna Ro'ziyeva.

San'at va madaniyat muassasalarida menejmentni rivojlantirishda strategik yondashuv va rejalahtirishning o'rni .....

32

## Davlat Habibovich Saidov.

Ustoz san'atkor Komiljon Otaniyizov hayotiga chizgilar.....38

## Saidahmad Qo'zijon o'g'li Hakimov.

Multiplikatsiya san'ati, tarixi, rivojlanishi va o'zbek multiplikatsiyasi.....48

## Nigina Olimjon qizi Xakimova.

Alisher Navoiy va uning asarlari sahna va ekranda jonlanishi.....53

## Oybek Sirojiddin o'g'li Qulmurodov.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda teatr san'atining ahamiyati va bu boradagi amaliy natijalar.....59

## Xusan Shuxratovich Abdullayev.

Reformy i положительные результаты в международных культурных отношениях (xalqaro madaniy aloqalardagi islohotlar va ijobiy natijalar).....64

## Asal Berdaxovna Arslanbayeva.

San'at va madaniyat muassasalarining bugungi faoliyatiga nazar.....69

## Hilola Akmal qizi Karimova.

Kinomi bu yo klipmi?.....74

<b>Husan Jumayev.</b>	
Ommaviy bayram va tomoshalarning ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlari .....	77
<b>Xolmirzayev Muxriddin Muhammadali o'g'li.</b>	
Fattohxon Mamadaliyev ijodining o'ziga xos xususiyatlari va bugungi kun yoshlari uchun tarbiyaviy ahamiyati.....	82
<b>Ilhom Yuldashev.</b>	
O'zbek an'anaviy teatri sharqdagi eng qadimiy teatrlaridan biri sifatida (Yusufjon Qiziq shakarjonov ijodi misolida).....	89
<b>Mamadaliyeva Aziza Mansurjon qizi.</b>	
Noyob iste'dod egalarini sug' urta qilish masalasiga doir.....	95
<b>Nilufar Xusan qizi Sunnatillayeva.</b>	
Toshkent shahri folklor-etnografik jamoalari repertuarida mavsum-marosim qo'shiqlaridan foydalanish masalalari ("Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi misolida).....	99
<b>Iftixorjon Iqboljon o'g'li No'monov.</b>	
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi yunusqori yusupovning milliy qo'shiqchilik san'atida tutgan o'rni.....	106
<b>Sarvarbek Shamsiddinovich Mahkamboev.</b>	
Hujjatli film ham kino.....	111
<b>Nozima Farxod qizi Abdumajidova.</b>	
Bastakorlik va kompozitorlik ijodi.....	116
<b>Gulbahor Hasanovna Fozilova.</b>	
Barkamol avlod tarbiyasida baxshichilik san'atining o'rni.....	119
<b>Qo'chqorova Dilfuzaxon Egamovna.</b>	
Xalfachilik san'ati nomoddiy madaniy meros turi sifatida.....	122
<b>Mavjudha Xalmatovna Tosheva.</b>	
O'zbek teatri professional rejissurasining vujudga kelish omillari.....	129
<b>Ravshan Jo'ra o'g'li Xurramov.</b>	
Rejissyorlik san'atining o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek rejissurasi tarixi.....	133
<b>Abbosshoh Rasulov.</b>	
O'zbek kinosida tarixiy filmlar yaratish an'analarining vujudga kelishi.....	137
<b>Sardorbek Islom o'g'li Hamroyev.</b>	
Zamonaviyo'zbek dramaturgiyasidajanrxususiyatlarining shakllanish bosqichlarii....	143
<b>Nafisa Xomitqulovna Raimqulova.</b>	
Bugungi kunommaviy axborotvositalari (televide niye) ning inson hayotidagi o'rni....	150
<b>Shano G'aybullayevna Fayzullayeva.</b>	
Ommaviy sport bayramlarinin kelib chiqish tarixi va ularni tashkil etish hamda boshqarish muammolari.....	156

<b>Munisaxon Rashid qizi Siddiqova.</b>	
Ma'rifatparvarajdodlarimizg'oyalariningta'limsivilizatsiyasidagi muhimahamiyati.....	162
<b>Kamila Singatullayevna Zaripxan.</b>	
O'zbekistondaprofessionalsirkasan'ativaestradasan'atiningpaydobo'lishi.....	166
<b>Hamidullo Ubaydullayev Fatxulla o'g'li.</b>	
Yangi o'zbekistonga yangicha bog'lar yarashadi.....	172
<b>Ma'ruf Ismatullo o'g'li Qodirov.</b>	
So'zaktyorningasosiyqurolisifatida:ijodvaijromasalalari.....	179
<b>Shaxnoza Oripjonovna Ubaydullayeva.</b>	
Hujjatli kino – hayotko'zgusi.....	184
<b>Shaxnoza Nasrulla qizi Qobilova.</b>	
Filmg'oyasiniochishdamusiqaningo'rni vaahamiyati.....	193
<b>Dostonbek In'om o'g'li Abdullayev.</b>	
Amirtemurdavrisuqsan'ati.....	199
<b>Azizaxon Maxammadali qizi Ismanova.</b>	
Maktabgacha ta'limuassasalartarbiyalanuvchilarininginsonparvarlikfazilatlarini shakllantirishdasan'atvamadaniyatningo'rni.....	203
<b>Marg'uba Vaxobova G'opirjonovna.</b>	
"Tanolarayolqalbiningtarjimoni.....	209
<b>Nasiba Ibaydullayevna Madreymova.</b>	
O'zbekiston davlat sanatmuzeyifaoliyatidamejmentvemarketing.....	215
<b>Alisher Akramjon o'g'li Nazarov.</b>	
Teatr va kinoda aktyorlikmahorati.....	220
<b>Xondamir Zuxrob o'g'li Niyozov.</b>	
Zamonaviyqo'g'irchoqteatri dramaturgiyasiningo'ziga xosligi.....	227
<b>Rustem Asanovich Niyetullayev.</b>	
O'zkasbinisevibyashadi...(PolatJuginisovningmehnatfaoliyatixususida).....	233
<b>Ro'zimurodov Ilyosjon Azamatovich.</b>	
Musiqazamonvayoshlar.....	238
<b>Dilnoza Toxirovna Qurbonova.</b>	
YangilanayotganO'zbekistonda xotin-qizlarningijtimoiyaktivligivagender tenglik.....	245
<b>Dawletyar Botir og'li Mambetniyazov.</b>	
Xalqog'zakijodiningma'naviyvatarbiyaviyqiymati(qoraqalpoqdostonlarimisolida).....	253
<b>Isfandiyor Kamoliddin o'g'li Xomidov.</b>	
Aktyorlikmahoratini shakllantirishda k.s.stanislavskiyta'lilotining5taasosiy tamoyili.....	256

<b>Saodatxon Fazliddin qizi Nosirova.</b>	
San'at va madaniyat — shaxs kreativ ijodkorligini harakatlantiruvchi kuch sifatida.....	261
<b>Saidov Vohidjon Abdusalom o'g'li.</b>	
O'zbek folklori to'y marosimida qo'shiqchilik san'ati.....	266
<b>Mavlonbek Toshlanov.</b>	
Maqom yo'nalishida ijod etgan san'atkorlar va ularning bu sohaga qo'shgan hissasi.....	270
<b>Abbos Adhamjon o'g'li Anvarjonov.</b>	
Milliy qo'g'irchoq teatriga zamonaviy talablar.....	277
<b>Mahliyo Asqaraliyeva.</b>	
Kasbimizni qizg'anamizmi? (zamonaviy rejissura masalalari xususida ilmiy-publitsistika).....	283
<b>Davronbek Raymnazarovich Xo'jaqulov.</b>	
O'zbek xalqi ijtimoiy madaniyatining shakllanishida musiqaning o'rni....	286
<b>Muhriddin Nurmuxamadovich Xoliqov.</b>	
Qo'g'irchoq teatr san'atini rivojlantirishda inovasion hamkorlikning afzalliklari.....	291
<b>Yuvashhev Aziz Mamasoliyevich.</b>	
Xalqarohunarmandchilikfestivalirejissurasingma'naviyvatashkiliyasoslari...	295
<b>Кумушбону Улугбек кизи Махмудова.</b>	
Детектив как жанр в узбекском кино.....	299
<b>Nilufar Axmatovna Karimova.</b>	
O'zbekistonda xotin-qizlar huquq va erkinliklarini himoyaqilish kafolatlari..	304